

OCHIQ AXBOROT TIZIMLARIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK

Oliy o'quv yurtlarining gumanitar yo'nalishlari
bakalavrлari uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan tavsiya etilgan

Toshkent - 2013

F.Mo'minov, Sh.Barotov va boshq. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 208 bet.

Dunyoning etakchi olimlari e'tirof etishlaricha, bugungi kunda sayyoramiz yagona global qishloq, xonadonga aylanib qolgan: u erdag'i har bir narsadan hamma xabardor. Va bunda asosiy rolni qudratli ommaviy axborot vositalari, axborot-aloqa texnologiyalari va ularga egalik qiluvchi davlatlar o'ynagan va o'ynamoqda. Shundan foydalanib, ular bu xonadonda o'z qadriyatları, turmush tarzini joriy etishga zo'r berishayapti.

Tabiiyki, o'ziga xos qadimiy va boy milliy madaniyat, urf-odat va an'analar sohibi bo'lган, lekin yuqorida aytilgan imkoniyatlar bobida hozircha qo'llari kaltalik qilayotgan va umuman, o'z turmush tarzini boshqalarga tiqishtirish niyatidan yiroq, milliy-ma'naviy erkin hayotni ko'zlagan xalqlar bundan jiddiy havotirga tushmoqdalar. Shu bois ular jamiyati, davlati, har bir fuqarosini bunday xurujlardan himoya qilishni o'z burchlari deb bilishadi. Bu borada mamlakatimizda ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilk bora yaratilgan mazkur darslikda bu jabhada xalqaro maydonda shiddat bilan davom etayotgan axboriy kurashning murakkab xususiyatlari va ularga qarshi turishning muhim vazifalari, usul va uslublari, yo'llari haqida so'z yuritilgan.

Darslik oliv o'quv yurtlari gumanitar yo'naliishlari ikkinchi bosqich bakalavrlariga, ushbu muammoga qiziqadigan keng doiradagi kitobxonlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Taqrizchilar: siyosatshunoslik fanlari doktori Q.A. Jo'raev,
filologiya fanlari doktori X. N. Do'stmuhammedov,

“Fan va texnologiya”, 2013.

KIRISH

Sovet ittifoqi parchalanishi natijasida ikki siyosiy tizim o'rtasidagi kurashga chek qo'yilgan bo'lsa-da, axborot kurashi to'xtatilmadi. G'arb mamlakatlari mafkurasi bo'l mish kosmopolitizm kundan kunga kuchayib, er shari bo'yicha tarqalib bormoqda. Bunday sharoitdabetakror, uzoq asrlar tarixidan kelib chiqadigan betakror madaniyatga ega bo'lgan Sharq mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston ham noyob o'zligini saqlashga harakat qitlishi tabiiy.

Insoniyatning XXI asrga qadam qo'yishi axborot ko'lami va sifati misli ko'rilmagan darajada o'sishi bilan nishonlandi. Benihoya katta hajmdagi ma'lumotlar ummonlar va qit'alar osha shiddatli sur'atlarda, lekin kishi sezmas darajada jimgina, ommaviy axborot vositalarining shunchaki odatiy ishi sifatida u yoqdan bu yoqqa etkazib turilibdi.

Ommaviy axborot amalda o'z mazmunidan ajralib, ko'proq shaklan tazyiq o'tkazuvchi omilga aylanib qoldi. Xabarning o'zi vositadir, deguchi kanadalik olim Marshall Maklyuen g'oyasi ro'yobga chiqmoqda. Hayotning nihoyatda jadal sur'atlari, ommaviy axborot vositalari xabar qiladigan voqealarni o'rganishga vaqtning yo'qligi, ba'zida esa ularni tahlil etish malakasi etishmasligi shunga olib keldiki, keng auditoriya materiallarni axborot kanallari qay tarzda taqdim etsa, shu holicha qabul qilayotir – mazmun-mohiyati haqida ko'p ham o'ylab o'tirilmaydi.

Jurnalistlar orasida ko'pdan "birinchi so'zni aytgan haq", degan hikmatnamo gap yuradi. Endilikda unga yangi jihat qo'shilib, "kimki muntazam ravishda axborot oqimi bilan kishilarni garang qilib qo'yib, faktlar ustida mustaqil o'ylab ko'rishga ham imkon bermasa, o'sha haqdir", deyiladigan bo'ldi. Afsuski, bugungi kunda xalqaro munosabatlarda qaror topgan bu amaliyot ko'p bo'g'inli, lekin har doim ham ijobjiy bo'lman oqibatlarga olib kelmoqda.

Bunday xatti-harakatlar ko'p hollarda mamlakatimiz aholisi xavfsizligiga, uning dunyoqarashini vatanparvarlik, o'z xalqi va ona zaminiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga tahdid mazmunini kasb etayotir. Bu to'g'rida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov haq gapni aytgan: "...Ma'naviyatga qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin"¹. Prezidentimiz tomonidan bu muammoning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati alohida ta'kidlab ko'rsatildi: "Tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir"².

Mazkur masala "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 11, 12, 13, 14 va 15-moddalarida ham o'z aksini topgan (moddalar matni ilovada keltirilmoqda).

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarga egalik qilishdagi tengsizlik, sportchilar tili bilan aytganda, amalda bitta darvozaga to'p tepish bo'lib qolayapti – ommaviy axborot asosan rivojlangan davlatlardan (oltin milliard mamlakatlaridan) dunyoning qolgan qismiga etkazib berilmoqda. Si-en-en, Bi-bi-si, "Evronyus" telekompaniyalari, "Assoshieyted Press", "Yunayted Press Interneshnl", "Reyter", "Frans-Press", "ITAR-TASS", "Sinxua", "Anadolu" agentliklari jahon axborot

¹ Каримов И.А. Ўоксак маънавият – енгилмас куч. Т.: "Маънавият", 2008. – Б. 12.

² Ўша жойда, – Б. 14.

maydonida mutlaq hukmronlik qilishayapti. Boshqa mamlakatlar gazeta va jurnallarining tahririylari, radio va televidenie studiyalari, endilikda buning ustiga yana Internet-saytlar o'z nashr maydoni, efir va virtual kengligini ana shu manbalardan olingan xabarlar bilan to'ldirmoqdalar. Ko'pincha tahririylar dolzarb xalqaro axborotni mustaqil topish qiyin bo'lganidangina emas, balki bunday xabar har doim aynan shu erda va hozirning o'zida naqd ekanligidan shunday yo'l tutadilar.

Qisqasi, turli mamlakatlarning xalqaro axborot almashuvidagi muvozanat allaqachon va jiddiy ravishda buzilib bo'lgan. Bu axborot texnologiyalariga egalik qiluvchi jamiyatlarning fikrlari va baholari, g'oyalari va qadriyatari butun dunyo bo'y lab yoyilishiga olib keldi. Hatto Xitoy, Hindiston, Misr va ular singari betakror madaniyat sohibi bo'lgan boshqa yirik davlatlar ham ularga qaram ahvolga tushib qolmoqda. Binobarin, o'ziga xos, ajoyib madaniyatga ega mamlakatlar o'z aholisini bunday axborot bosqinchiligidan avaylab-asrashni o'rganmas ekanlar, bir necha o'n yillar o'tib sayyoramiz madaniy ekologiyasiga o'nglab bo'lmas darajada zarar etkaziladi. O'zbekiston Respublikasini ham to'la hukuq bilan shunday ardoqlashga munosib davlatlar jumlasiga kiritsa bo'ladi.

Shu boisdan axborot xavfsizligi dunyoning asosiy qismi uchun g'oyat dolzarb bo'lib qoldi. Aslida shunday tushunchaning o'zi mavjudmi, degan masala ustida cheksiz talashib-tortishish mumkin, muxoliflarimiz ayni shunday ham qilmoqdalar. Ular uchun "axborot xavfsizligi" muammosi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, chunki boshqa davlatlar hududida axborotni aynan ularning *o'zlari* tarqatishadi-da. O'zbekistonliklar uchun (va faqat biz uchungina emas) bu –jiddiy voqelik, zero, o'zga davlatlarning bizning hududimizdagi axborot faolligi kundalik haqiqatga aylandiki, buning oqibatlari to'g'risida bosh qotirmaslik mumkin bo'lmay qoldi.

Xullas, axborot-aloqa texnologiyalarining mislsiz taraqqiyot yo'nalishi shuni ko'rsatmoqdaki, turli-tuman axborotlar oqimini bugunning o'zidayoq biror chora bilan to'sishning imkonni bo'lmay qoldi. U har qanday yopiq sanalgan jamiyatda (bu ham o'ta nisbiy tushuncha) o'z auditoriyasini topib boradi. Yaqin tariximizda ko'rganimizdek va hozir ham dunyoning ayrim go'shalarida guvohi bo'layotganimizdek, hech qanday panjara, devor, temirdan bo'ladimi yoki temir-betondan yoxud mafkuraviy materialdan, unga g'ov bo'la olmaydi. Erta-indin bu borada yana qanday mo''jizalar guvohi bo'lishimizni ham bugungi kunda hech kim bilmaydi. Shunday ekan, axborot vositasida uyushtiriladigan psixologik xurujga qarshi turish bobida, jamiyat, davlat va har qaysi shaxs tegishli chora-tadbirlarni ko'rmog'i lozim. Lekin buning eng maqbul va samarali yo'li, birinchi navbatda, – o'z axborot makonimizni o'zimiz to'ldirishimiz, ya'ni hayotimiz, unda yuz berishi tabiiy bo'lgan voqeа-hodisalar, tug'iladigan muammolar haqida, garchi ular ba'zida yoqimsizdek tuyulsa-da, vatandoshlarimizga, jahon ommasiga o'z vaqtida, hozirjavoblik bilan o'zimiz xabar berishimizdir. Bunda axborot olamida ko'pdan qo'llanib kelinayotgan tajribadan, ya'ni voqeа-hodisaning o'zi haqida zudlik bilan xabar uzatib, sabab-oqibatlar, daxldorlar haqidagi batafsil ma'lumotlarni keyinroqqa qoldirib turish usulidan foydalanish qo'l keladi. Bu bilan o'zimiz haqimizdagи va ayni bizga qarshi qaratilgan, biroq turli bo'htonu tuhmatlarga, g'arazli maqsadlarga iylanib, yaxshilab qorilgan "yangiliklar" hayotimizga bostirib kirib, jahon bo'y lab parvoz qilib, haqiqiy ahvoldan g'ofil qalblarda nomatlub fikrlar, tuyg'ular uyg'otishining ma'lum darajada oldi olingan bo'lardik. Chunki asl manbadan va ayni vaqtida uzatilgan ma'lumot turganida, boshqalarning uydirmalari o'z-o'zidan qadrini yo'qotadi, e'tibordan chetda qoladi. Zero, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, axborot

tarqatish, xususan, jurnalistika bobida odamlar psixologiyasini ifodalovchi qonuniyat - “birlamchi axborot effekti” har doim amal qilib kelgan va shunday qolaveradi. Hamma aytadiganini aytib bo’lgandan keyin o’zini “oqlashga” urinishdan esa foyda kam ekanligini, hatto ba’zida bu aks natija berishi mumkinligini nazariya ham, hayotiy tajriba ham isbotlab turibdi. Shuni hisobga olgan holda ish ko’rmog’imiz har tomonlama ma’qul bo’ladi.

Milliy mustaqillik g’oyasi, ma’naviy erkinlik imkoniyati, mamlakatimiz fuqarolari o’z madaniy urf-odatlari va an’analari boyligini to’laqonli his etishlari bevosita axborot xavfsizligi masalasi bilan bog’liqdir. Shuning uchun ham unga bu qadar muhim ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. O’quv dasturiga “Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik” fanining kiritilishi - mamlakatimiz yoshlarining ilg’or qismi bo’lgan talabalarning milliy ongi va dunyoqarashi yaxlitligini asrab qolishga qaratilgan ayni o’z vaqtida ko’rilgan va g’oyat zarur tadbirdir.

Ushbu zaruriyat mahsuli o’laroq yaratilgan mazkur darslikda kursning quyidagi etakchi vazifalari izchil ravishda ko’rib chiqiladi:

- XXI asr boshida insoniyat hayotida ommaviy axborot vositalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati;
- dunyo fanida etakchilik qilayotgan ommaviy kommunikatsiyalar nazariyalari;
- ommaviy axborot bobida amalda hukmronlik qilayotgan manipulyativ usullar tizimi va ularning ahamiyati;
- muammoning ko’p qirrali ekanligi, axborot-psixologik xavfsizlikning etakchi atama-istilohlari va tushunchalari;
- axborot asrining mohiyati va axborot muvozanatsizligi muammosi;
- tsivilizatsiyalar to’qnashuvi yoki muloqoti;
- axborot-psixologik urush - axborot tajovuzkorlikning oliy shakli;
- davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik ta’sir ko’rsatiladigan asosiy ob’ektlar sifatida;
- O’zbekiston fuqarosini axborot-psixologik himoyalash jihatlari va jarayoni;
- O’zbekiston ommaviy axborot vositalari – mamlakat axborot-psixologik xavfsizligining omili;
- O’zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o’tish kontseptsiyasining tarixiy maqomi va uning mustaqil mamlakatimiz aholisini axborot-psixologik himoyalashdagi roli.

Axborot-psixologik xavfsizlik yo’nalishida kadrlar tayyorlash masalasiga 2006 yil 7 avgustda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy Xavfsizlik kengashi tavsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasining 163-sonli qarori asos bo’ldi. Ushbu qaror asosida 2006-2007 o’quv yilidan boshlab 21 ta gumanitar yo’nalishidagi oliy o’quv yurtlarida 36 soatli “Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik” o’quv kursi kiritildi. Shu maqsadda 2006 yilning kuz oylarida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni va Vazirlar Mahkamasi tavsiyasi asosida O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta mahsus ta’lim vazirligi hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iste’dod” jamg’armasi tomonidan mamlakatimiz oliy o’quv yurtlarida ushbu fan bo’yicha ma’ruzachilar etib tayinlangan 75 o’qituvchi malakasini oshirish kurslari o’tkazildi. Kurslarni muvaffaqiyatli bitirganlarga ushbu fandan dars berishga ruhsat beradigan sertifikatlar topshirildi.

Mazkur kurslar dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy Xavfsizlik kengashi hamda Oliy va O'rta mahsus ta'lif vazirligi tomonidan ishlab chiqildi.

"Iste'dod" jamg'armasida chiqish qilgan olimlarning qayta ishlangan ma'ruza matnlari ushbu darslikning asosini tashkil qildi.

Darslik quyidagi tarkibdagi mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi:

MO'MINOV F.A., filologiya fanlari doktori, professor, mualliflar jamoasi rahbari (O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti) – kirish, 3 va 7 boblar, xulosa;

BAROTOV Sh.R., psixologiya fanlari doktori, professor (Buxoro Davlat universiteti) – 1-bob;

MO'MINOVA P.I., filologiya fanlari doktori, professor (Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti) – 2-bob;

NURNAZAROV R.K., tadqiqotchi – 4-bob;

BEGMATOV A., falsafa fanlari doktori, professor (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi) – 5-bob;

EShBEKOV T., filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti) – 6-bob;

JO'RAEV N.Q., siyosiy fanlar doktori, professor (O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti) – 7-bob;

IRNAZAROV Q.T., tarix fanlari doktori, HUSANOV M.M., tarix fanlari nomzodi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti) – 8-bob;

MURODOVA Sh.O., siyosiy fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti) – 9-bob.

Mualliflar jamoasi ushbu darslik va kelajakda yozilajak asarlari bilan O'zbekiston Respublikasidek davlatning mustaqilligini, ma'naviy imkoniyatlarini yanada boyitishga o'z hissalarini qo'shishga umid qiladi.

Kitobga o'quv kursning dasturi ilova qilinmoqda.

1-bob. FANNING DOLZARBLIGI, MAQSAD HAMDA VAZIFALARI, ASOSIY TUSHUNCHALARI

1. Fanning dolzarbliги va asosiy yo'nalishlari

Insoniyat yaralibdiki, uning axborot tizimlaridan tegishli ma'lumotlarni qabul qilishi va shu asosda o'z ijtimoiy "men"ligini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib kelgan va hozir ham shunday davom etmoqda. Bu esa har bir shaxsdagi dunyoqarash, e'tiqod, hissiy holat va o'zgalarga bo'lgan munosabatlar tizimiga keng darajada ta'sir ko'rsatadi. Xuddi ana shu ta'sir ko'lmini o'rganib, tahlil qilib va tegishli muhim xulosalar chiqargan holda, ma'lum tadbirlarni belgilash hamda amalga oshirish orqali insonni o'zgartirishga qodir bo'lgan ochiq axborotlardan psixologik himoyalanish tamoyillarini yaratish mumkin.

Qolaversa, inson bugun turli xil axborotlar tazyiqidan psixologik himoyalanmas ekan, uning borliqni ob'ektiv anglashga bo'lgan imkoniyatlariiga putur etaveradi. U qanchalik mukammal bilim va tajribaga ega bo'lmasin, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan axborot tahdidlari uning hissiy kechinmalariga jiddiy darajada salbiy ta'sir etaveradi. Shu boisdan hozirgi paytda inson ongini egallash va shu yo'l bilan turli xil siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga intilish tobora kuchayib bormoqda. Chunki bu yo'l juda katta mablag' talab qilmaydigan, kuchli armiya yoki quroq-yarog' ishlatmasdan turib muayyan maqsadli natijaga erishiladigan yo'l ekanligini barcha siyosiy oqimlar yaxshi bilishadi. Shuning uchun dunyodagi barcha davlatlar bugun ma'lum kuchlar an'anaviy qurollardan foydalanish bilan bir qatorda inson ongiga manipulyativ ta'sir ko'rsatishlaridan ham tashvishga tushmoqda.

Bunday tashvish, albatta, bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Ayni paytda, ayrim yoshlarimiz bilib-bilmay turli xil oqimlar girdobiga tushib qolishlari natijasida gohida yolg'on, bo'hton axborotlarni ob'ektiv voqelik haqiqatlaridan ajratolmay qolayaptilar. Tabiiyki, bunday holat o'z vaqtida bartaraf etilmas ekan, katta ijtimoiy zarar ko'rshimizni va buning og'ir oqibatlarini tugatish ancha mushkul bo'lishini oldindan anglashimiz kerak bo'ladi.

Bugungi kunda axborot ko'proq ma'lumotlar, xabarlar shaklida namoyon bo'lmoqda. Ma'lumotlar moddiy dunyo ob'ektlarining ifodasi o'laroq hosil bo'ladi. Ochiq axborot tizimlarida "xabar" atamasi kishilar, ijtimoiy guruhlari, umuman, jamiyatni qurshab turgan olamda mo'ljal topa bilishi ko'zlangan ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumot ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, u muayyan jamiyatning ijtimoiy tabiatи belgilab beradigan ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmi va, ayniqsa, XXI asr boshlanishida tezkor, keng ko'lmandagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy rivojlanishning asosiy belgisi sifatida barcha jabhalarga kirib keldi. Shu boisdan ayni paytda axborot makonining globallashuvi butun dunyo taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. E'tiborli jihat shundaki, mamlakat ichkarisidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlarning ehtiyoji ham jadal ortib bormoqda. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi va undagi keng ko'lamli imkoniyatlarning o'sishi, jamoatchilik va davlat hayotidagi turli yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi bugun kishilar ongiga, ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta'sir etmay qolmayapti.

Shuningdek, axborot resurslaridan davlatlararo muloqotlarda, tegishli geosiyosiy maqsadlarga erishishda unumli, faol foydalanish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bunday intilish, ayniqsa, mazkur sohada sezilarli darajada manfaat keltiradigan zamonaviy axborot texnologiyalariga ega bo'lgan rivojlangan davlatlarga xosdir.

Xozirgi davrda kundalik xalqaro munosabatlarda axborot oqimining keskin oshishi, turli axborot manbalaridan uzatilgan ma'lumotlar dunyo bo'ylab xalqlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi aholini axborot xurujidan himoyalash choralarini ko'rish muhimligini ko'rsatmoqda. Bu ta'sir odamlar ongini, shuurini, dunyoqarashini, qolaversa, mafkurasini axborot uzatuvchilar foydasiga shakllantirishga xizmat qilayotir.

Albatta, zarur axborotlarga ega bo'lishga intilish – davr talabi. Bugungi kunda har bir mamlakatning axborot makoni ikki xil axborot bilan to'ldirilmoqda: birinchisi - kuchli axborot texnologiyalariga ega mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan va ularning manfaatlariga xizmat qiladigan axborot bo'lsa, ikkinchisi - har bir davlat o'zi haqida ishlab chiqqan va milliy manfaatlarini himoya qiladigan ma'lumotlardir. Demak, ayni zamonda shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat o'zi haqida ishlab chiqqan axborotlarni tarqatishi ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, Internet tarmog'i imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda bu ne'matdan mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini mustahkamlashda keng foydalanish zarurdir. Jahonga tanilish uchun nafaqat real dunyoda, balki axborot dunyosi, jumladan, virtual dunyoda ham harakatlar olib borish darkor. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "bu borada ishni to'g'ri tashkil etish uchun Internet tizimidan samarali va oqilona foydalanish, uni o'zimizning ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak..., bizning zaif tomonimiz shundaki, Internetda O'zbekiston bilan bog'liq ma'lumotlar juda kam. Nega deganda, bizda bu jarayonning texnikasi va texnologiyasi talab darajasida emas. Milliy qadriyatlarimiz, tarix va merosimiz, bugungi fan, san'at va adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini Internetga kiritish dasturi ishlab chiqilmagan"¹.

Bundan tashqari, yurtimiz hayotiga doir ayrim noxolis, tor doiradagi manfaatlardan kelib chiqib tarqatilayotgan ma'lumotlarga javoban axborotlarni global miqyosda targ'ib etish tashqi axborot xurujlariga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini bajaradi. Bu esa turli geosiyosiy manfaatlarni ko'zlab amalga oshirilayotgan axborot xurujlarining ta'sirini kamaytirish va milliy axborot makoni xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Buning uchun kishilarda axborot bobida iste'mol madaniyatini yuksak darajada shakllantirishga erishish zarur. Shu yo'l bilan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish va ularni noto'g'ri talqin etishning oldi olinadi. Binobarin, axborot iste'moli madaniyatiga, ushbu sohada ma'lum bir bilim va tajribaga ega inson jamiyat, xalq va millatga qaratilgan o'ziga xos tarzdagi g'arazli manfaatlar va ma'lum geoaxborotlar ta'siriga tushib qolmaydi.

Shuning uchun ayniqsa, ochiq axborot tizimi sharoitida shaxs, jamiyat hamda davlatning axborot, axboriy-psixologik xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar jiddiy va tizimli tarzda ishlab chiqilishi talab qilinadi. Ayni vaqtida axborot tizimi imkoniyatlarini milliy manfaatlar nuqtai nazaridan himoyalash va rivojlantirish, shuningdek, butun dunyodagi global axborot makonida O'zbekiston davlatining ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratilishiga erishish muhim ahamiyatga ega.

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қаҷон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. 13-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2005. – Б. 301-302.

Shu bilan birga mamlakatimizda axborot bilan ishslash sohasi mustaqil ilmiy, ta’limiy, metodologik yo’nalishlar sifatida ham rivojlanishning boshlang’ich bosqichida desak, xato qilmagan bo’lamiz. Tabiiyki, axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash masalalarini o’rganish, bu borada etuk mutaxassislarni tayyorlash ilm-fan sohasi uchun deyarli yangi yo’nalish bo’lib, juda katta mas’uliyat va bilimni talab qiladi.

Umuman olganda, axborot-psixologik xavf va undan himoyalanish, ya’ni xavfsizlikni ta’minlash tushunchalari qanday paydo bo’ldi? Uning hayotiyligi, insoniyat taqdiriga daxldorligi nimada? Ana shunday savol tug’ilishining o’zi muammoning dolzarbligini va o’ta keskinligini ko’rsatadi.

Ushbu jarayon va uni aks ettiruvchi tushunchalar “sovuj urush” oqibati sifatida paydo bo’ldi desak, xato qilmasak kerak. Chunki “sovuj urush” bir tomondagi davlatlarning raqib mamlakatlar aholisiga uning ongini chalg’itadigan ma’lumotlarni katta miqdorda etkazishni talab qildi. Natijada shunday ma’lumotlarni etkazish texnologiyalari rivoj topa bordi. Ma’lum bir bosqichga kelganda, dunyo davlatlari ikki qismga – kuchli axborot texnologiyalariga erishgan va bunday imkoniyatlarga ega bo’lmagan davlatlarga bo’linib ketdi. Birinchi guruhdagi davlatlar ikkinchi guruh mamlakatlariga jiddiy axborot ta’sirini ko’rsata boshladi.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasini quyidagi holatlar asosida talqin qilish tavsiya etiladi:

Birinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik – bevosita ruhiyatga ta’sir o’tkazish orqali insonni o’z aqidalari, muqaddas ideallari va e’tiqodidan ayiradigan buzg’unchi g’oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an’analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog’liq bo’lgan qadriyatlarga **ma’naviy-ruhiy ta’sir ko’rsatuvchi buzg’unchi g’oyalar va tajovuzkor mafkuralar mavjudligidan** kelib chiqadi.

Ikkinchidan, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta’sirchan choralar ko’rilmasa, buzg’unchi g’oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo’lgan xalqlar va millatlarni g’oyaviy *genotsidga* olib kelishi muqarrar.

Uchinchidan, tig’iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta’sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta’sir o’tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, xalqning siyosiy ongi, huquqiy bilimlari saviyasi, ma’naviy-ma’rifiy darajasiga qarab jamiyatning taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishi turgan gap.

To’rtinchidan, ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta’sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublari tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot-psixologik xavfsizlik muammosining dolzarbligiga yanada jiddiyoq e’tibor qaratishga to’g’ri keladi.

Beshinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasining mohiyati shundaki, u alohida olingen inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik taqdiri bilan bog’liq global masalalarni ham qamrab oladiki, ushbu jihatni bilan u hozirgacha mavjud bo’lib kelgan global muammolarning eng tajovuzkor, eng buzg’unchisi ekanligi ma’lum bo’ladi. Bu holat xalqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni hal etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj

olishi mumkin bo'lgan holatlarda yana ham xavfiroq mohiyat kasb etadi. Bunday paytda ko'proq an'anaviy siyosiy muvofiqlashtirish tajribalaridan kengroq foydalanish talab etiladi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda, bunda **sharqona munosabatlar ilmi** - mulohazalilik, mushohadalilik, har qanday voqeа va hodisalarga aql-idrok yo'rig'i bilan yondashish tamoyili ustuvor bo'lmos'i lozim.

Oltinchidan, axboriy-psixologik xavfsizlik tushunchasi ma'lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lida unumli foydalanishni va ularni boshqarishni, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullarini ishga solishni taqozo etadi.

Mazkur fanning dolzarbligini ko'rsatuvchi ushbu jihatlarning barchasi quyidagi asosiy yo'naliishlarni keng ko'lamda yoritishni talab etadiki, bunda butun kurs davomida har bir yo'naliish alohida mushohada va tablillar asosida talqin qilinadi.

1. Axborot asri va axborot tarqatish texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari. Axborotning funktsiyalari. Axborot oqimlarining jadallahushi.
2. Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy va psixologik tamoyillari, psixologik xavfsizlikni ta'minlash usullari.
3. Globallashuv va zamonaviy ochiq axborot tizimlari. Ularning mohiyati, ahamiyati, tsivilizatsiya jarayonida tutgan o'rni.
4. Axborot-psixologik urush – axborot hujumi va tahdidlarning yuqori bosqichi ekanligi.
5. O'zbekistonda milliy va axborot xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va istiqbollari.
6. Davlat, jamiyat va shaxs psixologik xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'naliishlari, jamiyatni axborotlashtirishning asosiy ko'rinishlari.
7. Psixologik himoya va O'zbekiston fuqarosining o'z-o'zini psixologik himoya qilishi.
8. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va rivojlantirish O'zbekistonda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash omili ekanligi.
9. O'zbekistonning ommaviy axborot vositalari – mamlakat fuqarolarining axborot-psixologik himoyasini ta'minlash vositasi sifatida: muammolar, echimlar.
10. Ijtimoiy fikr va jamiyatning axborot-psixologik himoyasini ta'minlash yo'llari.

Ushbu yo'naliishlar bo'yicha batafsil ma'lumotlar berish orqali fanning maqsadi hamda vazifalari amalga oshiriladi.

2. Fanning ob'ekti, predmeti, maqsad hamda vazifalari

Fanning ob'ekti deb, inson va uning ongi, ijtimoiy fikr bilan bir qatorda barcha turdagи ochiq axborot tizimlari va zamonaviy ko'p tarmoqli globallashuv jarayoni e'tirof etiladi.

Fanning predmeti: zamonaviy ochiq axborot tizimlarida davlat, jamiyat va shaxs psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tamoyillar, muammolar va bilimlar.

Fanning maqsadi: O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining gumanitar ta'lim yo'naliishida tahsil olayotgan talabalarida ochiq axborot tizimlaridan foydalanish uchun tegishli axborot-psixologik xavfsizlik jabhasining imkoniyatlari va istiqbollarini tahlil qilish bilan bog'liq bilim hamda malakalarni shakllantirishdan iborat.

Mazkur fan taraqqiyoti bir qator fanlarning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. "Axborot jamiyati nazariyasi va amaliyoti", "Axborot makonining globallashuvi",

“Internet-jurnalistika”, “Globallashuv va jurnalistika”, “Ijtimoiy immunitet”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Falsafa asoslari”, “Sotsiologiya asoslari”, “Tarmoqli sotsiologiya”, “Siyosatshunoslik asoslari”, “Davlat va huquq asoslari”, “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” va h.k. shular jumlasidandir

Mazkur fanlar haqida chuqurroq bilimga ega bo’lish orqali ochiq axborot tizimida mafkuraviy psixologik xavfsizlik haqida yanada mukammalroq tasavvur hosil qilish mumkin. Chunki butun dunyo xalqlari bir vaqtning o’zida xabar etkazishni ta’minlashga qodir bo’lgan hisoblash texnikasi, axborot-kommunikatsiya, Internet tizimlari, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi.

Zero, globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, hozirgi jahon taraqqiyotida yangi umumsayyoraviy tartib, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o’rtasidagi o’zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashuvi, dunyo miqyosidagi axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida tamoman yangicha vaziyatning vujudga kelishi, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi, xullas, jamiyat hayotining barcha sohalarini – iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog’lanmoqda. Mazkur jarayon global kommunikatsiya tarmog’ininig vujudga kelishiga imkon yaratgan axborot inqilobi, kapitalning baynalmilallahuvi, jahon bozorida raqobatning kuchayishi, tabiiy zaxiralar taqchilligi va ularga egalik qilish uchun kurashning keskinlashuvi, ommaviy qirg’in qurollarining tarqalishi, umumsayyoraviy falokat xavfi kabi omillar bilan belgilanadi. Bu omillar ma’lum maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ochiq axborot tizimlari shakllanishida va bugungi dolzarb vazifalarini belgilab olishda muhim o’rin tutmoqda.

Ma’lumki, har bir fuqaro o’z shaxsiy nuqtai nazari, o’z qarashlari, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko’rsatadi, o’z olami hududida yashaydi va tashqi dunyoga o’z aqli darajasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib o’ziga mos axborotni qabul qiladi, uni tahlil etadi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi va shu tahlillar asosida o’z xulosasiga ega bo’ladi, natijada shaxsiy nuqtai nazarini shakllantiradi.

Yana shuni qayd etish joizki, ayrim rivojlangan mamlakatlar sanoat mahsulotlari, axborot va mafkuraviy ta’sir ko’rsatish vositalari orqali keng ko’lamdagi geosiyosat yuritish bilangina cheklanmay, o’z xalqining tabiat, madaniyati, mafkurasiga xos jihatlarni muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, ongu shuuriga, bir so’z bilan aytganda, ular hayotining barcha sohalariga izchil singdirishga intilmoqda. Bu hol, ayniqlsa, endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlar xalqlarining milliy o’zligiga, o’z madaniyatiga vorislik an’analari hamda mentalitetiga putur etkazishi turgan gap. Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “... Ba’zan beozor bo’lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasida ham ma’lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi”¹. Fanning maqsadi hamda vazifalarini belgilashda ushbu holatga alohida e’tibor qaratiladi.

¹ “Тафаккур”. 1998. №2. – Б. 6.

Yuqorida qayd etilganlarning barchasi mazkur muammolar O'zbekiston Respublikasi uchun ham g'oyat muhim ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Buning dolzarbliги davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlashda, iqtisod va bozor munosabatlarining tadrijiy rivolanishini ta'minlashda, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishda yaqqol ko'rindi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, milliy an'analarni hayotga qaytarish, o'zaro murosa ruhini tarbiyalash ham katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, mustaqil dunyoqarashga ega ma'lumotli kishilargina turli xil talqindagi tazyiqlarga ruhan barqaror qarshilik ko'rsata oladilar.

Mana shuning uchun ham mazkur muammolarni o'rganishda axborotning shakli va mohiyati; axborot xavfsizligini ta'minlash; ochiq axborot tizimlarining o'ziga xosligi; shaxs, jamiyat va davlat axborot-psixologik xavfsizligini joriy etish manbalari va turlari; axborot sohasidagi milliy xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati va tamoyillari; OAV va axborot qarama-qarshiligi; axborot-psixologik xavfsizlikka erishishning asosiy yo'naliш va usullari; ochiq axborot tizimlarida shaxsning o'z-o'zini himoya qilishi; jamoatchilik fikri va jamiyatning axborot-psixologik xavfsizligi; O'zbekiston OAV va jamiyatning psixologik xavfsizligi kabi mavzularni oydinlashtirish fanning asosiy vazifalarini belgilaydi.

Fanning asosiy vazifalari

1. Axborot asrining o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va ahamiyatini hamda istiqbolli va xavfli jihatlarini olib berish.
2. Axborot qarama-qarshiligining mohiyatini anglash, tamaddunlar (tsivilizatsiyalar) to'qnashuvi nazariyasiga va axborot-psixologik urushning bugungi holatiga xolis baho berish.
3. O'zbekistondagi axborot xavfsizligi tizimining o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va ayrim muammolari haqida fikr-mulohaza yuritish.
4. Axborot-psixologik ta'sir jarayoniga davlat, jamiyat va shaxs mavqeい nuqtai nazaridan baho berish.
5. Xalq ongida milliy istiqlol g'oyasini mustahkam qaror toptirish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili ekanligini olib berish.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish kontseptsiyasining ishlab chiqilishi va uning mamlakat axborot-psixologik xavfsizligi uchun ahamiyati va keng ko'lamenti psixologik imkoniyatlari haqida tegishli mulohazalar yuritish.

Mazkur vazifalarning mazmun-mohiyatini yanada to'liqroq talqin etish uchun fanni o'qitish davomida ishlataladigan asosiy terminlar va tushunchalar haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lish talab qilinadi

3. Asosiy atamalar va tushunchalar

Fanni chuqur o'zlashtirishda unga oid har bir atama-istiloh (termin) va tushunchani to'g'ri talqin qilish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli quyidagi tushunchalarga alohida e'tiborni qaratish lozim. Jumladan: axborot; ommaviy axborot; jamiyatni; axborotlashtirish axborot tizimlari; axborot jarayonlari; axborot resurslari; axborot-kommunikatsion texnologiyalari; ochiq axborot tizimi; axborot jamiyatni; axborotlashgan jamiyat; axborotning jamiyat taraqqiyoti uchun muhimligi; axborotning globallashuvi; axborot-psixologik xavfsizlik; raqamli tengsizlik; tamaddunlar (tsivilizatsiyalar) to'qnashuvi; tamaddunlar muloqoti; axborot-psixologik urushi; axborot tahdidlari sharoitida davlat, jamiyat va shaxs; mustaqillik; O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish kontseptsiyasi; psixologik himoya va fuqarolarning o'z-o'zini muhofaza etishi; milliy istiqlol g'oyasi, mafkura va mafkuraviy tahdidlar, mafkuraviy immunitet; psixologik immunitet; kompleks psixologik himoya metodlari, vositalari va usullari, g'oyaviy bo'shliq, manipulyatsiya, axborot quroli, zamonaviy avtomatlashgan axborot texnologiyalari va boshq.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, butun kurs davomida tushuncha va atamalarga ta'rif keltirilib, ma'nosi kengroq ko'lamma ochib beriladi. Shunday bo'lsa-da, fan talablaridan kelib chiqib, dastlabki ayrim tushunchalarni quyidagicha izohlash mumkin.

“Axborot:

1. Taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar nazar shaxs, predmet, dalil, voqeа, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar.
2. Dalil, voqeа, hodisa, predmet, jarayon kabi ob'ektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar) hamda tushunchalar yoki buyruqlar.
3. Ma'lum xos matnida aniq ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ichiga oluvchi dalil, voqeа, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi ob'ektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar).
4. Qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar... Axborot nur, tovush va radio to'lqinlari, elektr toki yoki kuchlanishi, magnit maydoni, qog'ozdagi belgilar shaklida yaratilishi va tashilishi mumkin”¹.

Jami axborot oqimlari tabiiy (tabiat tomonidan) va suniy (inson tomonidan) yaratilgan turlarga bo'linadi.

“Ommaviy axborot:

1. Cheklanmagan shaxslar doirasi uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual va boshqa xabar va materiallar.
2. Ommaviy axborot vositalari orqali ommaviy tarqatiladigan bosma, audio, audiovizual va boshqa xabar va materiallar.
3. Bir paytning o'zida maxsus vositalar – mass-media yordamida shaxslar guruhiга axbootni uzatish jarayoni”¹.

Jamiyatning axborotlashuvi - bu ma'lum bir davlat yoki jamiyatda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida sodir bo'ladigan holat².

Axborotlashgan jamiyat – axborot texnologiyalarining rivojlanganlik darajasi nuqtai nazaridan asosiy talablarga javob beruvchi jamiyat. Bunday davlatda asosiy faoliyati axborot bilan ishlashdan iborat shaxslar jamiyat a'zolarining 50 foizidan yuqori bo'lishi hamda gazeta, jurnal, radio, televidenie, kompyuter, Internet va uyali telefonlar bilan ta'minlanganlar soni turli idoralar va aholining asosiy qismini tashkil etishi zarur.

Axborot asri (davri) – XX asrning o'rtalarida boshlangan. Turli mamlakatlarning olimlari axborot davri aniq qachon boshlanganini turlicha izohlashadi. Bu masalaga uch xil qarash mavjud: 1) Norbert Vinerning “Kibernetika, yoki jonli mavjudot va mashinada boshqaruв va bog'lanish” kitobi chop etilgan yildan, 2)

¹ Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати. Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашр. Муаллифлар жамоаси: Амиров Д.М., Атаджанов А.Ю., Атаджанов Д.Ю. ва бошқ. – Т.: БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010 – Б. 19.

¹ Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати. Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашр. Муаллифлар жамоаси: Амиров Д.М., Атаджанов А.Ю., Атаджанов Д.Ю. ва бошқ. – Т.: БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010 – Б. 178.

² Иқтибослар келтирилмаган жойда таъриф муаллифники – Ш.Б.

AQShdagi to’rtta universitet o’z kompyuter tizimlarini birlashtirgan yildan, 3) sobiq Sovet ittifoqi fazoga birinchi sun’iy yo’ldoshni uchirgan yildan boshlangan.

“Axborot jamiyati – zamonaviy tsivilizatsiyaning rivojlanish darajasi. Axborot va bilimlar rolining jamiyat hayotida, jami ichki mahsulotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ulushining ortishi, insonlarning o’zaro samarali o’zaro axboriy aloqada ishlashini ta’minlovchi global axborot makonining yaratilishi, ularning dunyo axborot resurslariga ularishi va ularning axborot mahsulotlariga va xizmatlariga bo’lgan ijtimoiy hamda shaxsiy ehtiyojlarining qondirilishi bilan tavsiflanadi”³.

Axborotning globallashuvi – bu zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, ma’lum bir mamlakat doirasida va muayyan bir davlat manfaatini himoya qiluvchi axborotlarni ishlab chiqish va er kurrasi bo’ylab tarqatish demakdir. Bunday imkoniyatlarga hamma davlatlar ham ega emas. Texnologiyalari kuchli davlatlar bundan keng foydalanmoqda. “Axborotga egalik qilish – dunyoga egalik qilishdir” degan ibora hammaga ma’lum. Axborotning globallashuvi, bir tomonidan, ijobiy natijalar (masalan, jamiyat hayotini zamonaviy, demokratik usullar asosida tashkil etish bobida) bersa, ikkinchi tomonidan, xalqaro munosabatlarda turli davlatlar o’rtasida axboriy, raqamli tengsizlikka olib keladi.

“Axborot infratuzilmasi:

1. Axborot resurslari, jumladan axborot xizmatlari va ommaviy axborot vositalarini shakllantirish, tarqatish va ulardan foydalanish tizimi.
2. Mamlakatning axborot makoni hamda fuqarolar va tashkilotlarning axborot resurslaridan foydalanishni ta’minlovchi axboriy aloqada o’zaro ishlash vositalarining faoliyati va rivojlanishini ta’minlovchi jami tashkiliy tuzilmalar.
3. Axborot makoni tuzilmasining ushbu makonda axborot oqimlari yaratilishi va aylanishini ta’minlovchi qismi. Axborot infratuzilmasining asosiy belgilari: infratuzilma elementlarining sifatga oid va miqdoriy tarkibi; elementlarning makonda joylashishi va o’zaro aloqasi; elementlar va butun infratuzilmaning axborot samaradorligi va o’tkazish qobiliyati. Axborot infratuzilmasining asosiy elementlari: telekommunikatsiyalar; axborot tarmoqlari; axborot resurslari; axborot sohasida xizmat ko’rsatish tizimlari. Qo’shimcha elementlari: axborot infrauzilmasining rivojlanish va faoliyatini ta’minalash tizimlari”¹.

Raqamli tengsizlik (bo’linish, uzilish) – raqamli axborot texnologiyalaridan foydalanish nuqtai nazaridan dunyo davlatlarining baravar bo’lmagan ahvoli. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar kuchli axborot texnologiyalariga ega va ular boshqa davlatlar bilan bo’lgan munosabatlarda mazkur ustuvorlikni o’z foydalariga ishlatmoqdalar, masalan, kompyuter, printer va boshqa shu kabi jihozlarni boshqa davlatlarga qimmat narxlarda sotmoqdalar va h.k. Eng muhimi, axborot texnologiyalari rivojlangan davlatlar boshqa mamlakatlar xalqlarini o’z g’oyalari ta’siri doirasida saqlab turmoqchi bo’lishayapti.

“Axborot quroli:

³ Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати. Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашр. Муаллифлар жамоаси: Амиров Д.М., Атаджанов А.Ю., Атаджанов Д.Ю. ва бошқ. – Т.: БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010 – Б. 20-21.

¹ Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати. Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашр. Муаллифлар жамоаси: Амиров Д.М., Атаджанов А.Ю., Атаджанов Д.Ю. ва бошқ. – Т.: БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010 – Б. 21.

1. Axborot infratuzilmasiga qarshi qaratilgan jami ixtisoslashtirilgan (fizik, axborot, dasturiy, radioelektron) uslublar va vositalar. Ular infratuzilmaning butunlay yoki uning alohida elementlarining vazifalari va xizmatlarini vaqtinchalik yoki tiklab bo'lmas darajada ishdan chiqarish uchun mo'ljallangan.

2. Axborot urushida dushmanga axborot ta'sirlarini o'tkazishni amalgga oshirish imkonini beruvchi vosita va uslublar.

3. Zarar etkazish kuchi mamlakatning axborot sohasi ob'ektlari va uning qurolli kuchlarini vayron qilish, bostirish, (muhofazasini) engishga asoslangan mahsus qurol"¹.

"Axborot xavfsizligi:

1. Axborotning uning egasiga zarar keltiradigan tasodif yoki qasddan qilingan tahdidlarga (xavf-xatarlarga) chidamliliginin umumlashgan xossasi.

2. Axborotning holati. Bu holat axborot tashuvchisining (axborotlashtirish ob'ekti, ma'lumotlarni uzatish tarmog'i va boshqalarni) uni qayta ishslash, saqlash va uzatishda axborotning konfidentsiallik, butunlik va kirishimlilik kabi xususiyatlarga ega bo'lib qolishini ta'minlash qobiliyati bilan tavsiflanadi.

3. Axborotning chiqib ketishi, soxtalashtirilishi, nusxa olinishi, o'zgartirilishi, oshkor bo'lishi, buzilishi, qamal qilinishiga olib keluvchi beruxsat tasodifan yoki qasddan qilingan amallardan muhofazalanganligi. Konfidentsiallik, butunlik va kirishimlilik axborot xavfsizligining tavsifnomasi bo'lib hisoblanadi.

4. Axborot munosabatlari sub'ektiga zarar etkazish mumkinligi bilan bog'liq bo'lган xavf ehtimolining yo'qligi.

5. Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlatning axborot sohasida muhofaza qilinganlik holati.

6. Axborot xavfsizligi uchta asosiy tarkibiy qismlardan iborat: konfidentsiallik, butunlik va kirishimlilik osonligi. Konfidentsiallik nozik axborotni ruxsatsiz olishdan muhofaza qilishga tegishli. Butunlik axborot va dasturli ta'minotning aniqligi va to'liqligini muhofaza qilishni bildiradi. Kirishimlilik osonligi – bu axborot va asosiy xizmatlarning foydalanuvchi uchun kerakli paytda foydalanish osonligini ta'minlash.

7. Axborot va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaning muhofaza qilinganligi. Bunda tasodifan yoki atayin qilingan, tabiiy yoki sun'iy tavsifga ega bo'lган va axborot va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma egasi yoki foydalanuvchilariga zarar etkazish mumkin bo'lган ta'sirlardan muhofazalash nazarda tutilgan"².

"Axborot-psixologik xavfsizlik:

Fuqarolar, ularning alohida guruhlari va ijtimoiy qatlamlari, shuningdek umuman olganda aholini salbiy axborot-psixologik ta'sirlardan muhofaza qilinganlik holati"³.

Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi: ("Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 13-modda):

"Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta'sir ko'rsatilishidan himoya qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

¹ Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати. Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашр. Муаллифлар жамоаси: Амиров Д.М., Атаджанов А.Ю., Атаджанов Д.Ю. ва бошқ. – Т.: БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010 – Б. 30.

² Ўша жойда. – Б. 28.

³ Ўша жойда. – Б. 31.

Jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma'lumotlar maxfiy axborot toifasiga kiradi.

Jismoniy shaxsning roziligesiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek, shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Jismoniy shaxslar to'g'risidagi axborotdan ularga moddiy zarar va ma'naviy ziyan etkazish, shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ruyobga chiqarilishiga to'sqinlik qilish maqsadida foydalanish taqiqlanadi.

Fuqarolar to'g'risidagi axborot oluvchi, bunday axborotga egalik qiluvchi hamda undan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bu axborotdan foydalanish tartibini buzganlik uchun qonunda nazarda tutilgan tarzda javobgar bo'ladilar.

Ommaviy axborot vositalari axborot manbaini yoki taxallusini qo'ygan muallifi ularning roziligesiz oshkor etishga haqli emas. Axborot manbai yoki muallif nomi faqat sud qarori bilan oshkor etilishi mumkin”¹.

Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligi (“Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14-modda):

“Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

demokratik fuqarolik jamiyatni asoslari rivojlantirilishini, ommaviy axborot erkinligini ta'minlash;

qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta'sir ko'rsatiishga, uni chalg'itishga yo'l qo'ymaslik;

jamiyatning ma'naviy, madaniy va tarixiy boyliklarini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish;

milliy o'zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an'analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtrishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish”¹.

Davlatning axborot borasidagi xavfsizligi (“Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15-modda):

“Davlatning axborot borasidagi xavfsizligi quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarga qarshi harakatlar yuzasidan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa tusdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

davlat sirlarini saqlash va davlat axborot resurslarini ulardan ruxsatsiz tarzda foydalanishidan muhofaza qilish;

O'zbekiston Respublikasining jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikatsiyalar tizimiga integratsiyalashuvi;

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzishga;

¹ “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўгрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 12.12.2002. № 439-II // Оммавий ахборот воситалари фаолияти соҳасидаги мөъёрий-хуқуқий хужжатлар тўплами. – Т.: “Ishonch Markas Servis”, 2009. – Б. 37-38.

¹ “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўгрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 12.12.2002. № 439-II // Оммавий ахборот воситалари фаолияти соҳасидаги мөъёрий-хуқуқий хужжатлар тўплами. – Т.: “Ishonch Markas Servis”, 2009. – Б. 38.

hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yohud tayinlangan xokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga va davlat tuzumiga qarshi boshqacha tajovuz qilishga ochiqdan-ochiq da'vat etishni o'z ichiga olgan axborot tarqatilishidan himoya qilish;

urushni va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni targ'ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovat uyg'otishga qaratilgan, terrorizm va diniy ekstremizm g'oyalarini yoyishni o'z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilish”².

Axborot tazyiqi – bu o'zaro axborot munosabatlarida bo'lgan ob'ektlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ob'ektlardan birining yomonlashuvi tomon kuch bilan o'zgartish kiritish maqsadida zarar etkazish yo'li bilan hal etish usulidir.

“Axborot tahdidi – jamiyat axborot sohasining faoliyatiga xavf tug'dirayotgan jami omillar va omillar guruhlari”³.

Axborot sohasida shaxs va jamiyat manfaatlariga tazyiq o'tkazish usullari deganda, inson va fuqaroning ochiq axborotga ega bo'lishiga, qonun bilan taqiqlanmagan faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan huquqdan foydalanishni cheklash tushuniladi. Bular esa shaxsiy xavfsizlikni, ma'naviy va aqliy rivojlanishni ta'minlovchi axborotlar hisoblanadi. Bundan tashqari, individual, “virtual axborot” maydonini, uning ruhiy faoliyatga ta'sir etish texnologiyalaridan foydalanish imkonini shakllantirish hisobiga jamoatchillik ongini chalkashtirish imkoniyatlarini kengaytirish shaxs manfaatlariga bo'lgan eng xavfli tajovuz hisoblanadi.

Tsivilizatsiyalar (madaniyatlar, tamaddunlar) to'qnashuvi – Harvard (AQSh) universitetining professori Samyuel Xantington g'oyasi. Muallif dastlab 1993 yilda shunday nomdag'i maqolasini e'lon qildi. Maqolaga turli mintaqqa va mamlakatlarning mutaxassislari munosabat bildirib, ayrimlari S. Xantingtonni qo'llagan bo'lsa, aksariyat olimlar unga qarshi chiqdi. Javoblarni yig'ib, S. Xantington 1996 yilda shunday nomda kitob chop etdi va o'z nuqtai nazarida qolib, uni rivojlantirishga harakat qildi. “Madaniyatlar to'qnashuvi” g'oyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov salbiy munosabat bildirgan.

Axborot qarama-qarshiligi - bu atrof dunyodagi biror hodisaga nisbatan munosabatda bo'lishda auditoriyaga o'z qarashlari, fikrini tizishishga hamda qarshi tomon g'oyasi va nuqtai nazarini inkor etuvchilik roli bilan ta'sir ko'rsatishga intilishdir.

Axborot-psixologik kurash - bu boshqa mamlakat yoki mamlakatlar guruhida mavjud ijtimoiy tizimni bo'shashtirish, jamiyat axloqini izdan chiqarish, rivojlanish milliy dasturiga putur etkazish, shuningdek o'z qadriyatlari va turmush tarzini to'g'ridan-to'g'ri eksport qilish maqsadida axborot xizmati hamda qo'poruvchilik bilan shug'ullanuvchi xizmatlarning o'zaro xamkorligidir.

Ochiq axborot tizimi – joylashtirilgan axborotni to'siqsiz olish mumkin bo'lgan tizim. Internet ochiq axborot tizimining eng ko'zga ko'ringan turidir. Shu bilan bir qatorda axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan tizimlarni ham shunday deb atashadi (masalan, ayrim olimlar sonni asosli ravishda ochiq axborot tizimi deb hisoblashadi).

² Ўша жойда. – Б. 38-39.

³ Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати. Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашр. Муаллифлар жамоаси: Амиров Д.М., Атаджанов А.Ю., Атаджанов Д.Ю. ва бошқ. – Т.: БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010 – Б. 26.

Yuqorida ta'kidlangan har bir atama va tushuncha ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik fani bo'yicha keyingi barcha mavzular xususida mulohaza yuritishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar

Fanning maqsad hamda vazifalari.

1. Axborot, ommaviy axborot va jamiyatni axborotlashtirish tushunchalari.
2. Axborot jarayonlari va zaxiralari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
3. Axborot jamiyati haqida tushuncha, uning tavsifi.
4. Axborot xavfsizligi muammosi.
5. Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi, uning tavsifi.
6. Axborot-psixologik xavfsizlik fanini kontseptual, metodologik va metodik jihatlardan o'rGANISH zaruriyati.
7. Axborot-psixologik xavfsizlikka ilmiy yondashuv belgilari.

Seminar uchun savollar

1. Fanning dolzarbliji va asosiy yo'nalishlari.
2. Fanning maqsad hamda vazifalari.
3. Asosiy tushuncha va atamalar.
4. Axborot-psixologik xavfsizlik mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida.

2-bob. AXBOROT ASRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

TEXNOLOGIYADA USTUVORLIK VA AXBOROT MUVOZANATINING BUZILISHI¹

1. Axborot asrining mazmun-mohiyati. Axborotlashgan jamiyat: nazariya va voqelik

Axborot asri bevosita globallashuv bilan bog'liq bo'lganligi sababli, mazkur atamaga izoh berish to'xtash maqsadga muvofiqdir. "Eng yangi sotsiologik lug'at"ning mualliflari ushbu so'zga quyidagicha ta'rif bermoqdalar. Globallashuv – jamiyat hayoti barcha qirralarining rivojlanishi umumjahon miqyosda o'zaro ta'sir etish va ochiqlikning tamoyilidan kelib chiqadigan holatdir. R. Robertsonning fikricha ("Globallashuv", London, 1992), globallashuv jarayonida dunyo butun bir yaxlitlik sifatida birlashadi. M. Uorters yozganidek ("Globallashuv", London; Nyu-York, 1995), globallashuv – bu jug'rofiyaning xalqlar ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri yo'qolib borishi namoyon bo'ladigan jarayondir.

"Globallashuv" so'zi amerikalik olim Tomas Levittning "Bozorlar globallashuvi" (1983) nomli maqolasidan keyin ommalashib ketdi. Xalqaro iqtisodiy tizim – globallashuvning etakchi yo'nalishidir. Globallashuv jarayoni rivojlanishining asosiy sabablaridan ayrimlari – sayyora bo'ylab axborot-kommunikatsion texnologiyalar rivojlanishi, turli mamlakatlarning iqtisodiy hayoti bir xil mezonlar asosida tashkil etilishi hamda transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan tovarlar asosiy qismining narhi arzon va sifati yaxshi ekanligi. Shu bilan bir qatorda globallashuv jarayonida turli xalqlarning milliy o'zligi asta-sekin emirilib ketmoqda².

Axborot asrini baholashdagi yondashuvlar, mezonlar. Mutaxassislar axborot asrini va axborotlashgan jamiyatni turlicha yondashuvlar, mezonlar asosida baholashga harakat qiladilar. Ularning ba'zilari axborotlashgan jamiyat axborotning buzilishi va o'zgarishi natijasida vujudga keldi, deb hisoblaydilar. Boshqalari - ijtimoiy

² Қаралсин: Новейший социологический словарь. Сост. А.А. Грицанов, В.Л. Абушенко, Г.М. Евелькин и др. – Мн.: Книжный дом, 2010. – Б. 226-227.

rivojlanishning hozirgi davri vorisiylikka asoslangan va u o'tmish qa'ridan kelib chiqqan, biroq aloqaning yangicha texnologiyalari sharoitida ilgarigi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar faol axborotlashuvga duchor etilgan, deyishadi. Uchinchi toifa mutaxassislar axborotlashgan taraqqiyotga, elektron iqtisodiyotning vujudga kelishi va axborotning ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishiga urg'u berishadi. Bir qator mutaxassislar axborotlashgan jamiyat davlat bilan baravar paydo bo'lган (Entoni Giddens va boshq.), degan fikrni ilgari suradilar. Ular nazdida, davlat – murakkab, jipslashgan ijtimoiy vujud bo'lib, o'z ichki va tashqi mexanizmlarining soz ishlashi tufayli muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi.

Hozirgi davr ilgarigi davrlardan yangi aloqa vositalari, texnika va texnologiyalari paydo bo'lганligi va kengayganligi hisobiga axborot hajmi keskin oshib ketganligi bilan farq qiladi. Iqtisodiyotni xilma-xillashtirish yuz berdi, uning yangi sohalari, xizmat turlari hosil bo'ldi, ishlab chiqarish jabhasida yangi texnik uskunalar uni qayta qurollantirishga va ishlab chiqarish kuchlarini qayta taqsimlashga olib keldi. Shu bilan birga ilmiy yondashuv zamonaviy milliy davlatlar manufakturna ishlab chiqarishi bo'y ko'rsatayotgan va sanoat rivojlanayotgan davrda vujudga kelayotganligini aniqlab bermoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, dunyo taraqqiyoti agrar, sanoatlashgan va sanoatlashuvdan keyingi davrlarga bo'linadi. Keyingi davr axborotlashgan jamiyatning rivojlanish davri (Deniel Bell), modernizmdan keyingi (Jan Bodriyar), tez moslashuvchan (Maykl Payor), axboriy taraqqiyot uslubi (Manuel Kastels) davri sifatida ta'riflanadi.

Axborotlashgan jamiyatga doir nazariyalar. D.Bell fikricha, axborot asriga asosan yangi aloqa vositalarining rivoj topishi va ulardan iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy hayotda faol ravishda foydalanimishi xosdir. “Sanoatlashuvdan keyingi jamiyatning vujudga kelishi” (ruschasi: “Stanovlenie postindustiralnogo obhestva”), “Kapitalizmnning madaniy ziddiyatlari” (“Kulturno'e protivorechiya kapitalizma”), “Ikkinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy fanlar” (“Obhestvenno'e nauki posle vtoroy mirovoy voyno””) uning asosiy asarlaridir.

Axborot ta'sirining o'sib borishi “axborot” tushunchasining o'ziga hamda uning ta'sirida yuz berayotgan jarayonlarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar, nazariyalar va taxminlar vujudga kelishini taqozo etdi. Mutaxassislar yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni tahlil etishga, ularning xarakterini aniqlashga va jamiyatlar istiqbolini taxmin qilishga intildilar. Yangi axborotlashgan jamiyatning vujudga kelish g'oyasini ishlab chiqqan va himoya qilgan olimlar orasida eng mashhuri Deniel Belldir. Sanoatlashuvdan keyingi (postindustrial) jamiyat nazariyasini yaratgan bu olim axborot asriga ayni shu (postindustrial jamiyat - PIJ) nomni nisbat beradi, “postindustrializm”ga esa u ko'pincha axborotlashgan jamiyat sifatida qaraydi. Bu istilohni Bell 1950- yillar oxirida muomalaga kiritdi, lekin 1980- yillar boshiga kelib uni “axborot”, “bilim” so'zlari bilan almashtira boshladi. Hozirgi paytda “postindustrializm” hamda “axborotlashgan jamiyat” atamalari sinonim sifatida - bir xil ma'noda ishlatib kelinadi.

Bell va uning tarafdarlari sanoatlashgan jamiyatdan sanoatlashuvdan keyingi jamiyat sari harakatni asosan bandlik sohasidagi o'zgarishlar, xizmat ko'rsatish jamiyatiga o'tilishi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan izohlasalar, boshqa tadqiqotchilar unga o'zgacha nisbat beradilar. Masalan, uni zamonaviy (modern) jamiyatdan zamonaviylikni ortda qoldirgan (postmodern) jamiyatga o'tish, jipslashgan jamiyatdan boshboshdoq kapitalizm sari harakatlanish, shuningdek kasod bo'lган

jamoaviy tajriba ustidan bozor iqtisodiyotining to’liq g’alabasi tomon burilish sifatida ta’riflaydilar.

“Boshqarish maktabi” (“Shkola regulirovaniya”) nazariyasini yoqlovchi bir qator olimlar hozirgi taraqqiyotni fordcha jamiyatdan fordchilikni ortda qoldirgan jamiyatga yoxud ommaviy ishlab chiqarish jamiyatidan epchil ixtisoslashuv jamiyatiga o’tish nuqtai nazaridan tushuntiradilar. Bir guruh frantsuz tadqiqotchilari (Mishel Aletta, Alen Lipits) shu nazariyaning asoschilari bo’ldilar. Ijtimoiy munosabatlarga tarixiy-bosqichli (xolistik) qarashga ega ushbu maktab vakillari har bir tarixiy davrning umumiy xarakterini aniqlashga harakat qilishadi. Ularni muayyan bir davrdagi jamg’arish tartibi, ishlab chiqarishni boshqarib turish, daromadlarni taqsimlash va iste’mol usullari qiziqtiradi. Boshqaruv ular uchun “me’yorlar, odatlar, huquqni, boshqarib turuvchi tarmoqlarni”, ya’ni jamg’arish jarayoniga xizmat qiluvchi hamma narsani qamrab oluvchi “o’yin qoidalari”ni o’ziga xos ravishda egallashdan iborat. Ular e’tiborni nafaqat texnologiyalar va yangiliklarga, balki davlatning roliga, uning manfaatlari, ijtimoiy tarkibi, korporativ mayllari, iste’mol modellari, gender munosabatlari, jamiyat qadriyatlariga qaratadilar.

G’arblik olimlar 1945-1975 yillardagi davrni fordchilik-keynschilik asri sifatida ta’riflashadi. Iqtisodchi bo’lgan Keyns o’z strategiyasida hukumatning iqtisodiyotdagि roliga urg’u berdi. Ishlab chiqarish bilan iste’mol muvozanat holatida bo’lganligi bu davrning o’ziga xos xususiyati edi. Iqtisodiyotda ishtirok etuvchi davlat esa bu mutanosiblikni qo’llab-quvvatlab, ijtimoiy ta’minotga, barqarorlikka ta’sir ko’rsatardi. O’sha davrda rejorashtirish ham dolzarblik kasb etib, uning yordamida “umumi farovonlik davlati”ni bunyod etish ko’zda tutilgandi. Rejashtirish ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvini (ya’ni keynscha siyosat yuritilishini) oqlash uchun qulay asos berardi.

Henri Ford o’z ishlab chiqarishiga 1920 yillarda asos solgan edi, “fordizm” atamasi esa siyosiy va jamoat arbobi Antonio Gramshi tomonidan muomalaga kiritildi. Ford tovarlarni iste’molchiga maqbul narxda ommaviy ravishda ishlab chiqarish imkonini beradigan usul tashkilotchisi bo’ldiki, bu ommaviy iste’molni rag’batlantirar edi. U birinchilardan bo’lib yuqori darajada ish haqi bera boshlarkan, bu ham ishlab chiqarishni ko’paytirishga yordamlashdi. Shu boisdan butun iqtisodiyot va umuman tadbirkorlik ishini olib borish uning nomi bilan ataladigan bo’ldi. Fordchilik rivojining cho’qqisi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga to’g’ri keldi.

Ushbu jarayonning F.Uebster tomonidan amalga oshirilgan tahliliga ko’ra, fordchilik-keynschilik davrida iqtisodiy faoliyat davlatlar ichida rivojlanib, turli sohalarda yirik milliy korporatsiyalar (oligopoliyalar) guruhi hukmronlik qilardi. Mahalliy kompaniyalar ichki bozorni o’z nazoratida saqlab turishardi. Sanoatning har qanday tarmog’ida – elektronika, kiyim-kechak ishlab chiqarish, chakana savdo yoki mashinasozlikda uch-to’rtta korporatsiya ustuvor edi. Masalan, 1963 yilda Angliyada savdoning har qaysi sohasida savdo-sotiqning qariyb 60 % beshta etakchi kompaniya hissasiga to’g’ri kelardi, peshdor 100 ta kompaniya 1960 yilda mamlakatdagi butun sanoat mahsulotining uchdan bir qismini ishlab chiqarardi.

Biroq 1970- yillarning o’rtalarida retsessiya va neft narxining keskin ko’tarilishi boshlanib, shok holatini va iqtisodiyotda o’zgarishlarni keltirib chiqardi. Boshqarish maktabi olimlari o’sha paytdan buyon doimiy bo’ron – retsessiya, ishsizlik, bankrotlik, mehnat sohasida qoida buzilishlar davom qilib kelayotganini qayd etadilar. Shiddatli o’zgarishlar – ishchi kuchining odatiy ma’nodagi juda katta ortiqchaligi, yangi kasb

turlarining paydo bo'lishi, texnologiyalar bosimi, valyuta kursidagi keskin tebranishlar butunlay yangi zamon bo'y ko'rsatayotganligidan dalolat berardi. Amalda ishlab chiqarish usulidan tortib shaxsni yangicha tushunishgacha barcha o'zgarishlar fordcha asr bilan xayrlashuv payti kelganligini anglatardi. Ayrim tadqiqotchilar (Krishnan Kumar) fordchilikdan keyingi davrni "sanoatlashuvdan keyingi jamiyat nazariyasining versiyasi"¹ sifatida ko'rishdi. Natijada fordcha tartibni qo'llab-quvvatlashda davom etishdan foyda yo'qligini e'tirof qilishga to'g'ri keldi; shu tariqa fordchilikdan keyingi davr boshlandi va izlash hamda axborot bilan ishlashning tezkor usullari ana shu o'zgarishlar markazida bo'lib qoldi.

1980-yillarda bo'hron holati jamg'arishning yangi tartibini o'rnatish, nazorat qilishning boshqa mexanizmlarini joriy etish hisobiga engib o'tildi. Masalan, Buyuk Britaniyada bu Margaret Tetcherning (mamlakatning 1979-1991 yillardagi bosh vaziri) leyboristlarga nisbatan qat'iy harakatlari, maktab va oliv o'quv yurtlaridagi ta'lim tizimi kontseptsiyalari va o'quv rejalarini tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni ishlab chiqarishning zamonaviy talablariga yaqinlashtirish bilan nishonlandi. Globallashuv fordchilik kuyoshining botishida eng muhim omil bo'lib xizmat qildi. 1970-yillardan buyon globallashuv jarayoni ancha jadallahsgan bo'lsa-da, hali poyoniga etganicha yo'q.

Globallashuv jarayonlari. Globallashuv jarayonlari bir necha ta'rif va tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon haqida gap ketganda, baynalmillashuvning oshib borishi, turli davlatlarning o'zaro hamkorligi, millatlararo munosabatlarning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'siri tushuniladi, uni iqtisodiy omil, bozorlar, valyutalar va korporativ tashkilotlarning yaqin aloqalari sifatida ham ta'riflaydilar. Globallashuv – insoniyat hayotiga tahdidlar va aks harakatlarga qarshi turish uchun migratsiya, sayyoqlik, hukumatlararo hamkorlikni o'stirishda namoyon bo'ladigan madaniy, ijtimoiy va siyosiy omillardir. Lekin globallashuvning rivoji uchun ko'p jihatdan zamin tayyorlagan transmilliy korporatsiyalarning (TMK) tobora kengayib borishi bu jarayonning muhim omili bo'ldi. Hozirgi global iqtisodiyotda Ford, General Electric, Shell oil, Siemens, Kodak, Philips, Daimler-Bens, Coca-Cola, IBM, General Motors, Fiat, Procter and Gamble korxonalari oldingi marralarni egallab turishibdi.

Odatda, bozorning globallashuvini, ishlab chiqarish, aloqa vositalari globallashuvini, axborot infratuzilmasi va axborot xizmatlari globallashuvini ajratib ko'rsatadilar. Global darajada ish olib borish korporatsiyalarni butun dunyo bo'y lab resurslar yaratish va taqsimlashga majbur qiladi. Shuning uchun ularning bosh idorasi, masalan, Nyu-Yorkda, dizayn byurosi - Evropada, ishlab chiqarishi – Janubi-Sharqiy Osiyoda, yig'uv tsexlari – Angliyada va hokazo go'shalarda joylashgan bo'lishi mumkin. Dunyoning turli mintaqalarida o'rin topgan marketing va ishlab chiqarish ob'ektlarining samarali ishi, ma'lumotlarning doimiy kelib va qayta ishlanib turishini ta'minlovchi mukammal axborot tizimi yo'lga qo'yilmas ekan, bozor va ishlab chiqarishni globallashtirishni amalga oshirib bo'lmaydi. Tadqiqotchi Diken fikrlariga ko'ra, globallashuv ishlab chiqarish organizmining turli bo'g'inlarini bir butun qilib birlashtiradigan axborot faoliyatining o'sishini chaqiradi. Shu boisdan ham axborot xizmatlarini globallashtirish hozirgi davrning bosh shartlaridan biri bo'lib qoldi. Transmilliy kompaniyalar ko'lami va miqyosini tasavvur qilish uchun ko'p hollarda

¹ Kumar Krishan. New Theories of Industrial Society // Brown Ph., Lauder H. Education for Economic Survival: From Fordism to Post Fordism? Routledge. 1992. – Б. 45-75.

ular boyligini davlatlar boyligi bilan taqqoslaydilar. Misol uchun oladigan bo'lsak, 2000 yilda General Motors 185 mldr dollar, IBM – 88 mldr, Shell – 190 mldr, General Electric - 130 mldr dollar daromad qozongan. Ma'lumotlarda TMKlar butun jahon sanoat mahsulotining 25% ni ishlab chiqarishlari va savdo-sotiqlari dunyoda ustun turishlari keltiriladi. Global bozor uchta yirik segmentga bo'linadi – Shimoliy Amerika, Evropa va Janubi-Sharqiy Osiyo. Toshiba (2000 yilgi daromadi 62 mldr dollar), Matsushita (89 mldr), Toyota (20 mldr), Sony (59 mldr) kabi azim korporatsiyalar o'z tovarlarini joylashtirish uchun turli global strategiyalarni ishga soladilar. Yapon korporatsiyalari avtomobilsozlikda va maishiy texnika ishlab chiqarishda, keyingi yillarda esa axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasida g'arb korporatsiyalari hukmronligiga jiddiy xavf tug'dirishlarini ko'rsatdilar. Yaponlarning bu da'vati nisbatan barqaror bo'lib turgan iqtisodiy tartibotni ag'dar-to'ntar qilib tashladi, desa bo'ladi.

Korporatsiyalar ko'proq jahon bozorida ish olib borib, o'z ustunliklaridan eng yuksak darajada foydalanishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham axborot sohasidagi faoliyat, bu faoliyatni takomillashtirish va kengaytirish birinchi marraga chiqmoqda. Bugungi kunda reklama, bank ishi, sug'urta, maslahat xizmatlari globalashuvning asosiy jihatlari o'laroq yangi global infratuzilmani tashkil etayotir. Zamonaviy marketingda brendning katta rol o'ynashini hisobga olmaslik mumkin emas, bunda mahsulotlar va korporatsiyalar guruhi odamlar nazarida ommaviy axborot vositalari muhitida keng yoyiladigan ma'lum timsollarni gavdalantiradi. Korxonalar bu yordamchi tuzilmalarsiz umuman faoliyat ko'rsata olmagan bo'lardilar. Axborot ular biznesining tarkibiga kiradi va ishning hal qiluvchi qismini tashkil qiladi. Bu bozorlar, iste'molchilar, mintaqalar, iqtisodlar, tavakkalchiliklar, investitsiyalash modellari, soliq tizimlari to'g'risidagi axborotdir. Shu tarzdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun axborotni saqlash bilan birga ishlab chiqish va yoyish ham zarur, tezkorligi, tahlil darajasi va boshqa sifatlariga qarab uning narxi oshib boradi. Bunday xizmatlar ko'rsatadigan American Express, Citicopp, Merrill Lynch va boshqa tashkilotlar butun dunyo bo'y lab korporatsiyalarga xizmat qilish bilan ularning foya ko'rib, yuksak samara bilan ishlashlariga yordam berishadi. Axborot infratuzilmasi axborot oqimlari oshishiga olib keldi, telefon aloqasi rivojlanib ketganligi, xalqaro o'ta yirik axborot yo'llari bo'y lab moliyaviy muomalalar ko'payganligi shu jumлага kiradi.

2. Tarmoq jamiyatni nazariyasining paydo bo'lishi

Manuel Kastels tarmoq jamiyatni haqida. Texnologik-axborot muvozanatsizlik va yangi bozor mezonlari. M.Kastelsning 1996-1998 yillarda nashr etilgan uch jilddan iborat “Axborot asri: iqtisodiyot, jamiyat, madaniyat” (ruschasi: “Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obhestvo, kultura”) asari umumjahoniy ahamiyatga ega. Olimlarning baholashlaricha, bu tadqiqot Deniel Bellning “Sanoatlashuvdan keyingi jamiyatning shakllanishi” asaridan keyin hozirgi zamon tsivilizatsiya xarakterining eng muhim tavsiflaridan bo'ldi. F.Uebster so'zlariga ko'ra, The Information Age e'lon qilinganidan keyin ayrim sharhlovchilar Kastelsni Karl Marks, Maks Veber va Emil Dyurkgeym bilan bir qatorga qo'ydilar¹.

M. Kastels hozirgi davrni kommunikatsiya tarmoqlari rivojlanishining ta'siri vositasida qarab chiqadi. Yangi jamiyat unda tarmoqlar keng yoyilishi va axborot oqimlari ko'payishi tufayli vujudga keladi, deydi u. Bilimga bilimning ta'sir ko'rsatishi,

¹ Уэбстер Ф. Теории информационного общества. – М.: Аспект Пресс. 2004. – Б. 130.

ya’ni nazariy umumlashtirishning, tahliliy ramzning o’sishi ishlab chiqarish, korxonalar foydasi oshishining asosiy omili bo’lib qoladi. Uning e’tirof etishicha, “axborotlashuvchi (informatsionalno’y) kapitalizm” “bu – kapitalizmning ayniqsa shafqatsiz, tajovuzkor shaklidir, chunki tarmoqli aloqa tufayli u o’zida hamma joyda (global) hoziru nozir turish bilan aql bovar qilmaydigan darajadagi epchillikni o’zida uyg’unlashtirganki, bunaqasi ilgarigi jamiyatlarda kuzatilmagan edi². Yangi sharoitlarda raqobat ham rahmsiz bo’lib qoldi. Misol uchun, muayyan bir bozorda ma’lum muddat milliy oligopoliya hukmronlik qilib turgan bo’lsa, vaqt kelib u qoloqlar safiga o’tib qolishi mumkin. Biroq ayni bir paytda energetika sohasidagi milliy korporatsiyalar, masalan, boshqa bozorlarni egallash uchun mamlakat tashqarisiga ham chiqa oladilar. Bu yangi o’yinchilar o’zlarini uchun global hozirlikni ta’minlay borib, har qachongidan yirikroq mavqega ega bo’lishlari yoki zaiflashib qolishlari ham ehtimol.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining takomillashtirilishi va birja bozorlarining tartibga solinmay qo’yilishi aktsiyalar, valyuta hamda obligatsiyalar savdosida butun kecha-kunduz davomida qatnashish uchun real vaqt rejimida moliyaviy axborot doimiy kelib turishiga imkoniyat yaratadi. Bu axborot oqimlarining ko’lami va tezligi aqlni lol qoldiradi. Shu narsa qayd qilinmoqdaki, endilikda valyuta almashtirishlar aylanmasi milliy iqtisodlar miqyosidan ustun bo’lib, savdo-sotiq oqimlarini, ya’ni milliy iqtisodiy faollilikni import bilan eksport nisbati orqali aniqlashdek an’anaviy uslubni birmuncha pasaytirib qo’yadi. Kastels aloqa texnologiyalarining ta’sir ko’rsatishi natijasida iqtisodiyotda yuz berayotgan o’zgarishlarni chuqur tahlil qiladi. Yangi shart-sharoitlar ko’p narsalarni o’zgartirib yuboradi. Ba’zi olimlar globallashuv milliylik chegaralarini yo’q qilib, barchaning baravarlashtirilishiga, davlatning roli pasayishiga olib kelishi ehtimol, bu, ayniqsa, muayyan bir mamlakatga bozor, ishlab chiqarish va umuman axborot oqimi to’siqsiz kirib kelishida seziladi, deb hisoblaydilar. Kastels esa aksincha, “axborotlashuvchi kapitalizmning harakatchan tizimi”da davlatning roli ancha oshishini uqtiradi.

Dunyodagi axborotlashuv jarayonlarini tahlil qilganda, ayrim mamlakatlar va mintaqalarning boshqa, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan himoyasiz ekanligini sezmaslik mumkin emas. Globallashish mayli barcha ishtirokchilarni maksimal darajada moslashuvchan bo’lishga majbur qiladi, milliy hukumatlar zimmasiga esa paydo bo’layotgan imkoniyatlardan foydalanishda katta mas’uliyat tushadi. Korporatsiyalar tarmoqda uddaburonlik, samaradorlik ko’rsatishlari, zarur bo’lganida “vertikal integratsiyadan chiqib, gorizontal aloqalarga kirisha oladigan”¹ bo’lishlari lozim. Hukumatning puxta o’ylanmasdan qo’ygan qadamlari zudlik bilan jahon iqtisodining tegishli munosabatiga sabab bo’lishi mumkin. U yoki bu mamlakat, mintaqa tarixidagi guvohliklar ham bunga isbot bo’la oladi. “Evropa – Osiyoning kichik bir orolchasi”, deya ta’kidlagan edi frantsuz shoiri Pol Valeri. Bu ifodada chuqur ma’no yashiringan. Evropa tarixan Osiyodan keyin rivojlangan; tsivilizatsiya bobidagi umuminsoniy yutuqlar nuqtai nazaridan Evropa va Osiyo yagona birlik sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga Kastels, Xitoy, Yaponiya, sobiq SSSR davlat yo jamiyat taraqqiyotga rag’bat berishga yoxud uni to’xtatib qo’yishga qodir ekanligining tarixiy sabog’idir, deb uqtiradi.

² Castells, Manuel. End of Millennium. Vol. 3 of Information Age: Economy, Society and Culture. Oxford: Blackwell. 1998. – Б. 338.

¹ Castells Manuel. The Rise of the Network Society // Vol. I of the Information Age. – Б. 193.

Xitoy dastlab o'z kashfiyotlari va ishlab chiqarishga joriy etgan yangiliklari bilan Evropadan qolishmasdi, hatto undan ildam edi. Masalan, dengiz uzra kemada suzish san'atini xitoyliklar evropaliklarga qaraganda oldin takomillashtirganlar. 960-yillar atrofida xitoyliklar kompasni kashf qilishdi, XVI asrga kelib xitoy "jonka"lari dunyoda okean osha uzoq safarlarga chidash bergen mukammal kemalar bo'ldi. Qog'oz ishlab chiqarish Xitoyda G'arbdagidan 1000 yil ilgari o'zlashtirildi, kitob chop etishga esa VII asrda kirishildi. XIV asrda Xitoy sanoatlashib ketishiga bir baxya qolgan edi. Yakkalanganlik, O'rtaliq podsholigining dunyodan ajralib qolganligi mamlakatni texnik jihatdan qoloqlikka olib keldi.

Yaponiya ham yakkalanib qolish davrlarini boshidan kechirganligiga qaramasdan, deb yozadi Kastels, har holda u yangi paydo bo'ladigan jarayonlar uchun ancha ochiq edi, shu boisdan ham bu erda o'zgarishlar Xitoydagiga qaraganda jadalroq yuz berdi. Hukumatning yangilashga qaratilgan siyosiy yo'li tufayli Yaponiyada XIX asming so'nggi choragida elektronika va aloqa gurkirab rivojlandi, bu esa uning juda qisqa muddatlarda texnologiya jihatidan yuksalib ketishiga sharoit yaratdi. Yaponiya axborot texnologiyalari sohasida dunyoda etakchi davlatga aylanish namunasi bo'lsa, sobiq SSSR texnologiya taraqqiyotiga o'tishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan mamlakat misoli bo'ldi.

Ommaviy axborot vositalari tadqiqotchisi Rozalind Eynsli 1966 yildayoq chet el kapitalining Afrika mamlakatlaridagi zo'ravonligi mahalliy matbuotning xorijiy OAV bilan raqobatlashuviga yo'l qo'ymaydi, deb yozgan edi. U rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy matbuot nashrlariga nisbatan ko'proq Parij, London yoki Nyu-Yorkda nashr etilayotgan gazetalar ommaviy ravishda tarqaladigan bo'lishini taxmin qilgan edi. Ommaviy axborot vositalariga jamoatchilik foydalanadigan korxonalar sifatida sarmoya qo'yiladimi yoki bu sohada xorijliklarning muqarrar hukmronligi bilan murosa qilinadimi, Afrika shuni hoziroq tanlamog'i lozim, deya uqtirgan edi u.

Texnikaviy omillar bilan bir qatorda bu mintaqaning milliy axborot organlariga ayrim ijtimoiy hodisalar ham xavf tug'dirdi. YuNESKOning "Kurer" jurnalida (1988 yil avgust) shunday deb qayd etilgan edi: "Bugungi kunda Afrikada ming odamdan atigi o'n besh kishigina kundalik gazeta olishi mumkin. Ayniqsa, aholining 80 % yashaydigan va 800 so'zlashuv tili mavjud bo'lgan agrar hududlarda matbuotdan ommaviy axborot vositasi sifatida foydalanish katta muammolarga duch kelmoqda".

Global ravishda integratsiyalashgan dunyoda yutgan va yutqazganlarni baholarkan, Kastels Lotin Amerikasi, sobiq sovet kengliklaridagi mamlakatlar va yangi Janubiy Afrikadagi natijalarda farqni ko'radi. Va shundan kelib chiqib xulosa qiladi: turli xil davlat strategiyalari turlicha natijalarga olib kelishi mumkin. Ancha samarador hukumatlar Yaponiya va Singapur yo'lidan borishayapti, qoloqlar esa tarmoqli jamiyatga nisbatan bir chekkada bo'lib qolmoqdalar va "tilanchilik siyosiy iqtisodi" yo'lini tutganlar.

Kastels muomalaga kiritgan "axborotlashuvchi kapitalizm", "tarmoq (tarmoqqa bog'langan, ulangan) iqtisodiyot", "tarmoq jamiyati" istilohlari, bir tomonidan, yangicha o'zaro munosabatlar vujudga kelayotganligiga, "tarmoq jamiyati" o'rnatilganligidan tub-zaminli o'zgarishlar yuz berayotganligiga, tarmoqlar bo'lajak ijtimoiy tashkilot uchun zamin yaratayotganligiga e'tiborni qaratishga da'vat etilgan. Ikkinci tomonidan, ular olimning kapitalizm – davrimizning eng asosiy ta'rif-tavsifi, u – o'tmishdan kelib chiqqan va yashab qoldi ma'nosidagi vorisiylikni; – kengaydi,

moslashdi va elektron tarmog'i orqali dunyoda o'z mavqeini mustahkamamoqda mazmunidagi porloq istiqbolni ifodalaydi, degan fikrini aks ettiradi. Ayni bir paytda bu tarmoqlar zamonaviy kapitalizm zaifligining sababi bo'lib xizmat qilarkan, iqtisodiyotga o'z shartlarini, ish uslublarini o'tkazadi. Bu omilni hisobga olmaslik jadal nobarqarorlikka, tadbirkorlik jarayonini barbod qilishga, uning vayron bo'lishi va tanazzuliga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham axborotni olish, qayta ishslash va tahlil etish vositasida ichki va tashqi muhitdagi ahvolni doimiy kuzatib borish masalasining moslashuvchanligi va muhimligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Media, madaniy va kasbiy-ijtimoiy darajadagi nomutanosiblik. Butun er kurrasini o'rab oladigan aloqa tarmoqlarining yoyilishi texnologik sabablar, xususan, sun'iy yo'ldosh aloqasini, telekommunikatsiya uskunalarini takomillashtirish taqozosidir. Boshqa tomondan, yuz berayotgan jarayonlar tahlili iqtisod, madaniyat va media mahsuloti o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Korxonalar birorta muhitga kirib borishlari, yangi mintaqa, iste'molchilarni topishlari uchun o'zlari taklif qilayotgan tovarlar va xizmatlar yaxshi qabul qilinishini ta'minlaydigan ramziy shakl, imij aktsiyalaridan foydalanadilar. Reklama, kliplar, filmlar, musiqali lavhalar, hazil-mutoyiba, san'at, modalar namoyishi – bularning bari bozor, korxona, davlat manfaatiga xizmat qildirilgan. Brendlar, markalar, firma belgilari muayyan korporatsiya, tashkilot, mashhur kishining jozibali timsolini yaratishga imkon beradi.

Global infosferaning vujudga kelishi, o'z navbatida, bir qator muammolarni hosil qildi. Media TMK yangi ramziy (yoki turli mazmundagi) muhit, matn va efir materiali, barcha odamlar uchun birdek timsollar yaratilishiga, tomoshalar, kino va videomahsulotning ko'p adadlab chiqarilishiga olib keldi. Ko'plab musiqali, sport ko'rsatuvlari, shou-biznes, moda dunyo bo'ylab yoyildi. Bularning barchasi ijobjiy mazmunga ega bo'libgina qolmay, hali qudratli aloqa bazasiga ega bo'lмаган yoki endigina xalqaro miqyosda tijoratchilik va tadbirkorlikka qadam qo'yayotgan xalqlarning milliy madaniyatlari va ijtimoiy yutuqlariga ma'lum darajada xavf soladi.

Media sanoati mamlakatlarning axborot sohasida texnologiya jihatidan rivojlangan va kambag'al, qoloq mamlakatlarga ajratilishiga asos bo'ldi. F.Uebsterning qayd qilishicha, 1990-yillarda amerikaliklarning yigirmata filmi butun dunyoda eng ko'p daromad keltirgan filmlar bo'ldi. "Titanik", "Samoviy urushlar", "Qora libosli odam", "Alouddin", "Yura davri bog'i", "Forest Gamp" va boshqa filmlar shular jumlasidandir. Ularning barchasi 500 mln dollar, "Titanik"ning bir o'zi esa 2 mlrd dollar daromad keltirdi. Germaniya, Angliya, Italiya, Frantsiya, Ispaniya, Avstriya, AQShda – xullas, qaerdaki kino bo'lsa, hamma joyda ular etakchilik qilishdi. Shu tariqa talablari va munosabatlari turlicha auditoriyalarda umumiyligi ramziy muhit vujudga keltiriladi. Los-Anjeles va Londondan taralgan rok musiqa butun dunyodagi o'z muxlislarini kiyinish va eyish-ichishda o'z pirlariga taqlid qilishga majbur etadi.

Kastels axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet va umuman multimedia ta'sirini har tomonlama qarab chiqadi. U elektron pochta ustunligi va qulayligini, elektron hamjamiyat paydo bo'lganligini, aloqa vositalari interfaolligini va boshqa holatlarni ajratib ko'rsatadi. Tarmoqqa kirish imkoni va unga kirishib ketish madaniyat uchun eng muhimdir. Kastels aytganidek, iste'molchi tarmoqqa bog'lanmagan ekan, u tarmoq jamiyati hayotida to'laqonli ishtirok eta olmaydi. Biroq olimda madaniy an'analar nuqtai nazaridan kompyuter tarmoqlaridan foydalanishning ayrim oqibatlari xususida jiddiy o'ylar paydo bo'ladi. Unga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdan olinadigan madaniy samara demokratik kommunikatsiyalarning oddiy

imkoniyatidan ko'ra ancha jiddiy bo'lib tuyuladi. Tarmoqqa ulanganlik uchun uning mantiqi, tili, "o'tish ball"iga, kodirovkasi va dekodirovkasiga moslashish talabi tarzida narx qo'yiladi, deb yozadi u.

Kompyuter tarmoqlari, Internet, televidenie singari ommaviy aloqa tizimiga muqobillik qiladi. Ular bir xillashtirilgan (homogenizatsiyalashtirilgan) auditoriya uchun markazlashtirilgan ishlab chiqarish va ko'rsatish bo'lmiss televideniega xavfdan darakdir. Internet paydo bo'lishiga qadar aloqa texnologiyalaridan foydalanish natijasida ijtimoiy hayotni bo'laklarga bo'lib ko'rsatish mayli paydo bo'lgan edi. Kabel va sun'iy yo'ldosh televideniesi bu jarayonni chuqurlashtirib yuborib, auditoriyaning turli bozorlari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu ko'rsatish-eshittirish vositalari aniq maqsadli auditoriyaga ega bo'lgan holda, uni oldindan tanlangan axborot bilan ta'minlaydi. Natijada, bunday "tabaqalashtirilgan va xilma-xillashtirilgan dasturlar" tomoshabinlarni ajratib tashlaydigan bo'ldi. Kastels kelajakda dunyo yaxlit bir global qishloq bo'lishini oldindan xabar bergen Maklyuenga e'tiroz bildirgannamo aytadiki, biz dunyoviy qishloqda emas, balki "alohida tabaqalashtirilgan kottejlarda" yashashimiz juda ehtimol ko'rindi. Maklyuen fikrini o'zgartirib, u "meeage is the medium" - "xabar berish vositasi - nomadir", ya'ni media auditoriyaning turli doiralari nimani talab qilishsa, nimaga qiziqishsa, o'shani uzatadi, deb yozadi. Bu umummilliy televidenie qo'llab-quvvatlab turgan umumiy madaniyatni boy berish xavfini tug'diradi. Zotan, mediamagnat Rupert Merdokga tegishli New Corporation axborot mahsuloti voqealar ana shu tarzda rivojlanishini tasdiqlovchi dalillardan biridir.

Muayyan axborot mahsulotining turli doiralarga bo'lib tashlangan hamda o'yin-kulgi va xursandchilikka yo'naltirilgan auditoriyaga etkazib berilishi bilan bog'liq xonanishin, biqiq turmush tarzining roli oshib borayotganligi ham tashvish tug'diradi. Kastelsni xavotirga soladigan narsa shuki, turmushning asosiy qismini ko'ngilxushlik tashkil qiladigan bo'lsa, bu shunga olib boradiki, odamlar, oddiy foydalanuvchilar interfaol muloqotni o'zları amalga oshirmaydigan bo'lib qoladilar. Dasturlarni ishlab chiquvchilar, prodyuserlar, san'at va kinematografiya sohasi mutaxassislaridan iborat markazlashtirilgan kuchlar bunday muloqotni yo'naltiradigan bo'ladi. Tarmoq jamiyati muvaqqat cheklovlar borgan sari bekor qilina boradigan abadiy olamni vujudga keltiradi. Bu turmush tarzlarining emirilish, maromiylikning buzilish xavfini yuzaga keltiradiki, buning ustiga inson hayotining biologik bosqichlari hiyla-nayranglar domida qoladi. Inson go'yoki ikki xil makonda – kosmopolit sifatida global kenglikda, ma'lum etnik, mehnat guruhining vakili o'laroq mahalliy muhitda yashayotgandek taassurot tug'diruvchi holat jiddiy fiziologik zo'riqish keltirib chiqaradi. Birinchi holda u tarmoqda etakchi rol o'ynash, boshqaruv elitasi muhitida hukmronlik qilish uchun faol aloqa bilan mashg'ul bo'ladi. Ikkinci holda u birlikni yo'qotmaslik, o'z guruhi, qarindosh-urug'laridan uzoqlashib ketmaslik uchun aloqa bog'lab turishi kerak bo'ladi.

Televidenie va tarmoq auditoriyasi unga yo'naltirilgan materiallar, eshittirish-ko'rsatuvarlar, ularning mazmuni, ta'sir ko'rsatish yo'sinlari jihatidan ham tashvish uyg'otadi. Evropada, hamonki sen siyosat bilan shug'ullanar ekansan, televidenie bilan ish ko'rmasliging mumkin emas, degan fikr taomilga aylanib qolgan. Davlat etakchilarining, saylov kampaniyasida qatnashuvchi nomzodlarning siyosiy chiqishlari ko'pincha ulkan bir shou tarzida beriladi. Ko'p hollarda bunday tomoshalarning personajlari ekranda real chiqishlar bilan navbatma-navbat ko'rsatib turiladi. Matn bilan audioko'rish yo'sinlarining bunday omixtaligi yangi virtual reallikni

yaratishga olib keladiki, o’z navbatida, bu muayyan tajriba bo’lib yashab qoladi. Kastelsning fikricha, multimedia – bu tizim bo’lib, unda reallik to’liq ilg’ab olingan va virtual obrazlarga, o’ylab topilgan olamga jo etilgan, ekranda aks etgan tashqi tasvirlar shu olamdagи qandaydir tajribadan xabar beribgina qolmasdan, o’zlari ham tajribaga aylanadi.

O’ylashimizcha, Kastels ekran sanoati taraqqiyotining salbiy tomonlarini ham ma’lum ma’noda oldindan ko’ra bilgan. Bugungi kunda hayotiy tajribaga va uydirmanı haqiqiy faktidan ajratish ko’nikmasiga ega bo’lmagan tomoshabin namoyish qilinayotgan hamma narsani haqiqat, voqelik deb qabul qilishi ravshan ko’rinib turibdi. Tabiiyki, ayrim tomoshabinlarda OAV namoyish qilayotgan lavhalar, epizodlar va o’zlarini “hayajonga solgan” xatti-harakatlar psixikasiga taqlid qilish, o’xshatma amal qilib ko’rish ishtiyoqi tug’iladi. Kompyuter o’yinlari, tomosha qilingan jangari filmlar, ekranda ko’rsatilgan zo’ravonlik, vahshiylit sahnalari ta’siri ostida yoshlар sodir etgan jinoyatlar, qotilliklar, terroristik harakatlar soni ko’paygani bunga dalildir.

Jamiyatning ijtimoiy qatlamlaridagi bo’linishlarda, farqlanishlarda ham o’zgarishlar yuz berayotganiga e’tibor qilmaslik mumkin emas. Kastels nazdida, axborotlashuvchi kapitalizm jamiyatning qatlamlarga ajralishini tubdan o’zgartirib yubordi, Evropada iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot Tashkiloti mamlakatlarida aholining 30 % axborot mehnati sohasida bandligi shundan dalolat beradi. Tarmoq jamiyatining rivojlanishi aholining ilgarigidek qatlamlarga ajralish shakllarining o’zgarishi va tengsizlikning yangi shakllari paydo bo’lishi bilan bir vaqtدا davom etmoqda. Mehnat bilan kapital o’rtasidagi ilgarigi taqsimot ham yo’qolib borayapti. Foydali natijani nazorat qilishda asosiy rolni ekspertlar, ko’p sonli aktsiyaga ega guruuhlar, top-menejerlar, tahlilchilar, elektron boshqaruvchilar o’ynaydigan bo’lishdi. Ular zamонави kompyuterlashtirilgan ishlab chiqarishning tepasidadirlar. Kompaniyalar faoliyatini yo’naltiruvchi kishilar ularga doimiy o’zgarib turgan sharoitlarda yashovchanlikni saqlab qolish imkonini beradigan axboriy ko’nikmalarga ega bo’lishlari lozim. Hozirgi paytda katta hajmdagi tovarlar, xizmatlar sohibi bo’lishning o’zi kamlik qiladi, buning ustiga keng tarmoqli axborot, ma’lumotnomalar materiallariga ham ega bo’lish darkor. Busiz sur’atni, istiqbolni boy berib qo’yish hech gap emas. Tahlil qilishga, strategiyani belgilashga, samarali muloqot olib borishga va ommaviy axborot vositalari yordamida taqdimot tadbirilarini o’tkazishga qodir axborot xodimlari zamонави tadbirkorlikning o’zagini tashkil qiladi. O’zlarini dasturga tuzgan, zarur bo’lgan taqdirda o’qish va qayta o’qish mahoratini egallagan bu kishilarning aksariyat qismi obro’li oliy o’quv yurtlarini bitirgan, biznesdagi va loyihalash tirishdagi shaxsiy ishtiroklari bayon etilgan salmoqli hujjatlarga ega mutaxassislardir.

Bugungi yangi dunyoda axborotlashgan mehnat asosiy qiyamatni ishlab chiqaruvchi bo’lib qolmoqda va unga yuksak talablar qo’yiladi. Ilgarigi ishchilar sinfi tezda moslashuvga, sur’atni ushlab turishga va “sahnani” o’z vaqtida tark etishga qodir emasligi ochiq-oydin bo’lib qoldi. Globallashgan dunyoda u o’zini nochor sezadi. Malakasiz va yaxshi tayyorgarlikdan o’tmagan ishchi kuchi jamiyat nazar-e’tiboridan chetda qoladi. Bu odamlar eng yaxshi deganda, o’zlariga kam haq to’lanadigan ish topa oladilar, omad kulib boqmasa – turli jinoyatkor guruuhlar qo’liga, uyushgan jinoyatchilik muhitiga tushib qoladilar. G’arb mamlakatlarida, deb qayd etadi tadqiqotchi, bilimsiz, axborotlashuvchi kapitalizm koriga yaramaydigan odamlar “to’rtinchi dunyo”ni tashkil qiladi, chunki ular uchun globallashgan kapitalizmda kerakli rol ham, ko’nikmalar ham qolmagan (shaharlik qashshoqlar, AQSh va boshqa mamlakatlardagi gettolar aholisi

shundaylar jumlasidandir). Natijada yirik megopolis-shaharlarda jahon iqtisodiy tizimining markaziga aylangan axborotlashgan xodimlar qatorida kambag'allar, o'z sinfi bilan aloqasini yo'qotgan aholi qatlamlari yashashadi. Bunday ayanchli ahvoldan chiqish yo'li faqat bir narsada ko'rindi: ilgarigi "umumiy tipdag'i xodimlar" bilim olish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirish orqaligina yangi iqtisodiyot talablarini qondira oladilar.

Tarmoq jamiyati o'xshashlikning o'tmishga murojaat qilinmaydigan yangi shaklini ham yaratadi. Bu erda e'tibor markazida ijtimoiy harakatlar turadi, deb hisoblaydi Kastels. Ular qadriyatlarni, jamiyat institutlarini o'zgartiradigan va insonga uning o'xshashlik bobidagi asosiy unsurlarini ato etuvchi maqsadga yo'nalgan jamoaviy harakatlarni namoyon qiladilar. Mehnat bozorida axborot xodimlari sanoatlashgan jamiyatning ilgarigi ishchilar sinfi o'rnini bosgan o'ziga xos yangi sinf bo'lib qoldi, degan fikrga ham yo'l beriladi. Ijtimoiy hayotda ham avvalgi sinfiy ajratishlar yo'olib, siyosiy jihatdan uyushuvning boshqa, yangi shakllari paydo bo'layotir. Tarmoq jamiyati qarshilik ko'rsatish harakatini va "loyihalashtirilgan o'xshashlik" harakatini dunyoga keltiradi. AQShdagi Patriots yangi fashistik harakatni, Kataloniyadagi hududiy separatizmni va boshqa tashkilotlarni qarshilik ko'rsatish harakatiga misol qilib keltiradilar. Loyihalashtirilgan o'xshashlikni esa ekologik, feministik va milliy harakatlar ifodalaydilar. Ularning paydo bo'lishiga ikki xil nuqtai nazardan qaraladi. Birinchidan, an'anaviy sinfiy harakatlarga qaraganda ancha keng bo'lgan bu harakatlar o'z tarafdarlarining turli xil turmush tarzlariga va qadriyatlariga murojaat qiladilar. Boshqa tomondan, mazkur harakatlar - tarmoq jamiyati faoliyat ko'rsatishining qonuniy natijasidirki, bu jamiyat insonlarga o'z g'oyalarini yoyish, muloqot qilish hamda o'z masalalarini hal etishda keng imkoniyatlar beradi. Umuman olganda, "juda katta va tobora kuchayib borayotgan bosimga javoban yangi o'xshashliklar shakllanishining dalolati"ni ayni shu harakatlarda ko'rmoqdalar. Axborot asrining ruhiy zorbulari va zo'riqishlariga munosabat sifatida ham qarash mumkin bo'lgan bu harakatlarning barchasi axborot mehnati bilan sug'orilgan. Masalan, "Grinispis" yoki "Zamin do'stlari" tuzulmalari global tarmoqlarga, o'z a'zolarining elektron ro'yxatiga, yuqori bilimli va mediatexnologiyalarni o'zlashtirib olgan xodimlarga ega.

3. Axborot turli maqsadlar va manfaatlar xizmatida

Axborotdan foydalanish: muammolar, nizolar va mayllar. Axborot yoki siyosiy, ijtimoiy jihatdan keng xabardorlik jamiyat fuqarolari faol hayotining o'zagi hisoblandi. Bu faqat biznes, kasbiy-ijtimoiy faoliyat rivojiga ta'sir ko'rsatibgina qolmay, turmush andazalari bo'lishini ham, shaxslararo munosabatlari, hayot me'yorlari, turmush tarzi va fe'l-atvor standartlashtirishini ham taqozo qiladi. Milliy va diniy an'analarning boshqarilish mexanizmi ancha qat'iy, barqaror bo'lgan Evropa va Sharqdan farqli ravishda Amerika Qo'shma Shtatlarida, masalan, boshqaruvda va jamiyat harakatida, o'zaro insoniy munosabatlarda huquqiy va ommaviy aloqa tizimlari hukmon rol o'ynaydi. OAVning auditoriyaga ta'sir ko'rsatishiga oid ba'zi misollar qo'llanmabop materiallar bo'lib qoldi. Masalan, 1939 yilda CBS radiostantsiyasi G.Uellsning "Dunyolar urushi" ilmiy-fantastik romani teatr instsenirovkasini olib eshittirgani sarosima uyg'otib, ko'plab radiotinglovchilar sog'ligiga putur etkazdi. Roman mazmuniga ko'ra, mirrixliklar bizning sayyoramizni bosib olib, odamlarni zaharovchi gaz bilan qatl eta boshlaydilar. Ko'plar radio orqali berilayotgan eshittirishni haqiqiy bo'lib kechayotgan voqe'a sifatida qabul qilib, vahimaga tushdilar. Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, o'shanda dahshatga tushgan bir millionga yaqin radiotinglovchi o'z

uylaridan qochib chiqib, yashirinish bilan omon qolishga harakat qilgan. Shaharlarning ko'chalarida tartibsizliklar yuzaga kelib, transport harakati izdan chiqqan. Ikki nafar yigit "Tug'ma qotillar" filmini qayta-qayta tomosha qilishlarining natijasi ham fojiali bo'lган – ular film qahramonlariga taqlidan mutlaqo begunoh odamlarni otishga tushishgan.

Ilmiy asarlarda ba'zida ommaviy axborot vositalari, ayniqs, radio, kino va televidenie o'tkir, bosim o'tkazuvchi hokimiyat sifatida baholanadi. OAVning tahlili ularning insonga ta'siriga doir turli nazariyalar, modellar paydo bo'lishiga olib keldi. "Shprits" modeli, "o'qlar" nazariyasi, "cheksiz ta'sir o'tkazish nazariyasi" shular jumlasidandir. Ularda ommaviy axborot qotil o'qqa hamda vena qon tomiriga kiritiladigan kuchli narkotik moddaga tenglashtiriladi. Yuqorida sanab o'tilgan nazariyalarning nomlari ham shundan kelib chiqqan. Bir qator yirik olimlar butun bir yo'naliшhning – ommaviy axborot va ommaviy aloqa vositalarining ta'sir ko'rsatishiga doir nazariyaning asoschilar bo'ldilar. Ommaviy aloqani o'rganishning ilmiy asoslari, texnologiyasi ishlab chiqildi. Uilbur Shramm, Garold Lassuel, Pol Lazarsfeld va boshqalar media-zo'ravonlik mahsulotlari ko'payib borishiga media mahsulotlarini qabul qilish va iste'mol etish madaniyatini qarshi qo'yish, o'smirlar va yoshlarda televizor ekranida dahshat va qo'rquvga soluvchi sahnalarga hamda OAVning boshqa shu tarzagi materiallariga qarshi immunitet yaratish g'oyasini ilgari surdilar. Mediata'sir va mediapedagogika ana shu tariqa vujudga keldi va rivoj topdi. Ommaviy madaniyatga qarshi psixologik jihatdan harakat qilish maqsadida shu yo'naliшhda o'nlab kitoblar va maqolalar tayyorlandi¹.

Evropa va Amerikaning ommaviy axborot vositalari sohasi olimlari XXI asr bo'sag'asida televidenie va kino sanoatining shablon va texnikalashtirilgan kartinalardan himoyalanish masalalarini keskin qo'yan bo'lsalar, Sovet ittifoqi barbob bo'lishi munosabati bilan jahon geosiyosiy xaritasida yuz bergen o'zgarishlar ommaviy axborot vositalariga nisbatan boshqacha mazmundagi bahs-munozaralarni yuzaga chiqardi. MDH mamlakatlarining "erkinlikka chiqqan" OAV dastlab shu vaqtgacha o'zi yashab kelgan tuzumni rad qilish, fosh etishdan iborat tanqidiy qarashlarga to'lib-toshdi. So'ngra ular turlicha qiyofa kasb etib, hozirgi davrga nisbatan har xil qarashlarga ega bo'la bordilar, e'lon qilayotgan maqolalari "sariq" tusga kirib, mazmun darajasi jihatidan sifati pasayib borishi bilan farqlanadigan bo'lib qoldilar. Shov-shuvlar, janjallar, tomoshalarga to'lib-toshganlik televizion ko'rsatuvlarga xos xususiyatlarga aylandi. Rossiya OAVda, masalan, yolg'on ma'lumotlardan yoki omma ongini chalg'itish maqsadida biryoqlama xabarlardan keng foydalaniladigan bo'ldi. Yosh tadqiqotchi M.Zinko 1995 yilda Rossiya matbuotini ta'riflab shunday yozgan edi: "Bugungi kunda xolis OAVni topish qiyin. Odatda, gazetalar va telekompaniyalar ma'lum nuqtai nazarda turib olib, axborot materialiga ana shunga bog'lik ravishda ishlov beradilar"².

Ba'zida Rossiya Federatsiyasi OAVda 1990-yillarda vujudga kelgan vaziyatni Amerika ommaviy nashlarining XX asr boshidagi ahvoli bilan qiyoslaydilar, o'shanda

¹ Брайант Дж, Томпсон С. Основы воздействия СМИ. Ингл. тилидан таржима. Москва, Санкт-Петербург, Киев. Издательский дом "Вильямс". 2004; Рашкофф Д. Медиавирус! Как поп-культура тайно воздействует на ваше сознание. Ингл. тилидан таржима. М., 2003 ва бошк.

² Зинко М. Дезинформация как средство манипуляции общественным сознанием. // Журналистика и современность. Тезисы научной конференции. – М.: МГУ, 1995. – Б. 45.

2 Караг: "Новое время". 1996. № 5. – Б. 18-19.

bu nashrlar talabchan bo'limgan auditoriyaga mo'ljallab ish tutib, foyda ko'rardি. Sariq nashrlar soni keskin oshib ketganligi hamda radio va televideniega sariq matbuot uslublari kirib borganligi ham ana shundan. E'tirof etish kerakki, SSSR parchalanib, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Boltiqbo'yida mustaqil milliy davlatlar, Rossiya Federatsiyasining o'zida ham milliy mustaqillik maqomi aniq belgilab berilgan respublikalar e'lon qilingandan keyingi davrda bu mamlakatlar ommaviy axborot vositalarida o'xshash jarayonlar kuzatilmoqda. OAV huquqiy bazasini ta'minlash, tegishli qonunlarni qabul qilish, axborot sohasini milliy va madaniy tiklanish doirasiga kiritish, tarixning oq dog'larini to'ldirish shular jumlasidandir.

Bu davrdagi Rossiya nashrlarida bizning respublikamiz faoliyatining ijobiy, qayta o'zgartiruvchilik jihatlari haqida materiallar deyarli e'lon qilinmadi. Xorijiy mamlakat hayotini bir tomonlama, bir yoqlama yoritish nashrning g'arazli, noxolis ekanligidan dalolat berib, ahamiyatiga putur etkazadi, uni jiddiy o'quvchilar ishonchidan mahrum etadi. Arkadiy Dubnovning (Albert Musin ham o'sha) "O'zbekiston Markaziy Osiyo Germaniyasi rolida" kichik sarlavhasi bilan berilgan "Erkinlikni qanday boshqarish kerak" maqolasi bunga misol bo'la oladi². Ushbu maqola muallifi Toshkentga jurnalistlarning xalqaro konferentsiyasida ishtirok etish uchun taklif qilingan. Biroq, maqola mazmunidan ko'rinish turganidek, anjumanda muhokama qilingan muammolar muallif e'tiboridan chetda qolgan yoki u tomondan pichingli tanqid uchun foydalanilgan. "Novoe vremya" jurnalining qo'sh sahifasida Toshkent turmush tarziga hech ham xos bo'limgan mazmundagi surat bilan katta maqola e'lon qilgan A.Dubnov uchun jamiyatimiz hayotidan nomuhim, ikkinchi darajali jihatlarni qidirib topish va bo'rttirib ko'rsatish asosiy vazifa bo'lgan. Bu xalqaro mavzularga ixtisoslashgan jurnalistning qaysidir mamlakatda bo'laturib, boshidanoq barcha ko'rgan-eshitganlarini salbiy baholashga o'zini shaylagan holda, shunga muvofiq mazmundagi material berishini ko'rsatuvchi misollardan biri, xolos. Bunday bir tomonlama yondashuv avvalgi kommunistik mafkuraga, ayniqla, G'arb mamlakatlariga munosabat bildirishda xos bo'lib kelgan. Bu uslub 1990-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasi hayotini yorituvchi bir qator jurnalistlar ham saqlab qoldilar.

Ijtimoiy fanlarda ommaviy axborot vositalariga yangicha qarash qaror topmoqda. Aloqalarning, axborotni umumlashtirish, qayta ishslash, uzatishning gipermatnli, ko'rish-kligli, dizayn-bezakli, lingvo- terminologik singari yangi uslublari paydo bo'lganligi shunga olib keldiki, endilikda ommaviy aloqa tizimlari mo'ljalni real voqealarni aks ettirish (yoritish) tomon emas, balki ma'lum timsollar, bilim, kartinalarni ishlab chiqish tomon olmoqda. Ommaviy axborot vositalari buni Iroqdagi urushni (1991 yil) yoritishda g'oyat yorqin namoyish etishdi. Ular yaratgan harbiy harakatlar timsoli voqelikka mos emasdi. Ommaviy kommunikatsiya vositalari yangi obrazlar, g'oyalar, o'zaro munosabatlar vujudga kelayotgan voqelikni, virtual makonni o'zgartirib yuboradilar. Ya.N.Zasurskiy so'zi bilan aytganda, Internet bosma davriy nashrlardan shunisi bilan farq qiladiki, u asosan butun tahririyat nuqtai nazarini emas, ayrim jurnalist yoki jurnalistlar guruhi nuqtai nazarini aks ettiradi.

4. Axborotning xavf tashish xususiyati va undan himoyalanish zarurligi

Axborot tahdidlari va milliy hamda axborot xavfsizligi strategiyasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari axborot olish va almashish, jamiyatning ahvoli hamda

xalqaro munosabatlarga uning ta'sir ko'rsatishi borasida keng imkoniyatlар ochadi. XXI asr – globallashuv asri, jahon hamjamiyatida ulug' o'zgarishlar davri, shu bilan birga yangi xavf-xatarlar va qarshi harakatlar davri. Ko'plab davlatlar axborot muhitiga tobora ko'proq bog'lanib qolmoqdalar, milliy, xalqaro barqarorlik va xavfsizlik esa ko'p jihatdan ob'ektiv va tezkor ravishda axborot almashish, axborot-telekommunikatsiya tizimlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadigan bo'lib bormoqda. Lekin axborot oqimidan inson ongini chalg'itish, ijtimoiy muhit barqarorligini buzish maqsadida ham foydalanilishi mumkin. Shuning uchun ham axborot, ommaviy axborot tizimlari xodimlarining o'zlari taqdim etadigan mahsulot uchun mas'uliyati mislsiz ravishda oshib borayotir.

Sanoatning jadal rivojlanishi ekologiyaga xavf tug'dirgani, yadro fizikasi muvaffaqiyatlari yadro urushi xatarini vujudga keltirgani singari jamiatning barcha sohalari, ayniqsa, ishlab chiqarish va boshqaruvning axborotlashuvi sayyoraviy miqyosda bir qator jiddiy muammolar manbai bo'lib qolmog'i ehtimoldir. Aloqa texnologiyalari OAVdan o'z faoliyatlarida samarali foydalanadigan terroristlar uchun qudratli quroq bo'lib qoldi. Deyarli har kuni biz dahshatli terroristik qo'poruvchiliklar to'g'risida ma'lumotlar olib turamiz. Ba'zi siyosatshunoslar fikricha, bu xunrezliklardan maqsad qurbanlardan ko'ra ko'proq OAVning ularga bildiradigan munosabatlari bo'lib, bu terrorchilarga ijtimoiy fikrga va mamlakatdagi ishlar ahvoliga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Boshqa tomondan, ilmiy-texnik imkoniyatlari va aholi turli qatlamlarining madaniy-bilim darajasi yuksak bo'lgandagina tobora rivoj topib borayotgan jahon maydonida to'laqonli ishtirokchi bo'lish mumkin. Bunday zaminga ega bo'limgan davlatlar borgan sari ijtimoiy va texnik taraqqiyotdan chetga chiqib qolib, go'yoki "tsivilizatsiyadan abadiy chetda turuvchilar" bo'lib qoladilar. Taraqqiyotdagi bunday notekislik rivojlangan mamlakatlar bilan qolgan dunyo o'rtasida o'zaro qarama-qarshi turishga, "raqamli ajralish", nobarqarorlik, yangi urushlar va nizolarga sabab bo'lishi bilan xatarlidir. Axboriy xavfsizlik sohasi mutaxassislari jahon axborot maydoni axborotlashgan jamiatning barcha sub'ekt-mamlakatlari axborot va aloqa texnologiyalarini bir xillashtirishni talab qiladi, deb hisoblaydilar.

G'arb etakchilari jahon telekommunikatsiya tarmoqlari, ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirayotgan axboriy-madaniy, axborot-mafkuraviy bosqinchilik ham tashvishga soladi. Mamlakatlar bunday aralashuvga, begona axborot ta'siriga qarshi turish uchun milliy madaniy boyligini himoya qilishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ko'rishga majburdirlar. Juhon axborot tarmoqlarida davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy qarama-qarshilik, bo'hron holatlari o'z aksini topishini hisobga olgan holda, milliy axborot resurslarini va dunyodagi ochiq tarmoqlar orqali axborot almashuvi maxfiyligini himoya qilish vazifasi ko'ndalang turmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmni ham qo'shib hisoblaganda, bunday qarshi harakatlar bilan ko'p martalab to'qnash keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov bu muammoning muhimligini ko'rsatib, shunday ta'kidlaydi: "Aftidan, bugungi kunda xavfsizlik va barqarorlik yo'lida paydo bo'layotgan tahdidlarga tegishli munosabatda bo'la olishning o'zigina etarli emas. Mavjud xavf-xatarlarning tabiatini to'g'ri tushunib etishimiz kerak. Ularning manbalari va o'zaro aloqalarini vaqtida aniqlashimiz darkor. Jamiatda barqarorlikni saqlash shart-sharoitlarini belgilab olishimiz va ulardan samarali foydalanishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasining barqaror va sobitqadamlik bilan rivojlanishi shularga bog'liqdir"¹.

Milliy xafvsizlik ham, xalqaro xavfsizlik ham ichki va tashqi xatarlar oldida ancha zaif bo'lib qoldi. Inson dunyosi, uning hayoti ham yildan-yilga axborotga, axborot texnologiyalari va resurslariga bog'liq bo'lib borayotir. OAV va kompyuter o'yinlari orqali shafqatsizlik, zo'ravonlikni ulug'lashning, pornografiyaning tarqatilishi o'smirlar va yoshlarda bunga ongsiz ravishda taqlid qilish istagi tug'ilishiga olib boradi, ularning odatlari va turmush tarzida yurish-turishning nomaqbul andazalarini mustahkamlaydi, ko'p hollarda esa huquqbuzarlikni rag'batlantiradi.

Mediazo'ravonlikning taniqli tadqiqotchisi, pedagogika fanlari doktori, Rossiya kino ta'limi va media pedagogikasi Uyushmasi prezidenti A.V.Fedorov OAV materiallarida mavjud zo'ravonlik ko'rinishlarining yoshlar va bolalar auditoriyasiga salbiy ta'siri oshishining o'ziga xos xususiyatlari ishora qiladi. Shubhasizki, deb ta'kidlaydi u, masalan, zo'ravonlik sahnasi bo'lgan kompyuter o'yinlarining ta'sirini uzil-kesil faqat xarakterda salbiy xususiyatlarni shakllantiruvchi sifatida baholab bo'lmaydi. O'yin o'ynash va hayotda zo'ravonlik qilish – bir qarashda boshqa-boshqa narsalar. Biroq shu bilan bir paytda zo'ravonlik jarayoniga interfaol ravishda daxldor bo'lish unga albatta ko'nikib qolishga, birovning dardiga sherik bo'lish, o'zgaga achinish tuyg'usi o'tmaslashuviga olib keladi. Zero, virtual olamda insonni to'pponchadan yoki avtomatdan otib tashlash, granata bilan portlatish, elektr arra bilan bo'laklab, bomba yordamida parcha-parcha qilib tashlash hech gap emas. O'tgan asrning 90-yillari marrasida ijtimoiy-madaniy vaziyatning keskin o'zgarishi gumanitar fanlarda shunchalik ko'p "oq dog'lar"ni oshkor qildiki, deb qayd qiladi tadqiqotchi, audiovideo axborotiga nisbatan bola huquqi muammozi ham ilmiy jamoatchilikning e'tibor doirasidan chetda qoldi. Faqat keyingi yillardagina o'sib kelayotgan yosh avlodga ekran zo'ravonligidek favqulodda hodisaning ta'sirini muayyan darajada o'rganishga harakat qilgan rossiyalik olimlar tadqiqotlarining natijalari e'lon qilina boshladi¹.

Mediamadaniyat va mediata'lim muammolari YuNESKOning xalqaro konferentsiyalarida (Parij, 1997, Vena, 1999), San-Paulodagi konferentsiya va sammitda (1998), Evropa Kengashi eshituvlarida (Strasburg, 2002) muhokama mavzusi bo'ldi. Umuman, chet ellik olimlarning aksariyati zo'ravonlik ko'rinishlari nazoratsiz oqimining yoshlarga salbiy ta'sirini baholashda yakdildirlar va bu sohada puxta o'ylangan yagona davlat siyosati yaratilishini qo'llab-quvvatlaydilar.

Axborot olish imkonи va axborotlashuv jarayonlari rivojlanishini tartibga solishning mustahkam huquqiy bazasini shakllantirish shaxs, jamiyat, davlatning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning muhim omilidir. Shu boisdan ko'pgina hukumatlar axborotlashuv davrining turli xil da'vatlariga qarshi choralar ko'rish uchun muhim xalqaro hujjatlarni imzolamoqdalar, faol nuqtai nazarlarini bildirmoqdalar. Rossiya Prezidentining Farmoni bilan Rossiyaning axborot xavfsizligi Doktrinasi qabul qilindi. Axborot sohasi jamiyat hayotini tizimga soluvchi omil bo'lib, Rossiyaning siyosiy, mudofaa ahvoliga va boshqa tomonlariga faol ta'sir ko'rsatadi, deyiladi unda.

Jenevada (2003 yil, dekabr) o'tkazilgan global axborot jamiyatiga doir umumjahon uchrashuvida xalqaro axborot maydonining amal qilish uchun

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: „Ўзбекистон”, 1997. – Б. 10-11.

¹ Федоров А.В. Насилие на экране. // "Человек". 2004, №5.

mutanosiblashtirilgan shart-sharoitlar yaratish borasida asosiy printsiplar va yo'nalishlar belgilab olindi. Axborot infratuzilmasidan BMT Nizomiga xilof keladigan maqsadlarda foydalanilgan hollarda, bu tahdidlarga qarshilik ko'rsatish chora-tadbirlari ko'riliishi zarur. Insonning xatti-harakatini chalg'itish, axborot infrastrukturasining barqaror faoliyatiga putur etkazish, qonun bilan mudofaa qilinadigan axborotga jinoi yashkilotlarning ruxsatsiz yo'l topishi, «axborot qurolidan " foydalanish va bu sohada qurollanish poygasini avj oldirish shunday tahdidlar jumlasiga kiradi. Rossiya doktrinasida, shuningdek, axborot-aloqa texnologiyalarining gurkirab rivojlanayotganligi muqarrar ravishda davlatning ichki siyosatini shakllantirishga ham ta'sir o'tkazishi, mavjud davlat va jamoat tashkilotlarining ana shu yangiliklarga doimiy moslashib borishini talab qilishi qayd etiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining 2002 yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik strategiyasi boshqa mamlakatlarning ana shunday hujjatlari bilan qiyoslaganda o'z mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi bilan ancha hujumkor va birmuncha jangovar xarakterga ega. AQSh terrorizmga qarshi, erkin savdo, tadbirkorlik, o'zaro hamkorlik va demokratiyaga to'sqinlik qiluvchi turli shakldagi totalitar tuzumlarga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishga asosiy urg'u beradi. To'qqiz bo'limdan iborat strategiyada “Insonlarning o'z qadr-qimmati hurmat qilinishi ta'minlanishiga intilishini qo'llab-quvvatlash”, “Global terrorizmga zarba berish maqsadida ittifoqlarni mustahkamlash hamda bizga va bizning do'stlarimizga qarshi agressiya oldini olish chora-tadbirlari”, “Rivojlanish yo'liga turgan mamlakatlarga jamiyatlar ko'proq ochiqlikka erishishlarida va demokratiya infrastrukturasini yaratishda yordam berib, ular doirasini kengaytirish”, “Global ta'sir ko'rsatishning boshqa asosiy markazlari bilan hamkorlikda harakat qilish rejalarini tuzish”, “Amerika institutlarini milliy xavfsizlik sohasida XXI asr vazifalari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zgartirish” va boshqa shu singari mavzu yoki yo'nalishlar belgilab olingan.

Ushbu Milliy xavfsizlik strategiyasi kontseptsiyasida AQShning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida etakchi davlat ekanligi o'z aksini topganligini ta'kidlamaslik mumkin emas. Unda ko'proq global darajada tashqi dunyoga, turli sohalarda hamkorlikka chiqish vazifikasi qo'yilgan. Aftidan, bu ilg'or texnologiyaga ega bo'lgan va o'zining ta'sir ko'rsatish rejalarini amalga oshirish va ta'sir samaradorligini yuksaltirishga intilayotgan mamlakatlarning rivojlanishini va hayotiy barqarorligini ta'minlashning qonuniy yo'lidir. Biroq hatto rivojlangan mamlakatlar ham hozirgi davrning global qarshiliklarini yakka holda enga olmaydilar. Texnologiya va iktisodiy taraqqiyot bobida turlicha darajada bo'lgan davlatlarning kuch-g'ayratlarini birlashtirgan taqdirdagina jahon axborot maydonidan madaniy yo'sinda foydalanishni ta'minlash mumkin bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Axborot asrining dastlabki bosqichi.
2. XX asrning 60-80-yillarida axborot texnologiyalarining rivojlanishi.
3. Axborot jamiyati nazariyalari (Deniel Bell, Manuel Kastels, Gerbert Shiller, Yurgen Xabermas, Entoni Giddens).
4. Dunyo mamlakatlarining guruhlarga bo'linish muammosi, sabablari va ko'rinishlari.
5. Raqamli tengsizlik, uning kelib chiqishi va xususiyatlari.
6. Iqtisodiy va siyosiy tengsizlik texnologik tengsizlik oqibati sifatida.
7. AQShning Milliy xavfsizlik strategiyasi.

8. Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligi Doktrinasi.

Seminar uchun savollar

1. XX asrning ikkinchi yarmida axborot texnologiyalarining rivojlanishi.
2. Axborotlashgan jamiyat nazariyalari.
3. Raqamli tengsizlikning mazmuni va xususiyatlari.
4. Axborot xavfsizligi masalasida turli mamlakatlar qabul qilgan hujjatlar.

3-bob. AXBOROTNING GLOBALLASHUVI VA AXBORIY

QARAMA-QARSHILIK. TAMADDUNLAR “TO’QNASHUVI” MUAMMOSI

1. Axborot globallashuvining mazmuni va xususiyatlari

“Globallashuv” so’zi lotincha “globus” (er shari)dan olingan. Globallashuv deb, ma’lum bir g’oya yoki maxsulotning sayyoramiz bo’ylab tarqatilishiga aytildi. Aksariyat mutaxassislar nazdida, globallashuv iqtisodiy jarayonlardan boshlangan. Bunga go’yo amerikalik olim Tomas Levitt 1983 yilda “Harvard biznes revyu” jurnalida e’lon qilgan “Bozorlar globallashuvi” nomli maqola sabab bo’lgan. Fikrimizcha, axborot globallashuvini davrlashtirishga bunday yondashuv uncha to’g’ri kelmaydi.

Aslida, bu jarayon qachon boshlangani haqida gap borar ekan, aniq bir muddatni keltirish qiyin, albatta. Mazkur sohadagi globallashuv axborot tarqatishning texnik imkoniyatlariga muvofiq rivojlanib kelgan. Hatto alifbo va qo’lyozmalar (varaqlar, kitoblar) globallashuvning dastlabki ko’rinishlari o’laroq xizmat qildi desak, adashmasak kerak. Ushbu masalaning keskin rivojlanishi sifatida bosma kitob, radio va televideniening paydo bo’lishini aytishimiz mumkin. Balki, axborot globallashuvining zamonaviy bosqichi XX asrning o’ttizinchi yillarida nemis radiosи boshqa mamlakatlarga o’z eshittirishlarini uzatishga kirishganidan va 1942 yilda “Amerika ovozi” radiostantsiyasi ochilganidan boshlangandir.

Axborotning globallashuvi sayyoramiz bo’ylab keng yoyilishi uchun “sovuz urush” yaxshigina xizmat qilib berdi. Bunday urush davomida boshqa (sotsialistik, kapitalistik, uchinchi dunyo) mamlakatlar aholisini zudlik bilan va keng ko’lamda tegishli axborot bilan ta’minlab turish zaruriyati paydo bo’ldi. Mazkur raqobat natijasi o’laroq keskin rivojlanib ketgan axborot etkazuvchi texnika globallashuvning nafaqat axborot, shu bilan bir qatorda barcha boshqa turlari ham avj olishiga sababchi bo’ldi. Binobarin, ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi axborotning keng tarqalishi va globallashuvini keltirib chiqardi. Buning oqibatida esa globallashuvning boshqa turlari vujudga keldi.

Hozirgi bosqichda axboriy globallashuv qanday aniq asosga ega? XX asrning 70–80-yillarida televidenie global hodisaga aylanolmadı. Chunki o’sha davrdagi teleko’rsatuvarlar bir-biriga to’g’ri kelmaydigan to’rtta texnik tizimga asoslangan edi. Rivojlangan dunyo televideniesi “PAL” rejimida ishlayotgan bo’lsa, sotsialistik mamlakatlar televideniesi “SEKAM” tizimida faoliyat ko’rsatardi. Natijada bir texnik tizimiga muvofiq yaratilgan televizorlar boshqa tizim signallarini qabul qilolmasdi.

Internetda esa bunday nomuvofiqlik bartaraf etildi. Bunga barcha Internetdan foydalanuvchilar yagona texnik standart (protokol)lar asosida ishlashlari yordam berdi. Albatta, Internet milliy sektorlarga bo’linadi. Lekin texnik jihatdan yagona tarmoq bo’lgan bu faoliyat maydonida bir sektordan boshqasiga o’tish hech qanday qiyinchilik tug’dirmaydi.

Ko’rib turganimizdek, globallashuv axborot shakliga asoslanib va undan boshlanib, keyinchalik iqtisodiy va moliyaviy, so’ngra siyosiy va harbiy, bora-bora esa madaniy va

mafkuraviy sohalarga ham o'tib ketdi. Demak, bugungi kunda axborot globallashuvi bu jarayonning barcha qolgan turlari uchun yaxlit asos, matematiklar tili bilan aytganda, umumiy maxraj bo'lib xizmat qilmoqda.

Axborotning texnik usullar yordamida tarqatilishini mafkuraga nisbatan ikkinchi darajali ish deb hisoblash soddalik bo'lar edi, lekin, afsuski, bunday fikrlash tez-tez uchrab turadi. Ushbu masalada biz rossiyalik I.N. Panarinning fikrini to'g'riroq deb hisoblaymiz. Olim shunday deb yozadi: "Internetning global tarmoqlari rivojlanishi axborot asri boshlanishining eng xarakterli misollaridan biridir. AQSh va Xitoyning geosiyosiy yutuqlari ularning xarbiy va iqtisodiy kuch-qudratidan ko'ra eng avvalo axborot sohasidagi qudrati bilan va dunyoda sodir bo'layotgan asosiy axboriy, madaniy hamda IJODIY jarayonlar ustidan nazorat o'rnatganliklari bilan belgilanadi"¹. Muallifning yozishicha, axborot ta'siri har bir jamiyatda boshqa jarayonlarni belgilab beradi. Bunday fikrga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q.

Globallashuv qonuniyatlarini o'zimiz tushunganimizcha keltirishga harakat qilamiz.

1. Faqat hammaga kerak bo'lган, ya'ni *universal* kontseptsiyalar, g'oyalar yoki tovarlar globallashadi. Masalan, achchiq qalampirning sayyoramiz bo'ylab tarqalishi er sharining o'rta kengliklarga kelib sekinlashadi va shimoliy kengliklarda deyarli butunlay to'xtab qoladi, chunki bu erda yashovchi xalqlar uni unchalik xush ko'rishmaydi. Jinsi shimplar kiyish esa butun er yuzi aholisi uchun urf bo'lган.

2. Globalashuv davomida, albatta, mamlakatlarning tsivilizatsion o'ziga xos xususiyatlari emas, balki ushbu jarayonda *faol* mavqeni egallab turgan davlatlar uchun foydali bo'lган, masalan, g'arbiy demokratiya printsiplari singari g'oyalar keng tarqatiladi.

3. Globalashtirish tashabbuskorlari uchun ham, uning natijalarini qabul qilayotgan davlatlar uchun ham *xavfsiz* bo'lган g'oya yoki buyumlar (masalan, kompyuterlar, lekin atom bombalari emas) globallashishi mumkin. Ayrim diniy aqidalardan kelib chiquvchi shubhali g'oyalar yoki ma'lum bir xalqlar yaxshi ko'rgani holda, boshqa xalqlar xushlamaydigan tadbirlar (masalan, ispaniyaliklarning korridasi) globallashmaydi.

4. Faqat *ilg'or* turmush tarzi va hayotiy normalar, masalan, tenglik va demokratiya g'oyalari, gigiena qoidalari va h.k. globallashadi.

5. *Qulayliklar* yaratadigan, ruhiy qoniqish yoki moddiy farovonlik olib keladigan narsalar: musiqa anjomlari va plastik oynalar, kliplar va h.k. buyumlar globallashtiriladi

Axborot globallashuvi ham bir qator xarakterli xususiyatlarga ega. Bularning asosiylari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. Barcha iste'molchilarga qiziqarli, ommaviy va foydali axborotni etkazish.

2. Axborotni iste'molchining ona tilida etkazish ("Amerika ovozi", "Ozodlik" - "Ozod Evropa" va Bi-bi-si radiostantsiyalari o'zbek tilida eshittirishlar olib boradi va shu tildagi o'z saytlariga ega).

3. Ma'lumotni sayyoramizning barcha joylariga tezkorlik bilan etkazish ("global qishloq" kontseptsiyasi).

¹ Панарин И.Н. Информационная война и дипломатия. – М.: ОАО “Издательский дом “Городец”, 2004. – 445-6.

4. Ommaviy axborotni jurnalistikaning barcha turlari orqali: matbuot (“Interneshnl herald tribyun”, “Faynenshl tayms”), televidenie (Si-en-en, Bi-bi-si), radio (“Amerika ovozi”, “Mayak”) yoki Internet yordamida tarqatish.

5. Axborot olishning arzonligi: 500-1000 so’m (15-30 tsent)ga internet-kafeda katta hajmdagi ma’lumotlarni yozib olish mumkin. Keyingi o’n yil mobaynida axborot narxi yuzlab marotaba arzonlashdi.

6. Auditorianing turli qatlamlariga aynan zarur bo’lgan, ixtisoslashtirilgan axborotni etkazish, ushbu qatlamlarni bevosita o’zlariga kerakli ma’lumotlar bilan ta’minlash.

7. Axborot hech qanday chegara va bojxonalarni tan olmaydi, barcha mamlakatlar hududiga ruxsat so’ramasdan kirib boraveradi.

Axborot bobida globallashuvni keltirib chiqarayotgan omillar sifatida quyidagilarni sanab o’tish mumkin:

1. Dunyo bo'yicha kompyuter texnikasi, sun'iy yo'ldoshli antennalar va qo'ldagi telefonlar sonining ko'payishi, Internetga kirishning osonlashgani.

2. Axborot olish imkoniyatlari tobora osonlashib borayotgani, ko'p hollarda axborot iste'molchining bevosita uyigacha etkazilishi.

3. Sayyoramiz aholisi orasida dunyoviy tillarni egallaganlar soni ko'payib borishi, ko'pgina odamlar bir nechta dunyo tillarini o'rganganligi.

4. Televizion va kino obrazlari baynalmilal xarakterga ega bo'lib, tarjimaga muhtoj emasligi va h.k.

XX asr oxiri – XXI asr boshi dunyoda demokratik jarayonlarning kuchayishi bilan nishonlandi. Shaxs va xalqlar huquqlarining obro'yi oshishi, bir tomondan, diktaturalar va o'ta markazlashgan davlatlar tarqalib ketishiga (Sovet Ittifoqi, Yugoslaviya), ikkinchi tomondan esa – ularning o'zaro manfaatli asosda birlashuviga (Evropa Ittifoqi, Shanxay Hamkorligi Tashkiloti) olib keldi.

Globallashuv jarayoni axborot va tovarlarning shu qadar keng ko'lamli va qudratli oqimidirki, u yo'lida uchragan to'siqlarni supirib tashlab, barcha xalqlar va mamlakatlarni o'z domiga tortishga qodirdir. Bugungi axborot davrida globallashuv dunyo xalqlari turmush tarzini belgilab beruvchi asosiy omilga aylandi. Uning mayllari ta'sirida hatto davlatlarning qonunlari va jamiyatlarning urf-odatlari o'zgarib bormoqda.

Shu bilan bir qatorda globallashuv jarayonida uning faollari tomonidan boshqa mamlakatlarga etkazib turiladigan ma'lumotlar o'z-o'zidan o'sha davlatlar uchun tahdid sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlash joizdir. Chunki bu jarayon peshqadamlari boshqa davlatlar xududida o'z axboroti, moliysi, tovarlari va xarbiy qurollarini tarqatar ekanlar, ma'lum darajada ularning suverenligini poymol etadilar.

Globallashuvning bosh xususiyatlaridan biri – uning uzlusiz ravishda kengayib va chuqurlashib borishidir. Turli mamlakatlarda yashaydigan xalqlar va shaxslarning doimiy ravishda yangiliklardan xabardor bo'lishga, ularni o'z hayotlariga tatbiq etishga kuchli intilishlari globallashuvga asos bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, har bir davlat, jamiyat va shaxs psixologik jihatdan axborotni qabul qilish uchun ochiq tizim ekanligi bunda bosh sabab vazifasini o'taydi.

O'zbekiston uchun globallashuvning zamonaviy (va, aytish mumkinki, asosiy) bosqichi 1996 yil may oyidan boshlandi. O'sha paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Axborot markazi tashabbusi bilan O'zPAK deb nomlangan milliy provayder tashkil etildi. O'zPAK O'zbekiston Axborot agentligi, gazeta va jurnallar tahririylarini, mamlakat radio va televideniesini Internet tarmog'iga ulab berdi. Davriy

bosma nashrlarning aksariyati “Internet” ruknini ochishdi va shu yo’l bilan respublika aholisining keng qatlamlarini ushbu dunyoviy tarmoq bilan tanishtira boshlashdi.

2. Globallashuv davrida ommaviy kommunikatsiya vositalari rivojlanishining yangi yo’nalishlari

Internetni ommaviy kommunikatsiya vositasi deb hisoblash mumkinmi yoki yo’qmi? Olimlarning ushbu masala atrofidagi tortishuvlari ko’pdan beri davom etib kelyapti. Har xil mamlakatlar mazkur masalani turlichal hal qilmoqdalar. Bitta misol keltiraylik. “Internet-jurnalistika” kitobining mualliflari yozishlaricha, “Nyu-York shtatining Oliy sudi pretsedentli¹ qaror qabul qildi: sud barcha Internet saytlarini, ularning mazmuni va malakaviy darajasidan qati nazar, ommaviy axborot vositasi deb e’lon qildi. Endi Internetda o’z asari bilan qatnashayotgan har bir muallif Amerika yustitsiyasi nazarida jurnalist hisoblanadi va professional ommaviy axborot vositalarining xodimlari singari axborot olish va tarqatish huquqiga ega. Ekspertlarning aksariyati mazkur qarorni inqilobiy xarakterga ega, deb baholamoqdalar, chunki u globallashuv sharoitida jurnalistikaga bo’lgan qarashlarni tubdan o’zgartirib yubormoqda”¹.

Bir qator mamlakatlarda bo’lgani kabi, bizning respublikamizda ham faqat O’zbekiston Matbuot va axborot agentligi tuzilmalarida tegishli qayddan o’tgan Internet-saytlar ommaviy axborot vositasi deb hisoblanadi.

Predmetning bahstalabligi bu erda faqat nashrning huquqiy maqomiga tegishli: qayddan o’tgan saytlar an’naviy ommaviy axborot vositalari bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo’lib, qayd etilmaganlari bunday huquq va majburiyatlardan xolidir, xolos. Masalaning asl mohiyatiga kelsak, aytish kerakki, agar biror bir axborot kanali keng jamoatchilik uchun ma’lumotlar tarqatar ekan, albatta, u ommaviy axborot vositasi bo’lib qolaveradi. Internetning auditoriyasi esa an’naviy ommaviy axborot vositalarinikiga qaraganda ancha kengdir.

Global ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida Internet umummilliy (O’zbekiston), mintaqaviy (Markaziy Osiyo, Osiyo – Tinch okeani mamlakatlari), qit’aviy (Umumi Evropa) va sayyoraviy bo’ladi. Cheksiz axborot imkoniyatlariga ega Internet faoliyat bobida ham juda katta tuzilmaviy-funksional ko’pxillikka ega. Xohishi bor va qo’lidan keladigan har qanday odam Internet orqali axborot tarqatish yo’li bilan ommaga ta’sir etish imkoniyatiga ega.

Internet kengliklarida kasbiy globallashuv ham yuz bermoqda, chunki har bir kasb vakili o’z sohasida erishilgan yangiliklar va ilg’or texnologiyalarni barcha kasbdoshlariga etkazish imkoniyatiga ega. Bunday xizmatlar faqat pulli asosda amalga oshiriladi deyish xato bo’lur edi, zero ko’pgina mutaxassislar puldan ko’ra o’z ixtirolari haqida boshqalar bilishini yoki o’z kashfiyotlari keng qanot yoyishini istaydi. Virtual maydonlarda shuningdek til globallashuvi amalga oshmoqda – jahon tillari hisoblangan ingliz, xitoy, ispan tillari global tillarga aylanib borayapti.

Internetda jurnalistikaning doimiy maqsadi bo’lib kelgan ko’p adad (tiraj)likning maksimal, mutlaq darajasiga erishiladi. Jurnalistikaning o’zi ham, eng avvalo, aynan ommaviylik printsipiga muvofiq paydo bo’lganligini eslash joizdir. Bundan tashqari,

¹ Прецедент – инглиз-саксон мamlakatlariдаги ҳуқуқий қоида. Маълум бир воқеа юзасидан бирор обрўли суднинг чиқарган қарори бошқа судлар учун шундай воқеани кўришда асос, намуна, ибрат, ўрнак бўлиб хизмат қилиши мумкин.

¹ Калмыков А.А., Коханова Л.А. Интернет-журналистика. Уч. пос. для студ. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – Б. 113-114.

Internet an'anaviy jurnalistikaning chegaralari va imkoniyatlarini, turlari, shakllari hamda janrlarini keskin kengaytirdi. Hatto jurnalistika janrlari tarkibiga umuman kirmagan press-reliz Internet saytlarida eng keng tarqalgan janrlardan biriga aylandi. Internet – bu dunyoning zamon va makondagi bevosita borlig'idir, chunki u dunyoni 24 soatlik jamiyatga aylantirdi.

Internet – universal ommaviy kommunikatsiya vositasidir. Bizningcha, ushbu universallikning asosiy o'lchovlari quyidagilardan iborat:

1. Mazmun va shakl universalligi: a) mavzu, g'oya, muallif pozitsiyasi, uslub, janrlar; b) davriylik; v) ommaviylik; g) hammaboplik; d) tejamkorlik; e) axborot etkazishning ko'pxilligi.

2. Internet ko'plab turli xil funksiyalarni bajaradi: ommaviy kommunikatsiya vositasi, ma'lumotnoma, savdo-sotiq, reklama, pochta aloqasi.

3. Internet butun dunyoni aks ettirish qobiliyatiga ega, uning kengliklarida har bir iste'molchi aynan o'ziga kerakli ma'lumotlarni topa oladi – uning ohangrabo kuchi aynan shunda.

4. Internet nazorat va tsenzuradan ozoddir.

5. Saytlardagi ma'lumotlar tez-tez yangilanib turadi.

6. Internet xalqaro yangiliklardan tortib bevosita shaxsiy ma'lumotlarga barcha darajalardagi axborotlarni o'zida mujassamlashtiradi.

7. Inson aqlining beqiyosligi Internetning beqiyosligini tashkil etadi va aksincha.

Internetning universalligi axborotning ko'pqirraligi, uni tayyorlash va joylashtirish osonligi, qabul qilish, tushunish, zohiran va aqlan tez ishlab chiqish qulayligi kabi jihatlarni qamrab oladi. Bu erda barcha turdag'i ma'lumotlarni – yangiliklar, tahliliy materiallar, kasbiy ma'lumotlar, statistika, foto, dam olishga oid va hokazo axborotni topish mumkin. Shu kabi ishlarning barchasini uddalaydigan axborot vositasi universal OKV deb atashga loyiqidir. Internet aynan shunday xususiyatlarga ega.

Internet saytlari zanjirli reaktsiya printsipida ishlaydi: iste'molchi biror-bir saytni ochib, uning turli tomonlarida boshqa saytlarga ishoralarini ko'radi va ularga kirib, o'z qidiruvida davom etadi. Shu tariqa uchinchi, to'rtinchi saytlarga o'tib ketaveradi. Har bir saytning chetlarida Internet tilida giperishoralar va gipermatn deb ataladigan yangi-yangi havolalar paydo bo'ladi va har bir iste'molchi ular oralab o'zi xohlagan tarzda izlanishini davom ettiradi.

Internetning universalligi axborot manbalarining majmuy xarakterga egaligi, mualliflar qarashlarining xilma-xilligi, axborot etkazishning tezligi, ko'psaytligi, ko'pkanalligi singari xususiyatlarda ham o'z tasdig'ini topadi. Internetda iste'molchi foydalanishi mumkin bo'lgan arxivlar ham anchagina. Har bir inson virtual kengliklarda xohlaganicha saytlar sonini ochib quyishi mumkin. Tashkilotlar, vazirliklar yoki muayyan sohalar haqida gapirmasa ham bo'ladi, amalda tarmoqning elektron kengliklari cheksizdir.

Internet – har bir kishi uchun ochiq tizim. Ochiqlikning bunday darajasiga boshqa biror OKV erisholmagan. Ko'p hollarda iste'molchilar o'zlariga qulay bo'lgan paytda kerakli saytlarga kira oladilar va ularning mualliflari bilan bevosita so'zlashuv tarzida interaktiv muloqot olib bora oladilar. Mazkur imkoniyat – OKV faoliyatining jurnalistlar besh yuz yildan beri intilib kelgan noyob formulasidir.

Internetdan samarali foydalanish uchun uning kengliklarida to'g'ri yurish qoidalarini bilish, ya'ni navigatsiya mahoratiga ega bo'lish lozim. Navigatsiya –

Internetning murakkab, lekin o'rganilishi zarur bo'lgan san'atidirki, uni egallamasdan turib Internetda ishslashning iloji yo'q.

Jahon Internet hamjamiyati sayyoramiz bo'yicha bu tarmoqdan foydalanuvchilarning umumiyligi majmuini tashkil qiladi. Nihoyatda ulkan va ko'plab toifalarni o'z ichiga oluvchi hamjamiyat bo'lganligi sababli uni aniq bir tizim sifatida tavsiflash ancha mushkul. Shuning uchun Internet hamjamiyatining faqat umumiyligi xususiyatlari haqida gapirish mumkin.

1. Internetda butun dunyo hamjamiyati, unda ishslash uchun texnik imkoniyatlarga ega bo'lgan barcha mamlakatlar faoliyat ko'rsatishi mumkin.

2. Har bir mamlakat Internetda o'z maydoni (sektori)ga ega va o'z milliy tilidan foydalanadi.

3. Foydalanuvchilarning aksariyati virtual tarmoqda keng tarqagan jahon tillarini imkon qadar bilishlari kerak.

4. Xoh katta mamlakat bo'lsin, xoh kichik mamlakat, barchasi, hamma foydalanuvchilar Internet oldida baravardir. Bu nihoyatda demokratik tabiatli ommaviy kommunikatsiya vositasi hisoblanadi.

5. Hech kim Internetda boshqa axborot manbalari huquqini cheklashga qodir emas, faqat nomaqbul sanalgan u yoki bu saytni o'z mamlakati hududida vaqtincha yopib qo'yishi mumkin, xolos.

Bugungi kunga kelib real borliqdagi barcha narsalarning virtual nusxasi Internetda o'z aksini topgan. Siyosiy partiylar va uyushmalar, ahillik va qarama-qarshiliklar, kelishuv va bahslar, himoya va hujumlar elektron kengliklarga ko'chgan. Aytish mumkinki, sayyoramiz ijtimoiy fikri Internet timsolida o'zining virtual egizagiga ega bo'ldi.

Internet hamjamiyatida ham xuddi real dunyodagidek qonuniyatlar amal qilmoqda. Farqi faqat shundaki, real dunyoda real, Internetda esa virtual o'lchovlar ish ko'rsatayapti. Lekin axborot tarqatilishi tezligida farqlar juda katta: Internetda bu sur'at bir soniyada 300000 kilometrni tashkil etadi, real dunyoda esa bunday tezlikda faqat elektronsignal va nur taraladi.

Real dunyoda davlatlarning jismoniy chegaralari mavjud, virtual kengliklarda esa bunday chegaralar yo'q. Real olamda, masalan, AQSh okeandan sakrab o'tolmaydi, virtual tizimda esa ular dunyo bo'yicha hokimi mutlaq. Real hamjamiyat va Internet hamjamiyati o'rtaсидаги barcha farqlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari belgilab beradi. Kimki shunday texnologiyalarga ega bo'lsa, elektron kengliklarda ham o'sha etakchilik qiladi.

Internetning ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatidagi *afzalliklari* quyidagilardan iborat:

1. Axborotning o'ta tezligi.
2. Tsenzuraning yo'qligi.
3. Demokratikligi.
4. Universalligi.
5. Axborotni cheksiz joylashtirish imkoniyatlari.
6. Tarmoqning interaktiv xarakteri.
7. Foydalanuvchilar uchun qulayligi.
8. Arzonligi.
9. Materialni e'lon qilishda byurokratik to'siqlardan xoliligi (imzolar yig'ish shart emasligi).

10. Hokimiyat tomonidan nazorat yo'qligi (ayrim saytlar bundan mustasno).

11. Ommaviy kommunikatsiya vositalari konvergentsiyasi.

Internetning ommaviy axborot vositasi sifatidagi **kamchiliklari**:

1. Internetni boshqaradigan yagona xalqaro markaz yo'qligi. Bunday idorani Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshida ochish mumkin bo'lardi.

2. Virtual axborotni tartiblashtirish uchun xalqaro miqyosda yagona huquqiy baza mavjud emasligi.

3. Axborot tarqatish axloqining tez-tez buzilib turilishi. Tarmoqdan foydalanuvchilarning yagona xalqaro axloqiy kodeksi yo'qligi.

4. Tekshirilmagan, haqiqiy bo'lmanan axborotning haddan tashqari ko'pligi.

5. Virtual dunyo kengliklarida texnologik jihatdan kuchli davlatlar hukmronligi. Buning oqibatida xato-kamchiliklar, ishonchsizlik va begonalashishning kelib chiqishi.

6. Pornografiya, nomunosib latifalar va boshqa shu kabi g'ayriijtimoiy axborotning ko'pligi.

7. SPAM – keraksiz, ortiqcha axborot, ya'ni axboriy ahlatning bisyorligi.

8. Axborot manbalarining haddan tashqari ko'pligi, ularning betartibligi, aralashib ketganligi.

9. Saytlarni qidirish va ochish uchun juda ko'p vaqt sarflanishi.

10. Internetdan terroristik, qo'poruvchilik va boshqa g'ayrifuqaroviylar maqsadlarda foydalanilishi.

Har qaysi jamiyatning axboriy informatuzilmasi ikkita asosiy mezondan – ilg'or axborot texnologiyalariga ega bo'lish zarurligidan va mamlakatning milliy xususiyatlardan kelib chiqib belgilanadi. Texnologiyalar boshqa mamlakatlar tomonidan zudlik bilan ("nemis mo''jizasi" deb atalib, Evropada katta tezlikda tarqalgan kitob bosmasiga o'xshab) o'zlashtiriladi, lekin milliy xususiyatlardan borasida bunday hodisa yuz berishi juda qiyin, albatta.

Umuman olganda, axborot infratuzilmasi ommaviy axborot tarqatuvchi sub'ektlar va texnik vositalardan tashkil topib, unga axborot agentliklari, televizion va radiokompaniyalar hamda studiyalar, respublika, viloyat, shahar va tuman gazetalari, Internet sektorlari, portallari va saytlari kiradi. Shu bilan bir qatorda axborot infratuzilmasi tarkibida davlat va nodavlat tashkilotlar, ijodiy uyushmalar ham bor. Signallarni tarqatuvchi tashkilotlar – Aloqa va axborot agentligi, teleradiokompaniyalar va bosma ommaviy kommunikatsiya vositalarining tegishli xizmatlari uning texnik bo'linmalarini tashkil qiladi.

Ommaviy kommunikatsiya vositalari tizimi – bu jonli, doimo yangilanib turuvchi organizm bo'lib, uning ayrim qismlari vaqt kelganda faoliyat ko'rsatishga boshlassa, boshqalari faoliyatini to'xtatadi, uchinchilari o'z shaklini o'zgartiradi va h.k. Har bir mamlakat qanchalik ko'p axborot imkoniyatlari va texnologiyalariga ega bo'lsa, shu qadar kuchli bo'ladi. Axborot imkoniyatlari hukumat, vazirlik, qo'mitalarning rasmiy materiallari, kutubxonalar, axborot va tahlil markazlari, mamlakat, tashkilotlar, muassasalar va OKV tahririyatlarining arxivlari, axborotlar banklari va bazalari, kataloglar, ma'lumotnomalar va boshqalar kiradi. Axborot texnologiyalari – bu sun'iy yo'ldosh va kabel orqali bog'lanishlar, kompyuter tarmoqlari, zamonaqiy bosmaxonalar, raqamli videokameralar, fotoapparatlar, diktofonlar demakdir. Bularning hammasi jam bo'lib ommaviy kommunikatsiya vositalarining baza va majmuasini tashkil etadi.

Axborot infratuzilmasi doimo jamiyat rivojiga mos ravishda yangilanib turadi - o'zgarishlarga javob tariqasida bosma nashrlar, teleradiokanallar va dasturlar, Internet saytlarining sonlari ham ko'payib boradi. Boshqacha aytganda, mazkur infratuzilma har bir fuqaroga etib borish maqsadida uzlusiz kengayib, chuqurlashib, tabaqalashib boraveradi. O'zbekiston axborot asriga qadam quyishi bilan bu tabiiy jarayon yanada kuchaydi.

Milliy axborot markazlari deb, mamlakat ichida faoliyat ko'rsatadigan axborot markazlariga aytildi. Ular ko'p va turli darajada: umummilliyl, milliy-sohaviy, ommaviy kommunikatsiya vositalarining turlari, faoliyat yo'naliishlari bo'yicha, viloyat, shahar hamda tuman miqyosida va h.k. bo'lishi mumkin. OKV jumlasiga matbuot xizmatlari, axborot va tahlil markazlari, bo'limlari va guruhlari, matbuot kotiblari ham qo'shilsa, mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Xalqaro markazlar to'g'risida shuni aytish zarurki, milliy markazlarga nisbatan yuqoriqoq mavqega ega bo'lganliklari sababli ular o'z faoliyatlari uchun ham ko'proq mas'uldirlar. O'zbekiston miqyosida bunday mavqega Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi "Jahon" axborot agentligi, "Uzbekistan Today" gazetasi kabi axborot manbalari egadir.

Kuchli xalqaro markazlar jumlasiga yirik axborot agentliklarini (Assoshieyted Press, Yunayted Press Interneshnl, Reyter, Frans Press, ITAR-TASS va boshq.), dunyoda peshqadam teleradiokompaniyalarini (Si-en-en, Bi-bi-si, TV-5, "Al-Jazira", transmilliy televideonie va radio) kiritishimiz mumkin. Aynan shular xalqaro maydonda axborot tarqatuvchi asosiy sub'ektlardir. Ayrim tadqiqotchilar (E.L.Vartanova) ta'kidlaganlaridek, dunyoda etakchilik qilayotgan teleradiokompaniyalar butun er yuzi bo'ylab axborot tarqatsalar-da, ularning ma'lumotlari o'zлari mansub bo'lgan mamlakatlarning yagona umum davlat axborot strategiyasi doirasida ishlab chiqiladi va eng avvalo, o'sha mamlakatlar manfaatlarini himoya qiladi. Bunday agentliklar va OAVni jahonda axborot ta'sirini ko'rsatishning asosiy markazlari deb atasak, yanglishmaymiz.

Bir qarashda, mazkur markazlar tarqatadigan axborot guyoki bezarardek tuyuladi, chunki ularning xabarlari asosan yangiliklardan iborat. Lekin bunday yangiliklar g'arbeha turmush tarzini kundan-kunga, oydan-oyga, yildan-yilga bir zaylda ko'klarga ko'tarib maqtashda davom qilarkan, bu neyrolingvistik dasturlash xarakterini kasb etib, tomoshabin, tinglovchi va gazetxonning ostki ongiga kirib boradi va shu bilan odamlarni axborot manipulyatsiyalari ob'ektiga aylantiradi. Bunday holda auditoriya ongida beixtiyor sayyoramizda qaerlardir (masalan, AQSh, Buyuk Britaniya) haqiqatdan ham shunday jannatmonand diyorlar ekan degan tasavvur shakllanadi. Aslida esa bunday "jannat"lardagi ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolar boshqa mamlakatlarnikidan kam emas.

Matbuot, radio, televideonie va, ayniqsa, Internet o'z tabiatiga ko'ra ochiq axborot tizimlaridir. Ular auditoriyani mo'ljallab faoliyat yuritishadi, unga ta'sir qiladi va kerakli samaradorlikka erishadi ham. Ammo auditoriya – murakkab birlik. Uning qaysidir bir qismi axborot manbaiga e'tibor bersa, boshqa bo'lagi axborotni umuman tinglamaydi yoki unga nisbatan befarqligicha qoladi. Auditoriyaning aksariyat qismi, odatda, ko'rsatuv yoki eshittirish to'xtatilgan zahotiyoyq etkazilgan ma'lumotni esdan chiqaradi.

Tabiiyki, tahririyatlar o'z faoliyatining samaradorligini oshirish borasida betinim ish olib borishadi. Ushbu maqsadga erishishning yo'llaridan bittasi ommaviy kommunikatsiya vositalarining ochiq xarakteri bilan bog'liq. Bu erda biz auditoriya

bilan ommaviy kommunikatsiya vositasi o'rtasidagi interfaollik jarayonini nazarda tutmoqdamiz. Matbuot nashrlari o'z muxlislariga murojaat qilib, ularning xatlarini chop etadi. Radio va televidenie auditoriya bilan bevosita efir rejimida tez-tez bog'lanib turadi. Bu esa ikki karra, ya'ni OKVdan auditoriyaga qarab va auditoriyadan OKV tomon ochiqlikdir.

OKVning o'z muxlislari bilan bog'lanish usullari ko'p – tahririyatlar shahar va qishloqlarga chiqib, mushtariylari bilan uchrashuvlar uyushtiradi, ular bilan anjumanlar, tanlovlар, viktorinalar, suhbat va baxslar o'tkazadi va h.k.

Muayyan jamiyat axborot infratuzilmasi modelining belgilanishi tasnif uchun qanday asos tanlanishiga bog'liq. Masalan, agar shunday mezon sifatida biror OKV turini oladigan bo'lsak, birinchi modelga qarashli mamlakatlar uchun Internet, ikkinchi modelga mansublari uchun televidenie, uchinchilari uchun radio, to'rtinchilari uchun matbuot ustunlik qiluvchi bo'lib chiqadi. Bu holda dunyodagi mamlakatlarning aksariyati (jumladan, O'zbekiston ham) ikkinchi - televizion modelga mansub ekanligi ma'lum bo'ladi.

Biroq agar real hayotga yaqinroq turmoqchi bo'lsak, axborot davrida mamlakatlar tasnifi uchun ikkinchi asosni, ya'ni davlatning axborot-texnologik ta'minotini tanlashimiz zarur. Masalan, AQSh dunyoda nafaqat Internet, shu bilan bir qatorda televidenie va radio sohasida ham etakchilik qilmoqda. Tasniflashga shu tarzda yondashilganida, rivojlangan davlatlar jahonda axborot ishlab chiqarish bobida peshqadamlik qilayotganliklari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Konvergentsiya ommaviy kommunikatsiya vositalari zamonaviy rivojlanishining muhim mayliga aylandi. OKV tarixan doimo matbuot, radio va televideniega bo'linib keldi. Har qaysisi o'z original xususiyatlariga ega bu vositalar jamiyatda bir vaqtning o'zida mavjud bo'lib, o'zaro raqobatlashib faoliyat ko'rsatishardi. OKVning onlayn rejimidagi konvergentsiyasi ilk bor to'la ravishda Interneta mujassam ifodasini toparkan, gazeta ovoz va tasvirga, radio va televidenie esa – bosma matnga ega bo'ldi. Bundan tashqari barcha ommaviy kommunikatsiya vositalari auditoriyaning har bir vakili foydalana oladigan o'z arxivini vujudga keltirdi. Natijada konvergentsiya OKV uchun juda katta imkoniyat yaratdi, chunki undan foydalanuchi endi bir manbadan (masalan, gazeta saytidan) birdaniga uch xil axborotni: mantiqiy (matn), tovushli (audio) va tasvirli (video) axborotni olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

3. Dunyo axborot makonida davlatlarning o'zaro hamdo'stligi va kurashi

Bugungi kunda butun dunyo yaxlit bir axborot makoniga aylandi, chunki Internet shunday vazifani uddalashga qodir bo'lib chiqdi. Shu tufayli sayyoramiz misoli turli mamlakatlar ma'lum chiziqlar bo'ylab har xil tezlikda, tegishli belgilarga rioya qilib harakatlanadigan yagona axborot shox yo'liga o'xshab qoldi.

Butun jahon bugun o'zaro axborot yo'llari, chorrahalarini va svetoforlar orqali birlashtirilgan yaxlit axborot makonida yashamoqda. Ushbu yo'llardan yo'l xavfsizligi qoidalariiga (ya'ni Internetning texnik protokollariga) amal qilmasdan yurish mumkin emas.

Elektron axborot olami cheksiz va keng imkoniyatli bo'lib, axborot sohasida milliy xukumatlarning har qanday qarshiligini enga oladi. Axborot oqimlarini to'xtatib yoki taqiqlab bo'lmaydi. Yopiq davlat dunyo axborot makonida (DAM) faqat vaqtinchalik bir orolga aylanishi mumkin. Ammo axborot biribir turli yo'llar orqali ushbu orolga kirib keladi, chunki u moddiy jism emas, efirdir.

DAM cheksiz, texnologiyalar esa o'ta kuchli va beadabdir. Hayo, or-nomus ularni qo'llanadigan odamlarda bo'lmosg'i darkor. Shuning uchun texnologiyalarni ishlatalish madaniyati bugungi kunda birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Kurrai zaminga o'xshab axborot makoni ham yaxlitdir. Ammo er sharining usti suv, tuproq, qum, tog'lar va o'rmonlardan iborat bo'lgani kabi, DAM ham turli ranglar (axborot jadalligi)dagi qismlardan iborat. Ular orasida eng yorqin buyoqlar AQSh va G'arbiy Evropa hududlariga tegishli bo'lsa, texnologiyalar bilan eng kam ta'minlangan go'sha – er kurrasining eng katta qit'asi sanalmish Afrikadir.

Bunday global miqyosdagi tengsizlik ko'plab har taraflama natijalarga, jumladan, salbiy oqibatlarga ham olib boradi. Texnologiya jihatidan baquvvat davlatlar kompyuter tarmoqlari orqali, sun'iy yo'ldoshli va simli bog'lanishlar natijasida o'z axborot oqimlarini bemalol katta miqdorlarda sayyoramizning turli joylariga, jumladan, texnologiyalarga ega bo'limgan mamlakatlar hududlariga yuborib turishlari mumkin. Bunday imkoniyatlarga esa er yuzi aholisining etti milliardidan faqatgina bir milliardi ("oltin milliard" nomini olgan qismi) ega, xolos. Qolganlarning ruhiy dunyosi va ma'naviy hayoti esa ushbu bir milliardning istaklariga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Shu bilan bir qatorda er yuzidagi davlatlarning axborot bilan ta'minlanish intensivligi o'zgarib boryapti. Masalan, u juda katta hududlarga ega bo'lgan Xitoy va Rossiyada asta-sekinlik bilan oshmoqda. Ammo AQSh va G'arbiy Evropa ham bir joyda to'xtab qolgani yo'q. Ular ushbu poygada oldingi saflarda borishayotir va bunday peshqadamlikni boy bermoqchi emaslar. Buning oqibatida sayyoramiz mamlakatlari o'rtasidagi raqamli tengsizlik kundan-kunga kuchaymoqda.

DAM – bu kurrai zamindagi real holat tasviri. Ammo bu erda gap faqat virtual tushunchalar, elektron shaklidagi ifoda haqida ketmoqda. Elektron jismlar o'ta kichik bo'lganligi sababli unda aks etgan ifodaning keng qamrovligini tasavvur qilish ham qiyin. Mutaxassislardan biri Internetning global tizim sifatidagi umumi fizikaviy sig'imini shartli ravishda hisoblab chiqib, unga 600 mln tarmoqni joylashtirish mumkin, degan xulosaga keldi. Bu er yuzida yashovchi har bir odam Internetda o'z saytiga ega bo'lishi mumkinligini bildiradi. Demak, Internet haqiqatdan ham dunyo axborot makonidir.

DAM davlat chegaralariga mos keladigan milliy sektorlardan iborat. Internetning tabiiy va qulay tarzda shakllangan ko'rinishi ana shunday. Bu erda har bir davlat, uning barcha institutlari, turli guruh va shaxslar o'z materiallarini joylashtirishi mumkin.

Internetda axborotni erkin, cheksiz, birovga hisobot bermasdan tarqatish mumkinligi sababli virtual maydonda nafaqat boshqalarga kerak bo'lgan, shu bilan bir qatorda tarqatuvchi nuqtai nazaridan foydali deb topilgan, aslida esa ikkinchi darajali ma'lumotlarni yoyish amaliyoti ham keng uchrab turadi. Gohida ayrim axborot tarqatuvchilar shu kabi ikkilamchi ma'lumotlarni boshqalar uchun foydali va hatto majburiy deb ham hisoblaydilar. Bunday siyosat davlatlar miqyosida ham bemalol olib boriladi. Shunday davlatlar borki, boshqa mamlakatlar ham bizning milliy qadriyatlarimizni o'zlashtirishlari shart deb hisoblashadi. Ularning fikrlashicha, boshqalar bu qadriyatlar afzalligini tushunmaydilar yoki mahalliy hukumatlar ularning o'z xalqlari tomonidan o'zlashtirilishiga yo'l qo'ymaydilar. Axborot tarqatuvchi davlatlar shunday bahona bilan o'z qadriyatlarini boshqa mamlakatlar aholisiga majburiy ravishda singdirishga harakat qiladilar. Guyoki boshqa mamlakatlar o'z rivojlanishida orqada qolib, demokratik tuzum yutuqlaridan foydalana olmayotgan emishlar. Shu tariqa inson xuquqlari imperializmi deb nom olgan tajovuz yuzaga keladi.

Axborot davri texnologiyalarining rivojlanishi sayyoramiz hududining geosiyosiy kurash maydoniga aylantirilishi, texnikaviy jihatdan ustun davlatlar o’z qadriyatlarini keng tarqatishlari uchun imkoniyat yaratdi. Ushbu maydonda o’zgalar g’oyasi rad etiladi, qabul qilinmaydi (masalan, Rossiya g’oyalari AQSh tomonidan yoki aksincha) va bu normal holat deb tushuniladi. Aslida, er kurrasi bundan avval, “sovuj urush” davrida ham geosiyosiy kurash maydoniga aylangan edi. “Sovuj urush” tugashi bilan kommunistik va kapitalistik mafkuralar o’rtasidagi raqobatga yakun yasalgan bo’lsa-da, milliy dunyoqarash hamda tsivilizatsiyalar o’rtasidagi kurash davom etdi. Boshqacha aytganda, global miqyosda qarama-qarshilik saqlanib qoldi, faqat endi u avvalgidek yaqqol mafkuraviy bo’linishdan iborat bo’lmay, endi tafovutlar madaniy, tamadduniy mazmun kasb etdi.

“Kimki bizning ustimizga qilich ko’tarib kelsa, o’sha qilichdan halok bo’lg’usi”, deyiladi Injilda. Ammo axborot globallashuvi bu dono so’zlarni ma’lum darajada inkor qilmoqda, chunki so’z quroli ko’zga unchalik tashlanmasligidan o’sha qurolni boshqalar ustiga ko’tarib kelganlar undan jazo topmay qolyaptilar.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar turli xavf-xatar va tahdidlardan iborat. Ularning ta’siri ham turlicha. Nazarimizda, eng tezkor xavflar jumlasiga siyosiy va mafkuraviy tahidlarni kiritsak, mantiqan to’g’ri bo’ladi. Chunki bunday xavf-xatarlar bevosita inson manfaatlari, xohishlari va ehtiroslari bilan bog’liq. Texnikaviy va iqtisodiy rivojlanish bilan vobasta xavflar oldini olish uchun esa ancha vaqt talab qilinadi. Tahdidlar ta’sir o’tkazish ob’ekti nuqtai nazaridan ham bir-biridan farqlanadi. Bunday ob’ektlarning eng zaifi insondir, chunki uning psixikasi ochiq, turli ta’sirlarga tez va to’liq beriluvchan tizim hisoblanadi.

DAM notinchlik holatining yana bir sababi – har bir mamlakat dunyo miqyosida o’z qadriyatlarini o’tkazishga harakat qilishidir. Bunday intilishlarning boshida AQSh turibdi. DAMning faol a’zolari sifatida yana Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniyani keltirish mumkin. Sayyoramizdagagi aksariyat mamlakatlar aholisi ommaviy axborotni passiv qabul qiluvchi, muayyan g’oyaga ishonuvchi yo ishonmaydigan o’quvchi, tinglovchi va tomoshabinlardan iborat auditoriyadir. Boshqacha aytganda, dunyo aholisi u yoki bu tarzda axborot devlari (monstrlari) kurashi doirasiga tortilgan.

Xalqaro geosiyosiy maydonda hech bir davlat boshqa bir davlat siyosatini to’laligicha va so’zsiz qabul qilmasligi hamda amalga oshirmasligi ravshan. Har qaysi mamlakat xalqaro munosabatlarda eng avvalo o’z manfaatlarini ko’zlashga va DAMda o’z nuqtai nazarini o’tkazishga harakat qiladi. Buning natijasida xalqaro geosiyosiy maydonda tabiiy ravishda karama-qarshilik vujudga keladi. Hozirgi sharoitda ko’pgina davlatlar o’z qadriyatlarini dunyo hamjamiyati hayotiga tatbiq etish uchun an’anaviy quroldan voz kechib, axborot qurolni ishlatishga o’tgan.

G’oya va fikrlar bilan “kaynab” turgan DAM O’zbekistondek mamlakat uchun bir qator xavflarni tug’diradi. Bugungi kunda DAM davlatimiz mustahkamligini siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, mafkuraviy, texnikaviy, ilmiy, ta’limiy, milliy va boshqa ko’rsatkichlar orqali sinab kelmoqda. Ushbu ko’rsatkichlarning har biri bo’yicha O’zbekiston haqida xorijiy OAV va Internetda ko’pgina maqolalar chiqib turibdi. Ularning kuchi yoki zaifligi nimalardan iborat? Bu savolga to’g’ri javob berish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu materiallarning kuchliligi yoki zaifligi tanlangan mezonlarga asosan aniqlanadi. Rivojlangan mamlakatlar kuchi ular qo’lidagi texnologiyalarda bo’lsa,

bizning kuchimiz – noyob madaniyatga ega ekanligimizdadir. Agar vaziyatni texnologiyalar jihatidan ko’rib chiqmoqchi bo’lsak, aytish mumkinki, taraqqiy etgan mamlakatlar O’zbekistonni axborot oqimlariga ko’mib tashlay oladi. Mazkur munosabatlarni madaniy-tarixiy yutuqlar nuqtai nazaridan o’lchasak, unda O’zbekiston dunyoda uncha ko’p bo’lmagan – Xitoy, Xindiston, Eron, Gretsya, Italiya qatori – noyob madaniyat va turmush tarzi egasi bo’lib chiqadi. Bugungi kunda axborot jihatidan kuchlilik hali AQSh, Buyuk Britaniyaga o’xshagan davlatlar tarixiy musobaqani qaytarib bo’lmas darajada yutib chiqdi degani emas.

DAMda faol bo’lgan axborot egalarining maqsadi – o’z siyosiy normalari, madaniyati va turmush tarzini dunyo hamjamiyati hayotiga singdirishdir. Bu peshqadamlar fikricha, ular juda to’g’ri yashashayapti, boshqalar esa ularning hayotini o’rganib, xuddi shu zaylda yashashlari shart. Lekin ularning turmush tarzida nima yaxshi-yu, qancha vaqt davomida yaxshiligidcha qoladi, nimani o’zlashtirsa bo’ladi-yu, nimadan voz kechish kerak – shu kabi savollarni ko’pchilik o’ziga bermaydi va ularga javob ham qidirib o’tirmaydi. Holbuki, mazkur masalani chuqur o’rganish bugungi kunda turli xalqlarning turmush tarzini baholash mezonlarini jiddiy o’zgartirishi mumkin.

4. Axborot oqimlari sharoitida sivilizatsiyalar holati

Dunyo miqyosida axborot almashinuviga tartib kiritish masalasi anchadan beri dolzarb bo’lib kelmoqda. Mamlakatlar mafkuraviy jihatdan ikki tarafga bo’lingan paytdan boshlab axborot texnologiyalari va ma’lumotlar etkazish usullari jiddiy rivojiana boshladi. Hokimiylari milliy iqtisodiyotini to’g’ri boshqargan davlatlar – AQSh va G’arbiy Evropa mamlakatlari katta yutuqlarga erishdilar va hozirgi bosqichda asosli ravishda rivojlangan mamlakatlar deb nom oldilar. “Sovuq urush” axborotni ommaviy hajmda va katta tezlik bilan uch yo’nalish bo’yicha: o’z davlati, g’oyaviy raqiblar va betaraf mamlakatlar aholisiga etkazishni talab qildi. Uchinchi dunyoni er yuzi aholisining aksariyat aholisi - Osiyoning asosiy qismi, Afrika va Lotin Amerikasi tashkil etdi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar rioya qiladigan **axborotning erkin oqimi** (ruschasi: svobodno’y potok informatsii; 1946 y. joriy etilgan) kontseptsiyası mamlakatlar o’rtasida cheksiz axborot almashuvini nazarda tutadi. Bu masala bevosita texnik imkoniyatlarga bog’liq ekanligini e’tiborga olsak, axborotning erkin oqimi AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniyadek mamlakatlar tomonidan ishlab chiqarilgan ma’lumotlar dunyoning har qaysi burchagiga hech qanday nazoratsiz etkazilishi mumkinligini anglab olamiz. Bunday sharoitda boshqa davlatlar rivojlangan mamlakatlarga axborot jihatidan (demak, mafkuraviy jihatdan ham) qaram bo’lib qolishi aniq.

Tarafdarlarini ko’proq rivojlanayotgan mamlakatlar tashkil etadigan ikkinchi - yangi umumjahon **axborot tartibi** (ruschasi: novo’y mirovoy informatsionno’y poryadok; 1976 y.) kontseptsiyasining ma’nosи har qaysi alohida jamiyatning ichki axborot bozoriga xalqaro axborot oqimlari kirishini nazorat qilish zarurligidan iborat. Bu tartibning maqsadi - milliy an’analarni va madaniyatni rivojlangan mamlakatlarning axborot xurujidan saqlashdir¹.

¹ Қаралсин: Муминова Ф.И.Международная журналистика: теория и практика. – Т.: – Университет мировой экономики и дипломатии, 2006. – Б. 18.

Ikkinchchi kontseptsiya YuNESKO tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ushbu bob muallifi kontseptsiyaning amalga oshirilishiga bag'ishlab 1979 yil sentyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan xalqaro konferentsiyada qatnashgan. Mazkur anjumanda YuNESKOning o'sha vaqtdagi Bosh direktori Amadu Maxtar M*Bou axborot almashuvini tartib asosida tashkil etish zarurligi haqida ma'ruza qilgan edi. Ma'ruza mazmuni va Bosh direktorning nuqtai nazari AQSh va uning tarafdarlariga yoqmaganligi sababli u zot keyinchalik o'z vazifasidan ustalik bilan chetlashtirildi, yangi Bosh direktor (Friderik Mayor) esa erkin axborot oqimining targ'ibotchisi bo'lib chiqdi.

Tsivilizatsiyalarning zamonaviy holati haqida to'xtaladigan bo'lsak, quyidagilarga o'z e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Bugungi kunda vaziyat shundayki, texnik jihatdan kuchli bo'lgan xristianlar tamadduni butun dunyo bo'ylab o'z qadriyatlarini tarqatishga zo'r berib intilmoqda. Aslida esa bu madaniy hujumdan o'zga narsa emas. Buddaviylik ham (Xitoy, Yaponiya, Xindiston, Singapur, Honkong misolida) kundan-kunga kuchayib borayotir. Islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar esa axborot jihatidan ular bilan teng kuchga ega emas. Shu sababli islomiy davlatlar, vaqtincha bo'lsa-da, noiloj o'zlarini himoya qilishga majburdirlar.

G'arbiy mamlakatlarning etakchiligi shak-shubhasiz va doimiy emas, albatta. Buning uchun Musulmon Renessansi davrini eslashning o'zi kifoya. Darvoqe, "Musulmon Renessansi" iborasining o'zi ham Sharqda emas, aynan G'arbda paydo bo'lgan, shveytsariyalik olim Adam Mets mazkur sarlavha bilan barcha uchun birdek maqbul salmoqli kitob yozganligi bunga dalillardan biridir. Amerikalik mualliflar Heydi va Elvin Tofflerlar shunday yozadi: "G'arb dunyo iqtisodiyotida uzoq vaqt davomida va ochiq-oysidin peshqadamlik qilib kelganligi bois bundan besh asr muqaddam ilg'or texnologiyalar sohasida Evropa emas, balki Xitoy oldinda bo'lgani nazardan chetda qoldiriladi. O'sha vaqtarda aynan Osiyo jahon yalpi mahsulotining 65 foizini ishlab chiqarib, dunyoning qolgan qismiga rivojlanish yo'lini ko'rsatib turgan"¹. Islom din va turmush tarzi o'laroq umumsayyoraviy illatlarga (ekologiya, OITS, yadro quroli) qarshi tura olishining yuqori samarali bo'lishi ham dunyo hamjamiyati uchun sir emas. Balki shuning uchundir, Evropa aholisi o'rtasida islomni qabul qilish davom etmoqda.

Hozirgi siyosatshunoslar oldida muhim bir masala ko'ndalang turibdi. Bu "Sovet ittifoqi tarqalganidan keyin dunyo miqyosida yangi umumjahon tartibi qanday bo'ladi?" degan masaladir. Harvard universitetining professori Samyuel Xantington fikricha², xalqaro maydonda davlatlarning o'zaro munosabatlari tsivilizatsiyalar "to'qnashuvidan" iborat bo'ladi. Olimning shu sarlavhani maqolasi 1993 yili "Foreing Affairs Reader" jurnalining yozgi sonida e'lon qilingan edi. Keyinchalik u rus tiliga o'girilib, Toshkentda nashr qilinadigan "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalida chop etildi³. Maqolaning asosiy g'oyasi quyidagicha: mafkuralar kurashi tugaganidan keyin keng tarqalgan dinlarga asoslangan 7-8 ta dunyo tsivilizatsiyalari o'rtasida to'qnashuvlar boshlandi.

Jahon matbuotida ushbu maqolaga munosabat bildirilib, ko'pgina javob va sharhlar chiqdi, ularning bir qismini "Foreing Affairs Reader" (1993 y., sentyabr-oktyabr) va

¹ Тоффлер Э., Тoffлер Х. Революционное богатство. Ингл. тилидан М.Султанова, Н.Циркун. таржимаси. – М.: ACT: ACT Москва: ПРОФИЗДАТ, 2008. – Б. 99.

² "Экономическое обозрение", 1998, январь, – Б. 67-77. Ўзбек тилига таржимаси "Интеллект" газетаси, 2005 йил 9 июндан бошлаб еттита сонида босилган.

³ "Экономическое обозрение". 1998. Январь. – Б. 78-84. Апрель. – Б. 62-73.

“Ekonomicheskoe obozrenie” jurnallari e’lon qildi⁴. Javob tariqasida S. Xantington “Foreing Affairs Reader” jurnalining 1993 yil sentyabr-oktyabrda chiqqan sonida “Tsivilizatsiyalar bo’lmasa, unda nima?” (ruschasi: “Esli ne tsivilizatsii, to chto?”?) deb nomlangan maqolasini e’lon qildi.

Ham birinchi, ham ikkinchi maqolalarga munosabat sifatida o’nlab mamlakatlarda turli janrlardagi asarlar chiqishi davom etdi. Natijada S. Xantington 1996 yilda ushbu nomdagi o’z kitobini chop etdi⁵. Afsuski, bu asardan maqbul fikrlar bilan bir qatorda ayrim noto’g’ri g’oyalar ham o’rin olgan. Kitobning oxirgi jumlasini keltiraylik: “Etib kelayotgan davrda tsivilizatsiyalar to’qnashuvi butun dunyo uchun eng katta xavf bo’lib xizmat qiladi. Shuning uchun tsivilizatsiyalarga asoslangan umumdunyoviy tartib jahon urushining oldini olish uchun eng ishonarli choradir”⁶. Etib kelayotgan davri (bizningcha, axborot davri nazarda tutilmoqda – F.M.) tsivilizatsiyalar to’qnashuvi davri deb baholanishini ma’qullab bo’lmaydi. Kitob chop etilganidan keyin hozirgacha o’tgan davr tsivilizatsiyalar to’qnashuvi achchiq qismat emasligini ko’rsatdi. Yaqin Sharq inqirozi, Iraqda bo’lib o’tgan ikkita urush va Afg’istonida toliblarning davlat rahbarligidan chetlashtirilishi kabi voqealarni esa bunday to’qnashuvga nisbat berib bo’lmaydi. Aynan shu voqealar AQShdagi ayrim harbiylarni, jumladan mamlakat rahbariyatini hushyor torttirdi, buni ularning Eronga bostirib kirishga qaratilgan qat’iy rejalaridan qaytganliklaridan ham bilsa bo’ladi. Bu o’rinda o’zaro muloqot va tsivilizatsiyalar tengligiga asoslangan xalqaro tartib ustun keldi.

Lekin boshqa mamlakatlarni o’ziga teng ko’rmaslik, dunyo miqyosida etakchilikka intilish ayrim mamlakatlarga qimmatga tushmoqda. Misol tariqasida 2001 yil 11 sentyabr kuni sodir bo’lgan fojiani keltirish mumkin. Ayrim mutaxassislar fikricha, Umumjahon savdo markazi binolariga uyushtirilgan hujumni AQShning global etakchiligiga qarshi harakat deb baholasa bo’ladi. Ushbu hujumni ijobiylar kayfiyat bilan qarshi olganlar soni kutilganidan ko’proq bo’lib chiqdi. Londonda chop etilayotgan «New Left Review» nashrining bosh muharriri, taniqli yozuvchi va rejissyor Tariq Ali bu haqda shunday deb yozadi: “Men so’ramoqchimanki, nega islam dunyosiga taalluqli bo’lmananchagini kishilar ushbu voqeaga befarq qoldilar, nega ko’p odamlar Usama ben Ladenning “Qudratli Allohnинг irodasi bilan Amerikaning eng muhim markazlariga zarba berildi” degan dahshatli so’zlariga xursand bo’ldilar? Nikaraguuning poytaxti Managuada odamlar sukul aro bir-birlari bilan quchoqlasha ketdilar. Braziliyaning ichki hududlarida joylashgan Porto-Alegreda amerikalik qora tanli jaz musiqachi o’z kontsertini “Ey xudo, Amerikani yorlaqagin!” degan so’zlar bilan boshlamoqchi bo’lganida, yoshlar bilan to’lib-toshgan kontsert zali g’azabdan “Usama! Usama!” deb baqirishga tushdi. Kontsertni bekor qilishga to’g’ri keldi. Boliviya ko’chalarida ham odamlar xursandliklarini namoyish etishdi. Argentinada harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarning onalari davlat tomonidan uyushtirilgan motam marosimida qatnashishni xohlamadilar. Gretsiya hukumati ommaviy so’rovlar natijasini e’lon qilishga ruxsat bermadi, chunki bu so’rovlarda aholining asosiy qismi AQShga qaratilgan zarbalarni qo’llab-quvvatladi, futbol ishqibozlari esa fofia munosabati bilan ikki daqiqa sukul saqlashdan bosh tortishdi. “Nyu-Yorker” muxbir pekinlik talabalardan intervyyu olganida, ular o’z xursandchiliklarini ochiqdan-ochiq izhor etdilar. Bunga hayron qolgan jurnalistlarga talabalardan ayrimlari NATO samolyotlari Belgradda Xitoy

⁴ Карапг: “Экономическое обозрение”. 1998. Апрель. – Б. 73-77.

⁵ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – М.: ACT: ACT, Москва, 2006.

⁶ Ўша манба, – Б. 527.

elchixonasini bombardimon qilganini eslatishdi. G'arb ancha befarq ekanligini namoyish etgan o'sha voqeа oqibatida bor-yo'g'i olti nafar xitoylik o'lган bo'lsa-da, talabalar bu qurbanlar hayoti Nyu-Yorkda o'ldirilgan uch ming nafar amerikalik hayotidan kam emasligini uqtirdilar.

Yuqorida keltirilgan munosabatlarni tilga olishimizdan maqsad 11 sentyabrda sodir etilgan vahshiylikni oqlash emas, albatta. Bu faqat AQSh tomonidan ilgari surilayotgan “ular bizni ko'rolmaydilar, ular bizning erkinliklarimiz va boyliklarimizga hasad bilan qaraydilar” kabi engil-elpi dalil-isbotlardan voz kechib, masalaga jiddiyroq qarashga intilishdir. Gap mutlaqo bunda (ko'rolmaslikda, hasadda) emas”¹.

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, axborotning globallashuvi uzoq tarixga ega: alifboning yaratilishi, kitob ixtirosi va h.k. yangiliklar bu boradagi dastlabki qadamlar bo'ldi. Zamonaviy bosqichdagi axborot globallashuvi radio kashf etilganidan keyin, XX asrning 30-40 yillarda boshlandi. Ikkinci jahon urushi yakun topib, dunyo mamlakatlarining katta qismi ikki xil mafkuraga tarafkashlik qila boshlaganlaridan so'ng ular o'rtasidagi axborot raqobati avj olib, axborot asrini keltirib chiqardi.

Globallashuvning ko'p ko'rinish va turlari mavjud. Ayrim mutaxassislar amerikalik olim T. Levitt fikridan kelib chiqib, globallashuv jarayonlariga iqtisodiy globallashuv asos solgan, deb hisoblashadi. Lekin bunday fikrga qo'shilish qiyin. Bizningcha, globallashuvning barcha boshqa turlariga axborot globallashuvi debocha bo'lган va har doim madad berib turadi.

Globallashuv Internetda o'zining eng yuksak holatiga erishdi. Falsafa qonunlariga muvofiq, maksimal globallashuv o'z nihoyasiga etib, degloballashuv (globallashuvdan qaytish, uni barbod qilish) jarayonlarini boshlab berdi. Bugungi kunda, bir tomondan, globallashuv davom etayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, degloballashuv tamoyili ham asta-sekin kuchayib bormoqda.

Axborot globallashuvining eng yorqin ko'rinishi Internetdir. Mutlaq adad (tiraj)li, har tomonlama universal, barcha xohlovchilar uchun ochiq axborot tizimi bo'lmish Internetning ham ijobjiy, ham salbiy tomonlari borligiga qaramasdan, musbat jihatlari ustunligiga shubha qismaslik kerak.

Kuchli axborot texnologiyalariga egalik hali dunyoga egalik qilish degani emas. Chunki ma'rifatli dunyoda bunday texnologiyalardan tashqari odamlarning go'zal hayoti uchun nihoyatda zarur bo'lган madaniy boylik va ma'naviy qoniqish degan mezonlar ham barqarordir. Insonlar kelajagini axborot texnologiyalari bilan bir qatorda tamadduniy yutuqlar ham belgilab beradi. Bunday jihatlarga esa ko'proq madaniyatni qadimiy bo'lган davlatlar sohibdirlar. Ular safiga, shak-shubhasiz, O'zbekiston ham kiradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Globallashuv haqidagi tushuncha, uning dastlabki bosqichi.
2. Globallashuvning shakllari va turlari.
3. Dunyo axborot makoni, uning tavsifi.
4. Axborot qarama-qarshiligi va axborot asri tahdidlari.
5. Jamiatning axborot infratuzilmasi. Milliy va xalqaro axborot manbalari.
6. Matbuot, radio, televidenie va Internet ochiq axborot tizimlari sifatida.

¹ Али, Тарик. Столкновение цивилизаций: крестовые походы, джихад и современность. – М.: Астрель: ACT, 2006. – . 44, 45.

7. Zamonaviy bosqichda ommaviy axborot vositalarining tadrijiy rivojlanishi va konvergentsiyasi.

8. S. Xantingtonning “Tsivilizatsiyalar (madaniyatlar, tamaddunlar) to’qnashuvi” g’oyasi va unga mutaxassislar munosabati.

Seminar uchun savollar

1. XX asr oxiri – XXI asr boshidagi globallashuv jarayonlari tavsifi.
2. Dunyo axborot makoni tavsifi: tushuncha, qamrovi, xususiyatlari.
3. Jamiyat axborot infratuzilmasiga tavsif. Matbuot, radio, televideonie va Internet ommaviy axborot vositalari sifatida.
4. S.Xantingtonning “Tsivilizatsiyalar to’knashuvi” masalasiga bag’ishlangan asarlari va ularning matbuotdagi muhokamasi.

4-bob. AXBOROT-PSIXOLOGIK URUSHI – AXBOROT YORDAMIDAGI TAJOVUZKORLIKNING OLIY SHAKLI

1. Axborot urushining mohiyati va manbalari

“Axborot urushi:

1. Dushman axboroti, axborotga asoslangan jarayonlar va axborot tizimlariga zarar etkazish harakatlari. Ayni paytda o’z axboroti, axborotga asoslangan jarayonlari va axborot tizimlarini muhofaza qilish orqali axborot ustunligiga erishish ko’zlanadi.
2. Tizimlarning moddiy, harbiy, siyosiy yoki mafkuraviy sohada ma’lum yutuqqa erishishga qaratilgan bir-biriga ochiqdan-ochiq yoki yashirincha qarshi qaratilgan axborot hujumlari”¹.

Axborotni qabul qilish qobiliyati odam tabiatiga xos. Insonning nerv tizimi amalda unga etib boradigan har qanday signalni faol qabul qiladigan ochiq axborot tizimidan iborat bo’lib, ustiga muntazam ravishda yopirilib turadigan ta’sir oldida deyarli himoyasizdir.

Shunday xulosa kelib chiqadiki, odamlarga ko’rsatiladigan ijtimoiy, axborot-psixologik ta’sir turlicha - g’oyat ijobiyidan keskin salbiygacha bo’lishi mumkin.

«**Axborot tahdidi**, jamiyat axborot sohasining faoliyatiga xavf tug’dirayotgan jami omillar va omillar guruhlari»².

Axborot-psixologik urush axborot tajovuzining oliv shakli hisoblanadi. Bu urush nimadan iborat ekanligini bilish uchun eng avvalo “urush” atamasining o’zini tushunib olish lozim bo’ladi.

“**Urush**, ikkita yoki bir necha mamlakatlar o’rtasida sodir bo’lgan jiddiy nizo (ko’pincha harbiy to’qnashuv shaklida). Urush – mahsus maqsadlarda tashkil etilgan va tayyorlangan katta guruhlarning shafqatsiz harakatlaridan iborat jarayondir”³.

Ushbu so’zni tavsiflashda mutaxassislar, odatda, nemis harbiy nazariyotchisi K. fon Klauzevitsning urush siyosatning boshqa vositalar bilan davom ettirilishi haqidagi fikrini esga oladilar. Bu fikrning tasdig’i sifatida jahon tarixidan qo’shni mamlakatlar birorta o’q otilmasdan bosqinchi davlatlarga qo’shib olingan hollarni eslash mumkin.

¹ Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати. Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашр. Муаллифлар жамоаси: Амиров Д.М., Атаджанов А.Ю., Атаджанов Д.Ю. ва бошқ. – Т.: БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010 – Б. 27.

² Ўша жойда. – Б. 26.

³ Britanica. Большой энциклопедический словарь – М.: ООО «Издательство Астрель», 2009. – Б. 204.

Ko'rayapmizki, bu o'rinda urush bo'lman, faqat siyosat voqe bo'lgan, xolos. Va u axborot-psixologik vositalar bilan amalga oshirilgan.

Axborot-psixologik ta'sir kutilgan natijani bermagan hollarda, bosqinchi o'z maqsadini "olovli" urush usullari vositasida amalga oshirishga kirishgan. Biroq, qadimgi xitoy mutafakkiri Sun Tszi aytganidek, raqibni jangsiz taslim etish jangovor san'atning gultoji hisoblanadi. Albatta, u axborot urushi usullarini ishlatib qozoniladigan g'alabani nazarda tutgan.

Oddiy urush bilan axborot urushi mutlaqo farqli tashqi belgilarga ega. Ularning birinchisida o'qlar yog'ilib, zambaraklar portlaydi, imoratlar vayron bo'lib, odamlar o'ladi. Bunday urushning shu singari ochiq-oydin oqibatlari uning jahon hamjamiyati tomonidan qoralanishiga olib keladi. Axborot urushi jarayonida ko'zga tashlanadigan oqibatlar bo'lmay, o'zgarishlar faqat odamlar ongida yuz beradi. Lekin uning vayronavorlik natijasi oddiy urushnikidan qolishmaydi. Bunday urush izlarini ko'rish, ta'rif-tavsif etish va tasniflash hamda baholash mushkul. Uni tashkil etuvchilarga esa bu juda qo'l keladi.

Buning ustiga, oddiy va buzg'unchi axborot o'rtasidagi, shunchaki ta'sir bilan axborot bosqinchiligi orasidagi chegaraning o'zini aniqlash nihoyatda qiyin. Qisqacha aytish mumkinki, muntazam ravishda ta'sir o'tkazib turish ba'zan bosqinchilikka o'tib ketadi, yopirilma bosqinchilik ayni axborot tajovuzi bo'lib, uning oliy ko'rinishi axborot-psixologik urush hisoblanadi. Biroq murakkablik shundaki, har doim ham bunday o'zgarishlar amalga oshirilavermaydi, shunchaki ta'sir ko'rsatishdan axborot bosqinchiligiga, tajovuzkorlikka yoki urushga o'tilgan paytni ko'pincha payqab bo'lmay qoladi.

Shu narsa haqida to'xtalish zarurki, oxir-oqibatda urushga aylanib ketadigan turli xil nizolar paydo bo'lishining potentsial imkoniyatlari aslida insoniy munosabatlar tabiatining o'zida yashiringan. Buning ildizlari manfaatlar mos tushmasligi, raqobat, konkurentsija, ziddiyat, qarshi turish, qarshi kurash, to'qnashuv, ixtilof va boshqa shu singari tushunchalarga borib bog'lanadi. Ziddiyatlar tabiatining o'zi ziddiyatli – ular har doim faqat o'zaro mos kelmagan nuqtai nazarlar mohiyatini aniqlash uslubigina bo'lib qolmasdan, taraqqiyot sharti ham bo'lib kelgan. Qarama-qarshiliklar yagona bir narsa doirasida vujudga keladi va rivojlanadi. Mashhur qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonunining mohiyati ham shundan iborat.

Biroq har qanday ziddiyat ham qarshi turish yoki kurashga o'sib o'tavermaydi. Buning uchun u eng kichik farqlardan tortib jiddiy tafovutlar va qarama -qarshilik orqali to kurashgacha bir necha bosqichlarni bosib o'tishi kerak.

Nizolarning turlicha tasnifi mavjud. Shaxslararo, guruhlararo, institutsional va davlatlararo, shuningdek bevosita va bilvosita mojarolar eng keng tarqalgan nizo turlari hisoblanadi.

Axborot ixtilofi unda qatnashuvchi tomonlarning yangi kuchlarni jalb qilishi bilan avj olib, mavjud ziddiyatlar chuqurlashadi va kengayadi, nizoga kirishganlarning faollik darajasi oshadi, oxir-oqibatda bularning hammasi ochiqdan-ochiq axborot qarama-qarshiligi, kurash va urush bilan yakun topadi.

Axborot-psixologik urushi ta'rifiga o'taylik. Mutaxassislarning fikricha, **axborot-psixologiya urush** – bu:

- dushmanning axboroti, axborot tizimlari va aholisining ongiga ta'sir qilib, ularni boshqarishga erishish;

- o'z axborot tizimlari himoya qilingan holda dushman axborot tizimiga ta'sir qila olish;
- zamonaviy dunyo siyosatining asosiy vositasi bo'lib, o'zga davlatlardan siyosat, iqtisodiyot va boshqa sohalarda ustunlik qilishning yaxshi vositasidir;
- davlatlararo aloqaning bir turi bo'lib, bunda o'rtadagi qaramaqarshilikni echishda dushmanning axborot sohasiga yangi uslub, vosita va texnologiyalar bilan ta'sir etish tushuniladi.

Odatda, axborot urushi hujumkor tarzda amalga oshiriladi, biroq mudofaa tadbirlari ko'rinishida ham olib borilishi mumkin. Hujumkor urush haqida keng yoyilgan nuqtai nazarni keltiramiz. U radioelektron hujum ko'rinishida, Internet, televidenie, radio, matbuot va kino vositalari yordamida olib borilishi kuzatiladi. Bunda o'zgalar hududida o'z axborotini faol tarqatish, boshqa tomonning ma'lumotlarni sir tutish qoidalarini, yaxlitligini va ishonchhlilagini buzish, raqibning dasturiy ta'minot tizimini barbod qilish va h.k. usullar vositasida olib borilishi mumkin.

Urush davomida radioelektron himoya, axborot vositalarini texnik jihatdan muhofaza qilish, aholining psixologik himoyasi, yashirin harakat qilish, soxta iz qoldirish singari mudofaa tadbirlaridan ham foydalaniladi.

O.A.Kolobov va V.N.Yasenev shunday yozishadi: “Axborot urushining himoyalanish, hiyla-nayranglar ishlatish, degradatsiya va axborotni inkor etishni nazarda tutuvchi kamida etti turini farqlash mumkin. Ularni qisqacha ta'riflab, quyidagilarga ajratsa bo'ladi:

- 1) komanda-boshqaruv urushi (Command and Control – dushmanning “boshi” va “bo'yni”ga qarshi hujum);
- 2) razvedka urushi: harbiy jihatdan muhim axborotni to'plash va o'z axborotini himoya qilish;
- 3) psixologik urush, bunda axborotdan ittifoqchilar, betaraflikni qo'llab-quvvatlovchi tomonlar va g'animlar ongiga ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi;
- 4) xaker urushi: kompyuterlar va fuqarolik axborot makoniga hujum;
- 5) axboriy-iqtisodiy urush: iqtisodiy ustunlikka erishish maqsadida axborotni to'sib qo'yish;
- 6) elektron urush: dushmanning elektron kommunikatsiyalariga qarshi xatti-harakatlar;
- 7) kiberurush”¹.

Axborot-psixologik urushining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy, texnik, ma'muriy, moliyaviy va h.k. ko'plab yo'naliishlari mavjud. Anchagina mutaxassislar ulardan siyosiy va iqtisodiy yo'naliishlarni birinchi darajali deb hisoblaydilar. Biroq, o'ylashimizcha, bunday urush davomida turli millatlar va elatlarning madaniy kodlarini vayron qilib tashlash yanada jiddiyroq xarakterga ega bo'lsa borki, kam emas.

Urushning maqsadi ta'sir ko'rsatilayotganlarni tushkunlikka solishdan iborat. Bu maqsadga bir qator aniq vazifalarni hal etish orqali erishiladi:

- dushmanning boshqaruv tuzilmalarini falaj qilib qo'yish;
- o'zga tomon aholisi ongida boshboshdoqliqni hosil qilish;

¹ Колобов О.А., Ясенев В.Н. Контртерроризм и информационная безопасность в современном мире. Монография. – Нижн. Новгород. Нижегород университети нашриёти, 2004. – Б. 145.

- odamlarda hokimlik tuzilmalariga, ularning mamlakat va jamiyatga rahbarlik qilish salohiyatlariga bo'lgan ishonchni barbod qilish;

- siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa xarakterdagi milliy qadriyatlar obro'yini ketkazish.

Hujum qilayotgan tomonning pirovard vazifasi ta'sir o'tkazilayotgan mamlakat aholisida o'zi uchun qulay milliy ongi va ijtimoiy fikrni shakllantirishdan iborat.

Uzluksiz ta'sir bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy hayotning aniq masalalari yuzasidan "reyd" aktsiyalarini o'tkazishdan ham foydalaniladi. O'zbekistonga nisbatan oladigan bo'lsak, bizning mamlakatimizda demokratiya yo'qligi to'g'risida Internetda muntazam ravishda paydo bo'lib turadigan asossiz materiallarni doimiy hujum deb hisoblash mumkin. 2005 yil may oyida Andijonda bo'lib o'tgan fojiali voqealarning bir yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan aktsiyani bir gallik tadbir jumlasiga kiritish mumkin, bunda faqat Internetning o'zida O'zbekiston hokimiyatini isbot-dalilsiz tanqid qilishga asoslangan uch mingdan ko'proq maqola e'lon qilindi. Vaqt ko'rsatdiki, vatanimizning hamma siyosiy texnologlari va jurnalistlari ham o'sha paytda bu hujumlarga munosib javob qaytarishga qodir emas ekanlar.

Axborot-psixologik urush axborot bobida so'zsiz va qat'iy ustunlik qilish maqsadida olib boriladi. Buning uchun hamma vositalar – qabul qilsa bo'ladiganlari ham, o'ta qo'pollari ham ishga solinadi. "Urushda turish yo'q" - oddiy urush sharoitida tug'ilgan bu maqol hujum qiluvchi tomon o'zi uchun oddiy jangovar harakatlardagiga qaraganda ancha keng harakat maydoni ochib oladigan axboriy-psixologik urushga nisbatan qo'llashga ko'proq mos keladi, deyish mumkin. Insoniyat o'zining uzoq o'tmishi davomida hatto jangovar sharoitlarda xotin-qizlar, bolalar, qariyalar hamda harbiy asirlarni himoya qiluvchi muayyan qoidalarni ishlab chiqqan, biroq axborot urushi tashkilotchilari hech kimni farqlamay, yoppasiga barchaga ta'sir o'tkazaveradilar. Natijada ancha ko'ngilchan va qaror topmagan psixikaga ega o'smirlar tasavvur qila olishimizdan ham ko'proq uning domiga tushib qoladilar.

Bugungi kunda axborot bobidagi hukmronlik moddiy-texnologik ustunlikka asoslanadi. Masalan, ma'lumki, dunyodagi harbiy xarajatlarning 50 foizi AQSh zimmasiga to'g'ri keladi. Bunday moliyalashtirish, tabiiyki, mamlakatga axborot sohasida ham boshqalardan shak-shubhasiz ustun bo'lish imkoniyatini beradi. 1648 yilgi Vestfal bitimidan keyin milliy suverenlik xalqaro munosabatlarning negiz printsipi bo'lib kelgan esa-da, axborot asrining kirib kelishi bu xalqaro an'anani ham beta'sir qilib qo'ydi. Bugungi kunda huquqlari va hatto quroli ko'p kishi emas, balki er yuzi aholisining ko'proq qismiga so'zini tezroq va ishonchliroq etkaza oladigan kishi haqdir.

Aslida esa ustun tomonning o'z turmush tarzi, o'z qadriyatlari va qarashlari targ'ib qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov to'g'ri ta'kidlaydiki, "Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun "Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish" niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi.

Shu borada ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, er osti, er usti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch

hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas”¹.

G'arb mamlakatlari ko'p yillardan buyon o'z namunalariga monand universal jahon madaniyatini shakllantirish borasida urinib keladilar. “sovuv urush” ham axborot urushidan boshqa narsa emasdi. Tsivilizatsiyalarning o'zaro munosabatlari tarixi va nazariyasi to'g'risida gap ketar ekan, rossiyalik tadqiqotchi E.M.Brandmanning shunga doir fikriga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. U shunday yozadi: “Agar G'arb nuqtai nazarini yoqlaydigan bo'lsak, tarixga va tsivilizatsiyaga nihoyatda oddiy qarashga ega bo'lamiz. Formatsiyalar nazariyasi yuksalish uchun yagona g'arbcha tadrijiy rivojlanish bosqichlarini tan olib, tarixiy taraqqiyot jarayoni nazariyasini soddalashtirib qo'ydi. G'arb madaniyat pluralizmini makonda emas, zamonda joylashtirdi. Barcha nog'arbiy madaniyatlar g'orlar (ya'ni yovvoyi odamlar – R.N.) madaniyatidir va ular insoniyatning yuksalish sari rivojlanishiga qarab yo'l bosib o'tishlari lozim deb e'lon qilinishi ham shundan kelib chiqqan. Umum bashariyat “avangardi” xato qilib qo'ysa-chi? Bu holda ikki yuz yillikdan sal ko'proq tarixga ega AQSh rivojlangan gegemon-davlat, qolgan dunyo uchun madaniyatlilik namunasi, ming yillik tarixga ega Hindiston va Xitoy tamaddunlari esa umumjahon jarayonidan panada qolib ketgan bo'lib chiqadi. Bunday soddalashtirish Sharq tamaddunlarining ma'naviy asoslarini va yutuqlarini avval boshidanooq taraqqiyot qavsidan tashqariga chiqarib qo'yadi... Liberallar Sharq tamaddunlariga... g'oyat shubhali haqiqatni qo'shib qo'yadilar – G'arb o'z dasturlari asosida, Sharq esa – G'arbning madaniylashtiruvchi ta'siri negizida rivojlanmoqda”¹. Bu fikrda bir qator mutaxassisilarning, shu jumladan amerikalik mutaxassislarning Sharq bilan G'arbning madaniy munosabatlariga nisbatan qarashlari mujassam ifodasini topgan. Shu o'rinda bir aniqlik kiritib o'tish lozim. “Avesto” tarixi ikki yarim ming yildan ko'proq vaqtini o'z ichiga oladi. Hindiston va Xitoy tamaddunlariga kelsak, ular muhtaram muallif aytganidan ko'ra ancha qadimiyoqdir. Ayniqsa, Karl Yungning nafaqat tibbiyot mutaxassislari, psixologlar va tarixchilar o'rtasida, balki mutaxassislarning ancha keng doirasida mashhur bo'lib ketgan arxetiplar nazariyasini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu g'oyat salmoqli fakt hisoblanadi.

BMT Bosh Assambleyasi 1998 yil dekabrda kiberjinoyatchilik, kiberterrorizm va kiberurushga aloqador 53G'70-sonli rezolyutsiyani qabul qildi. Bu hujjatga binoan BMTga a'zo bo'lgan davlatlarga axborot xavfsizligi muammolari yuzasidan, shuningdek uning asosiy tushunchalarini izohlash borasida BMT Bosh kotibini xabardor qilib turishi taklif etildi. Rezolyutsiya global axborot manzarasini uyg'unlashtiruvchi va axborot terrorizmi va jinoyatchiligiga qarshi kurashni ta'minlovchi halqaro printsiplarni yanada rivojlantirishni ko'zda tutgan.

O'zbekiston Respublikasi o'zining kundalik siyosatida xalqaro bitimlarga, shuningdek o'zi imzolagan deklaratsiyalar hamda boshqa hujjatlarga og'ishmay amal qilib kelmoqda. Mamlakatimiz shuningdek er yuzi miqyosidagi hozirgi geosiyosatning muhim markazi bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlarini ham qo'shib hisoblaganda, axborot xavfsizligini va xavfsizlikning boshqa turlarini ta'minlashda boshqalarga namuna vazifasini o'tamoqda. Rossiyadagi “Politika” fondining prezidenti Vyacheslav Nikonor Toshkentda o'tkazilgan anjumanlardan birida so'zlagan nutqida Markaziy

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. – Б. 116.

¹ Брандман Э.М. Глобализация и информационная безопасность общества. Монография. – М.: ГПИБ, 2007. – Б. 151.

Osiyo mintaqasi dunyo siyosatida tobora ko'proq ahamiyat kasb etib borayotganini, uning muammolari esa mintaqqa davlatlarining ham, global siyosiy maydonda ish olib borayotgan mamlakatlarning ham e'tiborini tortayotganini qayd etdi. Ayni paytda u shunday ta'kidladi: "Bu erda, Markaziy Osiyoda ko'plar buyuk davlatlar raqobatchiligining da'vatlari bilan to'qnash kelmoqdalar. Keyingi yillarda hozirgi dunyoning barcha asosiy markazlari o'zlarini bu mintaqadagi faol "o'yinchilar" sifatida ko'rsatdilar, afsuski, ularning manfaatlari Markaziy Osiyo davlatlarining manfaatlariga har doim ham mos kelavermaydi"¹.

Shu munosabat bilan frantsuz faylasufi Klod Gelvetsiyning so'zlarini eslash o'rinnlidir. U XVIII asrdayoq shunday yozgan edi: "Har qanday odam mohiyatan hamisha o'z manfaatiga bo'yin egadi...Agar fizik dunyo harakatlar qonuniga bo'ysunsa, ma'naviy dunyo manfaat qonuniga bundan kam bo'yinsunmagan...Shaxsiy manfaat inson xatti-harakatlarining...birdan-bir va umumiylar mezonidir"². Qo'shimcha qilish mumkinki, Sharq xalqlari, jumladan o'zbekistonliklar hayotida shaxsiy manfaat u qadar umumiylar kategoriya emas, bu erda ko'p hollarda jamoat yoki oila manfaatlari ustun turadi.

2. Axborot quroli yordamida ta'sir ko'rsatish ta'rif-tavsifi, metodlari, uslublari va usullari

Oddiy va axborot urushining yuqorida eslatib o'tilgan farqlaridan axborot qurolining tavsifi va parametrlarini, shuningdek o'ziga xos xususiyatlarini chiqarib olsa bo'ladi. Boshqa holatlarda bo'lganidek, axborot qurolining keng hamda aniq ta'rifini ajratib ko'rsatish odatga aylangan. Keng ma'noda – bu o'zga davlat aholisiga uning tafakkuri va yurish-turishini qayta tashkil etish uchun maqsadli ta'sir etish tizimidir. Aniq ma'noda axborot quroli deganda, ta'sir o'tkazilayotgan mamlakat aholisiga uni axloqiy-psixologik jihatdan mag'lubiyatga uchratish va hujum qilayotgan tomoniga foydali ideallarni shakllantirish maqsadida bevosita axboriy ta'sir ko'rsatish vositalari tushuniladi.

Quyidagi faktga e'tibor berish lozim. Axborot urushi davrida hujumga uchraydigan ob'ektlarni aniqlashda mutaxassislar insonga qaraganda davlat tizimiga hamda texnik tizimlarga ko'proq e'tiborni qaratadilar. Masalan, I.N.Panarin shunday ettita ob'ektni ajratib ko'rsatadi: 1) axborot-texnika tizimlari; 2) axborot-tahlil tizimlari; 3) insonni ham o'z ichiga oladigan axborot-texnika tizimlari; 4) insonni ham o'z ichiga oluvchi axborot-tahlil tizimlari; 5) axborot resurslari; 6) ommaviy axborot va targ'ibot vositalariga asoslangan ijtimoiy ong va fikrni shakllantirish tizimlari; 7) inson psixikasi³.

O'z navbatida, "Axboriy-psixologik urush sharoitida davlatning axborot siyosati" kitobining mualliflari axborot quroli uchun quyidagi beshta asosiy ob'ektni sanab o'tadilar: 1) davlat, mintaqaviy va xususiy tuzilmalarning aloqa, boshqaruv va nazorat tizimlari hamda vositalari; 2) quollar tizimi va harbiy boshqaruv organlari; 3) moliyaviy muassasalarning aloqa, axborot almashuv tizimlari hamda vositalari; 4)

¹ Проблемы безопасности в Центральной Азии. Материалы международной научно-практической конференции. Ташкент, 20-21 октября 2005 г. – Т.: "Turon-Iqbol", 2006. – Б. 8.

² Гельвеций К. Сочинения. 1-ж. – М.: "Наука", 1973. – Б. 186-187.

³ Қарант: Панарин И.Н.Информационная война и дипломатия. – М.: ОАО "Издательский дом "Городец", 2004. – Б. 215.

ommaviy axborot va ommaviy kommunikatsiya vositalari; 5) inson aql-zakovati, omma va shaxs ongi, ijtimoiy jarayonlar¹.

Davlat va xususiy tuzilmalarning aloqa va boshqaruv, axborot-texnika tizimlarini birinchi planga qo'yish bilan inson psixikasi va aql-zakovatini ikkinchi o'ringa qo'yayotganliklari uchun ushbu muaaliflarga e'tiroz bildirish mumkin edi. Biroq bunday qilish u qadar xolislik bo'lmasdi, chunki iqtibos oorganimiz kitob mualliflari uni o'z maqsadlari va dasturlariga binoan yozishgan. Shunday bo'lsa-da, rossiyalik olimlarning asarlarida axborot xavfsizligi masalasida shaxs o'rniga davlatni birinchi planga chiqarishdek umumiy va, nazarimizda, unchalik to'g'ri bo'lmanan qonuniyat uchraydiki, bunga e'tibor bermaslik mumkin emas. Rossiya Federatsiyasining 2000 yil sentyabrda mamlakat Prezidenti V.V.Putin tomonidan imzolangan Axborot xavfsizligi Doktrinasida ham shunday tendentsiya ifodalangan².

Axborot-psixologik urushida inson, uning nuqtai nazari, qiziqishi, kayfiyati ta'sir o'tkazishning bosh ob'ekti hisoblanadi, deb o'ylaymiz. Ushbu fikr shu bilan ham tasdiqlanadi, axborot jadal sur'atlarda tarqalib, uning hajmi ko'paygan sharoitda fuqarolar o'rtasida ichki va xalqaro ma'lumotlarni shaxsan o'zaro almashish keskin o'sdi va bu davlat monopoliyasini hamda korporatsiyalarning axborotni ishlab chiqish va ommaviy auditoriyaga etkazish imkoniyatlarini ham ancha orqada qoldirib ketgan almashuvga aylandi.

Bevosita axborot quroli tavsifiga va mezonlariga o'taylik. Uni aniq tasniflashning qiyinligi axborot urushi tabiatining o'zi chalkashligi bilan izohlanadi. Mutaxassislar axborot qurolining turli xillari bo'lib, ulardan har biri aloqa vositalari va auditoriyaga ta'sir ko'rsatish bobida o'z tizimlariga ega, deb hisoblaydilar. Ularni dastlabki bo'lishdayoq moddiy-texnik va psixologik turlarni ajratib ko'rsatish mumkin, o'z navbatida, ular ham bir qator guruh va kichik guruhlarga bo'linadilar (yuqoridagi iqtiboslarda ularning ayrimlari keltirib o'tildi).

Texnik va boshqaruv tipidagi ob'ektlarni ko'rib chiqish ushbu darslikning markaziy muammosi bo'lmanligi bois bu xususda batafsil to'xtalmaymiz. Psixologik usullar biz uchun asosiy hisoblanib, mazkur bob va umuman butun darslik shunga bag'ishlangan.

Jangovor harakatlarni buning uchun alohida tayyorgarlikdan o'tgan professionallar (ofitserlar, askarlar) olib borishadi, axborot-psixologik ta'sir o'tkazish bilan esa mutaxassislarning ancha keng doirasi (davlat va jamoat arboblari, siyosatchilar, iqtisodchilar, faylasuflar, jurnalistlar va boshq.) shug'ullanadi. Taktik quroldan foydalanuvchilar jang paytida muayyan joy relefini, ya'ni baland-pastliklarni, nishonga olingan ob'ektlar xarakterini va boshqa xususiyatlarni hisobga olgani singari axborot-psixologik qurol egalari ham auditoriya tarkibi va tipologiyasini, uning ong darajasini, omma va guruh psixologiyasi sifatini va h.k. jihatlarni chamalab chiqishadi.

Bir qator mutaxassislar fikricha, axborot quroli axborot makonini vayron qilmaydi, balki unga tayanadi. Bu mutlaq ma'nodagina to'g'ridir, chunki hujum qiluvchi dastlab albatta birinchi tomon yaratgan axborot tizimini barbod qiladi va o'zi uchun foydali yangi axborot makonini vujudga keltiradi.

¹ Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. – 2-стереотип нашр. – М.: Горячая линия – Телеком, 2006. – Б. 213-214.

² Мазкур Доктрина РФ хукуматининг Интернет сайтида жойлаштирилган ва "Основы информационной безопасности" китобида эълон қилинган: Олий ўқув юртлари учун ўқув кўлланма / Белов Е.Б., Лось В.П., Мещеряков Р.В., Шелупанов.А.А. – М.: Горячая линия – Телеком, 2006. – Б. 283-324.

Quyidagilar axborot-psixologik qurolning *o'ziga xos xususiyatlari* hisoblanadi. **Birinchidan**, axborot tarqatilishining sanoqli soniyada er kurrasining har qanday nuqtasiga borib etadigan darajadagi favqulodda tezligi (shunga yarasha operativlik ham). **Ikkinchidan**, auditorianing yoppasiga qamrab olinishi, zarur bo'lganda, axborotni butun er yuzi aholisiga uzatish mumkinligi. **Uchinchidan**, tanlab ta'sir ko'rsatish imkoniyatining yuksakligi, o'z navbatida, bu aniq nuqtalarni nishonga olib ta'sir ko'rsatish, ma'lumotlarni muayyan ijtimoiy qatlamlarga aniq moslab etkazish imkonini beradi. **To'rtinchidan**, bunday axborotni boshqarish osonligi. **Beshinchidan**, axborot qurolining arzonligi (uni atom quroli bilan taqqoslab ko'rsa bo'ladi, garchi biz uchun mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan ko'ra muhimroq bo'lsa ham). **Oltinchidan**, axborotning zanjirli reaktsiya printsipida bir kishidan ikkinchi kishiga o'tib, o'z ta'sir doirasini tez kengaytirib borishi. **Ettinchidan**, axborot quroli bekitilgan holda bo'lib, uni bilib olish oson emasligi. Va h.k.

Printsip jihatidan axborot qurolining *sifatini* aniqlash u qadar qiyin emas, faqat bilish kerakki, bu erda hamma narsa avra-astari ag'darilgan holda bo'ladi. Uning barcha sifatlari haqiqatan ham soxta va aniq teskarisi bo'lib ko'rindi, ya'ni yolg'ondakam xolislik, ishonchlilik, haqiqiylik, xalqchillik, adolat va boshqa xususiyatlar ishlataladi. Ayni bir paytda axborot quroli dolzarb voqealarga e'tiborni qaratish, teskari natijaga erishish, bayonotlarning demagoglarcha shiorbozlik xarakteri kabi ob'ektiv ravishda mavjud sifatlarga ham ega bo'ladi.

Bugungi kunda neyrolingvistik dasturlash (NLD) axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishning eng samarali vositasi deb tan olingan. Bu sohaning etakchi mutaxassislaridan bo'lgan Piter Yang shunday yozadi: "NLD 70-yillarda paydo bo'lgan paytdan beri odamlar voqelikni qanday qabul qilishlari va qanday o'zgarishlari haqida nihoyatda katta bilim hajmiga ega bo'lish hisobiga o'z sohasini ancha kengaytirdi"¹. Georgiy Pocheptsov "NLD psixoanalizni qat'iy belgilab berilgan kommunikativ asoslarga qo'yib, kommunikatsiya nazariyasi bilan psixoterapiyaning sinteziga o'xshab qoldi"², degan fikrda.

Aslida, neyrolingvistik dasturlash auditoriya tafakkurini axborot etkazuvchiga qanday foydali bo'lsa, shunday o'zanga solib yuborishni anglatadi. Avvaliga maqsad hamda vazifalar belgilanadi, so'ngra ta'sir ko'rsatish strategiyasi ishlab chiqiladi, ta'sir o'tkazishning kerakli va qulay uslublari tanlanadi. Nihoyat, aholiga axborot vositasida ishlov berish operatsiyasining o'zi o'tkaziladi. Amaliyot ko'rsatdiki, bularning hammasi to'g'ri bajarilsa, auditoriya bunday ustalikka hech narsani qarshi qo'ya bilmas va buyurtmachi rejalshtirgan barcha ishni itoatkorona bajarar ekan.

Bu neyrolingvistik dasturlash – xavfli qurol, degan xulosaga kelishimizga asos beradi. Uning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish uchun kamida ikki shartni bajarish darkor: birinchidan, uning qo'llanilishini zarur bo'lgan sohalar bilan chegaralash; ikkinchidan, insoniy o'lchovlar undan foydalanishning bosh mezoni bo'lishi, ya'ni uning insonlarga amaliy foyda keltirishi. Bu g'oyat dolzarb talab ekanligiga kuyida masalaning ikkinchi yarmi haqida keladigan bayonni o'qib ishonch hosil qilish mumkin bo'ladi.

Gap shundaki, ishontirish, yolg'on xabar tarqatish, manipulyatsiya, shantaj qilish axborot quroli yordamida ta'sir ko'rsatishning asosiy uslublari hisoblanadi. Ko'rib

¹ Янг П. НЛП. Эффективные методики влияния. Ингл. тилидан С.Степанов таржимаси. – М.: ЭКСМО, 2007. – Б. 14.

² Почепцов Г.Г. Теория коммуникации. – М.: "Рефл бук", К.: "Ваклер", 2003. – 74-6.

turganimizdek, ularning barchasi mazmunan salbiy, shaklan ig'vogaronadir. Yolg'onchi targ'ibotning konkret usullari haqida gapiriladigan bo'lsa, ular etarli darajada ko'p bo'lib, ayrimlarigagina tavsif berib o'tamiz³.

Anonim avtoritet (nomi yashiringan biror obro'li manba). "Ishonchli shaxsning bizga xabar berishicha...", "Yaqin atrofdagi manbadan xabar beradilarki,...", "Kuzatuvchilar xulosa qiladilarki,..." degan so'zlar bilan sirtdan baobro' tuyuladigan, lekin aslida mavjud bo'lмаган manbaga ishora qilinadi.

"O'z-o'zini qiyash" yoxud "O'g'rini ushl". Ayblanuvchilar ayblovchilar bilan aralashib ketib, "O'g'rini ushla!" deya boshqalardan kuchliroq qichqiradilar. Muvaffaqiyatsizlikni oldindan sezishgach, "qo'rkoq oldin musht ko'tarar" qabilida ayyuhannos solib, o'zlarini zo'r berib ayplashga boshlash bilan odamlarda rahm-shafqat uyg'otib, ular himoyasiga o'tib oladilar.

Keskinlikni oshirish. "Odamlar hukumatga ishonardilar, qattiq ishondilar, uzoq vaqt ishonib keldilar. Biroq hukumat ular umidini puchga chiqardi, ular ishonchni oqlamadi" singari so'zlar va so'z birikmalarini qayta-qayta takrorlash yo'li bilan auditoriyada muayyan psixologik holat yaratish. Oddiy va ta'sirchan usul.

Birinchilik effekti. Jurnalistlarga talabalik davridayoq umuman haqiqatni aytgan emas, birinchi bo'lib aytgan odam haqdir, deya tushuntirib keladilar. Dastlabki xabar har doim tayyor zaminga tushib, yaxshi unib chiqadi. Ikkinci bo'lib so'z aytgan kishining ishi ancha mushkul – u oldingi xabarni tag-tomiri bilan qo'porib tashlaganidan keyingina ishonch qozonishi mumkin. Shu singari barcha murakkabliklarni oydinlashtirish uchun auditoriyaning vaqt ham, xohishi ham yo'qligidan bunga erishish u qadar oson emas.

Ovozasi ketgan voqeа illyuziyasi. Voqeа bo'lib o'tishi kutilayotgan joyda aslida hech narsa yuz bermaydi. Lekin janjalli reportaj nihoyatda zarur. Va uddaburonlar darhol ishga kirishib, uni o'ylab topadilar: shovqin-suron, baqiriq-chaqiriqlar, allanimalarning nimalargadir zarb bilan urilishi, o'qlar ovozi va h.k. effektlarni tashkil qiladilar. Turli joylarda har xil epizodlarni suratga tushirib, mohirona montaj qiladilar va shu bilan aslida bo'lмаган, lekin ommaviy auditoriya uchun "ishonchli" voqeani yaratadilar. "Nyu-York jornal" gazetasining egasi Rendolf Xerst rassom Frederik Remingtonni Kubaga ispanlarning amerikaliklarga nisbatan vahshiyliklari to'g'risida xabar berish uchun yuborgan 1898 yilgi voqeа bunga klassik misoldir. Remington Xerstga telegramma yo'llaydi: "Hammasi osoyishta. Hech qanday dahshatli narsa yuz bermayapti. Urush bo'lmaydi. Qaytib bormoqchi edim". Xerst javob yuboradi: "Marhamat qilib qoling. Rasmlarni ta'minlang. Urushni men ta'minlayman"¹.

Yorliqlar yopishshtirish yoki osish. Ma'qul bo'lмаган shaxs uchun turli ismlar, o'xshatishlar yoki sifatlashlar (ko'pincha kinoyaomuz) o'ylab topishdan iborat. Amaliyat ko'rsatadiki, kishiga o'zini shunchaki "poklab olish", ta'riflaganlaridan boshqacha odam ekanligini isbotlash oson bo'lmaydi. Bunday hollarda "ishbilarmon", "chaqqon", "lo'ttiboz", "korchalon" va hatto "bank", "biznesmen", "moliyachi", "regulirovkachi" singari xolis (lekin salbiy ma'no yuklangan) so'zlar an'anaviy xalqona ta'riflar sifatida qo'llaniladi. Auditoriya bunday so'zlarni his-hayajon darajasida qabul qiladi, oson eslab qoladi va huzur qilib takrorlab turadi.

³ Ёлғончи тарғибот усуллари Виктор Сороченко ва Игорь Панаининг турли йилларда ёзилган асарларида келтирилган таснифлар асосида умумлаштириб олинди.

¹ Рэндалл Д. Универсальный журналист. Ингл. тилидан А. Поряз таржимаси. – Алмати: Ёш журналистларнинг Марказий Осиё мактаби, 1996. – Б. 16.

Yarqiroq umumlashmalar. Bu usul odamlarning “yangi”, “haqiqat”, “demokratiya”, “adolat”, “taraqqiyot”, “g’alaba”, “rivojlanish”, “muvaqqafiyat”, “olg’a harakat” va h.k. shu singari so’zlarga azaliy muhabbatiga asoslanadi. Amalda bunday narsadan asar ham bo’lmaydi, lekin taassurot uyg’otish uchun ustalik bilan faktlar tanlanadi va quroq qilinadi, aql bovar qilmaydigan umumlashmalar yasaladi – oqibatda auditoriya bunday xo’rakka engilgina ucha qoladi.

Nisbat berish (analogiya) usuli. Biror obro’li kishining ijobjiy sifatlarini hali bunga huquqli ekanligini ko’rsatishga ulgurmagan boshqa bir kishiga nisbat berishga asoslangan. Masalan, nisbat berish usuli an’ana tarzida mashhur rahbardan keyin va uning o’z o’rniga tavsiya qilishi tufayli hokimiyatga kelgan kishilarga bog’lab ishlataladi. Bu salbiy ma’noda bo’lishi ham mumkin. Masalan, nodemokratik davlatda hokimiyat vorisi kim bo’lishidan qat’i nazar, o’xshatma-analogiya asosida unga diktatorlikka intiluvchanlik nisbat berilaveradi. Partiya, vazirlik va h.k.lar haqida ham shunday deyish mumkin.

Oddiy xalqqa mansublik (o’z odamimiz) o’yini. Bu usulning mohiyati partiya (soha, tashkilot) etakchisining o’zi haqida keng auditoriyada o’z odamlarimiz davrasidan va u kishiga oddiy xalqning tashvishlari, orzu-umidlari juda yaqin degan taassurot uyg’otishidan iborat populizm printsipidan foydalanishdan iborat. Siyosat sohasida keng tarqalgan bu usul kiyinishdan va yurish-turishdan tortib ishchilar qozonchasidan atala tushirishgacha bo’lgan parametrlarning katta doirasini o’z ichiga oladi. Etakchilarning qo’shiq aytib, raqsga tushishlari, bolalar bilan o’ynashlari, oddiy fuqarolar bilan qo’l siqishib ko’rishish uchun kutilmaganda kortejni to’xtatib qo’yishlari singari ko’pgina misollar ma’lum.

Faktlarni buzib ko’rsatish. Bu oddiy va samarali usul barcha darajadagi siyosatchilar tomonidan keng ishlataladi. Uning mazmuni iqtisodiyot, siyosat va madaniyatga oid ko’plab faktlardan axborotni tarqatuvchiga foydali bo’lganlarinigina tanlab olishdan iborat. Boshqacha xarakterdagi ma’lumotlar haqida, garchi ular ham etarli bo’lsa-da, lom-mim deyilmaydi. Bunday usulning kundan-kunga, oydan-oyga... takrorlanaverishi asta-sekin kerakli taassurotni hosil qiladi, targ’ibotchi uchun bu ayni muddaodir.

Ushbu masalaga xulosa sifatida shuni aytish joizki, agar oddiy urush vositalaridan foydalanish oqibatlari (vayrona binolar va yo’llar, odamlar orasidagi qurbanlar va h.k.) ravshan ko’rinib tursa, axborot quroli zararli natijalarini o’lchab bo’lmaydi, chunki u odamlar ongiga ta’sir o’tkazadi. Biroq, biz yuqorida aytib o’tganimizdek, vayronavor oqibatlari jihatidan u olovli urushdan hech qolishmaydi.

3. Axborot-psixologik urushi jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish

Ommaviy axborot vositalarining alohida masala sifatida ajratilishi axborot-psixologik urushni olib borishda g’oyat katta rol o’ynashi bilan izohlanadi. Mutaxassislar qayd qilganlaridek, Sovet ittifoqi iqtisodiyoti va siyosati zaif bo’lganligi uchungina emas, balki “Amerika ovozi”, “Nemis to’lqini”, Bi-bi-si va boshqa radiostantsiyalar bu zaifliklar to’g’risida butun dunyoga jar solganliklari sababli “sovuv urush”da mag’lub bo’ldi. Qisqacha aytganda, axborot-psixologik urushi davomida aholiga yopirilma va har tomonlama ta’sir o’tkazish ommaviy axborot vositalari orqali eng samarali amalga oshiriladi.

Ma’lumki, odamlarga axborot etkazish va ijtimoiy fikrni shakllantirishning uchta asosiy manbai mavjud: rasmiy shaxslarning ma’lumotlari, ommaviy axborot

vositalarining xabarlari hamda mish-mishlar, g'iybatlar, latifalar. Axborot asri boshlanishi bilan ommaviy axborot vositalari qolgan ikki kanalni ancha chekintirib, o'ziga so'zsiz etakchilikni ta'minladi. Buning ustiga birinchi va ikkinchi manba ma'lumotlarining kattagina qismi ham uning vositasida etkaziladi.

Bundan, tabiiy ravishda, ommaviy axborot vositalari hozirgi davrda axborot-psixologik urushda asosiy rol o'ynaydi degan xulosaga kelish mumkin. Oddiy urushda qiruvchi va bombardimonchi samolyotlar, tanklar va bronetronporterlar, ofitserlar va askarlar hal qiluvchi vositalar bo'lsa, axborot-psixologik urushda raqibga shikast etkazish vazifasini Internet va matbuot xizmatlari, televidenie va radio, gazeta, jurnallar hamda varaqalar bajaradi.

Bugungi kunda amalda har bir mamlakat rivojlangan ommaviy axborot tizimiga ega, davlat va jamiyatning muvaffaqiyatli amal qilishini, ijtimoiy guruhlar va shaxslar faoliyatini usiz tasavvur qilib bo'lmaydi.. Axborot-psixologik urushni boshlayotgan mamlakat er kurrasining kerakli qismida boshqa mamlakatlar aholisiga ta'sir ko'rsatish uchun nafaqat o'z vatani, balki xalqaro va jahon ommaviy axborot vositalarining g'oyat rivojlangan ommaviy axborot tizimiga ham ega bo'lishi lozim. Bu tizim Internetga, radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlarga keng ko'lamdagi materiallar uzliksiz etkazib berib turishi, imkon bo'lganda esa bosma mahsulotlarning tirajlarini ham ta'minlashi lozim bo'ladi.

Aytish mumkinki, bunday rolni ancha yillardan beri AQSh muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda. Taniqli siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy o'zining mashhur kitobida: "Amerika teledasturlari va filmlari jahon bozorining qariyb chorak qismini tashkil qiladi"¹, deb yozadi. Butun dunyo bo'ylab Amerika ommaviy axborot vositalari mahsulotlarining zo'ravonligi - oydin ko'rinish turgan fakt. Bu jahon miqyosida axborot almashuvda va xalqaro munosabatlarda har xil nomutanosibliklarga va tengsizlikka olib kelishi tushunarlidir.

Bosma mahsulot ham audiovizual mahsulotlar bilan raqobatlashish jarayonida tobora xilma-xillashib borayapti. Agar ilgari bunday mahsulotlar gazeta, haftalik va jurnallardangina tashkil topgan bo'lsa, axboriy-psixologik urush sharoitida turli byulletenlar, dayjestlar, obzorlar, press-relizlar, axborot obzorlari, sharhlar, ekspertlarning fikrlari, bir gallik nashrlar va h.k. mahsulotlar ham ancha muvaffaqiyatli qo'llanilayotir. Amalda ommaviy axborot vositalarining birinchi, a'anaviy tizimi bilan yonma-yon epchilroq va natija bobida ham undan qolishmaydigan ikkinchi tizim paydo bo'ldi.

XV asr o'rtalarida matbuot paydo bo'lgan paytdan e'tiboran ommaviy axborot vositalari samaradorligi oshib kelayati. Iogann Guttenbergning bosma dastgohi axborot bobida inqilob yasadi. Matbuot xabarlari shungacha mavjud bo'lgan bevosita og'zaki yuzma-yuz muloqot vositalaridan farqli ravishda bir xil, hozirjavob va, eng muhimi, ommaviy bo'lib qoldi. Ommaviylik, operativlik va ta'sirning ishonchliligi ommaviy axborot vositalari uchun har doim asosiy xususiyatlar bo'lib keldi.

Radio paydo bo'lishigacha o'tgan besh yil mobaynida matbuot to'xtovsiz o'sib, kengayib va tabaqlananib keldi. O'z imkoniyatlari, davri va sharoitlari darajasida shubhasiz muvaffaqiyatlarga erishdi. Tijoriy korxona sifatida paydo bo'lgan matbuot tez orada siyosiy va axboriy kurash vositasiga aylandi. U XVII asrdagi Ingliz, XVIII

¹ Бжезинский Зб. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. – М.: “Международные отношения”, 2000. – Б. 38.

acrdagi Frantsuz va Amerika inqiloblarida bosh rolni o'ynadi. Tajribali strateg Napoleon, minglab nayzaga qaraganda g'animlarcha kayfiyatdagi to'rtta gazetadan ko'proq qo'rqish kerak, degan edi. Urushda yopirilib hujum qilish bilan g'alaba qilish mumkin bo'lGANI singari ommaviy axborot vositalari yordamida axborot-psixologik urushini olib borishning eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ta'sir ko'rsatishning muntazam, har tomonlama xarakteridir. Matbuot mantiqiy-tahliliy apparat yordamida ta'sir etib, auditoriyaning tafakkuri va tasavvurlarini rivojlantirish orqali uni ko'proq egallay boradi. Keng ma'nodagi mantiq hamma narsani o'ziga bo'ysundirib olish kuchiga ega, inson ongi to'g'ri qurilgan mantiqiy fikrlarga qarshi turishga ojiz.

Keyingi yillarda Internet o'zbekistonliklar hayotiga tobora faol kirib kelmoqda. Hozircha uning afzallikkari va kamchiliklarini bizdagina emas, butun dunyoda ham xolis baholay olmayaptilar. Kimlardir uni ko'klarga ko'tarib maqtasa, boshqalar o'z hududlarida uning faoliyatini chegaralovchi qonunlar qabul qiladi. Bu xususda omon bo'lsak, ko'raverarmiz, deyish to'g'ri bo'ladi. Biroq hozirdayoq Internet universal xarakterdagi ko'p funktsiyali ommaviy axborot vositasi bo'lib qolganligi va unga murojaat qilgan har bir kishiga qudratli ta'sir ko'rsatish kuchiga ega ekanligi shak-shubha uyg'otmaydi.

Axborot-psixologik urushi davomida xabarlarining bosma matbuot, radio-televidenie va tarmoq orqali kechayu kunduz uzluksiz oqim sifatida uzatib turilishidan iborat usul ham yuqori natija berishi shubhasizdir. Ommaviy kommunikatsiyalar, birinchi navbatda real vaqt rejimida ishlab turuvchi Internet tufayli dunyo 24 soatli jamiyatga aylandi. Yesen Zasurskiy yozadi: "Xalqaro muloqotning globallashuvi bilan "yigirma to'rt soatli jamiyat" degan yana bir yangi ta'rif paydo bo'ldiki, bu jamiyat uzluksiz ishlab turadi. Uni iqtisodiy aylanish to'xtovsizlik kasb etayotganligi: Sidney, Singapur, Tokioda boshlanib, so'ngra Moskva, Frankfurt, Parij, Amsterdam, London, Nyu-York, San-Frantsisko tomon yo'nalgach, yana Sidneyga qaytib kelishi taqozo qilgan"¹. Jurnalistika sohasining otaxoni iqtisodiyot to'g'risida yozgani ommaviy axborot vositalarining xabarlariga ham mos keladi, deb o'ylaymiz.

Maqolalar sonining bunday ko'pligi vaqt kelib albatta muvofiq ravishdagi sifatga aylanadi. Dunyo mamlakatlarida Si-en-en, Bi-bi-si ko'rsatuvarlarini yuzlab marotaba tomosha qilgan millionlab odamlar ushbu telekompaniyalar targ'ib qilayotgan standartlarga ko'ra o'yashga, gapirishga, harakat qilishga va yashashga boshlaydilar. Binobarin, siyosiy tuzumga va mayjud rejimlarga qarshi urush olib borish shart bo'lmay qoladi – har kuni nimaiki amerikaliklarniki (inglizlarniki) bo'lsa, hammasi a'lo ekanligini gapirib va efirda ko'rsatib turish kifoya. Vaqt kelib bunday axborot xoynahoy o'z natijasini beradi va boshqa davlatlar aholisi, o'zlari bilmagan holda, AQShni va G'arbiy Evropani orzu qilingan zamin sifatida tasavvur qila boshlaydi. Ayni paytda oddiy tomoshabin uzatilayotgan axborotning anchagina qismi, shunchaki qalbakilashtirilmagan holda ham, bir yoqlama tanlanganini sezmay qoladi.

O'z kasbining ustalari bo'lgan qalamkashlar uchun bunga erishish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ommaviy axborot bobidagi hiyla-nayranglar ilmiy tadqiqotlarning avvaldan ishlab kelinayotgan va hamisha dolzarb sohasi hisoblanadi (Rustam Jumaev, Narzulla Jo'raev, Temur Jo'raev, Shukriddin Paxriddinov, Ravshan Alimov, shuningdek Spartak Beglov, Gerbert Shiller va boshqalarining asarlariga qarang). Bu

¹ Засурский Я.Н. Искушение свободой. – М.: МГУ, 2004. – Б. 52-53.

masalalarga bag'ishlangan asarlarda ommaviy auditoriya psixologiyasiga qaratilgan nayranging samarali uslublari ko'rib chiqilgan. Ularning ayrimlari haqida qisqacha to'xtalamiz.

Yangiliklarni tanlash. Efirga faqat axborot-psixologik urushning tashabbuskorlariga foydali bo'lgan yangiliklarga qo'yiladi. Masalan, AQSh va G'arbiy Evropa (ba'zida Yaponiya) gullab-yashnamoqda, boshqa mamlakatlarda ochlik, korruptsiya,adolatsizlik va h.k. nuqsonlar avj olayapti qabilida. Amalda esa dunyoda (masalan, O'zbekiston madaniy hayotida) ko'plab diqqatga sazovor voqealar bo'lib o'tayotir, lekin bular axborot-psixologik urushi tashkilotchilarini qiziqtirmaydi va ularning syujetlariga kiritilmaydi.

Yangiliklarga urg'u berish. Voqealari haqidagi xabar beriladi, lekin keragidan boshqa joyga urg'ulanadi. Masalan, mamlakatimiz hayotidagi muhim voqealardan biri - o'zbekistonliklarning paxta tayyorlash yillik rejasini bajarganliklari haqidagi ko'rsatuvda dalalarda fermerlar o'z xotin-qizlari va bolalari mehnatidan foydalanan layotgani qo'shib qo'yilgan hol bir necha bor takrorlandi.

Yangiliklar blokini shakllantirish. Tomoshabin yangiliklar dasturini birdek diqqat bilan ko'rmasligi ma'lum – oldin uzatiladigan yangiliklar yaxshi eslab qolinadi. Bunday holda syujetni qurishda axborot hujumi qaratilgan ob'ekt ko'rimsiz ahvolda tasvirlangan lavhalar oldingi o'rnlarga chiqariladi. Birinchi navbatdagi xabarlar suv toshqinlari, zilzilalar, avtobil halokatlari, mushtlashuvlar, g'alayonlar va h.k. shunga o'xshash voqealar haqida bo'lishi – keng yoyilgan tajriba.

Faktlarni talqin qilish. Ma'lumki, bitta faktning har xil tushuntirish mumkin. Masalan, narx-navoning ko'tarilishi – bozor munosabatlariga o'tishning muqarrar natijasi yoki bu – infliyatsiyaning ishonchli ko'rsatkichi, deyilsa bo'ladi. Bu erda hammasi izoh beruvchining nuqtai nazari va maqsadiga bog'liq. Tanlangan nuqtai nazarni asoslash uchun dalillar saralashga kelganda, bu endi oddiy texnik ish hisoblanadi.

Ixtiyorida jahonga mashhur axborot tarqatuvchilar bo'lgani holda axboriy-psixologik urushni olib borish oson, albatta. Bugungi kunda "Assoshieyted Press", "Yunayted Press Interneshnl" (AQSh), "Reyter" (Buyuk Britaniya), "Frans Press" (Frantsiya), ITAR-TASS (Rossiya), "Sinxua" (Xitoy) va boshqalari dunyoda qudratli agentliklar hisoblanadi. Dunyo maqomidagi telekompaniyalar jumlasida Si-en-en (AQSh), Bi-bi-si (Buyuk Britaniya), "Evronyus", "Al-Jazira" (Qatar) xizmatlarini ajratib ko'rsatish lozim. Jahonda eng mashhur gazeta va jurnallar jumlasida: "Interneshnl Xerald Tribyun", "Nyu-York Tayms", "Washington Post", "Uoll Strit jornel" (AQSh), "Tayms", "Ekonomist" (Buyuk Britaniya), "Figaro", "Le Mond" (Frantsiya), "Argumento' i fakt" (Rossiya) va boshqalar bor. Qo'shimcha qilish lozimki, ularning barchasi Internetda o'z saytlariga ega bo'lib, u erda asosiy nashrlari bilan yonma-yon veb-sahifalarini ham joylashtirishadi.

Bob yakunida yana ikkita tushuncha haqida gapirib o'tish lozim. Bu o'rinda Vatanimiz doirasidagi mediatorizm va jahon axborot makonini monopoliya qilishga qarshi kurash nazarda tutilmoqda. Kimki axborot-psixologik urushini faqat tashqi raqibga qarshi olib borish mumkin deb o'ylasa, xato qiladi. Ukrainalik tadqiqotchi Viktor Tsiganov Ukraina va Rossiya ommaviy axborot vositalarining o'z xalqlariga qarshi uyuştirgan etarlicha muvaffaqiyatli terrorchilikka yaqin harakatlari haqida ko'plab misollarni keltiradi. Bu ikkala mamlakat televiedeniesi o'z fuqarolariga qarshi

turli terroristik amallarni muvaffaqiyatli ko'paytirib, shu bilan aholi ongiga qo'rquv va sarosima solmoqda, degan fikr uning "Mediaterorizm" kitobi bo'ylab o'tadi.

Tsiganov quyidagi fakti keltiradi: "Rossiyadagi terrorizm psixoprofilaktikasi kengashi (uning tarkibiga etakchi psixologlar, psixiatorlar, psixoterapevtlar kirgan) a'zolarining mamlakat Prezidentiga yozgan xatida: "Faqat o'z joniga qasd qiluvchi kishilar jamiyatigina "praym-taym"da efir vaqtining 80% ni zo'ravonlikni va surbetlarcha shafqatsizlikni namoyish qilishga ajratishga qodirdir. Qiyoslash uchun: AQShda bu hissa 15% ni tashkil qiladi"¹, deyiladi.

O'zbekistonga kelganda aytish joizki, milliy ommaviy axborot vositalarimiz, ayrim xorijiy davlatlar kabi, keng ommaga salbiy axborot etkazishda u qadar keskin harakat qilmaydi. Albatta, ommaviy madaniyat ruhi va shaklidagi chiqishlar ko'p bo'lmoqda, masalan, katta adadli nashrlarda ("Darakchi", "Hordiq", "Bekajon" va boshq.), lekin bunday chiqishlar o'z xalqiga qarshi axborot hurujlari darajasiga bormagan.

Xalqaro axborot maydonini monopoliyadan chiqarishga kelganda, bu erda masala u qadar jo'n emas. Globallashtirish etakchilari so'zda mamlakatlar o'rtasidagi tenglik haqida gapirib, amalda esa o'zлari egallab olgan hududlarining bir qadamini ham boy berishmaydi. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan va boshqa jahon ommaviy axborot manbalari er yuzidagi axborot bo'shlig'ini nazorat qilishda davom etib kelayotirlar. Internet xususida shuni aytish lozimki, AQSh o'z yurtiga tegishli domen ismlar va raqamlarni taqsimlash xususiy korporatsiyasi - IKANN orqali uning ustidan o'z hukmronligini o'rnatganini yashirib ham o'tirmaydi.

Jahon axborot makonini monopoliyadan chiqarishga doir harakatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- muqobil nuqtai nazarlarni ifodalovchi ommaviy teleradiokompaniyalar hamda veb-saytlarni ("Evronus", TV-5, "Al-Jazira" singari) tashkil etish va ular faoliyatini ildamlatish;
- yangi xalqaro teleradiokanallar va Internet-saytlarni tashkil etish hamda amal qilyotganlarining obro'sini ko'tarish;
- Internetning vatanimizga tegishli bo'limini ijobiy materiallar bilan faol to'ldirish;
- axborot bosqinchiligidan himoyalanishning samarali shakli sifatida milliy madaniyat, an'ana va urf-odatlarni barcha choralar bilan rivojlantirish;
- axborot urushi ig'vogarliklariga uchmaslik, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish borasidagi bunyodkorlik ishlarini sobitqadamlik bilan davom ettirish.

Takrorlash uchun savollar

1. Axborot ta'siri va axborot xuruji. Axborot-psixologik urush tushunchasining murakkabligi.
2. Rivojlangan axborot texnologiyalariga ega mamlakatalar tomonidan o'z madaniyati va qadriyatlarini dunyo bo'ylab tarqatish harakatlari: strategik vazifalar va amaliyat.
3. Axborot quroli haqida tushuncha. Axborot qurolining tavsifi.
4. Neyrolingvistik dasturlash muammosi.
5. Axborot quroli yordamida ta'sir ko'rsatish usullari.

¹ Цыганов В. Медиа-терроризм: терроризм и средства массовой информации. – К.: Ника-Центр, 2004. – Б. 18.

6. Yolg'on targ'ibot va buzg'unchi ta'sir usullari.
7. Ommaviy axborot vositalari axborot urushi quroli sifatida.
8. Yangiliklar – axborot urushi vositasi.

Seminar uchun savollar

1. Axborot-psixologik ta'sir, tahdid, xavf va urush tushunchalari, ularga tavsif.
2. Axborot qurolining noan'anaviyligi, ko'rinishlari, ta'siri va oqibatlari.
3. Neyrolingvistik dasturlash zamonaviy ta'sir usuli sifatida.
4. Ommaviy axborot vositalari yordamida axborot urushini olib borish xususiyatlari.

5-bob. DAVLAT, JAMIYAT VA SHAXSNING AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHHLARI

1. Axborot-psixologik ta'sir, uning xavfsizlik tug'diruchi sub'ektlari va omillari

Inson va jamiyat hayoti faqat tabiat qo'ynida emas, ayni paytda odamlarning o'zlari yaratgan sun'iy muhitda ham kechadi. Bu muhit esa texnika va texnologiyalardan tashkil topgan texnosfera va axborot muhitini o'z ichiga oladi. O'z navbatida, texnosfera ham, axborot muhiti ham bir qator qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi.

Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi ayni paytda axborot muhitining vujudga kelganligini ham anglatar edi. Jamiyat taraqqiyoti va axborot muhitining rivoji bir-biriga bog'lik ravishda davom etdi. XX asr boshlarida, ayniqsa, uning so'nggi choragida axborot muhitining ravnaqi shiddatli tus oldi. Bunday jadal sur'at axborot texnologiyalarida yuz bergen inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ldi. Kompyuter texnologiyalarining vujudga kelishi va rivojlanishi jamiyatda aylanib yurgan axborot hajmining keskin o'sishiga olib keldi. Taassuf bilan ta'kidlash joizki, axborot hajmining o'sishi uning tarkibidagi ijobiy, taraqqiyotga xizmat qiladigan axborotlar bilan bir katorda rivojlanishga g'ov bo'ladigan, odamlarning ongi va dunyoqarashiga buzg'unchi ta'sir o'tkazadigan axborotlar hajmi kengayishiga ham olib keldi.

Jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayok vayronkor g'oyalar, mafkuraviy xurujlardan himoyalanish ehtiyoji paydo bo'ldi. Biroq XX asrning so'nggi choragi va XXI asr boshlarida bunday g'oya va axborotlarning har bir shaxs va umuman, insoniyat hayoti uchun xavfi keskin ortgani bois ulardan himoyalanish zaruriyati ham ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

Buzg'unchi axborotlarning manbalari turlicha. Lekin ular orasida alohida shaxslar va guruuhlar tomonidan o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishish niyatida voqelikning buzib ko'rsatilishi asosiy o'rinni egallaydi. Bunday axborotlardan himoya tizimini yaratishda mana shu holatni hisobga olish zarur bo'ladi.

Hozirgi kunda jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va harbiy sohalari singari axborot sohasi ham birinchi darajali ahamiyatini tobora namoyon qilib bormoqda. Bunday holat quyidagi sabablar bilan bog'liq: birinchidan, kompyuter texnologiyalari vujudga kelgach, axborotning qimmati keskin oshdi va u jamiyatning muhim iqtisodiy resursiga aylandi. Bir qator mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar aholining axborotga bo'lган ehtiyoji jiddiy tarzda yuksalib borayotganini ko'rsatmoqda. Bunday ehtiyojga mutanosib tarzda axborot tovarlarini ishlab chiqish va axborot xizmatlarini taklif etish ham keskin ortib borayotir. Yangicha axborot mahsulotlari, yangi axborot xizmatlari, axborot sohalari, yangi-yangi ixtisosliklar va ish o'rirlari

vujudga kelmoqda. Buning oqibatida, axborot yaratish va tarqatish, uni yangilash va tatbiq etish sur'atlari boshqa sohalarga nisbatan ildamroq rivojlanayapti.

Axborot bozori (kompyuterlar, telekommunikatsiyalar, dasturiy mahsulotlar, axborot xizmatlari ko'rsatish bozori) borgan sari iqtisodiyotda tobora salmoqli o'rinni egallamoqda. 2005 yilda mana shu bozordagi oldi-sotdilar hajmi uch trillion AQSh dollaridan ortib ketdi. Bu bozorning rivojlanish sur'ati tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning boshqa har qanday turi bozoridan ko'ra shiddatliroqdir.

Ikkinchidan, axborot real ijtimoiy resursga aylanmoqda. U insonning tinimsiz o'zgarib borayotgan ijtimoiy sharoitga moslashuvida, jamiyatda vujudga kelayotgan yangi-yangi tahdidlarga javob berishda borgan sari muhim rol o'ynayapti. Hozirgi davrda insonlar uzluksiz ravishda yangidan-yangi narsa-hodisalarga ro'baro' kelmoqda. Bunday sharoitga va o'zgarishlarga moslashish bobida faqatgina axborot yordam berishi mumkin.

Uchinchidan, jamiyat hayotining turli sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi jamiyat, shuningdek har bir fuqaro xavfsizligini axborot infratuzilmasi faoliyatining ishonchililiga bog'lab qo'ydi. Ana shu infratuzilma faoliyatiga g'ayriqonuniy tarzda aralashish, bu tuzilmada yuz berishi mumkin bo'lgan halokatlar qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

Alovida shaxslar, ijtimoiy guruh va birlashmalar axborot-psixologik xavfsizligini ularning irodasi va hohishiga zid ravishda psixik holati va xususiyatlariga ta'sir o'tkazish, ularning xulq-atvorini, erkini cheklash va modifiktsiya qilish sifatida tushunish muloqot, kommunikatsiya, axborotning o'zaro ta'sirini, shuningdek hozirgi jamiyatdagi turli ijtimoiy-psixologik jarayonlar va hodisalarni anglashga yangicha yondashuv zaruriyatini keltirib chiqardi.

Ming yilliklar ayrilishida jamiyatda muomalada bo'lgan axborot hajmining o'sishi shiddatli tus oldi. Shunga mos ravishda ommaviy axborot vositalari ham miqdoriy va sifat o'zgarishlariga duch keldi. Axborot hajmining keskin o'sishi odamlar kamolotiga, ularning birqalikdagi faoliyati takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina ijobiy hodisalarda bo'lgani singari bu hodisaning ham salbiy jihatlari mavjud. Odamlar axborot almashinuviziz hayot kechirishlari juda mushkul. Biroq o'sha ayirboshlashning shunday salbiy jihatlari ham mayjudki, ular jamiyat va shaxs rivojini jiddiy xavf ostiga qo'yadi. O'zbekistonda o'tkazilayotgan tub iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar odamlarning turmushi yaxshilanishi, demokratiya sari ildam siljish uchun zamin yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatda bozor munosabatlarining qaror topa borishi odamlar o'rtasida musobaqalashuv, raqobat va ijtimoiy munosabatlarda etakchilik uchun kurash omilini ham keltirib chiqardi. Bunday bahslashuvning stixiyali tarzda jadallahib borishi ba'zi ko'ngilsiz hodisalarga ham olib keldi.

O'zaro bellashuv kayfiyatining avj olishi faqat iqtisodiy sohada emas, ijtimoiy hayotda ham ba'zi noxushliklarni namoyon etayotir. Masalan, odamlar endi bilim olish, kasb egallah, ishlab chiqarish sohalarida yuqori ko'rsatkichlarga erishish borasida emas, oilaviy tadbirlarni, hatto motam marosimlarini ko'proq dabdababozlik bilan o'tkazishda bir-birlaridan o'zish mayllariga berildilar. Oqibatda, ba'zi motam marosimlari marhumlar xotirasi va hurmati uchun emas, tiriklar boyligini, amalini ko'z-ko'z qilish uchun o'tkaziladigan tadbirlarga aylanib qoldi. Bu holatni ham axborot almashinuvi kuchayishining salbiy oqibatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Zamonaviy aloqa va axborotni qayta ishslash vositalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi insoniyat turmush tarzining o'zgarishiga, milliy axborot va telekommunikatsiya tizimlarining yagona axborot infratuzilmasiga birlashuviga olib keldi. Bu yangi infratuzilma sayyoramizdagi insonlarning qaerda turishi va istiqomat qilishidan qat'i nazar, real vaqt sharoitida o'zaro muloqot qilishlari uchun imkon yaratib, jamiyat taraqqiyotiga kuchli turki berdi. Aytish mumkinki, insoniyat hozirgi kunda yangi jahon axborot hamjamiyatini tuzish bo'sag'asida turibdi. Afsus bilan qayd etish mumkinki, axborotlashuvning ana shunday ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham ko'rinish bermoqda. Ulkan axborot makonida ijobiy ma'nodagi axborot tizimlari bilan yonma-yon inson ruhiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi, uning ongini emirishga yo'naltirilgan axborotlar ham aylanib yuribdi.

Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayotning turli jabhalariga: iqtisodiyot, transport, aloqa tizimiga, madaniyat, qishloq xo'jaligi, ilm-fan sohasiga tatbiq qilinishi butun jamiyatni va har bir shaxsni ana shu axborot infratuzilmasining faoliyat tarziga bog'lab qo'ydi. Aloqa, aviatsiya, transport va energetika singari sohalarda axborot-telekommunikatsiya tizimlarining ishdan chiqishi qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, insoniyat o'zi yaratgan axborot texnologiyalarining va ulardan xavfsiz foydalanishning muayyan darajada garoviga aylanib qoldi, deyish xato bo'lmaydi.

O'zbekistonning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini belgilovchi asosiy huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ekanligini nazarda tutish zarur. Mazkur masala bo'yicha darslikning birinchi bobida qayd etilgan va shaxs, jamiyat hamda davlat xavfsizligiga bag'ishlangan "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 2002 yilning 12 dekabrida qabul qilingan 439-II sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13, 14 va 15-moddalardan tashqari ushbu holat boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20, 24, 29, 31, 43, 57 va 67 moddalarida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tegishla fikrlar bor. Jumladan, Konstitutsiyaning 20-moddasida so'z fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shartligi haqida yuritiladi. 29-moddada esa har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir, deb qayd etilgan. Shu bilan birga aytulganki, fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

31-modda esa vijdon erkinligiga bag'ishlangan. Moddada keltirilganidek, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinka e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinka e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Davlat va fuqarolar munosabatlari 43-moddada tartiblashtirilgan. Bu erda yozilganidek, davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

Shuningdek, ushbu masala yuzasidan 2007 yil 15 yanvar kuni qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahririda ham bir qator moddalar bor. Masalan, Qonunning 5-moddasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi kafolatlangan, 7-moddasida esa "O'zbekiston

Respublikasida ommaviy axborot vositalarini tsenzura qilishga yo'l qo'yilmaydi”, deb qayd etilgan. 1997 yilning 24 aprelida qabul qilingan “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida”gi 400-I sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining barcha moddalarida axborot olishni ta'minlash kafolatlari keltirilgan. Masalan, Qonunning 3-moddasi “Axborot olish kafolatlari” deb nomlangan va unda shunday deyilgan: “Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi”. 4-modda esa “Axborot olish erkinligining asosiy printsiplari haqida. Unda “Axborot olish erkinligining asosiy printsiplari axborotning oshkoraliqi, hamma olishi mumkinligi, ochiqligi va haqqoniyligidan iboratdir” deb aks ettirilgan.

Konstitutsiyamiz “har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi hukuqiga, har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega” ekanligini alohida ta'kidlaydi (29-modda). Shu bilan birga bu huquqlarga muayyan cheklovlar ham belgilangan bo'lib, ular amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonunda belgilangan boshqa holatlar bilan bog'liq: “Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lган taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin”. Aslini olganda, Konstitutsiyada belgilangan bu cheklovlar jamiyat va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Insonning atrofdagi voqelikni adekvat idrok etish qobiliyati, dunyodagi o'z o'rnini anglashi, shunga muvofiq tarzda muayyan e'tiqodlarga ega bo'lishi, shu e'tiqodlar asosida qarorlar qabul qilish erkinligi alohida shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash ob'ekti hisoblanadi. Shaxs xavfsizligiga tahdid tug'diradigan holatlar bildirmasdan va shaxs rozilgisiz uning ongiga yoki beixtiyoriy-ostki ongiga ta'sir o'tkazish usullari va vositalari bo'lishi mumkin. Bunday tahdidlar chet odamlar tomonidan maqsadga yo'naltirilgan tarzda shaxsning psixikasi tuzilmalariga, ostki ongiga ta'sir o'tkazish (masalan, “25-kadr”) tarzida amalga oshiriladi. Bunday ta'sir uning psixik reaktsiyalari va xulq-atvori o'zgarishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, shaxslar xavfsizligiga mamlakatda yashirin faoliyat yuritayotgan “Hizbut-tahrir”, “Akromiylar”, “Tavba”, “Quyosh ota” singari diniy sekta va mazhablar tahdid tug'diradi. Bu sektalardagi yashirin rasm-rusumlar, marosimlar shaxs ustakovkalariga va xulq-atvor stereotiplariga jiddiy ta'sir o'tkazish orqali uning, ayni paytda, jamiyatning ham xavfsizligiga tahdid tug'diradi.

Bu mazhab va sektalarning faoliyati qanchalik “samarador” bo'lganini ko'rsatuvchi ba'zi misollarga murojaat qilaylik. “Hizbut-tahrir”chilar mamlakatimizda o'nlab va yuzlab fuqarolarni o'zlarining g'ayriqonuniy faoliyatlariga jalg etdilar. Ular ta'siriga tushgan fuqarolarning asosiy ko'pchiligi (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 80 foizdan ortig'i) yoshlardan iborat. Faqat aqlga, ongga murojaat qilishni shior qilib olganliklarining o'ziyoq bu harakat naqadar xavfli ekanligidan dalolatdir. Xususan, “Akromiylar” harakatining qay darajada “samarali” bo'lganini 2005 yilda yuz bergan Andijon voqealari yaqqol ko'rsatadi. Bu reaktsion diniy oqimning g'ayriqonuniy faoliyati nafaqat Andijon shahri va viloyati osoyishtaligini buzdi, balki butun mamlakat miqyosida ma'lum bir notinchliklar keltirib chiqardi, o'nlab odamlarning hayotdan ko'z yumishiga sabab bo'ldi.

Mamlakat ichkarisida g'ayriqonuniy faoliyat yuritadigan guruhlar, sektalar va tashqaridan muayyan maqsadga yo'naltirilgan axborot-psixologik tajovuzlar jamiyatning axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid tug'diradigan manbalar bo'lishi mumkin. Bunda jamiyatda shakllangan ijtimoiy ong asosan ikki qismdan – konservativ

va dinamik qismlardan iborat ekanligini nazarda tutish lozim. Konservativ qism fuqarolarning (ijtimoiy guruhlar va sinflar, millatlar, xalqlar, elatlar, umuman, mamlakat aholisining) mushtarak manfaatlaridan tashkil topadi. Bu qism, shuningdek, o'sha ijtimoiy guruhlar va xalqlar tomonidan e'tirof etiladigan madaniy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni, mavjud odob-axloq me'yorlarini ham qamrab oladi.

Mana shu tarkibiy qismga tahdid asosan unga yet bo'lган manfaatlar, qadriyatlar va xulq-atvor ko'rinishlarini kuch yordamida, lekin yashirin ravishda olib kirishdan iborat bo'lishi mumkin. Bunday tazyiqlar oqibatida millat yoki guruhning ma'naviy-axloqiy salomatligiga shikast etishi, mavjud ijtimoiy munosabatlar buzilishi va emirilishi hech gap emas.

Ijtimoiy ongning dinamik qismi esa ijtimoiy jihatdan muhim bo'lган axborotning konservativ qismida aks etishi va u yuzaga keltiradigan jo'shqin his-tuyg'ular bilan bog'liq.

Ijtimoiy ongning dinamik qismiga nisbatan tahdid tug'diradigan hodisalarini buzib ko'rsatish axborot yordamida manipulyatsiyalar kilish shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Bunday tahdidlar oqibatida ijtimoiy ong atrof-voqelikni adekvat idrok eta olmay qolishidan yuz beradigan bunday o'zgarishlar ijtimoiy apatiya, loqaydlik, nigelizm, yoki bo'lmasa, tashqi dunyoga aggressiv munosabat shaklida namoyon bo'ladi.

2. Axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlar

Yuqorida bobda aytilganidek, XX asr oxiriga qadar axborot xavfsizligi deganda, davlat, iqtisodiy va huquqiy tuzilmalar xavfsizligi tushunilgan. Shaxs xavfsizligi degan ibora deyarli ishlatilmagan. Aslida esa shaxs kamoloti, uning ijodiy salohiyati ro'yobga chiqishi taraqqiyotning oliy maqsadi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan shaxsning axboriy-psixologik xavfsizligi tahidlardan himoya qilishning birinchi maqsadi bo'lishi lozim.

Shaxs ongiga, ayniqsa, uning ostki ongiga axborot-psixologik ta'sir o'tkazish xavfi kundan-kunga ortib bormoqda. Shaxsga o'tkazilishi mumkin bo'lган bunday ta'sirning bir necha turlari mavjud:

- axborot tuzilmalari faoliyatining texnologik ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lган beixtiyoriy ta'sir (masalan, kompyuter yoki videotexnikaning ish faoliyati va jarayonida elektromagnit nurlanishi xavfi mavjudligi);

- shaxs ongi va ostki ongiga uni muayyan xatti-harakatlarni bajarish yoki bajarmaslikka undash maqsadida oldindan o'ylab va rejalashtirib o'tkaziladigan ta'sir (psixotrop ta'sir; axborot-targ'ibot ta'siri; psichoanalitik ta'sir; neyrolingvistik ta'sir; psixotron ta'sir).

Psixotrop ta'sir odamlar psixikasiga farmakologik preparatlar, narkologik vositalar yordamida o'tkaziladi. Bu vositalar inson asab tizimidagi bioximik jarayonlarga va uning uyqusiga, uyg'oqlik davriga, faolligiga, atrof-muhitni idrok qilish sifatiga ta'sir o'tkazadi.

Psichoanalitik ta'sir insonning ostki ongiga uyg'oqlik paytida, uyqusida yoki gipnoz holatida o'tkaziladigan ta'sirdir. Shaxs psixikasiga uning diqqatini chetlab o'tib ta'sir o'tkazish jarayoni shaxsning nazoratidan tashqarida bo'ladi.

Neyrolingvistik ta'sir odamlar ongiga maxsus lingvistik dasturlarni kiritish yo'li bilan ularning e'tiqodlari, qarashlari va tasavvurlarini tegishli yo'nalishda o'zgartirishni ko'zda tutadi.

Psixotron ta'sir - odamlar psixikasiga sezgidan tashqari, anglanmaydigan ta'sir o'tkazish.

Axborot-targ'ibot ta'siri so'zni, axborot yordamida muayyan qarashlar, e'tiqodlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborot-psixologik ta'sir o'tkazishning sanab o'tilgan turlariga oddiy odamlar qarshilik ko'rsatishlari qiyin. Ularning biri bo'lmasa ikkinchisi, ikkinchi bo'lmasa uchinchisi odamlar ongida muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mana shu bayon qilinganlardan kelib chiqib, shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi - bu uning irodasiga va hohishiga qarshi ongini o'zgartirishni ko'zlaydigan axborot-psixologik ta'sirlardan himoyalanganligi deyish mumkin.

Axborot-psixologik ta'sirlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda psixikaning rivojlanishi qonuniyatlaridan hech bo'lмагanda asosiyalarini bilish umumiyligi madaniyatning tarkibiy qismi bo'libgina qolmasdan, balki xavfsizlik va yashash uchun kurashning ham muhim shartiga aylanib bormokda.

Psixologiyadan hech bo'lмагanda tayanch bilimlarga ega bo'lgan odamlar o'z ongalariga o'tkaziladigan tashqi ta'sirdan himoyalanish bobida dastlabki psixologik to'siqni qo'yish imkoniga ega bo'ladi.

Axborot-psixologik ta'siri ikki xil darajada: nazariy-mafkuraviy va kundalik-psixologik darajalarda namoyon bo'ladi. Nazariy-mafkuraviy darajada dunyoqarashlar, ilmiy kontseptsiyalar, madaniy qadriyatlar o'rtaida kurash yuz beradi va bunda ta'sir shaxsning intellektual salohiyatiga targ'ibot, mantiqiy dalillar yordamida o'tkaziladi.

Kundalik-psixologik darajada esa kurash odamlarning kayfiyatini tegishli yo'nalishda o'zgartirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda uqtirish usuli asosiy vosita hisoblanadi. Ishontirish usuli asosli dalillar keltirish yordamida shaxs e'tiqodiga ta'sir o'tkazishni maqsad qilib qo'ysa, uqtirish yordamida inson psixikasiga e'tiborni tortmasdan kirib boriladi.

O'tkazilayotgan axborot-psixologik ta'sirni bir necha xil mezonlar asosida tasnif qilish mumkin. Ana shunday mezonlardan biri – ta'sirning ochiq yoki xufyaligi. Buzg'unchi ta'sirlar ko'pincha ob'ektga sezdirmasdan maxsus texnologiyalar (masalan, manipulyativ texnologiyalar, NLP texnologiyalar, suggestiv texnologiyalar va h.k.) yordamida o'tkaziladi. Bunda asosiy e'tibor sub'ektning ongiga emas, ostki ongiga qaratiladi. Bunday ta'sirlardan himoyalanish uchun odamlar psixologiyadan hech bo'lmasa boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lishlari zarur.

Ostki ongiga xufya tarzda o'tkazilgan ta'sir shaxsning xarakterini, xulq-atvorini o'zgartirib, aql-zakovati va ijodiy imkoniyatlarini keskin pasaytirish yuborishi mumkin. Bunday ta'sir turli darajadagi rahbarlar ostki ongiga o'tkazilganda, uning vayronkorlik miqyosi yana ham kengroq bo'ladi.

Odamlar psixologik ta'sirga turli darajada beriluvchan bo'ladi. Bu ularning yoshi, hayotiy tajribasi, shaxsiy (individual) psixologik xususiyatlari bilan bog'liq. Shaxsning hayotiy tajribasi va bilimlari ortgani sari psixologik ta'sirga beriluvchanligi ham kamayib boradi. Biroq, shuni ham nazarda tutish kerakki, barcha odamlar u yoki bu darajada uqtirish ta'siriga moyil bo'ladi. Farq faqatgina birovlarning bu ta'sir girdobigaga tezroq, boshqalarning esa sekinroq tushib qolishida.

3. Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari

Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash bu sohada muayyan tizim tashkil etishni taqozo qiladi. Bunday tizim asosan uch qismdan iborat bo'ladi: me'yoriy-huquqiy, tashkiliy va texnologik tizimlar.

Xavfsizlikning me'yoriy-huquqiy jihatlari axborot-psixologik xavfsizlikka, tahdidiga qarshi tegishli kurash vositalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bu vositalar me'yoriy-huquqiy aktlar, davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligiga tahdid uyg'otuvchi holatlarga qarshi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ruyobga chiqarishga xizmat qiladigan qonunlar va qonun osti hujjatlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Mazkur hujjatlarning barchasi fuqarolarning ruhiy salomatligini himoya qilishga, jamiyatda ijtimoiy osoyishtalik hukm surishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Mazkur jarayon O'zbekistonda samarali amalga oshirilayotgani hammaga ma'lum.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy qismi tarkibiga mazkur sohadagi huquqiy me'yorlarga amal qilishini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi davlat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek alohida fuqarolar kiradi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni tarkib topa borgani sari boshqa sohalarda bo'lgani singari, xavfsizlikni ta'minlash sohasida ham fuqarolik jamiyatni tuzilmalarining roli oshib bormoqda. Shu o'rinda O'zbekistonidagi fuqarolik jamiyatining o'ziga xos ko'rinishlaridan bo'lgan mahalla institutining rolini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish tizimidagi muhim tarkibiy qism sifatida mahalla turar joylardagi ma'naviy-ruhiy iqlimni tartibga solish bilan birga, xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynayotir. Fuqarolarni, birinchi navbatda yoshlarni, turli xil g'ayriqonuniy diniy oqimlar ta'siridan asrashda mahalla borgan sari faolroq ishtirok etmoqda. Aholining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda, ayniqsa, turli xil mish-mishlar oldini olish va g'ayriqonuniy diniy oqimlarning vakillari tomonidan varaqalar tarqatilishini bartaraf etishda mahalla fuqarolar yig'ini muhim vazifalarni bajaradi. Mahalla fuqarolar yig'inlari raislarining ma'naviy-ma'rifiy va diniy-tarbiyaviy ishlar bo'yicha maslahatchilarini lavozimining joriy etilishi bu yo'nalishdagi ishlarning yanada jonlanishiga katta turtki berdi.

O'zbekistonda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda tashkiliy masalalarining o'rni ayniqsa, muhim. Dunyodagi ko'pchilik mamlakatlarda o'rnatalgan tartibga ko'ra, xavfsizlik masalalari bilan davlat shug'ullanadi. Bu borada davlatning roli jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolarni bu muhim masala echimidan chetlatishda emas, balki ularni shu jabhaga jalb etish va uyushtirishda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati organlari, shuningdek jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolar davlatni boshqarishdek yagona maqsad yo'lida o'z vakolat va huquqlari doirasida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Tashkiliy tuzilmaning muhim tarkibiy qismlaridan biri – kadrlar masalasi bo'lib, davlat tashkilotlari va xususiy sektordagi tashkilotlarning axborot-psixologik xavfsizligi ko'p jihatdan ularga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan etarli salohiyatga ega bo'lgan kadrlar tizimini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash davlatning axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi faoliyatida yuksak samaradorlikka erishishda juda muhim omil hisoblanadi.

Davlat, jamiyat va alohida shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning asosiyлari quyidagilardan iborat. Eng avvalo, bu mazkur sohada davlat siyosati asoslarini ishlab chiqish muammosidirki, uning murakkabligi xavfsizlikni ta'minlash ob'ekti va sub'ektining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Shaxs va jamiyat ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar, avvalo, jamiyatning o'zi

tomonidan huquqiy mezonlarni belgilash va qo'llab-quvvatlash, fuqarolar xulq-atvordinagi ijtimoiy maqbul stereotiplarni qo'llash mexanizmlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Ayni paytda davlatning ommaviy huquq yordamida mazkur sohadagi eng xavfli xatti-harakatlar oldini olish borasida muttasil faoliyat ko'rsatishi shu sohadagi eng muhim yo'naliishlardan birini tashkil etadi. Mazkur sohada davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro munosabatlari chegarasini aniq belgilab olish juda zarur bo'lib, uning buzilishi, bir tomonidan, hokimiyatni obro'sizlantirib qo'yishi, ikkinchi tomonidan, jamoat tashkilotlarining befarqligi va loqaydligiga sabab bo'lishi mumkin.

Individual va ijtimoiy ongga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lган ommaviy axborot vositalari tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoning murakkabligi avvalo shundaki, fuqarolik jamiyatining asosi bo'lган jamoat tashkilotlari ommaviy axborot vositalariga ta'sir o'tkazish uchun samarali vositalarga ega emas. Ayni paytda davlat organlarining ommaviy axborot vositalari faoliyatiga bevosita va muntazam aralashuvi bu vositalar faoliyatida bирyoqlamalikka olib kelishi mumkin. Demokratik institutlar taraqqiy topgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda aholining keng qatlamlari uchun xolis va ob'ektiv axborot olish imkoniyatlari yaratildi.

1. Vaziyatni tahlil qilish shundan guvohlik beradiki, bir qator mamlakatlar ommaviy axborot vositalari (televiedenie, radio, gazeta va jurnallar, Internet)dan axborot yordamida ta'sir qilish quroli sifatida foydalanmoqdalar.

Axborot qurollari sirasida elektron vositalar (televiedenie, radio, Internet) alohida o'rinn tutadi. Hozirgi kunda psixotron qurollarning ishlab chiqarilishi va tarqala boshlashi elektron ommaviy axborot vositalaridan xatarli qurol sifatida foydalanishning ehtimoliy xavfini keskin oshirmoqda. Bugungi kunga kelib aytish mumkinki, axborot qurolining xavfi ommaviy qirg'in quroli xavfidan kam bo'lmay qoldi.

Hozirgi kundagi mavjud tasavvurlarga ko'ra, individual ong va ijtimoiy ongni buzg'unchi axborot ta'siridan (bunday axborotni insonlar ongiga yoki ostki ongiga kiritish yo'li bilan ularning atrof-voqelikni noadekvat idrok qilishiga olib kelish), shuningdek, shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi hayotiy muhim manfaatlarini himoyalash zarur. Bunday manfaatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Shaxs manfaatlari: fuqarolarning ob'ektiv axborotni izlash, olish, uzatish va yaratishga bo'lган konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini; ularning o'z shaxsiy hayotlari dahlsizligiga bo'lган huquqini; o'z salomatliklarini zararli axborotdan saqlashga bo'lган huquqini ta'minlash.

2. Jamiyat manfaatlari: axborot jamiyatini shakllantirish; milliy ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish, milliy madaniy merosni targ'ib qilish, ommaviy ong ustida o'tkaziladigan manipulyatsiyalarga yo'l qo'ymaslik va ularning oldini olish.

3. Davlat manfaatlari: shaxs va jamiyat manfaatlarini himoyalash; davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorat institutlarini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish, huquqiy davlat tuzish.

Tahdidlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- inson salomatligiga zarar etkazish;
- shaxs erkini anglab bo'lmaydigan darajada to'sib qo'yish, unga tobelik sindromini singdirish va buning natijasida g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etishga majburlash;

- insonning axloqiy, madaniy, siyosiy qiyofasini buzish;
- maxsus ta'sir o'tkazish vositalari yordamida ijtimoiy ong ustida manipulyatsiyalar o'tkazish;
- O'zbekiston dagi yagona ma'naviyat va axborot makonini parokanda qilib tashlashga urinish;
- ijtimoiy axloq me'yordi va jamiyatning an'anaviy qadriyatlariga zarar etkazish.

Bu tahdidlar salbiy axborot-psixologik ta'sir o'tkazish, maxsus vosita va usullarni ishlab chiqish, O'zbekiston davlatining ichki siyosatiga chetdan turib maqsadga yo'naltirilgan tarzda aralashish axborot urushiga tayyorlanish va axborot quroldan foydalanish shakllarida amalga oshiriladi. Bunday tahdidlar oldini olish va ularning zararli oqibatlarini minimal darajaga tushirish uchun davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- mavjud tahdidlarga mos ravishda xavfsizlik choralarini ko'rish;
- foydalanish faqatgina qonunda ko'rsatilgan holatlarda mumkin bo'lgan axborot-psixologik ta'sir o'tkazishning maxsus vositalarini ishlab chiqish, yaratish va qo'llashga davlat va jamiyat monopoliyasini o'rnatish;
- axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash borasida oshkoraliq va fuqarolik nazoratini joriy etish;
- axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi faoliyatda jamoat tashkilotlarining faol ishtirokini ta'minlash zarurligi.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning quyidagi vazifa va funksiyalarni bajarish zarur:

1. O'zbekiston Respublikasining axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga oid qonunchiligini takomillashtirish.
2. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirishi.
3. Davlat hokimiyyati organlari va jamoat tashkilotlarining axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.
5. Fuqarolarning axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishi.
6. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida xalqaro hamkorlikni tashkil etish.
7. O'quv muassasalari tomonidan axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida kadrlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri - shu yo'nalishda o'tkaziladigan ekskpertizalardir. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash buyicha o'tkaziladigan ekspertiza tizimi O'zbekistonda endigina shakllanib kelmoqda. Mamlakatimizda davlat, jamiyat va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi to'g'risida maxsus qonun qabul qilish vaqtini etdi. Bunday qonun mazkur yo'nalishdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Chunonchi, "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi", "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy kodeksi" singari me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ham tegishli o'zgartishlar kiritish zaruriyatini ham keltirib chiqaradi.

Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri, shuningdek, xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishdan iborat. Hozirgi kunda mamlakatimizga turli kanallar orqali xorijda tayyorlangan va nashr etilgan gazeta-jurnallar, adabiyotlar, eshittirish va ko'rsatuvlar

kirib kelmoqda. Ularning muayyan qismi tarkibida mamlakatimiz aholisi uchun yot bo’lgan stereotiplar, ustanovkalar, qadriyatlar yo’qligiga kafolat berib bo’lmaydi.

Yurtimizga qarshi axborot-psixologik xurujlar imkoniyat vujudga keldi deguncha amalga oshirilmoqda. Mafkuraviy kurash keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda axborot qurollaridan g’animlarimiz foydalanishlarining ehtimoli ortib bormoqda. Shuni ham nazarda tutish lozimki, “kibermakon” degan kenglikda hech qanday chegara yo’q. Bu makonda foydali va zarur axborot bilan bir qatorda yoshlar uchun zararli, umuman aholi uchun xavfli bo’lgan axborot, psixotron qurollar ham bemalol aylanib yuribdi.

Hozirgi kunda fan va texnologiya taraqqiyoti shu qadar tezlashib ketdiki, psixotron qurollarning yangidan-yangi turlari yaratilmoqda. Masalan, ular orasida uzoq masofadan turib odamlar ongi, tafakkuri, xotirasi, his-tuyg’ulariga kuchli ta’sir o’tkaza oladiganlari ham bor. Misol uchun, O’YuCh (o’ta yuqori chastotali) qurollar uzoq masofadan turib shaxsning psixikasi, xotirasiga, hatto ichki va jinsiy a’zolariga ta’sir qilishi mumkin. Bayon etilganlarning barchasini nazarda tutib, davlat tomonidan xalqaro axborot ayirboshlash jarayoni uchun tegishli me’yorlar, taqiqlar va cheklolvar o’rnatalishi maqsadga muvofiqdir. Bunga erishish uchun xalqaro hamjamiyatning diqqat-e’tiborini mazkur masalaga qaratish, milliy davlatlar qonunchiliginini unifikatsiya qilish talab etiladi.

Mamlakatimizda keng tarmoq otayotgan kompyuter klublaridagi o’yinlar orasida halqimizga yot bo’lgan zo’ravonlik, fahsh va axloqsizliklarni targ’ib etadiganlari tobora ko’payib borayapti. Bunday holat mazkur masalaga nafaqat davlat idoralarining, balki ota-onalar qo’mitalari, mahalla, qishloq fuqarolar yig’inlari va boshqa jamoat tashkilotlarining e’tiborini tortish maqsadga muvofiqligidan guvohlik bermoqda.

Yuqorida bayon qilinganlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- axborot xavfsizligi sohasidagi jarayonlar va munosabatlarning o’sish sur’atlari qonunchilikning takomillashish sur’atlaridan bir oz ildamlab ketdi. Bunday holat davlat, jamiyat va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashga oid qonunlarni ishlab chiqish va qo’llash amaliyotini rivojlantirish zarurligini ko’rsatadi;
- davlat, jamiyat va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash borasida yagona siyosat asoslarini ishlab chiqish va mazkur yo’nalishda tegishli qonun qabul qilish, shuningdek mazkur yo’nalishdagi qonunlarga tegishli o’zgartishlar kiritish muhim ehtiyojga aylandi;
- xalqaro axborot almashuv jarayonida vujudga kelishi mumkin bo’lgan tahdidlardan samarali himoyalanish uchun xalqaro hamjamiyatning harakatlarini muvofiqlashtirish hamda milliy davlatlar qonunchiliginini unifikatsiyalash, “Axborot urushlari xavfining oldini olish va axborot quroli muomalasini cheklash haqida” xalqaro konvensiya yaratish yo’lidagi faoliyatlarni birlashtirish zaruriyati paydo bo’ldi.

Inson ongi mohiyatan ochik tizimdir. U tashqi dunyo bilan axborot almashish jarayonida rivojlanib boradi. Ongning bunday ochiqligidan buzg’unchi kuchlar ham foydalanib qolishga urinadilar. Zotan, hozirgi kunda global tarmoqning, yangi jihozlar va texnologiyalarning vujudga kelishi bunday kuchlar tomonidan faqat alohida shaxs ongiga emas, millionlab kishilar ongi-shuuriga vayronkor ta’sir o’tkazilishi uchun imkoniyat yaratdi.

Axborotni qayta ishslash va aloqa bobidagi zamonaviy vositalar insoniyat mavjudligining printsipial yangi sharoitlarini vujudga keltirdi. Hozirgi kunda milliy axborot va telekommunikatsiyalar tizimini global axborot infratuzilmasiga birlashtirish singari ulkan loyihamalar yuzaga chiqdi. Bu loyihamarning amalga oshirilishi har bir shaxs uchun, u qaysi mamlakat va mintaqada yashamasin, dunyoning xohlagan burchagidagi odamlar bilan axborot almashish imkonini vujudga keltirdi. Bunday infratuzilmaning barpo etilishi insoniyat taraqqiyoti uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayni paytda bu infratuzilma vayronkor kuchlarga ham juda qo'l kelishini unutmaslik kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ijtimoiy hayotning turli jabhalariga kirib kelishi, aytish mumkinki, har bir shaxs va jamiyat xavfsizligini ana shu infratuzilmaning aniq va uzlusiz faoliyat yuritishiga, olinayotgan axborotning ishonchlilikiga, bu axborotning xufya tarzda modifikatsiya qilinmasligiga bog'lab qo'ydi.

Axborot-telekommunikatsiya tizimlaridagi texnik nosozliklar va avariyalarning kelib chiqishi energiya tizimi, ulkan quvurlar tizimidagi, shuningdek ekologik xavfli ishlab chiqarish, sun'iy yo'ldoshlar va temir yo'l tizimini boshqarishda qanchalik halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Insoniyat, bir tomonidan, yangi axborot tuzilmalarining ulkan imkoniyatlaridan foydalansa, ikkinchi tomonidan, uning mavjudligi va risoladagiday hayot kechirishi ana shu tuzilmaning to'g'ri va samarali faoliyat yuritishiga bog'lik bo'lib qoldi. Shundan ko'rindaniki, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash uchun alohida shaxs va guruqlar u yoqda tursin, hatto mamlakatlar va mintaqalar o'zaro hamkorlik qilishlarining zaruriyati vujudga keldi.

Takrorlash uchun savollar

1. Globallashuv davrida davlatning mavqeい o'zgarishi va uning yangi roli.
2. Axborot davrida shaxslararo, guruqlararo va ijtimoiy institutlararo axborot almashuvining keskin ko'payishi.
- 3 Davlat mamlakatning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlovchi kuch sifatida.
4. Davlat, jamiyat va shaxsni axboriy-psixologik himoyalashning asosiy yo'nalishlari.
5. Axborot-psixologik xavfsizlikning ma'muriy-tashkiliy masalalari va huquqiy asoslari.
6. Axborot-psixologik xavfsizlik sohasini kadrlar bilan ta'minlash.
7. Axborot-psixologik xavfsizlikning ilmiy va o'quv-uslubiy ta'minoti.
8. Milliy asli-nasliga o'xshashlik (identivlik) axborot-psixologik xavfsizlikning yo'nalishi sifatida.

Seminar uchun savollar

1. Globallashuv davrida davlatning funksiyalari o'zgarishi.
2. Davlat – mamlakatning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlovchi asosiy kuch.
3. Davlat, jamiyat va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.
4. Madaniyatlar divergentsiyasi va konvergentsiyasi. Milliy asli-nasliga o'xshashlik axborot-psixologik himoya usuli sifatida.

6-bob. O'ZBEKISTON FUQAROSINING PSIXOLOGIK HIMOYASI VA O'Z-O'ZINI MUHOFAZA ETISHI

1. Individning axborot-psixologik himoyalanganlik tushunchasi. Inson - ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy tizimning asosi va bosh bo'g'ini

Inson har qanday ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy tizimning bosh bo'g'ini hisoblanadi. U faqat asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lib qolmasdan, shu bilan birga axloqiy qadriyatlarning, yoki, umumlashtirib aytganda, o'z millati, jamiyatni, madaniyati, butun insoniyat madaniy kodining birdan-bir sohibidir. Tarkibida fan, ishlab chiqarish, siyosat, madaniyat va boshqa sohalarda chinakamiga kuchli shaxslar bo'lgan taqdirdagina jamiyat qudratga to'ladi. Ularni jamuljam qila bilgan va ularning ijodiy hamda jismoniy imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana olgan har qanday jamiyat rivojlanish bobida yuksak darajalarga erishadi.

Individ shaxs sifatida axborot-psixologik ta'sirga nishon bo'ladigan yagona ob'ektdir. Hamma gap shundaki, faqat ugina ijtimoiy ongga ega bo'lib, ta'sir aynan shu ongga qaratiladi. Shuning uchun ham biz individni uning psixologik sifatlari va unga ko'rsatiladigan axborot ta'siri nuqtai nazaridan uchta asosiy mazmunda ko'rib chiqsak, to'g'ri bo'ladi: birinchidan, u maqsadli yo'naltirilgan axborot-psixologik ta'sirga duchor qilinadigan bosh ob'ekt hisoblanadi; ikkinchidan, ayni bir paytda u ijtimoiy axborot bobida birdan-bir ishlab chiqaruvchidir; uchinchidan, u axborot tajovuzidan davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinishga muhtoj sub'ektdir.

Birinchi toifaga mansub odamlar (shunday ma'lumotlarning iste'molchilari) har bir jamiyatda ko'pchilikni, ikkinchi toifa odamlar (ya'ni ommaviy axborotni ishlab chiqaruvchilar) esa kamchilikni tashkil qiladi. Ushbu muammoni ravshanroq tassavvur qilishimiz uchun shu ikki toifaga doir qisqacha tushuntirish berib, ularni ajratib ko'rsatish zarur bo'ladi.

Ommaviy axborotni ishlab chiqaruvchilar sirasiga o'z mamlakati va xorijiy mamlakatlar jamoatchilagini ommaviy axborot bilan ta'minlab turuvchilar: muayyan jamiyatning rahbar doiralari, deputatlar, jurnalistlar, o'qituvchilar va boshqalar kiradi. Qolgan barcha odamlar ommaviy axborotni qabul qiluvchilar hisoblanadi.

Bu hali gapning hammasi emas. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ommaviy axborotni o'z auditoriyasiga etkazish bilan kasbiy jihatdan shug'ullanadiganlarning kattagina qismi (jurnalistlar, o'qituvchilar) o'zлari axborotni turli manbalardan olib, qayta ishlab, shundan keyingina boshqalarga yoyadilar. Hech kimga qaram bo'lmay, faqat bevosita ishlab chiqaruvchigagina bog'liq bo'lgan, professional jihatdan yuksak darajadagi dastlabki axborotni tayyorlash bilan har bir jamiyatda kamsonli kishilar davrasi shug'ullanadi. Bunday insonlarga o'zga axborot bilan ta'sir ko'rsatish qiyin, chunki o'z bilimlari, kasblari va egallab turgan lavozimlari tufayli ular kuchli ijtimoiy immunitetga ega bo'lib, boshqa axborot manbalaridan keladigan ma'lumotlar ta'siriga deyarli berilmaydilar.

Demakki, har qanday davlat fuqarolarining aksariyat ko'pchiligi asosan axborotni iste'mol qiluvchilardir. Shu tariqa uchinchi va asosiy muammo – individni axborot-psixologik muhofaza qilish zaruriyati kelib chiqadi. Birorta jamiyat o'z a'zolariga ommaviy axborot manbalarining, buning ustiga nafaqat xorijiy, balki o'z vatani axborot vositalarining ta'sirini e'tibordan chetda qoldira olmaydi. Shu bois davlat faqat axborot-psixologik ta'sir ko'rsatiladigan ob'ekt bo'libgina qolmasdan, ayni bir paytda o'z fuqarolarini ularga yot axboriy ta'sirdan himoyalash tashkilotchisi hamdir.

Insonning psixologik holati uning dunyoqarashiga, g'oyalari, dini, e'tiqodi, jamoaviy va javobgarlik tuyg'usi, moddiy ahvoli, ehtiyojlarini qondirishi va boshqa jihatlarga bevosita bog'liq. U qanchalik bilimdon bo'lsa, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini shunchalik yaxshi tushunadi va har qanday tasodifiy, ishonchhsiz axborotlarga qarshi shunchalik puxta qurollangandir. Bilim inson dunyoqarashining va ma'naviy-psixologik ahvolining asosi hisoblanadi.

Oilada va do'stlar davrasida, maktabda va oliv o'quv yurtida, mahalla va ishlab chiqarish jamoasida olinadigan bilim negizida individda o'zi va yaqin odamlari inson hurmati joyiga qo'yiladigan, fazilatlari munosib baholanadigan jamiyatda yashayotganliklari to'g'risida muayyan g'oyalar, imon, e'tiqod tarbiya topadi. Asta-sekin ular individ uchun g'oyat ahamiyatli qoidalarga aylanib, uning hayotiy qadriyatlarini tizimini shakllantiradi.

Shaxs sifatida O'zbekistonda kamol topadigan yosh kishi bolaligidanoq jamoaviy psixologiyani chuqur his qilib va xashar, birgalikda o'tkaziladigan boshqa har xil tadbirlar, bayramlar hamda ommaviy marosimlarni yuksak qadrlaydigan bo'lib o'sadi. Bunday tadbirlarda shaxsan ishtirok etish bilan u qilmishlari uchun o'zi yashayotgan jamiyat, oila, mahalla yoki mehnat jamoasi oldidagi mas'uliyatini chuqur anglaydigan bo'lib voyaga etadi. Bunday hayotiy kayfiyat, bunday psixologiya o'zbekistonliklarni boshqa mamalakatlar aholisidan ma'lum darajada farqlab turuvchi tengsiz qadriyat hisoblanadi. Shu boisdan bu xildagi an'analarni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish jamiyatimiz va davlatimizning muhim vazifasidir.

Axborotlashuv davri individining axborot-ma'naviy mustaqilligi xususida quyidagilarni aytish mumkin. Har qaysi zamon turli mamlakatlar xalqlarining odatiy hayotiga ma'lum o'zgartishlar kiritish davri bo'lib kelgan. Biroq ularning hech biri bu borada axborotlashuv davridek katta yutuqqa erisha olmadi. Barcha davlatlar aholisi boshiga turli-tuman axborot oqimlari yopirildiki, ularning ko'plari esankirab qoldilar va hozir ham kimga va nimaga ishonishlarini bilolmay hayrondirlar. Shuning uchun turli mamlakatlarning fuqarolari axborotni tanlash va baholashda mustaqillik saqlashga, bunda aniq siyosiy ko'rsatmalardan va kimlarningdir taklifi bilan ish ko'rvuchi ommaviy kommunikatsiya vositalaridan xoli bo'lishga intilmoqdalar. Axborot texnologiyalariga va katta miqdorda turli-tuman axborotga ega bo'lish ularga bu borada muvaffaqiyatli ish olib borishga imkon beradi.

Albatta, shaxs axborotni tanlash, qayta ishslash, iste'mol qilish va yoyishda mustaqil bo'lmosi lozimki, bu insonning tamal huquqlaridan biridir. Biroq uning bunday erkinligi boshqalarga xalal bermasligi yoki zarar etkazmasligi kerak. Masalan, biror xabarni Internetda joylashtirish manbaning birdaniga juda keng jamoatchilik oldiga chiqishini bildiradi. Shuning uchun ham u qilayotgan ishini yaxshi anglashi, boshqalarga etkazayotgan ma'lumotlari uchun javob berishi kerak. Davlat, undan ham ko'proq darajada jamiyat har bir fuqaroda shunday mas'uliyatni tarbiyalashi darkor. Axborotni ishlab chiqish va iste'mol qilish shaxs erkinligining muhim shartlaridan biridir, lekin bu borada ham me'yor tuyg'usi, o'z ishlari uchun mas'uliyat hissi bo'lishi lozim. Xullas, axborot asriga nisbatan shuni aytish kerakki, shaxsning axborot ishlab chiqishdagi erkinligi bunga oid mas'uliyati bilan uyg'unlashgan bo'lishi juda muhimdir.

Individning ommaviy axborot bilan ishlashidagi mustaqillik masalasida ham to'xtalib o'tish to'g'ri bo'ladi. Ma'lumotlarni iste'mol qilish va yoyishni davom ettirishda individlar erkin bo'lib qolganliklari shubhasizdir, chunki endilikda ular bu borada davlatga qaram emasirlar. Ilgari davlat o'z xususiyati va xolislik darajasidan

kelib chiqib hamda me'yor va joizlik chegarasiga rioya qilgan holda, axborotni o'zi ishlab chiqar va taqsimlar edi. "Erkinlik texnologiyalari" deb nomlangan axborot texnologiyalari milliy davlat imkoniyatlaridan ustun chiqqaniga qadar shunday davom etib keldi.

Insonlarning axborot iste'mol qilish va ishlab chiqish bobidagi mustaqilligi keskin oshdi. Bu esa ko'plarning boshini aylantirib qo'ydi. Hamma o'zini Internetga urdi. Pornografiya, jinoyatchilik, odobsizlik, latifalar, mish-mishlardan iborat keraksiz, zararli axborotga ega juda ko'plab saytlar paydo bo'ldi. Bunday ma'lumotlarning asosiy qismi "sariq" axborotga kiradi. Biroq ommaviy auditoriya uni, ayniqsa, qiziqib o'qiydi. Bunday engil-elpi, sharmandali "yangiliklar" jamiyatni bosib ketmasligi uchun davlat va jamiyat zarur chora-tadbirlarni ko'rishi lozim.

Axborotni tanlash va u bilan ishslash salbiy yoki ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lган jarayondir. Bir tomondan, individ mustaqil bo'lishi lozim. Lekin, ikkinchi tomondan, u o'zining ma'naviy negizlariga putur etkazisha oladigan yot ta'sirdan himoyalanish dasturiga ega bo'lishi darkor. Individ axborotning soxtaligini o'z vaqtida payqamasligi ehtimol, sababiki bunday axborot, odatda, "yaltiroq qog'ozga yaxshilab o'ralgan" bo'ladi. Oqibatda insonning axborotdan foydalanishdagi erkinligi aks samara beradiki, bu individning o'zini ham bunday mustaqillikdan muhofaza qilish zarurligini ko'rsatadi. Oddiy fuqaro, odatda, axborotni iste'mol qilishga tayyorlanmagan bo'lib, yoppasiga hamma narsaga, shu jumladan, yolg'on-yashiq va bo'hton gaplarga ham ishonaveradi. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda axborot bobida aldam-qaldam texnologiyalari g'oyatda ko'p bo'lib, ular yuksak darajada mukammallashtirilgandir. Davlatning muayyan axborot siyosatidan mustaqil bo'lish xorijiy ommaviy axborot kommunikatsiyalarining axborot ta'siri o'tkazish bobidagi ustamon siyosatiga qullikka o'sib o'tmasligi kerak.

Uch jildlik "Axborot asri" asarining muallifi, Janubiy Karolina universiteti professori Manuel Kastels shunday yozadi: "Bugungi kunda er yuzida Internetdan foydalanuvchilar bir milliarddan ko'proqni tashkil qiladi va ikki milliardga yaqin mobil telefon mavjud. Joriy (2006) yilning may oyigacha holatda 37 million blog bo'lib, dunyoda har sekundda yana yangi bir blog, ya'ni yiliga 30 million blog yaratiladi... Shunday qilib, kommunikatsiyaning yangi, ommaviy bo'lsa ham bir kishi tomonidan ishlab chiqariladigan, olinadigan va qabul qilinadigan ijtimoiy shakli vujudga keldi"¹.

Shundan ko'rinish turibdiki, keyingi yillarda shaxsiy saytlar soni mislsiz darajada oshdi. Bugungi kunda xohlagan har bir kishi o'z saytini ocha oladi. Bu jarayonni to'xtatib bo'lmaydi. Hozirgi paytda "bloggerlar Internetni to'ldirib yuborishdi" degan gapni tez-tez eshitish mumkin.

Ayni bir paytda shaxsiy saytlarda ijodiy mas'uliyatsizlik chegarasidagi "o'ta erkin" axborot aks etganligiga shubha yo'q. Aslida, bu foydalanuvchilarning keng davrasiga qiziqarli bo'lмаган shaxsiy mazmundagi axborotdan iborat. Ular, albatta, ko'p jihatdan tekshirilmagan va ishonchsiz ekanligi to'g'risida gapirmasak ham bo'ladi. Bugungi kunda ko'pchilik ko'ngliga kelgan narsani yozish va global tarmoqda joylashtirish bilan ovora.

An'anaviy jurnalistika sohalari bo'lган gazeta va jurnallarga, televideenie va radio efiriga yo'l topish, shubhasiz, mushkulroq. Bu erda axborot mazmuni tez-tez tekshirilib yoki hech bo'lмаганда yo'naltirib turiladi. Bundan tashqari Internetda axborot

¹ Кастелс М. Новые индивидуальные масс-медиа // "Свободная мысль". 2006. №35. – Б. 62.

joylashtirish bilan kishi birdaniga jahon maydoniga chiqadi. Tabiiyki, bu odamlarni yo'ldan uradi. Ko'pgina kishilar o'zlarini vatandoshlarimizga va hatto jahon jamoatchiligining keng davrasiga aytadigan gapimiz bor, deb hisoblaydilar. Biroq Internetdan foydalanuvchilarga faqat aniq va ishonchli faktlarni taqdim etish naqadar murakkab va mas'uliyatli ish ekanligi tushunarlidir.

2. Inson ongi uchun kurash – geosiyosatning bosh yo'nalishi. Individning psixologiyasi ochiq tizim sifatida

Ong murakkab mazmunga va tuzilishga ega sifat hisoblanadi. Ushbu tushunchani etarlicha anglab etmasdan turib, insonning yurish-turishidagi uning rolini tasavvur qilish qiyin. Mazkur masalani izohlab beruvchi ayrim manbalarga murojaat qilaylik.

"Katta psixologik entsiklopediya" ("Bolshaya psixologicheskaya entsiklopediya") mualliflari shunday yozishadi: "Ong – ob'ektiv voqelikka munosabat bildirishning insonga xos shakli bo'lib, bu ijtimoiy-tarixiy amaliyat unsurlari vositachi, oraliq omil sifatida qabul qilinishida ifodalandi, inson olamning ob'ektiv (umum tomonidan qabul qilingan) manzaralarini shularga asosan quradi. Falsafa nuqtai nazaridan ong inson faoliyatining ob'ektiv mazmuniga (moddiy shart-sharoitlar, narsalar, hamda vositalarga) qarama-qarshi ravishda bu faoliyatning sub'ektiv jihatni (maqsadga muvofiqligi) hisoblanadi"¹.

Bu erda ongni ta'riflashda psixologlar va faylasuflar o'rtasida ma'lum farq borligi bejizga eslatilmagan. Haqiqatan ham, faylasuflarning ongni tushunishida go'yoki ongga ega inson uni o'ziga bo'ysundirishda erkin ekanligi to'g'risidagi kuchli sub'ektiv jihat mavjud. Amalda esa garchi ong inson miyasining sifati bo'lsa ham, unga har doim va to'liq ravishda bo'ysunavermaydi. Psixologlar tomonidan qayd etilgan bu jihat butun ushbu darsligimiz uchun muhim nuqta hisoblanadi. Ongni to'g'ri tushunibgina qolmasdan, uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish ham kerak.

Qiyoslash uchun "Falsafiy entsiklopedik lug'at" ("Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar") mualliflarining fikrini keltiramiz: "Ong – falsafa, psixologiya va sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, ijtimoiy mavjudot bo'lgan insonning oliy darajadagi psixik faolligini bildiradi. Bu faollikning o'ziga xosligi shundan iboratki, reallikning o'ta ta'sirchan va aqliy timsollar shaklidagi ifodasi insonning amaliy xatti-harakatlarini oldindan sezib, ularga aniq bir maqsadga yo'nalganlik xarakterini baxsh etadi. Bu dastlab amaliyat sohasida, so'ngra esa ichki planda tasavvurlar, fikrlar, g'oyalarda hamda ongning mazmunini tashkil qiluvchi hokazo ma'naviy fenomenlarda voqelikning ijodiy qayta o'zgartirilishini taqozo qiladiki, bunda ong madaniyat mahsulotlarida (jumladan, til va boshqa muhim tizimlarda) gavdalanim, ideal shakl kasb etadi va bilim sifatida maydonga chiqadi"².

Iqtibos keltirishni davom ettiraverish mumkin, lekin masalaning mohiyati ravshan bo'ldi, deb o'yaymiz. Psixologlar bilan faylasuflar bosh masalada kelisha olmaydilar. Psixologlar ongni passiv-faol jihat deb bilsalar, faylasuflar ongni faol, zero, inson uning yordamida voqelikni qayta o'zgartiradi, deb hisoblaydilar. Bu erda insonlarning faol, qayta o'zgartiruvchilik sifatlarini turli darajalarga ajratish lozim ko'rindi. Jamiyatning kamsonli a'zolarigina yuksak darajadagi qayta o'zgartiruvchilik faoliyatiga egadirlar.

¹ Большая психологическая энциклопедия. Муаллифлар жамоаси: Альмуханов А.Б., Гладков Е.С., Есина Е.В. ва бошк. – М.: ЭКСМО, 2007. – Б. 433.

² Философский энциклопедический словарь. Бош муҳаррирлар: Ильичев Л.Ф., Федосеев Н.П., Ковалев С.М. ва бошк. – М.: "Сов. Энциклопедия", 1983. – Б. 622.

Insonlarning aksariyat ko'pchiligidagi esa voqelikni o'zlarining shaxsan turmush kechirishlarini ta'minlaydigan darajada yashashlariga yordam beradigan tarzdagi passiv ong xosdir. Bundan amalda jamiyatning kichik bir qismigina yuksak ongli faollikka ega bo'lib, qolganlar esa faqat iste'molchilar, jumladan, ma'naviy mahsulot, xususan, ommaviy axborot iste'molchilari ekanligi kelib chiqadi.

Bu fikrlardan inson psixologiyasi, yoki, kamida, aksariyat ko'pchilik kishilar psixologiyasi istalgan mazmundagi axborot ta'siriga duchor qilinishi mumkin bo'lган ochiq tizimdir, degan muhim xulosa chiqadi. Individning ongi, modomiki u inson ijtimoiy faoliyatining natijasi, guruhiy izlanishlar va olingen bilimlar mevasi hisoblanar ekan, tashqi ta'sir uchun ochiq bo'lmasligi hech mumkin emas. Mutlaq ma'noda olganda, ijtimoiy axborot har doim individ tomonidan qabul qilinadi va unga so'zsiz ta'sir o'tkazadi. Ommaviy axborot turli darajada ijobiy yoki salbiy bo'ladi. O'z navbatida, insonning amalda yurish-turishini ko'p jihatdan individ muayyan holatda qabul qilgan va o'zlashtirgan aniq axborotning mazmuni taqozo qiladi.

Bunday ahvol inson to'g'risidagi faol, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila biladigan ongli mavjudot degan an'anaviy tushunchani o'zgartirib yuboradi. Bundan kelib chiqadiki, biz ishonch hosil qilganimizdek, ochiq, qabul qiluvchi ongga ega bo'lgan individlarni ham salbiy, buzg'unchi ommaviy axborot ta'siridan muhofaza qilish kerak ekan.

Axborot asrida individni va jamiyatni manfiy ma'lumotlardan muhofaza qilish zaruriyati keskin oshadi va murakkablashadi. Bunday davr ommaviy axborotni nazorat qilish ishining ahvolini tubdan o'zgartiradi. Axborot texnologiyalarining soni va sifati jadal oshib borishi ularga egalik qiluvchilarning nafaqat o'z mamlakatlari, balki butun dunyodagi fuqarolarga ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini cheksiz-chegarasiz qilib qo'yadi. Bugungi kunda ommaviy axborot hadsiz miqdorda ishlab chiqarilib, sayyoramiz bo'ylab juda katta tezlikda tarqatilmoqda. Biroq bu ishni faqat shunday texnologiyalarga ega bo'lgan mamlakatlar amalga oshira oladi. Boshqa davlatlar esa bu borada ularga bevosita bog'liq bo'lib qolishayapti. Shu boisdan inson ongi uchun, uning muayyan ideallarga tarafdarligi uchun kurash hozirgi zamon geosiyosatining eng muhim masalasiga aylandi.

Axborotlashgan davrda ommaviy axborot manbalari uchun individlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ish olib borish imkoniyati sezilarli darajada yuksaladi. **Birinchidan**, bevosita texnika tufayli ularning iste'molchiga ro'para bo'lish imkoniyati keskin oshadi. Kimningdir hududida ommaviy axborot tarqatilishiga asrlar davomida to'siq bo'lib kelgan davlat chegarasi endi bu vazifani bajara olmay qoldi. Jarayon davomida radio va televiedenie yoki Internet materiallariga aylanadigan elektr signallari har qanday g'ovni osongina engib o'tadi.

Ikkinchidan, axborot sifat jihatidan ham turli-tuman bo'lib borayapti. Axborot etkazish texnologiyasi va axborot sifati uni ishlab chiqaruvchilarga aynan o'z mahalliy auditoriyasini topishga va davlat hamda uning tuzilmalarini chetlab o'tgan holda, shu "mijozlari" bilan bevosita ish olib borishga imkon beradi. Bu borada ommaviy axborot va ishora-ma'lumotnomaga materiallar shu darajada ko'pki, har qaysi iste'molchi o'zini qiziqtirgan manbani topishi va xohlagan axborotni olishi mumkin. Hozirgi paytda ommaviy axborotni ishlab chiquvchilar istalgan mamlakatdagi har qanday siyosiy qatlamni: talabalar, o'rta yoshdagilar, pensionerlar va boshqa toifalarni o'z mahsuloti bilan ta'minlashga qodirdirlar.

Turli mamlakatlardagi auditoriyaning turli segmentlariga ommaviy axborotni bu tarzda tabaqalashtirib, aniq manzilni mo'ljallab etkazib berish zamonaviy geosiyosatning muhim unsuri bo'lib qoldi. Ilgari fuqarolar ongi uchun kurash asosan har kimning o'z mamlakati doirasi bilan chegaralangan edi. Bugungi kunda bunday kurash globallahib ketdi. Bunga zamonaviy axborot texnologiyalari hal qiluvchi hissa qo'shdi. Natijada texnologiyalarga egalik qiluvchi mamlakatlar o'z qadriyatlari keng qamrovli va hammabob mazmunga ega ekanligi haqidagi fikrga borib, ularni butun dunyo bo'ylab ochiqdan-ochiq targ'ib qilishga kirishdilar. Bunday ish barcha kanallar: televidenie, radio, gazeta, jurnallar orqali, axborot agentliklari va matbuot markazlari yordamida olib borilmoqda. Internet ommaviy axborotni joylashtirish uchun yangi, qudratli va haqiqatdan ham chegara bilmas vosita bo'lib qoldi.

Mamlakat o'z aholisini unga yot axborotdan himoyalashni tashkil etishi uchun inson xulqidagi onglilik va beixtiyoriy onglilik omillarining nisbati masalasini aniqlab olishi juda muhimdir. Uzoq davr mobaynida individdagi onglilik ustun hisoblanib keldiki, bu uning tabiatidagi beixtiyoriy ongni bilishga to'sqinlik qilib turdi. Albatta, bundan yuz yil muqaddam ham insonda beixtiyoriy ongning ustun ekanligini isbotlovchi asarlar, misol uchun, Gyustav Lebon asarlari chiqib turardi. Biroq toki Zigmund Freyd va Karl Yung inson psixikasidagi beixtiyoriy ong mohiyatini ohib, mazkur murakkab ilmiy muammoni uzil-kesil hal qilib bermagunlaricha mutaxassislar uzoq vaqt bu fikr bilan murosa qilmay keldilar. Endilikda inson psixikasida beixtiyoriy ong shak-shubhasiz etakchilik qilib, haqiqiy onglilik uchun zamin xizmatini o'tashi isbotlab berilgan fakt hisoblanadi.

Bundan tashqari, olimlar inson psixikasidagi onglilik va beixtiyoriy onglilikka doir turli nisbatlarni keltiradilar. Ba'zilar hatto beixtiyoriy ong haqiqiy ongga 90G'10 foiz nisbatda degan fikrdadirlar. Ushbu masalada biror aniq raqamni aytish, qiyin, albatta. Ustiga-ustak, bu aniq individlarga bog'liq hodisa. Biroq, o'ylashimizcha, inson xulq-atvoridagi beixtiyoriy unsur kamida uchdan ikki hissaga teng deb taxmin qilsak, xato bo'lmasa kerak. Bu, ayniqsa, Internet, audio-video vositalari va matbuot ma'lumotlarining ommaviy ong tomonidan qabul qilinishida yaxshi ko'zga tashlanadi.

"Ommaviy ong – ijtimoiy ongning zamonaviy tipdag'i jamiyatlarda keng yoyilgan va g'oyat muhim ahamiyatga ega o'ziga xos turi. Sinfiy, milliy, kasbiy va boshqa guruhiy ijtimoiy ong shakllariga o'xshab, ommaviy ong o'zining gnoseologik xususiyatlari (mazmuni, darajasi hamda voqelikni aks ettirish jihat) bilan ajralmay, eng avvalo, uni tashuvchining, sub'ektning xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunda jamiyatning muayyan guruhlari (sinflar, millatlar va hokazo) tashuvchi ijtimoiy ongning yuqorida sanab o'tilgan shakllaridan farqli ravishda ommaviy ong holatida individlarning "omma" deb ataluvchi alohida majmui (ko'pligi, jamoasi) shunday sub'ekt sifatida maydonga chiqadi. Ommanning o'zi singari, ommaviy ong ham zamonaviy tipdag'i jamiyatlarda birinchi navbatda asosiy shart-sharoitlarning, odamlar hayotiy faoliyati shakllarining (ishlab chiqarish, iste'mol, muloqot, ijtimoiy-siyosiy ishtirok, dam olish sohalari) ommalashuvi jarayonida vujudga keladi va shakllanadiki, bunday ommalashuv bir xil yoki shunga o'xshagan intilishlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, ko'nikmalar, moyilliklar va hokazo jihatlarni yuzaga keltiradi"¹.

¹ Новая философская энциклопедия. 4 жилдлик. Тахрир кенгаши: Стёпин В.С. (раис) ва бошк. 2-ж. – М.: "Мысль", 2001. – Б. 503-504.

Shundan xulosa qilish mumkinki, individ omma orasida bo’lganida, uning ommaviy kommunikatsiya vositalari xabarlarini tanqidiy qabul qila boshlashi sezilarli darajada pasayadi. Psixik yuqtirish jarayoni sababli boshqa kishilar ta’siri ostida u axborot mazmunini o’shalarga o’xshab qabul qiladi, garchi mazkur masalada ancha mustaqil bo’lishi lozim esa-da. Har holda inson tabiatini va uning OAV xabarlarini qabul qilishidagi qonuniyat ana shunday.

Individga axborot-psixologik ta’sir ko’rsatish yo’llari va shakllari juda ko’p bo’lib, ularga bitta mavzu doirasida ta’rif-tavsif berish imkonsizdir. Ularning asosiyalarini sanab o’tamiz. Ta’sirning barcha turlari universal shaklda hissiy va ratsional, ifodali va mantiqiy ta’sirlarni o’zida umumlashtiradi. Hissiy ta’sir obrazlar, hissiyotlar, tasviriy-ifodali va satirik-yumoristik vositalar yordamida amalga oshiriladi. O’z navbatida, ratsional ta’sir fikr yurgizish mantiqi va bayon etish mantiqiga bo’linadi. Yuqorida zikr etib o’tilgan ta’sir ko’rsatish uslublarining har biriga oid ko’plab adabiyotlar mavjud, shuning uchun ular haqida to’xtalib o’tirmaymiz.

Shunday qilib, biz individga ta’sir ko’rsatishning ko’plab uslublaridan ayrimlari haqida so’z ochdik, xolos. Bundan tashqari, “mayin” targ’ibot, manipulyativ texnologiyalar va allaqancha hokazo uslublar mavjud.

3. Individning axborot da’vatlarning turlari va mazmunidan, ahamiyatidan etarli darajada xabardor emasligi

Ikkinchchi masala yuzasidan bayon etilgan materialdan bu borada etarli tayyorgarlikka ega bo’lmagan inson amalda o’z ustiga har tomondan yopiriladigan axboriy ta’sir oldida ojizdir, deya to’liq ishonchli xulosa chiqarish mumkin. U televizor tomosha qiladi, radio eshitadi, gazeta o’qiydi va matbuot sahifalaridan, teleradio efiridan o’ziga qarata yo’naltirilayotgan gaplarga ishonadi.

Buning ustiga ommaviy axborot vositalari o’z xabarlarini etarlicha professional darajada uzatadilar, ya’ni bosma matnni to’g’ri shakllantirishni, radio va televidenie xabarini yaxshilab montaj qilishni, xarakterli dalillar tanlashni hamda ularni keraklicha tartibda bir qatorga tizib, zarur sharh bilan to’ldirishni va hokazo usullarni qoyillatib bajaradilar. Auditorianing oddiy vakili tahririyatlar o’z ma’lumotlarini ishonchli, asosli, zarur ta’sir kuchiga ega bo’ladigan darajada tayyorlashlari uchun qanchalik ko’p ish olib borishlarini ko’pincha tasavvur ham qilmaydi. Ta’sir kuchi yuqori bo’lishiga erishish uchun juda katta ish olib boriladiki, bu haqda radio va televidenie efirida yoki matbuot sahifasida hech nima deyilmaydi.

Shuning uchun, ommaviy auditoriya bilan olib boriladigan professional ishni hisobga olgan holda, individning yagona o’zi axborot tajovuzidan o’zini omon saqlab qololmaydi, deya etarlicha ishonch bilan aytishga to’liq asos bor. Bu ishni shu darajada hiyla-nayranglar va kutilmagan usullar ishlatishtirish mumkinki, hatto mazkur sohada bilimdon kishi ham unda aynan tajovuz yashiringanligini sezmay qolishi ehtimol.

Buni biz axborot da’vatlarning turlari va mazmuni, ahamiyatini eslatish bilan masala nomining o’zidayoq aks ettirdik. O’z oldimizga bir oddiy savol qo’yaylik: “Kichik bir maqolachada qutqu bo’lishi mumkinmi?” Masalan: “AQSh Prezidenti Si-en-en muxbiriga bergen intervyusida o’z mamlakatida ishsizlik darajasi pasayganini ma’lum qildi”. Albatta, bu erda hech qanday qutqu yoki tahdid yo’q. Lekin shunga o’xhash xabarlar Si-en-en, “Assoshieyted Press”, “Yunayted Press” Interneshnl, Reyter tomonidan har oyda va ko’plab martadan berib turilsa-chi?! Ya’ni har kuni ishsizlik va

inflyatsiya kamaygani, maoshlar va dollar kursi oshgani, yalpi mahsulot hajmi ko'paygani va hokazo-hokazo yutuqlar haqida izchil ravishda gapirilaversa-chi?!

Bu holda auditoriyada tabiiy ravishda oltin milliard jamiyatlarida (rivojlangan mamlakatlarni shunday atashadi) hamma narsa yaxshi, boshqalarida esa unchalik emas, deb o'ylaydi. Shu tariqa ko'zga ko'p tashlanavermaydigan tarzda, asta-sekin boshqa mamlakatlarga noto'g'ri axborot yo'llanadi – bilib qo'yingki, bizga hamma sohada muvaffaqiyatlar yor, sizda esa unday emas. Vaholanki, ishsizlik va inflyatsiya, shuningdek mehnat haqi va milliy valyuta kursi ham muntazam ravishda ko'tarilib-tushib turishi ma'lum narsa. Biroq kamchiliklar to'g'risida, odatda, gapirishni u qadar yoqtirishmaydi, ko'proq g'arbcha turmush tarzining afzalliklarini ta'kidlashga harakat qiladilar.

Ushbu qonuniyat, ya'ni xabarlar soni pirovardida zarur sifatni berishi jahon axborot bozorida ko'p yillardan beri amalda. Sayyoramiz G'arbiy Evropa va AQSh xalqlari qanchalar yaxshi yashayotgani va dunyoning qolgan qismida hamma narsa ham u qadar muvaffaqiyatli emasligi haqida yildan-yilga ko'rib, eshitib va o'qib kelmoqda. Jahondagi etakchi axborot agentliklari va kompaniyalari hamda radiotelekompaniyalar, bir tomongan, hayotning iste'molchilik xarakteri, yoshlarning o'z ideallaridan qoniqmasligi oshib borayotganligi, o'sha ishsizlik va inflyatsiya, an'anaviy dindan yuz o'girish, G'arbiy Evropa mamlakatlari va AQSh xalqlari hayotidagi boshqa salbiy jihatlar haqida, ikkinchi tomongan, boshqa davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi yutuqlar to'g'risida juda kam gapirishadi.

O'zbekiston fuqarosiga xorijiy OAV tomonidan amalga oshirilayotgan kundalik yopirilma bosimni tajovuz deb atasak, to'g'ri bo'ladi. Bunday ta'sir o'tkazishni boshqacha ta'riflab ham bo'lmaydi. Endi shu fikrni isbotlashga harakat qilaylik.

Har bir inson o'z jamiyatida yashaydi, muayyan ijtimoy institutlar va guruhlar muhitida bo'lib turadi. Umumga dahldor bo'lish - ijtimoiylashuv (sotsializatsiya), ya'ni tug'ilgan kunidan to 25-29 yoshga kirguniga qadar davom etadigan jamiyatga kirishish davrida u mazkur muhitda barcha tomonidan qabul qilingan qadriyatlar va me'yirlarni o'zlashtirib oladi. Bu davr oxiriga borib u o'zi o'sib-ulg'aygan va shaxs sifatida kamol topgan muhitga xos qimmatli yo'l-yo'riqlar majmuini egallagan bo'ladi.

Mana endi u xorijiy OAV ta'sirida o'zi amal qilishga o'rgatilgan qadriyatlarning to'g'riliqiga shubhalana boshlaydi. Individning shaxs sifatida o'z mo'ljalini yo'qotib qo'yishi uni halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Natijada unda hamma narsaga ishonchsizlik, nigelizm, boshqa odamlar taqdiriga beparvolik, hayosizlik, madaniyatsizlik va hokazo illatlar namoyon bo'lishi hech gap emas.

Qolaversa, xorijiy qadriyatlar ham har xil bo'ladi. Ularning ko'pgina qismi O'zbekistonning katta yoshdag'i aholisi va yoshlari tomonidan muvaffaqiyatlari o'zlashtirilmoqda. Lekin shundaylari ham borki, ular bizda ko'karib keta olmaydi. Birinchi navbatda bu protestantchilikda qo'llab-quvvatlanadigan va G'arbiy Evropa hamda AQShda jamiyatlarning gullab-yashnashiga yordam bergen egotsentrizm, individualizm, karerizm va boshqa shunga o'xshash sifatlarga taalluqlidir. Protestant odobining mohiyatiga xos xususiyatlardan biri shundan iborat bo'lib, taniqli sotsiolog M.Veber bu haqida yozib, mazkur mamlakatlarda juda mashhur bo'lib ketdi.

Biroq bu jamoaviy hayot tarziga ega mamlakatlar tomonidan so'zsiz qabul qilinishi mumkin emaski, O'zbekiston ham shunday davlatlar jumlasiga kiradi. Bizda agar oila, mahalla, mehnat jamoasi manfaatlariga to'g'ri kelmasa, insonning yakka holda va shaxsan o'zini ko'zlab muvaffaqiyatga intilishi ma'qullanmaydi. Bu erda qavmning

vazifalari, jamoa miqyosidagi ijobiy natija shaxs darajasidagi yutuqqa qaraganda yuksak qadrlanadi.

Shuning uchun agar xorijiy OAV mahalliy shart-sharoitlarni nazar-pisand qilmasdan, puxta yo'lga qo'yilgan axborot yordamida o'z ko'rsatmalarini o'zbekistonliklar ongiga singdiradigan bo'lsalar, vatandoshlarimiz azaliy tanlangan hayotiy mo'ljallarini yo'qotib qo'yadilar va bu jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi.

Aslida, xorijiy ommaviy axborot manbalari ko'pincha ayni shu maqsadni ko'zlab ish olib boradilar. Lekin ular o'zbekistonliklarning aniq qadriyatlarini, masalan, madhiyamiz mazmunini, Toshkentning ko'rki-tarovatini yoki tarixdagi yutuqlarimizni maqsadli obro'sizlantirishga intilmaydilar. Yo'q, chet el OAV boshqacha yo'l tutadilar. Ular O'zbekistonda demokratiya yo'q, ommaviy axborotni tarqatish nazorat qilinadi, odamlar o'z fikrlari, orzu-umidlarini erkin izhor qila olmaydilar, degan gaplarni qilishadi. Haqiqatan ham bizdagi gazeta va jurnallarning muharrirlari, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarni efirga chiqarish uchun mas'ul kishilar, agar behayolarcha, dag'al yoki axloq-odob qoidalariga to'g'ri kelmaydigan, ya'ni jamoaviy hayot tarzi an'analariga zid bo'lsa, bunday ishlar qilinishiga ijozat bermaydilar. Boshqa barcha masalalarda ommaviy kommunikatsiya vositalarida chiqish qiluvchi mualliflarga mamlakatimiz qonunlari amal qilish uchun zarur erkinlik berib qo'ygan.

Ma'naviy-ma'rifiy sohada xorijdan turib axborot yordamida ta'sir ko'rsatishning maqsadi bo'lган O'zbekiston fuqarolarining umum tomonidan qabul qilingan qadriyatları, istaklari va yo'l-yo'riqlari buzilishi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ma'lum xavf tug'diradi. Bu kategoriylar o'zbekistonliklarning hayotiy dasturlari bo'lganligidan biz ularning xorijiy axborot manbalari tomonidan surbetlarcha poymol etilishiga befarq qarab turolmaymiz. Barcha tomonidan qabul qilingan huquqiy va axloq-odob me'yorlarini obro'sizlantirish maqsadida mamlakatimizga qarshi amalga oshirilayotgan turli hujumlarni fosh etish ma'naviy-ma'rifiy ish va axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash sohasi har bir mutaxassisning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Shu ma'noda O'zbekiston fuqarosining axborot hujumlaridan davlat va jamoatchilik tomonidan himoyalanishi zarurligi kunday ravshan bo'lib turibdi. Yuqorida tushuntirish berib o'tganimizdek, individga yopirilayotgan axborot to'lqini hajman kattaligi va mazmunan murakkabligi bois bu masalani uning yolg'iz o'zi hal qilishga ojizdir.

4. Individni oila, jamoa, ishlab chiqarish, jamiyat va davlat tomonidan himoyalash shakllari

Individning axborot-psixologik himoyasi shu qadar murakkab ishki, bu borada hammaning: oila, mahalla, ishlab chiqarish jamoasi, do'stlar davrasi, jamiyat va davlatning kuch-g'ayratini birlashtirish zarur. Albatta, individning o'z-o'ziini himoya qilishi ham katta rol o'ynashi lozim.

Axborotdan himoyaning ushbu har bir turida umumiyl xususiyatlar, barcha shakllarga to'g'ri keladigan jihatlar mavjud. Biroq muayyan bir tur uchun maxsus, o'ziga xos xususiyatlar ham bor. Shuning uchun ham bu erda mazkur shakllarning biri ikkinchisining to'liq o'rnini bosishi, o'zaro bir-birini almashtirishi mumkin emas. Ushbu tizimda ularning har qaysi o'z o'rniga ega va o'zining mustaqil rolini o'ynaydi.

Oilada yet axborotdan o'zini himoya qilish nimani anglatadi? Bola tug'ilganidan balog'at yoshiga etgunigacha oila sharoitida o'sib-ulg'ayadi. Bu ancha uzoq muddat bo'lib, vaqt-vaqtida hovliga o'ynashga chiqishini hisobga olmaganda, bolalar bog'chasiga borguniga qadar u doimo mazkur yagona axborot muhitida kun kechiradi.

Psixologlar bekorga bu davrni inson hayotining eng mas'uliyatli davri deb hisoblamaydi. Hayotining dastlabki yillarida individ juda tez sur'atlarda bilim va dunyoni bilish ko'nikmalarini egallab boradi. U ko'proq instinktiv darajada bo'lsa ham, atrofdagi voqelikni o'rganadi. Biroq keyingi ilmiy yutuqlar, aniqrog'i Karl Yung ishlab chiqqan arxetipler ilmi nuqtai nazaridan qaraganda, bilishning qaysi darajasi, onglimi yoki instinktiv daraja to'g'riroq va faolroq ekanligi hali noma'lum, deyish mumkin.

Oilada bola ilk qadamlarini qo'yadi, o'yinchoqlar o'ynay boshlaydi, dastlabki teleko'rsatuvlarga tikiladi, qiziqarli rasmlarni tomosha qiladi, bo'yashga mo'ljallangan albomlarga chizadi. Aynan shu tariqa u ilk bosqichda juda katta axborot hajmini o'ziga singdirib, shaxs sifatida shakllanadi. Albatta, bunday shakllanish ommaviy axborot vositasining ishtirokisiz yuz bermaydi, garchi bu hali Bi-bi-si yoki O'zbekiston teleradiokompaniyalarning siyosiy eshittirish yoki ko'rsatuvlari bo'lmasa ham.

G'oyat muhim jihat shundan iboratki, individning umumiyligi ijtimoiy davraga kirishish davri yakuniga etguniga qadar oila, bolalar bog'chasi, maktab va oliv o'quv yurti bilan bir qatorda ko'cha ham unga etarlicha kuchli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun u ommaviy axborot vositalarining bu muhitga oid ma'lumotlarini ham o'ziga, ayniqsa, faollik bilan singdirib boradi. "Murakkab yosh" deb ataladigan davrda "ko'cha axboroti" samaradorligi yuqori cho'qqisiga chiqadi.

Jamo-a-qavm (mahalla) himoyasi ham individ juda muhim hisoblanadi. Jamoa boshqa sharoitlarda, masalan, o'rganish qiyin bo'lgan narsalarni – jamoachilik tuyg'usini, o'zaro yordam va biri-birini qo'llab-quvvatlashni o'rgatadi. Bu hali hammasi emas, boz ustiga – asosiysi ham emas. Individ mahallada oila sharoitida berilmaydigan yoki berish imkonini bo'lmanagan dastlabki bilimlarni, aniqroq aytganda – "hayot" deb atalmish o'yinning xolis, ba'zida esa ayovsiz qoidalarini egallay boshlaydi. Ota-onalar o'z farzandlarini ana shunday ayozli shamollar oqimidan asrashga intiladilar. Mahalla va ko'cha individ o'zi uchun yangi, noma'lum dunyoni ocha borishiga yordam beradiki, oilada o'qtirganlaridek, unda hamma narsa ham silliq va ko'ngildagidek emasligi ayon bo'ladi. Shuning uchun mahalla va ko'cha ham insonning ustozlaridir.

Individning oila, bolalar bog'chasi, mahalla, maktab va oliv o'quv yurtidan keyingi o'qituvchisi uning ishlab chiqarish jamoasisidir. Maktab va oliv yurtidagi singari bu erda ham rasmiy siyosat qo'shiladi, shaxsga nisbatan davlat va jamoatchilik nazorati, rag'batisi va jazosi namoyon bo'ladi. Inson ishlab chiqarish jamoasi bag'rida ancha uzoq davr, butun etuk hayoti davomida, o'rta hisobda 20 yoshdan to pensiya yoshigacha, ko'pincha hatto undan uzoqroq muddat bo'ladi. Mehnat jamoasi muhim va jiddiy tarbiyachi hisoblanib, bu erda endi oilaga va mahallaga xos "kechirishlar" bo'lmaydi. Bu erda o'zaro axborot almashuvi yuz beradi, individning olayotgan ma'lumotlarini elakdan o'tkazadi. U hamkasblari tajribasida o'zi eshitgan xabarlarni, jumladan ommaviy axborotni tanqidiy baholashni o'rganadi. Odatda, mehnat jamoasida barcha yangiliklar qizg'in muhokama qilinib, ularga xolis baho beriladi, voqealarga qo'shib, orttirib aytilgan, ishonchsiz, ochiqchasiga yolg'on jihatlar chiqitga chiqariladi. Jamoa mavjud ommaviy axborotni tanqidiy baholagan holda, hamma narsani joy-joyiga qo'yishga harakat qiladi.

Jamoaning beshinchi turi ijtimoiy himoya bo'lib, axborotlashuv davriga qadar u hal qiluvchi ahamiyatga ega emasdi. Individning yot axborotdan davlat tomonidan muhofaza qilinishi bosh masala edi. Lekin axborotlashgan zamon ustuvorliklarni keskin o'zgartirib yubordi. Endilikda insonga yaqinroq bo'lgan va uni erkin dunyoga xos bosh

mezonlar – umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida himoya qila oladigan jamiyat, jamoatchilik asosiy kuchga aylandi.

Axborotlashgan davr birinchi darajali bo’lmasa, o’z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Davlatsiz samarali himoya bo’lishi mumkin emas, chunki u jamiyatning birinchi mudofaachisi hisoblanadi. Afsuski, ko’pgina mamlakatlarda salbiy ommaviy axborotdan davlat muhofazasi - bu saytlarni taqilash, oliy o’quv yurtlari va maktablarda nazorat qilish va o’z vatanigagina tegishli axborotni targ’ib etishdan iborat bo’lib qolayotir. Davlatning tabiatini unga fuqaro bilan so’zsiz ishonch qozongudek masofada yaqinlashuvga doimiy, uzluksiz yo’l qo’ymaydi. Bunday masofaga erishish har bir mamlakat uchun nihoyatda muhim vazifa deb hisoblaymiz. Bu masofani jamiyat tashkillashtirishi mumkin. Modomiki davlat eng avvalo kuch sanalar ekan, bu erda o’zaro ishonch bo’lishi lozim va muhimroqdir. Bu ishonchni esa jamiyat hosil qiladi.

Individni xorijiy ommaviy kommunikatsiya vositalaridan himoya qilishning o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Bu erda asosiy xususiyat shundaki, ular o’zlaribilmagan holda bizning milliy qadriyatlarimizni unutishga harakat qilishadi. O’zbekistonliklar milliy qadriyatlar ikkinchi darajali hisoblanib, mavjud bo’lмаган ilmiy kommunizm va KPSS tarixi qadriyatları ilgari surilgan sobiq Ittifoq davrida buni boshdan o’tkazgan edilar. Xalqaro OAV beadablarcha, lekin mohirona ish qilishadi. Kishilarga yot bo’lgan axborotni shu tarzda etkazadilarki, odamlar unga ishonib qo’ya qoladilar.

Bu o’rinda bir necha omillar xalqaro ommaviy axborot vositalari foydasiga ishlaydi. **Birinchidan**, bu sayyoramiz panoramasi. Shubhasizki, insonga boshqa qit’alar, mamlakatlarda nimalar bo’layotgani har doim qiziq. Unga o’z mamlakati yangiliklari etarli emas, u ko’proq narsani bilgisi keladi va xorijiy ommaviy axborot vositalari shundan ustalik bilan foydalanadilar. **Ikkinchidan**, ular yangiliklarni juda mohirona taqdim etishadi. Buning uchun zarur bo’ladigan texnologiyalarga, maxsus effektlarga egadirlar. **Uchinchidan**, axborotning mavzu jihatdan keng qamrovli bo’lishi ta’minlanadi, materiallarga qarab ko’z uzib bo’lmaydigan mavzularni kiritadilar. **To’rtinchidan**, materiallarni ishslash yuksak darajada yo’lga qo’yilgan: faktlar, talqinlar, umumlashtirishlar, samarali qabul qilinishi ancha oldindan ko’zlab qilingan hisob-kitoblar. **Beshinchidan**, tushuntirish, ishontirish, o’z tomoniga tortish mahorati.

Shu bilan birga ta’kidlash kerakki, shaxs nafaqat xorijiy, balki o’z vatani OAVdan himoyalanishga muhtoj.

Vatanimizdagи ommaviy axborot vositalari bir qator hollarda jang maydonini xorijiy axborot vositalariga berib qo’ymoqdalar. Masalan, ayrim yangiliklarni kechikib xabar qilishlarida. 2001 yil 11 sentyabrda Nyu-Yorkdagi osmono’par binolarga samolyotlar hujumi uyushtirilgan paytda O’zbekiston OAV ikki kecha-kunduz davomida bu yirik xalqaro voqeа to’g’risida xabar berishmadи. Eslatib o’tamizki, jurnalistikadagi xalqaro standartlarga ko’ra, biror muhim yangilik haqida xabar berishda ikki daqiqaga kechikish noprofessionallik hisoblanadi va bunday jurnalistni, hech narsani surishtirmsandan, ishdan bo’shatib yuborishlari mumkin. O’sha 11-13 sentyabr kunlari respublikamizning butun aholisi mazkur voqeani Rossiya telekanallari orqali ko’rdi va bu mamlakatimizda mazkur telekanallar obro’si yanada oshishiga xizmat qildi.

O’zbekistonda vatanimiz telekanallariga qaraganda chet el telekanallarining reytingi ayrim paytlari yuqori bo’lar ekan, bu mamlakatimiz milliy xavfsizligiga tahdiddir, chunki yurtdoshlarimiz o’zimiznikiga qaraganda o’sha manbalarga ishonib

qolishadi. Demakki, birinchidan, vatanimiz ommaviy axborot kommunikatsiyalari dunyodagi muhim yangiliklar haqida o'z vaqtida ma'lumot berishga bevosita burchlidirlar. Agar shunday qilmasalar, "axborot ochligi" xavfini tug'dirib, vatandoshlarimizning chet el OAV murojaat qilishlarini muqarrar qilib qo'ygan bo'ladilar.

Ikkinchidan, vatanimiz ommaviy axborot vositalari haqiqatni gapirishlari lozim, aks holda birinchi manzara takrorlanadi – o'zimizning kanallar to'g'ri gapni aytmasliklariga amin bo'lган iste'molchilar xorijiy manbalarga yuzlanadilar.

Uchinchidan, mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari auditoriyada qo'rquv tuyg'usini uyg'otmasliklari kerak. Ukrainalik olim V.V.Tsiganov Moskvaning Dubrovka maydonidagi Teatr markazi qurollangan terrorchilar tomonidan bosib olinganida Rossiya telekanallari o'zlarini qanday tutganliklarini yaxshi tahlil qilib berdi. Muallif shunday yozadi: "Televidenie zo'ravonlik haqida shunchaki xabar qilib qo'ymadi, dahshatni uzatish, millionlab xonardonlarga etkazish orqali qayta jonlantirdi va ko'paytirib berdi"¹. Mediaterrorizm siyosatshunoslikdagi yangi yo'nalish hisoblanadi. Bugungi kunda u juda dolzarb bo'lib qolganligidan hatto maktablar va oliv o'quv yurtlarida mediata'lismi va mediapedagogika nomli yangi fan kiritish ehtiyojini tug'dirdi.

Vatanimiz ommaviy axborot vositalari auditoriyani ijobiy misollarda o'rgatishi, har kuni har bir mamlakatda yuz berib turadigan turli favqulodda hodisalar munosabati bilan vaziyatni keskinlashtirmasligi lozim. Auditoriyada shundoq ham xavfsirash uchun sabablar etarli: umumjahon iqtisodiy va shu kabi bo'hronlar, narxlarning oshib borishi, sayyoramizning qizg'in nuqtalaridagi notinch vaziyatlar, er yuzi bo'ylab yadro qurolining tarqalib borishi, giyohvandlik, terrorizmning avj olayotgani, ekologiyaning yomonlashayotgani, OITS va hokazo.

Milliy mafkura va asli-nasliga o'xshashlik, aynanlik (identivlik) shaxs, jamiyat va davlatni himoya qilishning asosiy shakllari hisoblanadi. Bu tushunchalar yuzaki qarashdagina oddiy va tushunarli ko'rindi. Biroq, aslida, ular nihoyatda yuksak samaradorlikka va shu boisdan axborotlashuv davriga endi kirib kelayotgan O'zbekiston uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega, u qadar oddiy bo'limgan masalalardir. Shu ma'noda O'zbekiston qisqa muddatda milliy istiqlol mafkurasini yaratib, o'zini ko'rsata oldi, hozir uni mamlakat aholisi oddiy qilib "milliy mafkura" deb ataydi..

Individning o'z jonajon tamadduni-madaniyati muhitida yashab turganidagi psixologik ahvoli katta rol o'ynaydi. U qadrdon madaniyati iqlimida o'sib voyaga etdi, shaxs sifatida shakllandti, bu erda uning o'zi, qarindosh-urug'lari, yoru do'stlari, atrofidagi odamlar yashaydi. O'z-o'zidan tushunarlik, bunday sharoitda individning psixologik ahvoli badastir, o'ng'ay va boshqa afzalliklar og'ushida bo'ladi.

Insonning jonajon tsivilizatsiyasi – uning uchun o'rganib qoligan urf-odatlar, an'analar, boshqalarga nisbatan guruhiy va ijtimoiy farqlanish demakdir. Qadrdon tsivilizatsiya individning o'z ma'naviy dunyosi, o'z axborot olish qulayligi, o'zaro ishonchdan putur ketgan hozirgi davrda ma'naviy taraqqiyotning boshni aylantirib yuboruvchi siljishlari, nobarqaror narxlar zamonida uning ruhiyatiga, ruhiy ahvoliga bag'oyat qadrdon bir xilqatdir.

¹ Цыганов В.В. Медиа-терроризм: терроризм и средства массовой информации. – К.: Ника-Центр, 2004. – – Б. 503-504.

Jonajon tsivilizatsiya - bu yon-atrofdagi odamlar bilan umumiy til topishuvni, ma'naviy-ruhiy osoyishtalikni, tushunarli va qalbga yaqin qadriyatlar va munosabatlarni bildiradi. Insonning o'z qadrdon madaniyati uning qonida, arxetiplarda o'rnashib qolganligi, onglilik darajasidagina emas, balki ostki ong darajasida ham bo'lib va his qilib turilishi vaqtি kelganda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, turli xil – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, etnik, fuqaroviy va boshqa aynanlik, o'xshashliklar mavjud. Hozirgi paytda dunyo madaniyati va siyosatshunosligida asosan etnik va milliy asliga o'xshashlik bilan bu nasliga monandlikni nazar-pisand qilmaydigan, inkor etadigan kosmopolitizm o'rtaida bahs borayotir. Biz ham shu xususda to'xtalamiz.

Milliy va fuqaroviylasiga o'xshashliklar o'rtasidagi bahs ildizlari butun bir davrni tashkil etadigan tushunchalar bo'lgan milliylikka tarafdarlik bilan kosmopolitizm orasidagi tub-negizli mubohasaga borib taqaladi. Ko'pgina tadqiqotchilar fikriga ko'ra, insoniyat taraqqiyoti shunga olib keladiki, sayyoramizdagi millatlarning barchasi bir millatga – zamin ahliga birlashadi, kosmopolitizm milliy mansublikdan ustun keladi. Vatanparvarlik g'ururini ma'naviy jihatdan xavfli hissiyot deb hisoblaydigan olimlar ham yo'q emas¹. Bu g'oyat jiddiy masala bo'lib, undan quruq bayonotlar bilan qutulib bo'lmaydi.

Haqiqatan ham, dunyo taraqqiyoti shunday yo'ldan ketmoqdaki, asta-sekin hamma narsa – kiyim-kechak, uylar, mashinalar va boshqa narsalar bir xil bo'lib borayapti. Yagona umumjahon standartlari, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning umumiyligi shakllari: demokratik me'yorlar va tamoyillarning rivojlanishi, erkaklar va ayollarning teng huquqliligi, parlamentga saylovlar va hokazolar barcha mamlakatlarni qamrab olmoqda. Natijada yaqin orada dunyo madaniyati ozmi-ko'pmi farqlar bilan bir xillashib, fuqaroviylar o'xshashlik etnik farqlardan ustunlik qiladi, deb fikr bildirishga amaliy va nazariy asos yuzaga keladi.

Nihoyatda jiddiy bitta holatni soqit qilganda, hamma narsa yaxshi bo'lardi, albatta. Gap shundaki, madaniyatlarning bu tarzda qo'shilushi ularning xilma-xilligi yoki boshqacha so'z bilan aytganda, sayyoramiz madaniy ekologiyasi uchun o'ta salbiy oqibatlarga olib keladi. Hamma narsa universallashib, umumiyligi qiyofa va mazmun kasb etib, kuchli davlatlar bilan iqtisodiy raqobatga dosh berolmaydigan kichik millatlarning ko'lam va ahamiyat jihatdan juda ulkan madaniyatları yo'q bo'lib ketishi mumkin. Bu sayyoramiz uchun katta yo'qotish bo'ladi. Hamma bir xil uy, mashina, kiyim-kechakka va hokazo mulkka ega bo'ladi, lekin inson hayotida eng muhimi shumi? Sanoatlashuv asrining "seriyali" tartibi yana, biroq bu safar ancha yuksak darajada qaytib keladi. Bu kelajakdagagi dunyo taraqqiyotining o'ta nomaqbul yo'lidirki, bunga yo'l qo'ymaslik kerak. Fuqaroviylar hamda etnik asliga o'xshashlikni baravar tutish, birinchisining ikkinchisidan so'zsiz ustuvorlik qilishiga imkon bermaslik lozim.

Misol uchun oladigan bo'lsak, O'zbekistonda o'zbeklar bilan bir qatorda tatarlar, qozoqlar, ruslar, koreyslar va boshqa millatlar yashashadi. Fuqaroviylarning ustunlik qilishi shuni anglatadiki, hozir Amerikada bo'layotganidek, ular o'zlarini tatarlar, koreyslar, ruslardan chiqqan o'zbekistonliklar deb atay boshlaydilar. Asta-sekin kiyinish, taomlar, urf-odatlar va hokazo sohalarda milliy o'ziga xos xususiyatlarni yo'qotish yuz beradi. Hamma narsa universallashib, umumlashib ketadi va ma'lum

¹ Қаранг: Хантингтон С. Кто мы? Вызовы американской национальной идентичности. Ингл. тилидан А.Башкиров таржимаси. – М.: ООО “Издательство АСТ”; ООО “Транзиткнига”, 2004. – Б. 423.

yillar o'tib o'zbekni rusdan,tojikni tatardan ajratib bo'lmay qoladi. Bundan kim yutadiyu, kim yutqazadi? O'ylaymizki, shunday holat yuz bergan, ayniqsa, dunyo miqyosida voqe bo'lgan taqdirda, butun jahon madaniyati uchun jiddiy yo'qotish kelib chiqadi, chunki boy xilma-xillik, rang-baranglik yo'qqa chiqariladi.

Individning o'z-o'ziini himoya qilishining shaxsiy ko'rinishlari haqida gapiradigan bo'lsak, ularning turlari juda ko'p. Mutaxassislar ulardan ettitasini negiziy turlar sifatida ajratib ko'rsatadilar: o'rnini egallash, proektsiya, o'rnini qoplash, regressiya, bostirish, inkor etish, munosabat bildirish va aql-zakovatni ishga solish. Psixologiyaga oid adabiyotlarda ularning har biriga doir tushuntirishlar beriladi. Umumlashtirib baholanadigan bo'lsa, ularni individ ongiga yot axborot bostirib kirishiga qarshi muhofaza mexanizmi, deb ta'riflash mumkin.

Davlat, jamiyat va individning o'z kuchlari birlashtirilgan holdagina individni axborot-psixologik himolash algoritmini yaxlit bir dastur sifatida ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Ushbu ijtimoiy birliklarning har biri o'ziga xos vazifalarni va shu bilan birga himoya tadbirlarini amalga oshirishning umumiyy, jamlangan ravishda o'sha himoyani ta'minlaydigan qoidalarini bajaradi. Ushbu birliklarning hech biri alohida holda himoyani ta'minlashga qodir emas. Buning sababi shundaki, inson ongiga ta'sir o'tkazish quyidagi ikki jihatga ko'ra g'oyat mushkul sanaladi: 1) inson ongi murakkab strukturaviy-funktsional tuzilma hisoblanadi; 2) ongga ko'rsatiladigan axborot-psixologik ta'sir turlari ham murakkabdir.

Aniqroq qilib shunday deyish mumkin: faqat davlat-jamiyat himoya mexanizmi negizidagina individ o'z-o'zini himoya qilishni tashkil eta oladi. Ayni bir vaqtida shubhasizki, agar shaxs o'zida axborot immuniteti tizimini hosil qilishni xohlamasa, o'z-o'ziini muhofaza qilmasa, unga hech bir qonun yoki axloqiy yo'riqnomasi yordam bera olmaydi. Axborotlashgan zamonda shaxsga axborot yordamida ta'sir ko'rsatishning farqli jihat va o'ziga xos sifati shundan iborat.

Takrorlash uchun savollar

1. Inson – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy tizimlar asosi.
2. Insonning psixologik holati uning bilimi, tajribasi, ishonchi va moddiy farovonligiga bog'liqligi.
3. Axborot asrida ommaviy axborotni qabul qilish va uni o'zlashtirishda inson mustaqilligining oshishi.
4. Inson ongi uchun kurash geosiyosatning yo'nalishi sifatida.
5. Inson ruhiyatida onglilik va beixtiyoriy ongning nisbati va ko'rinishlari.
6. Shaxs – axborot yordamida ko'rsatilayotgan ta'sirning asosiy ob'ekti.
7. Shaxsning axborot xurujlaridan davlat va jamiyat tomonidan himoyalanishi zarurligi.
8. Shaxsning o'z-o'zini himoyalash mexanizmlari va ularni amalga oshirish yo'llari.

Seminar uchun savollar

1. Axborot asrida shaxsning axboriy mustaqilligi.
2. Shaxsga axborot-psixologik ta'sir etish yo'llarining ko'pligi va imkoniyatlari.
3. Axborot asrida shaxsga ta'sir etish yo'llari ko'pligi sababli uni axborot xurujlaridan davlat va jamiyat himoyalashi zarurligi.
4. Shaxsni himoyalash usullariga tavsif.

7-bob. AXBOROT ASRINING MAFKURASI. MILLIY MUSTAQILLIK G' OYASI – O'ZBEKISTONDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNING ASOSI

1. Mafkura tushunchasiga talqinlar. Globallashuv davrida mafkuraning o'rni va roli

Axborot sohasida kurash asosan mafkuraviy shaklda amalga oshiriladi, chunki axborot-psixologik xavfsizlikning markazida mafkura masalasi turadi. Shuning uchun yangi zamonda mafkuraning mazmuni, o'rni va ahamiyatini aniqlamasdan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlab bo'lmasligini anglab olish o'rinni bo'lardi.

Ayrim olimlar axborot asrida mafkura tugaydi deb ta'kidlaganining o'zi bir mafkuradir. Masalan, postindustrial jamiyati nazariyasining asoschisi Deniel Bell 1960 yilda "Mafkuraning intihosi" deb nomlangan kitobini chop etdi. Lekin turli mamlakatlar xalqlari, umuman kishilik jamiyati ongli inson paydo bo'lganidan beri mafkurasiz yashamagan va yasholmaydi. Xamma gap mafkura so'ziga qanday ma'no bag'ishlashda va undan qanday foydalanishda.

Mafkura tushunchasi atrofida mulohazalar ko'p. Turli davrlarda turli donishmandlar, mutafakkirlar mafkura tushunchasini turlichqa qabul qilgan va unga har xil ta'rif berishgan. Ularni umumlashtirilgan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

- ijtimoiy hayotda qadriyatlar, milliy xususiyatlar va tafakkur tarzining shakllanish jarayoni;

- konkret ijtimoiy guruh yoki sinf uchun muhim bo'lgan g'oyalar tizimi;
- hukmron hokimiyat tizimini legitimlashtiradigan g'oyaviy qurol;
- ijtimoiy manfaatlarni o'zida ifoda etgan tafakkur shakli;
- ijtimoiy zaruriyat darajasidagi illyuziya;
- e'tiqodlar tizimini muvofiqlashtiruvchi g'oyaviy faoliyat va boshqalar.

Demak, mafkura mazmun-mohiyatiga ko'ra jamiyatda ma'lum bir maqsadni ko'zlagan, jamoatchilikni unga ishontiradigan, yo'naltiradigan, safarbar etadigan g'oyalar tizimidir. Mafkura odamlar ongiga yo'naltirilgan so'zlar, ya'ni axborot uzatish yordamida amalga oshiriladi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, mafkura bir qator jamoaviy vazifalarni bajaradi. Jumladan:

- **kognitativlik** (anglash) vazifasi. Bunda mafkura ijtimoiy guruhlar yoki ma'lum bir aholi qatlami ongiga ta'sir etish yo'li bilan ilgari surilayotgan g'oya mazmunini, mohiyatini va maqsadini anglashga da'vat etadi;

- **legitimlashtirish** (e'tirof etish) vazifasi. Bunda mafkura jamiyatda mavjud siyosiy rejim yoki qoidalarning xalq tomonidan tan olinishiga va e'tirof etilishiga xizmat qiladi;

- **me'yorashtirish** vazifasi. Bunda mafkura jamoatchilikda mo'ljallarni aniq belgilash, ijtimoiy fe'l-atvor, dunyoqarash va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashning me'yoriy tartibotlarini ishlab chiqadi va targ'ib qiladi;

- **integratsiyalash** vazifasi. Bunda mafkura real ijtimoiy vaziyatda fuqarolarni birlashtirishni, maqsadlar va manfaatlar mushtarakligini ta'minlashni asosiy vazifa qilib oladi;

- **safarbarlik** vazifasi. Mo'ljallangan maqsadlar, g'oyalar va shiorlarning amalga oshishi uchun turli ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolarni birlashtirishga, safarbarlikka da'vat etishga xizmat qiladi. Ana shu tarzda mafkura jamiyatni harakatga keltiruvchi, uning istiqbolini belgilovchi muhim g'oyaviy tizim sifatida o'zini namoyon etadi.

Globallashuv jarayonida esa mafkuraning mohiyati yana ham kengayib borayapti. Chunki bugun uning ta'sir doirasi kengaymoqda va chuqurlashmoqda. Ayniqsa, axborot bozori tobora keskinlashayotgan, g'oyalar to'qnashuvi avj olayotgan, manfaatlar ustuvorligi xuruj qilayotgan bir paytda mafkura ham global mohiyat kasb etayotir.

Zotan, XXI asr insoniyat tarixining yangi davrini ochmoqda. Yangi yuz yillik va yangi ming yillik ostonasida turgan bir paytimizda jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlari keskin o'zgarayotgan va inson tafakkuri butunlay yangilanayotgan, manfaatlar umumiyligi yuz berayotgan bir davrni boshdan kechirayapmiz. Darhaqiqat, bugungi dunyoda bir xalq, mamlakat o'z hududi doirasidagina yashash bilan cheklanmaydi. Aksincha, dunyo xalqlarini manfaatlar mushtarakligi birlashtirmoqda. Har qanday "xususiy" muammo barchaga birday tegishli bo'lib qolayapti. Umumiy taqdir va umumiy istiqbol tushunchalari global mohiyat kasb etayotir.

Global mohiyatga ega bo'layotgan g'oyat zalvorli masalalar ko'payib borayapti. Bu insoniyat tarixiga va taqdiriga, buguni va istiqboliga jiddiy ta'sir etmoqda. Ayni ana shu muammolar mohiyatini qanchalik chuqur tushunsak, ma'naviy og'riq, ruhiy ozurdalik shunchalik katta tahdid solayotganini yana ham chuqurroq his etamiz. Ommaviy axborot vositalari mazkur muammolarni shu darajada ko'p targ'ib etmoqdaki, bu ba'zan g'oyat fojiali, ziddiyatlari vaziyatni vujudga keltirmoqda.

Kishilik jamiyat tarixi hech qachon XX asrdagi singari favqulodda mafkuraviy holatlarga, g'oyaviy to'qnashuvlarga va ziddiyatlarga duch kelmagan. Ayni ana shu hodisa yangi yuz yillik taqdirini, mohiyatini belgilaydigan omilga aylandi. Siyosiy tafakkur, ijtimoiy falsafa, urush va tinchlik haqidagi g'oyalar rivojlangani sari insoniyat tobora tahdid girdobiga tushib qolayapti. Xalqlar, millatlar endi bir-biridan uzoqlashib emas, bir biriga intilib yashash ehtiyoj ekanligini tushunib bormoqda. Ana shu anglash jarayonining o'zi bu qadimiy makonda umumsayyoraviy madaniyat darajasining oshib, madaniy tushunchalarning kengayib borayotganidan dalolat beradi. Ya'ni, urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga o'tish zaruriyat ekanligi tobora ko'proq namoyon bo'layotir. Ana shu jarayonda jamiyat hayotida daxldorlik tuyg'usi, ya'ni xalqlar va millatlarning madaniyatlar orqali o'zaro yaqinlashuv jarayonlari faollashmoqda. Jarayonning ijobiy tomoni shundaki, madaniyatlararo integratsiya xalqlar o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish darajasi oshishiga olib keladi. Bu o'ziga xos mafkuraviy mohiyat kasb etib, mafkuralar va aniq mo'ljallangan maqsadlar amalga oshishiga xizmat qilmoqda.

Aslini olganda, har bir millat yoki elat umuminsoniy qadriyatlarga o'ziga xos hissa qo'shamdi. Shu bilan birga har bir milliy mafkura o'z tarixiy ildizlariga tayanib, uning sarchashmalaridan bahra olib, umumtarixiy tajribalar bilan oziqlangan holda boyib boradi.

Kosmopolitizmni tushunib olish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning tobora shiddat bilan umumsayyoraviy mohiyatga ega bo'lib borayotganligi sababli umuminsoniy mafkura dunyoga kelayotganday tuyuladi. Go'yoki, milliy mafkura o'z mohiyatini yo'qotib, "chatishtirilgan", sun'iylashtirilgan holatdagi majruh qiyofaga kirmoqda. Bunday "bedavo"likdan qutulishda esa faqat milliy tafakkur, milliy ong, milliy ruh alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni ana shu muhim uchlik ustuvor bo'lgan sharoitdagina milliy va ma'naviy xaloskorlik tuyg'usi, o'z milliy qadriyatlarini himoya qilish immuniteti kuchayadi va har qanday sharoitda ham uning o'z kuch-qudratini namoyon etmog'ini hayot taqozo qiladi. Bunda milliy g'oya asosiy hal qiluvchi vosita vazifasini o'taydi.

Mafkuralar kurashi – XXI asrning eng murakkab masalalaridan biri. Bir qarashda o’z milliy qadriyatlari, an’analari va madaniyatini zo’r berib himoya qilish kishiga xuddi shovinizm, millatchilik va irqchilik kabi salbiy holatday tuyuladi. Ikkinchisi tomondan esa umuminsoniy mafkura tushunchasining tobora kengayib borayotgani millatlar va elatlarning o’ziga xosligi yo’qolishiga olib kelmoqda. Mazkur muammoni to’g’ri tushunib olish talaba uchun juda muhimdir.

Bugungi dunyoni faqat o’zaro sog’lom muloqot, o’zaro bir-birini to’g’ri tushunish madaniyati asrashi mumkin. Xuddi ana shu muloqot - bir-birini eshitish va tushunish madaniy ehtiyojga aylangan g’oyaviy-mafkuraviy hodisadir. G’oyatda kuchli qurol-yarog’lar, harbiy aslahalar va harbiy qudrat bilan zo’ravonlik qilish, qolaversa, buyuk davlatchilik shovinizmi tahdidi hozirgi zamon tsivilizatsiyasi nuqtai nazaridan ibtidoi yoki hodisaga aylandi.

Bugungi kunda mafkuraning shakli va ta’sir ko’lami tobora kengayib bormoqda. Jumladan, u o’zini madaniyat va madaniyatlararo integratsiya shaklida ham namoyon etayotir.

Hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan har qanday milliy madaniyat turli xalqlar madaniyati bilan muloqot qilishga qodir bo’lmog’i lozim. Ana shu muloqot jarayonida bir madaniyat ikkinchi bir madaniyatga ham o’z ta’sirini o’tkazadi, ham o’zi boyidi. Boshqacha aytganda, o’z madaniy qobig’idan chiqmaslik, har qanday madaniyatga qarshi turish ojizlik va notavonlikdir. Bugungi tsivilizatsiya yutuqlaridan orqada qolish qoloqlikdir. Boshqa bir madaniyatga qo’shilib ketish esa milliy tanazzuldan boshqa narsa emas. Bu millatning inqirozi bilan teng bo’lgan fofija. Ana shunday murakkab, ziddiyatli bir sharoitda o’zaro ta’sir va ergashish tuyg’usi me’yor doirasida bo’lmog’i lozim. Misol sifatida bir fakti keltiraylik. Germaniya Federativ Respublikasining oliy o’quv yurtlari har yili qabul kvotalaridan besh foizini nemis tilini bilandigan chet el fuqarolariga ajratadi va ularni o’z hisobidan o’qitadi. Sabab – nemis halqining madaniyati boshqa millatlar madaniyati bilan boyib turishi zarur ekan.

Madaniyatlararo integratsiya - dunyoni yangilashga, insoniyat tafakkurini boyitishga, uning madaniy saviyasini oshirishga katta xizmat qiladigan ulkan ijtimoiyma’naviy hodisa. Biz jahon tamaddunidan ortda qolmasligimiz kerak. Hech bo’limganda u bilan barobar yurishimiz, uning yutuqlaridan foydalana olishimiz zarur va hatto o’z yutuqlarimiz bilan zamonaviy tsivilizatsiya tajribalarini boyitishga intilmog’imiz lozim. Biroq bundan milliy xususiyatlarimizga, an’analarmizga, turmush tarzimizga zid bo’lgan madaniyatni olib kirish mumkin degan fikrga bormaslik kerak.

Madaniyatning milliy o’ziga xosligi - bu ma’lum bir millatning mohiyati, qiyofasi, uning asrlar qa’ridan etib kelgan qadriyatidir. Milliy madaniyat tushunchasi orqali biz asrlar sinovidan o’tgan, o’tmishtajribalarini o’zlashtirgan va ayni paytda hozirgi zamon madaniy tajribalar asosida o’zini boyitib borayotgan, uning yangidan-yangi qirralarini ko’rsatayotgan jarayonni tushunamiz. Bu - bevosita milliy ong, milliy tafakkur tarzi bilan bog’liq bo’lgan keng miqyosli voqelik. Ayni ana shu holat har bir millat va xalqning milliy onglilik darajasini, o’sha millat yoki xalqning tsivilizatsiyalashganlik maqomini ko’rsatadi.

Madaniyatlararo integratsiya avj olayotgan hozirgi davrda masalaning ijobjiy va salbiy tomonlari ko’zga yaqqol tashlanmoqda.

Birinchidan, ayrim katta xalqlar madaniyati tsivilizatsiya ramzi sifatida kichik xalqlar madaniyatining rivojlanishiga, ularning taraqqiy topishiga, jahon tamadduniga yaqinlashishiga yordam bermoqda. Bu, albatta, har qanday milliy madaniyat o’z ehtiyoji

nuqtai nazaridan jahon madaniyatiga intilishi orqali uning eng samarali, ijobiy jihatlarini qabul qilib, salbiy tomonlarini qabul qilishdan saqlanish kabi o'ta nozik, katta milliy madaniyatni, ma'rifatni va, tabiiy ravishda, axloqni taqozo etadi.

Ikkinchidan, esdan chiqarmaslik zarurki, katta xalqlar madaniyati kichik xalqlar madaniyatini yutib yuborishi mumkin. Ularga kuchli mafkuraviy ta'sir o'tkazib, o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini, qadriyatga aylangan urf-odatlar va an'analarini ma'lum darajada poymol etmoqda.

Uchinchidan, kichik xalqlar, jumladan, rivojlanish yo'liga chiqayotgan mamlakatlar jahon taraqqiyotidan orqada qolmaslik uchun uning yutuqlarini o'zlashtirish yo'lidan borishi tabiiy. O'z-o'zidan bunday xalqlarda jahon madaniyatiga intilish hissi kuchli bo'ladi. U qondirilishi qiyin bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Jahon tamadduni yutuqlariga ko'r-ko'rona yondashish oqibatida esa milliy o'ziga xoslik boy berilib, madaniy-ma'rifiy inqirozga yuz tutilishi mumkin. Bugungi kunda bu juda muhim muammoga aylangan. Bunday holatni bir necha shakllarda ko'rsa bo'ladi:

Siyosiy sohada: Urush va tinchlik muammosi doimiy va hamisha dolzarb masalalardan bo'lib kelgan. Dunyoni termoyadro xavfidan qutqarish, xalqlar va davlatlar o'rtasida mo''tadil siyosiy-mafkuraviy iqlimni vujudga keltirish, diniy ekstremizm, fanatizm, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, narkotik moddalar tarqalishiga chek qo'yish singari global muammolarni hal etishda, mintaqaviy mojarolarni bartaraf qilishda yuksak siyosiy madaniyat, urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga o'tish jarayonida o'ziga xos munozaralar va muzokaralar ma'naviyatini yo'lga qo'yish XXI asrning og'riqli nuqtalaridan hisoblanadi. Ushbu global masalalar yuzasidan gapirar ekan, Prezident I.A.Karimov mustaqilligimizning ikkinchi yilidayoq BMTning 48-sessiyasida so'zlagan nutqida "Dunyo mojarolarini hal etishda sharqona munosabatlar ilmini egallash zarur"¹ degan fikrni bildirgan edi. Bu bilan notiq buyuk davlatchilik shovinizmi, katta davlatlarning kichik davlatlarga tazyiqi, zo'ravonlik illatlariga barham berish, dunyo muammolarini hal etishda va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshilik sari burishda muzokaralar yo'lini tanlash, har qanday mojaroli masalalarni aql-idrok, yuksak siyosiy tafakkur va ma'naviyat orqali hal etish zarurligini ko'rsatgan edi. Bu bilan O'zbekiston davlati rahbari siyosiy maydonda mamlakatimizning sharqona axloq, odob va munosabatlar madaniyati orqali o'z siyosiy madaniyatini namoyon etgan edi.

Diniy sohada. Juhon dinlarining o'zaro integratsiyasi o'z aqidalari, diniy qoidalari va huquqiy me'yorlari doirasida faoliyat yuritgan holda, dunyoviy masalalar echimini topishga umuminsoniy qadriyatlar orqali yondashishni taqozo etadi. Dirlarning bir-birini inkor etishi, kamsitishi, bir dinning boshqa bir din ustidan hukmronlik qilishi singari illatlarga barham berishni, masalaga diniy qarashlar va e'tiqodlar turlicha bo'lgani bilan Alloh yagona ekanligi tamoyilidan kelib chiqib yondashishni talab qiladi.

Iqtisodiy sohada. Birinchidan, jahon bozorining tobora kengayib borayotganligi, rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish texnologiyalarining dunyoni zabit etayotganligi, rivojlanish yo'liga chiqqan davlatlarning ilg'or texnologiyalarga ehtiyoji oshib borayotganligi iqtisodiy qaram siyosatning vujudga kelishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Teng huquqli hamkorlik, davlatlarning katta-kichikligidan qat'i nazar, jahon hamjamiatning teng huquqli sub'ekti sifatida har tomonlama aloqalarni va hamkorlikni

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг БМТ Бош Ассамблейсининг 48-сессиясидаги маърузаси.
– Т.: "Ўзбекистон", 1993. – Б. 24.

yo'lga qo'yish, kichik davlatlar suverenitetini hurmat qilish kabi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, axloqiy kamolotni taqozo etadi.

Ikkinchidan, madaniyatlarning o'zaro ta'siri kishilik jamiyatni mohiyatini ham birmuncha o'zgartirmoqda. Rivojlangan davlatlar zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining taraqqiyot yo'liga chiqib olayotgan davlatlarga kirib kelayotgani faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy hodisa emas. Bu ayni paytda odamlar tasavvuri va tafakkurini o'zgartirib yuboradigan, yangicha qarashlarni keltirib chiqaradigan voqelik bo'lib, yalpi jahon ishlab chiqarish maydonining vujudga kelayotganidan, hamma uchun umumiyl bo'lган ulkan "xonardon" shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga milliy madaniyat bilan jahon madaniyati uyg'unlashib borayotganini ham ko'rsatadi. Demak, hayotimizga ilg'or texnologiyalar bilan birga yangicha qarashlar va o'ziga xos madaniyat ham kirib keladiki, ular ta'sirida milliy madaniyatlar ma'lum darajada o'z qiyofasi va mazmunini o'zgartirishi mumkin.

Ijtimoiy sohada. Davlatlararo hamkorlik, rivojlanayotgan mamlakatlarga beriladigan yordam eng avvalo beg'arazlik mohiyatini yorqin namoyon etmog'i lozim. Turli qo'poruvchilik harakatlari, manfaatlar ustuvorligi, ijtimoiy yordam niqobidagi buzg'unchilik kayfiyatlaridan xoli bo'lган chinakam do'stlik va sog'lom manfaatdorlikka asoslangan hamkorlik yo'lga qo'yilmog'i kerak.

Madaniyatlararo integratsiya eng avvalo ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy mezonlar, umuminsoniy qadriyatlar o'lchovlari va tan olingen me'yorlar asosida qurilmog'i lozim. Aks holda katta xalqlar ruhiyatida milliy xudbinlik, milliy kalondimog'lik, milliy manmanlik va asta-sekinlik bilan dunyo madaniyatiga egalik qilish illatlari xuruj qilib qolishi mumkin. Bu ayni paytda o'zining ayrim salbiy jihatlarini namoyon etmoqda. Xususan, hozirgi zamon tsivilizatsiyasi nuqtai nazaridan kichik xalqlar va davlatlarni urush, qon to'kish yo'li bilan emas, asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich milliy o'zligidan ayirish, milliy an'analariga va urf-odatlariga zarba berib, ularning tarixiy ildizlarini qirqish tendentsiyasi ustuvorlik qilayotir. Bunga jahon axborot bozori tobora kengayishda davom etayotganligi, xususan Internet tizimi rivojlanib borayotganligi, bir jihatdan, hozirgi zamon tsivilizatsiyasining nodir va mo'jizakor yutug'i bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, buzg'unchi g'oyalar, tajovuzkor mafkuralar osonlik bilan kirib kelishiga yo'l ochib berayotgan, o'z tarixi va madaniyatiga ega bo'lган xalqlar va millatlar fikrini chalg'itayotgan qudratli vositaga aylanib bormoqda.

Ayrim mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat tashkilotlar o'z nizom va dasturi doirasidan chiqib ketib, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ishlar bilan shug'ullanayotgani, fuqarolar fikrini chalg'itib, barqaror turmush tarziga raxna solayotgani ma'lum bo'lib qolayapti. Bunday g'oyaviy qo'poruvchiliklarning oldini olish uchun vaziyat mahalliy jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va harakatlar faoliyatini jiddiy ravishda kuchaytirishni taqozo etmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda to'rtta siyosiy partiya, besh mingdan ortiq jamoat tashkiloti, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati samarali faoliyat ko'rsatayotgani tufayli mamlakatimizda bunday salbiy oqibatlarga chek quyilayotir. Ular o'z nizomi va dasturida belgilangan vazifalarini bajarishda mavjud tajribalarni boyitib, jamiyatda yakdillik va hamjihatlikni ta'minlashda ishtirok etishayapti.

Mafkuralar qarama-qarshiligi xususida gapirar ekanmiz, turli madaniyatlar, urf-odatlar, xususan, kiyinish, o'zaro muomala madaniyati va, ayniqsa, qo'shiqchilik san'atining odamlar hissiyotiga tez ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini jiddiy nazarda tutish va nazorat qilish lozim. Chunki inson tabiatan qanchalik axloqli, tarbiyali bo'lmasin, u

engiltaklikka, engil yashashga, rohat-farog'atga moyil jonzot. Chunki xuddi ana shu moyillik fazilatlar rivojlanishidan ko'ra illatlar avj olishini engillashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Aslida, mening nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch - bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi. Afsus bilan ta'kidlash lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya'ni xatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq"¹, - deganida, jumladan, inson fenomenidagi ana shu illatlarini ham nazarda tutgan edi. Demak, ushbu haqiqatdan kelib chiqib aytish mumkinki, Forobiy, Beruniy, Shekspir, Navoiy, Gyote, Pushkin va Boburlarni tarbiyalab etkazishdan ko'ra Ben Laden, Shomil Basaev va Tohir Yo'ldoshlarni etishtirish osonroq. Inson qonidagi xudbinlik, manfaatparastlik, engil yashashga ishtiyoqmandlik, jonini koyitmasdan farovon yashashga ehtiyojning kattaligi, qanday g'oya va maqsad yo'lida bo'lmasin, tekin keladigan boylikka tez sotilish imkonini beradi. Insonning ana shu fojiaviy qismatidan kelib chiqib aytish mumkinki, har qanday erkin, demokratik jamiyatda inson qanchalik ozod va hur yashamasin, u ma'naviy-axloqiy me'yorlar, qonun belgilab bergen chegara doirasidagina ozod va daxlsiz bo'lishi mumkin. Bu bugungi dunyo ma'rifatini, madaniyatini belgilaydigan ulkan qadriyatdir.

Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayat va tarixiy jarayon mohiyatini keskin o'zgartirib yuborayapti. Bu borada, ayniqsa, "sariq matbuot" deb ataladigan xususiy nashrlar bugun alohida mavqe egallamoqda. Mayda, ikir-chikir, g'iybatnamo xabarlar bilan to'lib-toshgan bu nashrlar vositasida odamlarni fikrlashdan, mushohada yuritishdan to'xtatib qo'yib, ular ongini engil-elpi ma'lumotlar bilan band etish jarayoni tobora chuqurlashib borayapti. Qaysidir mashhur xonandaning oilaviy mojarolari, boyliklari va yashash tarzi, boshqa bir ashulachining qanday kliplar yaratayotganiyu ularni qay tarzda namoyish etishi haqidagi xabarlar gazetxonlarni mayda fikrlaydigan ojiz kishiga aylantirib qo'yishi mumkinligi bilan birga yaxlit jamiyatni ommaviy savodsizlikka da'vat etishdek g'oyat xatarli vazifani bajarmoqda.

Biz demokratik tamoyillarni tobora chuqurlashtirib borish, uning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarurligi xususida gapiramiz. Bu hozirgi zamon jahon tamadduni talabidir. Erkin jamiyat, ozod va hur inson turmush tarzini vujudga keltirish – strategik maqsadlarimiz. So'z va fikr erkinligi hamisha biz uchun ehtiyoj bo'lib kelgan. Ana shu ehtiyoj da'vati bilan matbuotni erkinlashtirishga, so'z va fikr erkinligini ta'minlashga intilamiz.

Albatta, so'z va fikr erkinligi turmush tarzimizga aylanib borayapti. Bu – jamiyatimiz ma'naviy qiyoqasini, insonning ijtimoiy hodisa sifatidagi qadriyat ekanligini ko'rsatadigan buyuk voqelik. Biroq ana shu erkinlik uchun, aytilayotgan so'z, bildirilayotgan fikr, ilgari surilayotgan g'oya uchun javobgarlik kimning zimmasida? Bu so'zlar, fikrlar jamiyat taraqqiyotiga qay daraja daxldor? Umummilliy manfaatlarga xizmat qiladimi? Millatni jaholatga, yalpi savodsizlikka, xurofotga da'vat etish demokratiyaning buyuk qadriyat sifatidagi mohiyatini tushirib yubormaydimi?

Tabiiy ravishda kelib chiqadigan bunday savollarni ba'zan unutib qo'yamiz. Vaholanki, erkinlikni his qilish, ozodlikni tushunish hamda demokratiyani anglashdan oldin unga qay darajada ma'naviy-axloqiy jihatdan tayyor ekanligimizni hisobga

¹ Каримов И.А. Миллий истиқол мафкураси – ҳаёт эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. "Фидокор" газетаси мухбири саволларига жавоблар. // «Фидокор». 2000. 4 июнь.

olmaymiz. Natijada ozodlik va demokratiya milliy madaniyat ravnaqiga to'siqlik qilishi mumkin bo'lgan g'oyatda xavfli hodisaga aylanadi.

San'at sohasida. Ma'lumki, har qanday san'at asari - millat ruhining ko'zgusi, qalb tug'yonlari va his-tuyg'ularining ifodasi. U ayni ana shu jihat bilan ham qadriyatga aylanadi. Qadriyatlar esa hamma vaqt moddiyatdan ustun turadi, muqaddas hisoblanadi. Afsuski, bugun qo'shiqchilik san'ati moddiy ehtiyojlar mezoniga, nafsni qondirish omiliga aylandi. Avj olib ketayotgan "shou-biznes" tadbirkorlikning har qanday shaklidan ko'ra serdaromad, soliq to'lanmaydigan mo'may daromad manbai bo'lib qoldi. Bozorlarda, gavjum joylarda turli-tuman behayo kassetalar va diskrlarning sotilayotganligi etarli darajada nazorat qilinmayapti. Beyuzlik, andishasizlik, qo'nimsiz turmush tarzi ayrim paytlari fazilatga aylanib bormoqda. Achinarlisi shundaki, ayni ana shu yo'lni tanlaganlar o'zlarini millat timsoli, qadriyatlar ramzi sifatida ko'rsatishadi. Yoshlar esa ommaviy tarzda ularga ergashmoqda.

Taniqli rus shoiri Evgeniy Evtushenko bir paytlar reklamalar, kliplar va san'atdagi tutruqsizlik haqida iztirob bilan gapirgan edi. "Tabiat zilzilalar, qo'rqinchli suv toshqinlari bilan bizni qo'rquitadi. Biroq bu qo'rquv gazeta va jurnallar, televiedenie orqali yopirilib kelayotgan majruh reklamalar tahdidi oldida hech narsa emas. Har qanday reklama falsafadan mahrum odam falsafasiga aylandi. Kliplar esa sayyoramizning bosh imjmeykeri maqomini egalladi. Bugun Maykl Jekson Shekspirdan ko'ra mashhur. Rossiya yoshlari orasida pop qo'shiqchi Kirkorovning mashhurligidan ham oshib ketdi"¹, - degan edi u afsus va nadomat bilan. Bu iztirobli dil izhori tagida milliy dard, milliy armon, ayni paytda achchiq haqiqat yotadi.

Televiedenie orqali ketma-ket berilayotgan be'mani qo'shiqlar, yarim-yalang'och raqlar, o'g'rincha musiqalar engiltak, axloqsiz hayotni targ'ib qilish vositasiga aylanmoqda. Bu, ayniqsa, aholisining qariyb 64 foizini 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadigan O'zbekistonday mamlakatda g'oyat xatarli, millat istiqboliga tahdid soluvchi hodisadir.

Balki, bugungi milliy estradamiz "eksperiment"lari allakimlar uchun zarurdir. Umuman olganda, har qanday taraqqiyot tajribalar asosida quriladi, ular tufayli takomillashib, qadriyatga aylanadi. Biroq bunday tajribalar dastlab ayni ana shu yo'nalish ishqibozlari to'plangan joyda, maxsus auditoriyada sinovdan o'tkazilishi, ommaviy minbarlarni egallab olib, bir necha ming yillik an'analarimizni, madaniyatimizni, san'atimizni oyoqosti qilmasligi kerak.

O'ylab ko'radigan bo'lsa, g'oyaviy terrorchilik, g'oyaviy kamikadzelik holatlari haqida ko'p gapiriladi. Va bunga ehtiyoj ham bor. Chunki bugungi dunyo ayni ana shu tajovuzkor hodisalardan iborat va bulardan jabr ko'rmoqda. Ma'lum darajada buyuk qadriyatlar toptalayotir. Insoniyat ma'naviyati, ruhiy dunyosiga misli ko'rilmagan tahdid solinmoqda. Biroq jismoniy harakat, fe'l-atvor va intilishlar bilan bog'liq bo'lgan, qandaydir manfaatlarni o'zida mujassam etgan bunday holatlarga yuksak madaniyat, ma'rifat, axloq-odob qaysidir darajada qarshi turishi, ularga chek qo'yishi, kerakli zarba berishi ham mumkindir. Qaysidir hududda qanchadir odamlarning ruhiy hayotiga zomin bo'ladigan bunday g'ayriinsoniy hodisalarning oldini olish imkonibordir. Lekin butun millatni o'z tarixidan, madaniy merosidan ayirib, insoniyat hayotiga

¹ Евтушенко Е. Интеллигенция всех стран, соединяйтесь! // "Центральная Азия и культура мира". – Бишкек. 1977. №2-3. – Б. 53-54.

ma'rifat olib kirgan qadriyatlarni izdan chiqarish, milliy an'analari va madaniyatni buzib yuborish orqali tanazzulga undashdek madaniy-mafkuraviy terror o'rnini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydi. Ana shunday ma'naviy-mafkuraviy xurujlardan millatni, jamiyatni asraydigan yagona qudratli kuch – milliy g'oya, milliy istiqlol mafkurasidir.

2. Axborot asri mafkurasining asosiy jihatlari

Axborot sohasining tez sur'atlар bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining shiddat bilan rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishiga va kishilik hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirishga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, bugungi kunda g'oyatda tezkorlik bilan o'sib borayotgan “axborotlashgan jamiyat“ yoki “axborot jamiyati” nazariyasini maydonga keltirdi.

Kompyuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ydi. Shu bilan birga axborot olish, uni ishslash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyot sur'atlari jiddiy tashvishlar tug'dirmoqda. Chunki hozirgi zamon kompyuterlari eng so'nggi avlodining har biri protsessorida 80-100 million tranzistor bo'lib, har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo'jizasi tufayli xohlagan kishi Er yuzining istalgan nuqtasidagi odam bilan soniyalarda aloqa o'rnatishi, muammoni lahzalarda hal etishi mumkin. Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiy me'yorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda esa yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ma'lum bir mafkura yordamida ifoda etadi. Boshqacha aytganda, XXI asr tsivilizatsiyasi ma'lum darajada axborot xuruji, jumladan, axborot-psixologik urushi qiyofasida namoyon etmoqda.

Insoniyatning keljakdagagi taqdiri va istiqboli xususida o'ylar ekanmiz, axborot texnologiyasining mohiyati, taraqqiyoti, inson va insoniyat hayotiga ta'sir o'tkazishi kabi omillarni hamda bugungi kun mafkurasini chuqur o'rganishimiz lozim bo'ladi. Bu omillar quyidagilarda ko'rindi:

Birinchidan, inson faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish, yo'naltirish, umumi manfaat atrofida birlashtirish, jamoa va jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, insoniyat hayotini saqlashda mas'ullik, unga taqdirdoshlik hissini shakllantirish.

Ikkinchidan, turli fe'l-atvorga, tabiatga ega bo'lgan, o'z manfaati ustuvorligiga intilayotgan siyosiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash. Davlatlararo va mintaqalararo munosabatlarda bir-biridan qochish emas, bir-biriga intilish kayfiyatini yaratish, jahon muammolarini hal etishda sog'lom g'oyalarga tan berish ruhiyatini shakllantirish.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti cheksiz darajada rivojlanayotgan bir paytda uning keng imkoniyatlarini umumi taraqqiyot yo'liga safarbar etish kayfiyatining ustuvorligini ta'minlash. Aks holda g'ayriaxloqiy va g'ayriinsoniy kayfiyatdagi fuqaro qudratli texnologiyalarni jamiyat ravnaqiga zid bo'lgan g'oyat xatarli maqsadni amalga oshirishga ishlatishi mumkin. Bu, ayniqsa, xalqaro terrorizm, narkobiznes, diniy ekstremizm singari global fojialarni boshqarishda, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni chalkashtirishda, bank, moliya-kredit tizimini izdan chiqarishga xizmat qilishining ehtimoli ham katta.

To'rtinchidan, axborot texnologiyalarining beqiyos imkoniyatlarini, ulkan qudratini to'la-to'kis inson hayotiga tatbiq etishni, inson taqdiriga xizmat qildirishni ta'minlaydigan eng zamonaviy va samarali boshqaruv mexanizmini iqtisodiy, ijtimoiy,

ma'naviy, ruhiy va siyosiy sohalarda yuksak madaniyat bilan unumli foydalanish asosida tashkil etish.

Ma'lumki, har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazari, qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi, o'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli darajasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib o'ziga mos mafkurani qabul qiladi, uni tahlil etadi, uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi va ana shu tahlillar asosida shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada u yoki bu tarzdagi o'z nuqtai nazarini shakllantiradi.

Demak, har qanday mafkuraning mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararli bo'lishi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan "shaxs-jamiyat-davlat" mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning roli yana ham oshadi.

Jamiyatni boshqarish bugungi muammolari hozirgi zamon me'yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zaruriyatini keltirib chiqardi. Jumladan, siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik hamda mafkura tizimini boshqarish kabi qator bir-biriga uzviy bog'liq yo'nalishlarda boshqaruvning eng maqbul uslubini topishni, bevosita hokimiyat va unga ishonchni, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlashda fuqarolar yakdilligini, ma'naviy va g'oyaviy birligini ta'minlashni taqozo qilmoqda.

Jamiyat shu darajada shakllanishi lozimki, uning a'zolari tig'iz axborotlar bozoridan butun millat manfaatiga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan mafkurani tanlay olsin. Axborot olish kafolati bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummiliy manfaatga daxldor bo'lgan qadriyatga aylanmog'i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi mafkurani tarqatishni man etishning, jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta'sir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo'ravonlik va urushni targ'ib qiluvchi, pornografiya, maishiy buzuqlik, shaxslar mavqeい, obro'si va sha'niga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak ma'naviyatga tayangan ma'naviy-ruhiy me'yorlari vujudga keladi.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ana shu tarzda ma'naviy-axloqiy mezonga aylanadi. Erkin shaxs va ozod kishilar jamoasi bo'lgan fuqarolik jamiyat sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikning o'ziga xos tizimlari shakllanmog'i lozim. Bu bevosita OAV faoliyatiga va unda xizmat qiladigan axborot oluvchi, saqllovchi va tarqatuvchi xodimlarning siyosiy saviyasiga, kasb mahoratiga va eng muhimi – ularning mafkurasiga, fuqarolik pozitsiyasiga, jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usiga bog'liq. Zotan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning bosh mezoni va asosiy tayanchi – millatparvarlik, vatanparvarlik, fidokorlik tuyg'usidir.

Albatta, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos asoslari bor. Bular:

Birinchidan, tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlanganlik, ya'ni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan etarli darajada qurollanish.

Ikkinchidan, mustahkam moddiy-moliyaviy asoslarga ega bo'lish. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan soha xodimlari moddiy manfaatdorligini oshirish.

Uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalarini boshqaradigan, undan samarali foydalana oladigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, har tomonlama keng fikrlaydigan qobiliyatli kadrlarni tayyorlash.

Demak, axborot xuruji tobora avj olib borayotgan, yakka tartibda har bir fuqaro, har bir inson ongiga kuchli ta'sir o'tkazayotgan, keng miqyosda olganda, jamiyat taraqqiyoti va millat taqdirini hal qila biladigan, global miqyosda esa – butun insoniyat hayotini kafolatlashga, uning taraqqiyoti yoki tanazzulini belgilashga qodir bo'lgan tig'iz axborot tizimini boshqarish, tartibga solish, undan foydalanish me'yorlarini ishlab chiqish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biridir.

3. Milliy mafkura –o'zbekistonliklar yangicha dunyoqarashining asosi

Insoniyat axborot oqimi tobora tezlashayotgan, Er shari aholisining kayfiyati, ruhiyatini, maqsad va intilishlarini, qolaversa, butun tafakkur tarzini o'zgartirishga qodir bo'lgan axborot texnologiyasi vujudga kelgan bir davrda yashamoqda. Bu - hozirgi zamon tamaddunining o'ziga xos yutug'i. Xalqlar, mamlakatlar, davlatlar o'zaro munosabatlarini tobora yaqinlashtirishga, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini boshqarishga, dunyoviy kayfiyat, dunyoviy ruhiyat va maslakning vujudga kelishiga xizmat qiladigan mo''jizakor hodisa.

Biroq tsivilizatsiyaning ana shunday ulkan, keng miqyosli va serqirra yutug'idan kim qanday maqsadlarda foydalanayapti? Uning beqiyos va qudratli kuchini nimalarga ishlatayapti? – degan haqli savollar ham muammoga aylanmoqda.

Umuman olganda, insoniyat tafakkuri kengayib, fan-texnika taraqqiyoti jadallashgani sayin insoniyat o'zining buyuk yaratuvchilik qudratini namoyon etmoqda. Shu bilan birga o'zining boshini o'zi og'ritadigan, o'z hayotiga o'zi tahdid soladigan, o'z istiqbolini mavhumlashtiradigan holatlarga ham duch kelmoqda.

Kompyuterlarning paydo bo'lisi esa butun Er sharini yagona axborot makoniga aylantirdiki, natijada har bir mamlakat taqdiri bilan ham, butun dunyo taqdiri bilan ham bog'liq bo'lgan voqelik yuzaga keldi.

Bugun O'zbekiston ana shu yagona axborot tizimining faol sub'ektiga aylandi. Uning dunyo bilan aloqasi, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi ishtiroki, davlatlararo munosabatlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy aloqalari umumjahon axborot tizimi tarkibida amalga oshirilmoqda. Bu bevosita elektron pochta, elektron axborot almashish tizimi orqali ham milliy, ham dunyoviy muammolarni hal qilish borasidagi faoliyat samaradorligini oshirishda, vaqtini tejashda, moliyaviy xarajatlarning keskin kamayishida, qolaversa, zamonaviy axborot almashish salohiyatini namoyon qilishda yaxshi natija bermoqda.

Biroq bu jarayon bir qator muammolardan xoli emas. Jumladan, jahon axborot tizimidan etarli foydalanilmayotganligi, Internet tizimining kerakli darajada rivojlanmaganligi va qo'llanish darajasi pastligi ko'zga tashlanayotir.

Ammo masalaning ikkinchi, bundan ham muhim tomoni ham bor. Bu bevosita axborot bozoriga murojaat qilganda qanday axborotlarni qabul qilish, qanday axborotlardan foydalanish borasidagi salohiyatni ham taqozo etmoqda. Chunki bozorning oddiy haqiqati shundaki, har kim topganini savdoga chiqaradi. Sifati, mazasi, rangi, ta'mi yoki foydasiga qarab tanlash xaridorning ixtiyorida. Ana shu hayotiy qonuniyat nuqtai nazaridan qaraganimizda, jahon axborot bozorida bizning manfaatlarimizga zid bo'lgan, milliy xususiyatlarimizni, an'analarimiz, turmush tarzimizni mensimaydigan axborotlar ham xuruj qilib, hayotimizga shiddat bilan kirib

kelmoqda. Bu o’z-o’zidan axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlash muammosini ko’ndalang quydi.

Hozirgi zamон axborot tizimining judа keng imkoniyatlarini hisobga olgan holda aytish mumkinki, O’zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishni umummilly manfaat va umummilly taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqarish mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo’lib qoldi. Ana shu hayotiy ehtiyoj nuqtai nazaridan axborot sohasida axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini yaratishning quyidagi usullarini qo’llash zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, **sotsiologik yo’nalish**. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotida axborotning ijtimoiy voqelik sifatidagi rolidan kelib chiqib, jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy ong yo’nalishlari, ijtimoiy tafakkur darajasi va oqimlarini o’rganishni yo’lga quyish, aholi turli qatlamlarining qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikrlash tarzini aniqlab borish zarur.

Ikkinchidan, **statistik yo’nalish**. Ko’pmillatli mamlakatda, xususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko’rsatayotgan O’zbekistonda millatlararo va dinlararo mojarolarni, turli siyosiy manfaatlar va buzg’unchi g’oyalar ta’sirida kelib chiqishi mumkin bo’lgan siyosiy nizolarni o’rganib borish. Bu borada aniq hisob-kitoblarga, tahliliy echimlarga ega bo’lishi darkor.

Uchinchidan, **siyosiy konfliktlogiya va siyosiy psixologiya**. Axborot-psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg’unchi g’oyalar inson ongi va tafakkuriga o’z ta’sirini o’tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojarolar kelib chiqishi ehtimol bo’lgan manbalarni o’rganish, omillarni aniqlash hamda buning natijasida jamiyatda shakllanishi mumkin bo’lgan jamoatchilik fikri, siyosiy qarashlar, ruhiyat – ijtimoiy-siyosiy psixologiya izchil ravishda o’rganib borilmog’i lozim.

To’rtinchidan, **mantiqiy-tizimi va funktional tahlil**. Axborot tizimi, xususan, axborot-psixologik ta’sir axborot siyosati tizimi va vositasining muhim qismi sifatida baholanishi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy-tahliliy, nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig’iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta’sirida shakllanayotgan ijtimoiy fikrni fan nuqtai nazaridan izchil o’rganish, uning predmeti va metodologiyasini ishlab chiqish muhim bo’lib qoldi.

Beshinchidan, **axborot tizimida milliy istiqlol g’oyasining ustuvorligi**. Har qanday fuqaro axborot bozoridan “mahsulot” tanlash jarayonida uning qalbida, ruhiyati, kayfiyati, fe’l-atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi xatti-harakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini ta’minlash lozim.

Albatta, O’zbekistonda mustaqillikning o’tgan yillari mobaynida ommaviy axborot kommunikatsiyasi sohasida jiddiy o’zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo, har bir fuqaroning so’z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya va tegishli qonunlar bilan kafolatlandi. Ommaviy axborot vositalari to’g’risida bir qator qonunlar yaratildi va amalda qo’llanilmoqda. Mustaqil nashrlar soni keskin ko’paydi. Bularning hammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o’ziga xos taraqqiyotidan dalolat beradi.

Shu bilan birga O’zbekiston jahon axborot tizimidan foydalanishning eng zamonaviy va tezkor texnologiyasini joriy etmoqda. Bu nafaqat davlat va hokimiyatning, rasmiy idoralarning, balki nodavlat-notijorat tashkilotlar, hatto alohida fuqarolarning dunyo axborot bozoriga emin-erkin kirishi va undan bemalol foydalanishiga imkon beradi.

Hozirgi zamon axborot tizimida shunday hodisalar mavjudki, unga qarshi chiqish u yoqda tursin, uni boshqarish, tartibga solish ham mumkin bo'lmay qolmoqda. Demak, bunday sharoitda eng maqbul va samarali usullarni ishlab chiqish zarur. Jumladan:

Birinchidan, jamoatchilik fikrini o'zgartirayotgan, chalg'itayotgan vayronkor axborotlar tashqaridan, o'ziga xos himoya qalqoniga ega bo'lgan makonlardan kelayotganligini nazarda tutib, axborot tarqatish borasidagi mojarolarga yo'l quymay, ularga yuksak siyosiy va kasbiy madaniyat orqali yondashish. Befarqlik, sukut saqlash kayfiyatiga barham berib, milliy oriyat, milliy nafsoniyat bilan bog'liq holdagi targ'ibotchilik imkoniyatimizni namoyon etish yo'lidan borish.

Ikkinchidan, shuni nazarda tutish kerakki, har qanday hujumkor va buzg'unchi g'oyaga qarshi o'z vaqtida, mo'ljalni aniq olib munosabat bildirishda ehtiroslarga berilmasdan, ortiqcha shov-shuvlarga yo'l quymasdan, siyosiy vazminlik va bosiqlik bilan, ayni paytda kuchli ta'sir o'tkazish usullarini o'zlashtirmoq lozim.

Axborot sohasidagi xurujlar qizg'in avj olgan bir paytda ularning mohiyatini, manbalari, rivojlanish omillarini, ya'ni konfliktogen jihatlarini chuqur o'rganish lozim. Buzg'unchi va hujumkor axborotlar maqsadi, iddaosi, ular tagida yashiringan manfaatlar qanchalik to'g'ri va to'liq o'rganilsa, ularga shunchalik mutanosib va ishonchli zarba berish mumkin bo'ladi.

XXI asr tsvilizatsiyasi oqibatida insoniyat o'z hayotiga axborot-psixologik tahdid kuchayayotgan jarayonni boshdan kechirmoqda. Bu, ayniqla, rivojlanish yo'liga chiqib olgan O'zbekistonday yosh mustaqil davlatlarga kuchli salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Chunki har qanday asossiz, buzg'unchi g'oya o'tish davriga xos bo'lgan juz'iy kamchiliklar va o'tkinchi ijtimoiy-iqtisodiy nuqsonlarni bo'rttirib ko'rsatib, jamoatchilik fikrini chalg'itishi, uning istiqbolga ishonchini susaytirib yuborishi mumkin.

Millatlarni yo'qqa chaqarish, ularning ildizini qirqib tashlash, milliy xususiyatlari, an'analari va urf-odatlarini barbod etish yo'li bilan mamlakatlarni zabit etish odatiy jarayonga aylandi. Bunday maqsadni amalga oshirishda axborot tizimidan foydalanish keng avj olib bormoqda. Mustaqil O'zbekiston esa ana shu jarayonda o'zining yangidan-yangi imkoniyatlarini, aqliy salohiyatini, o'z-o'ziini himoya qilish va har qanday tajovuzlarga qarshi tura olish iqtidorini namoyon etmoqda. Biroq bu etarli emas. Aniq natijalarga erishish uchun quyidagilarga mafkuraviy xususiyatlarga e'tibor berish lozim, deb o'yaymiz:

- insonni shaxs va fuqaro sifatida shakllantirish, uning imkoniyatlarini ruyobga chiqarish;
- insonning o'zini-o'zi himoya qila olish instinktini, o'zini-o'zi boshqarish salohiyatini shakllantirish;
- alohida odamlar, guruqlar, qatlamlararo munosabatlarni yana ham barqarorlashtirish;
- jamoalar birligini, umumiylar – yaxlit mamlakat taqdiri uchun javobgarlik hissini kuchaytirish;
- millatidan va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarosi bo'lgan har bir shaxsning kelajak uchun mas'ulligini ta'minlash;
- kelib chiqishi mumkin bo'lgan mojarolar, kelishmovchiliklarning asoslari, yo'nalishlari, rivojlanish omillari va dinamikasini doimiy, uzlucksiz ravishda o'rganib borish va ularni oldini olish.

Ana shu tarzda, albatta, axborot sohasida xavfsizlikni ta'minlashning O'zbekiston tajribasi takomillashib boradi. Bu bevosita axborot xuruji avj olayotgan, axborot tarqatish texnologiyalari tobora takomillashib, uning usul va uslublari yangilanib borayotgan bir paytda mamlakatimiz ayni ana shu madaniy jarayonning eng samarali, insonparvar usullaridan yanada kengroq foydalanish imkoniyatlarini qidirayotganligini ko'rsatadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Axborot asrida mafkuraning o'rni va ahamiyati.
2. Axborot davri mafkurasining xususiyatlari.
3. Milliy mafkuraning milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishdagi o'rni va ahamiyati.
4. Kosmopolitizm mafkurasiga tavsif.
5. Ijtimoiy gedonizm mafkura sifatida.
6. Milliy istiqlol g'oyasining falsafiy, dunyoviy va ijtimoiy negizlari.
7. Milliy istiqlol g'oyasida umuminsoniy va milliy qadriyatlar nisbati.
8. O'zbekiston milliy istiqlol g'oyasining yutuqlari va istiqbollari.

Seminar uchun savollar

1. Globallashuv davrida mafkuraning o'rni va ahamiyati, mavqeい o'zgarishi.
2. Kosmopolitizm va gedonizm zamonaviy mafkuralar sifatida.
3. O'zbekistonda fuqarolik institutlari rivojlanishining xususiyatlari.
4. Milliy istiqlol g'oyasi – axborot tajovuzlardan himoyalanish mafkurasi.

8-bob. O'ZBEKISTON OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI - MAMLAKAT AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINING OMILI

1. Milliy jurnalistika yangi bosqichda

Axborot asri deb nom olgan davrda mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tez rivojiana boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu haqda shunday deydi: "Haqiqatan ham, shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamonda ommaviy axborot vositalarining faoliyat ko'lami, inson va jamiyat hayotiga ta'siri misli ko'rilmagan darajada kuchayib bormoqda. Bugungi kunda axborot nafaqat ma'lumot etkazish, odamlarni yangilik va o'zgarishlar bilan tanishtirish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda, ayni vaqtida axborot va kommunikatsiya tarmog'i amalda ishlab chiqarishning etakchi yo'nalishlaridan biriga, moddiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning rivoji va o'sishiga hal qiluvchi asos va turki beradigan, tez rivojlanayotgan eng zamonaviy sohaga aylanib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz"¹.

Insoniyat tarixi uchinchi ming yilligining boshi axborotlashgan jamiyat ostonasiga qadam qo'yilishi bilan nishonlandi. Hozirda barcha taraqqiy etgan mamlakatlardagi har bir xonodon axborot olish va uzatish uchun turli texnikaviy vositalar – radio, televizor, telefon, faks, mobil telefon, kompyuterlar, ko'rish apparatlari va hokazolarga ega ekanligi buning yorqin dalilidir. Vaholanki, bunday narsalarni yaqin o'tmishda ixtisoslashgan studiyalarda ham uchratish qiyin edi. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi ham shunday imkoniyatlarga ega bo'lmoqda.

Axborotlashtirish jarayoni AQShda mehnat bilan band aholining 60% axborot sohasida mashg'ul bo'lishini ta'minlagan bo'lsa, qishloq ho'jaligida bu ko'rsatgich

¹ Магбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига. Ўзбекистон Президенти И.А. Каримовнинг табриги, 2012 йил. 28 июнь // "Халқ сўзи". 2012. 29 июнь.

atigi 2,8 % ga teng². G'arbiy Evropa axborot industriyasida esa 70 % dan 75 % gacha aholi band³ .

Axborotlashgan jamiyat yangicha fikrlashni, muloqotning yangicha shakllarini yuzaga chiqaradi, shunga muvofiq ravishda yangicha ijtimoiy va psixologik munosabatlar paydo bo'ladi. Bu insonning hayotiy faoliyati sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi deganidir.

Bredford universiteti (Buyuk Britaniya) professori D. Layon fikricha, axborotlashgan jamiyatga quyidagilar xosdir:

- texnika sohasida – axborot texnologiyalarining ishlab chiqarish, iqtisodiy va amaliy hayotning barcha sohalariga, shuningdek ta'lim tizimiga va maishiy turmushga tatbiq etilishi;

- ijtimoiy sohada - axborot ta'sirida yangi axboriy ong shakllanishi, hayotning sifat jihatidan o'zgarishi;

- iqtisodiy sohada - axborot tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning asosiy omiliga aylanishi, qo'shilgan qiymat va bandlik manbai bo'lishi;

- siyosiy sohada - fikrlar xilma-xilligi va demokratiya tamoyillarini amalga oshirishni ta'minlovchi siyosiy jarayonning asosi hisoblanmish ma'lumotlarni qo'lga kiritish erkinligi;

- madaniy sohada – har qaysi individning rivojlanish ehtiyojlariga javob bera oladigan tegishli me'yor va qadriyatlarning shakllantirilishi.

Ta'lim, fan, ommaviy muloqot, axborot xizmatlari va axborot qurilmalariga xizmat ko'rsatish axboriy faoliyatning muhim sohalari hisoblanadi¹.

Mutaxassislar aholi turmush farovonligi yuksalgan, mamlakat samarali rivojlangan iqtisodga ega bo'lgan, shuningdek jamiyat amalda insonparvarlik tabiatini kasb etgan va demokratlashgan holdagina, axborotlashgan jamiyatni barpo etish mumkin, deb hisoblaydilar. Boshqaruvning tadbirkorlik va raqobat erkinligini monopoliyadan xalos qilish uchun, axborot ishlab chiqish va tarqatish, qarorlar qabul qilishda fuqarolar qatnashuvi uchun siyosiy va huquqiy kafolatlarni ta'minlovchi demokratik mexanizmlari bunga yordam beradi¹.

“Axborotlashgan jamiyat” atamasi dastlab o'tgan asrning 60-yillari ikkinchi yarmida Yaponiyada qo'llana boshladi, axborotlashgan jamiyat yaratish g'oyasi esa 1971 yilda ishlab chiqildi. “Axborotlashgan jamiyat barpo etish rejasi - 2000 yilga mo'ljallangan milliy maqsad” deb nomlangan hujjatda mazkur g'oya aniqlashtirib berildi. Uning asosini shunday fikr tashkil etdiki, ijtimoiy evolyutsiyaning pirovard maqsadi, birinchi navbatda, insonning mo'l-ko'l moddiy ne'matlarga egaligini emas, balki uning aqliy imkoniyatlari to'liq namoyon bo'lismeni ta'minlovchi jamiyat bo'lishi lozim. Aqliy qobiliyatni rivojlantirish texnologiyalarni sifat jihatdan takomillashtirishga olib kelib, pirovard natijada moddiy ne'matlar mo'l-ko'lligini ta'minlashi kerak.

Global axborotlashgan jamiyat haqidagi g'oya D. Bell, I. Ma'sudiy, T. Stouner, P. Draker, M. Kastels, N. Moiseev asarlarida yanada rivojlantirildi. Ular ham o'z ishlarida sanoatlashuvdan keyingi davrda band bo'lgan xodimlar soni jihatdan etakchi o'rinni

² Перспективы информационного общества. Рефератлар тўплами. – М.: 1990. – Б. 9-11.

³ Ракитов А. И. Философия компьютерной революции. – М.: 1991. – Б. 227.

¹ Лайон Д. Информационное общество. Проблемы и иллюзии. – М.: 1989. – 4-б.

¹ Грабельников А.А. Массовая информация в России: от первой газеты до информационного общества. – М.: 2001. – 292-б.

egallaydigan axborot jabhasi iqtisodiyotning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini kafolatlovchi omil bo'lishi haqidagi fikrni asoslab berdilar.

Biroq axborotlashgan jamiyatning shakllanish jarayoni turli mamlakatlarda turlicha amalga oshirilmoqda. Bu iqtisodni shunday darajaga ko'tarish bilan bog'liqki, toki u, masalan, qishloq ho'jaligida bo'lganidek, sohada aholining bir necha foizgina bandligi holda, barchani o' mahsulotlari bilan ta'minlay oladigan bo'lsin. Demak, moddiy-texnik negiz yaratmay turib axborotlashgan jamiyat barpo etish imkonsizdir.

Shunga ko'ra hozir dunyoda axborotlashgan jamiyatga o'tishning ikki modeli mavjud bo'lib, birinchisi – sharqiy, ikkinchisi - g'arbiy model hisoblanadi. G'arb modelida asosiy e'tibor axborot xizmati ko'rsatish bozorini erkinlashtirishga va bu xizmatning har tomonlama (universal) bo'lishiga qaratiladi. Sharqiy model esa mazkur sohada davlatlar va bozorlar hamkorligiga katta e'tibor berilishi bilan tavsiflanadi. Global axborotlashgan jamiyat qaror topishida an'anaviy madaniy qadriyatlar bilan yuzaga keladigan ijtimoiy o'zgarishlar o'rtasida aloqa o'matishga intilish kuzatiladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: axborot – o'zida dalil va fikrlardan tashqari, almashish jarayonida insonning ichki ehtiyoji tarzidagi muloqotini ta'minlovchi xabardir. Inson hamisha jamiyatning bir zarrasi, bo'lagi bo'lganligidan va unga hayotning ijtimoiy shart-sharoitlari muhri bositganligidan, shunga muvofiq ravishda jurnalistika axborotining asosini uning ijtimoiy ahamiyati tashkil etadi. Undagi fakt-dalillar mazmuniga ularning ijtimoiy hayot uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi nuqtai nazaridan qaralishi kerak.

Demak, jurnalistika axboroti hamisha ijtimoiy mazmunga ega, ya'ni ijtimoiy yo'naltirilgan bo'ladi. Har qanday ijtimoiy tabaqlangan hodisa esa bir xil mazmunda bo'lavermaydi. U kimningdir manfaatlari, ko'rsatmalari, nuqtai nazari va hokazolarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham ob'ektiv holda noto'liq, yolg'on, chalg'ituvchi, chalkashtiruvchi yoxud ishonarli, dolzarb, hujjatli va hokazo bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, u keng omma – auditoriya foydasiga xizmat qilishga yoki unga zarar etkazishga qodirdir. Xullas, jurnalistik axborot hamisha jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

Jamoatchilik fikri deganda nimani tushunish kerak? Bu – turmushning ayni zamondagi dolzarb muammolariga insonlar munosabatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ong shaklidir. Ongning tabiatan harakatchan ushbu shakli jamiyatdagি turli institutlarning sezilarli darajadagi ta'siriga uchrab turadi, binobarin, chalg'ituvchi ta'sirga ham duchor bo'lishi ehtimol. Uni chalg'itish muayyan maqsadni ko'zlab amalga oshirilishi mumkin. Lekin shuni unutmaslik kerakki, "chalg'itish" tushunchasi shartlidir, chunki tomonlardan istalgan biri jamoatchilik fikriga har qanday ta'sirni chalg'ituvchi deb baholash ehtimoldan xoli emas.

Shuni ta'kidlash muhimki, hozirgi jamiyatda jamoatchilikda yagona fikr yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Bu demokratiyaning asoslaridan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, ijtimoiy ong omma, ayrim ijtimoiy guruh, butun jamiyat ongida jamiyat turmushining aks etish shakli sanaladi. Siyosiy g'oyalar, huquq, falsafa, ahloq, din, fan, estetika va boshqalar ijtimoiy ongning mavjud bo'lib turish shakllari sirasiga kiradi. Ma'lumotnomalar adabiyotlarda, afsuski, ijtimoiy ongga urf-odatlar, an'analar, udumlar, umuman, turmush tarzi yoki, boshqacha aytganda, oqibat natijada u yoki bu inson, elat, halq, millat mentalitetini belgilovchi ma'naviy qadriyatlarning butun majmui katta ta'sir o'tkazishi haqida hech nima deyilmaydi.

Hozirgi davrda shuni unutmaslik kerakki, deydi professor Ya.N. Zasurskiy, axborotlashgan jamiyat sarhadlari chegara ustunlari bo'ylabgina o'tmaydi, balki axborot maydoni, axboriy mazmun (kontent) uzra ham o'tadi¹. Bugun u yoki bu mamlakat aholisi boshqa bir mamlakat ommaviy axborot kanallari ta'siri ostida qolar ekan, hodisalarini o'sha o'zga mamlakat talqinida qabul qiladi. Olim ta'kidlashicha, bu "xorijlik tadbirkorlar, ishchilar va boshqalarning bostirib kirishidan ko'ra davlat uchun ancha jiddiyroq xavfdir"¹.

XXI asrda ommaviy axborot vositalari bosma, ko'rish, eshitish tarzida bo'lib, insonga, uning ongi, ruhiyati, his-tuyg'ulariga atroflicha ta'sir ko'rsatish imkoniga ega. Ular ko'p jihatdan turli milliy, shaxsiy, ijtimoiy va davlat manfaatlari hamda intilishlarining shakllanishini belgilab beradi.

Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalari har qaysi davlat va halq hayotida muhim o'rin tutadi. Jamiyatning axboriy-ruhiy havfsizligi ko'p jihatdan ular faoliyatining sifatiga bog'liq. Bu esa bugungi kunda har bir mamlakat uchun jiddiy muammo bo'lib turibdi. Davlatlarning ko'pchiligi ommaviy axborot vositalari barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga, jamiyat faravonligini oshirishga, millatlararo murosani saqlashga, demokratiya va barqarorlikni mustahkamlashga to'liqroq xizmat qilishlari uchun o'z milliy manfaatlarini ularning infratuzilmalarini rivojlantirish, bu sohaga zamонавиъи axborot texnologiyalarini tatbiq etish bilan chambarchas bog'laydilar.

2. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari rivojlanish yo'lida

Endilikda axborot sohasida havfsizlikni ta'minlash milliy va halqaro xavfsizlik mazmunini belgilaydigan bo'lib qoldi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari jamiyatimiz axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning bir qator vazifalarini hal qilishga da'vat etilgan. Ularning hozirgi texnik-texnologik va son jihatdan rivojlanishi mamlakatimiz axborot maydonini o'z mahsulotlarimiz bilan to'ldirish imkonini beradi.

1994 yilda O'zbekistonda 445ta ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1999 yilda ular soni 652 taga, 2004 yilda 880 taga etdi. 2008 yilda esa ular 1100tani tashkil qilib, 289 tasi gazeta, 222 tasi jurnal, 50dan ortig'i byulleten, axborotnama, almanax, radio, televidenie, axborot agentliklari va Internetdan iborat bo'ldi. 2012 yilda esa ularning umumiy soni 1250dan oshib ketdi. Jamoatchilik tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar ularning ta'sischilaridirlar.

Xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri – OAV bozorini monopolashtirishga yo'l qo'ymaslik. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 15 yanvardagi O'RQ-78 son bilan tasdiqlangan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida (yangi tahriri)" Qonunining 30-moddasida shunday deyilgan: "Biron ta ham yuridik yoki jismoniy shaxs ommaviy axborot vositalarining tegishli markaziy yoki mahalliy bozoriga chiqariladigan ommaviy axborot vositalarining yigirma bez foizidan ortig'iga muassis (hammuassis) bo'lishga va (yoki) ularni shuncha miqdorda o'z mulkida, egaligida, foydalanishida, tasarrufida, yurituvida yoxud boshqaruvida (bevosita yoki affillangan shaxslar orqali) saqlashga haqli emas"¹.

¹ Засурский Я.Н. Информационная безопасность России и средства массовой информации. <http://emag.iis.ru/arc-infosoc/imag.nsf/BPA/5b9c943f52706569c3256c4e00495e6a>.

¹¹ “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (янги таҳрири). 15.01.2007. № ЎРҚ-78. // Оммавий ахборот воситалари фаолияти соҳасидаги меъёрий-хукукий ҳужжатлар тўплами. – Т.: “Ishonch Markas Servis”, 2009. – Б. 15.

Nashr turiga ko'ra gazetalar tonggi va kechki; kundalik va haftalik; maqomiga ko'ra respublika, viloyat, tuman, shahar; ixtisoslashuvi bo'yicha ijtimoiy-siyosiy, partiyaviy, sohaviy, diniy-ma'rifiy, axborot-ko'ngilochar, axboriy-ma'rifiy, reklama va ba'zi boshqa gazetalarga ajraladi. Davriyligini istisno etganda, mazkur tasnif jurnallarga ham hosdir. Ularni chiqish muddatiga qarab haftalik, oylik, uch oylik, yarim yillikka ajratish mumkin.

Mamlakatimiz televideniesi bugungi kunda aholining 97-98 % ini qamrab olgan va 60dan ortiq kanalga ega.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (O'zMTRK) sun'iy yo'ldosh orqali "O'zbekiston" telekanalining kecha-kunduzlik ko'rsatuvalarini yo'lga qo'ygan. Uning tarkibiga "Yoshlar", "Toshkent", "Sport" kanallari ham kiradi. Bundan tashqari respublikada davlat tasarrufida bo'limgan 30ta telekompaniya efirga ko'rsatuvalar uzatadi, shuningdek kabel televideniesining 28ta stantsiyasi ishlab turibdi, ular O'zbekiston elektron OAV Milliy assotsiatsiyasi (O'zEOAVMA) tarkibiga kiradi. O'zEOAVMA va 18ta mintaqaviy teleradiokompaniya muassisligida 2004 yil 4 noyabrda yagona efir tarmog'i – O'zNTT yaratildi. Uning kundalik eshittirish va ko'rsatuvalari 6 soatdan ko'p.

O'zMTRK tarkibida 4ta radiostantsiya – "O'zbekiston", "Yoshlar", "Mash'al", "Toshkent"lar faoliyat ko'rsatishayapti. Birinchi uchtasi o'z eshittirishlari bilan mamlakatimiz hududini deyarli to'liq qamrab olgan.

Hozirgi paytda xususiy va tarmoq radiokanallar sonining oshib borishi kuzatilmogda. Masalan, Toshkent shahrida davlat tasarrufida bo'limgan 15ta FM – radiostantsiya ishlab turibdi.

Keyingi bir necha yil ichida O'zbekiston Internet jurnalistikasi jadal rivojlanib borayapti. 2000 yilga nisbatan 2008 yilda Internetga kirish manzillarining soni 30 baravar ko'paydi, undan foydalanuvchilar soni 15 baravar oshdi, umumjahon tarmoqqa ulangan davlat boshqaruvi organlari 7 marta ko'paydi, UZ zonasida yangi veb-saytlar soni 10 marta oshdi. Shu bilan birga global tarmoqqa ulanish narxi arzonlashdi. Keyingi bir necha yilda Internetga kirish narxi 1 soat uchun 5 barobardan ko'proq pasaydi. Yuqoridagi vaziyatlar Internet-kontent va O'zbekistondagi Internet-jurnalistika rivojiga keng imkoniyatlar beradi.

Xususiy yangiliklar Internet portalı – UZ Peport.com O'zbekistonda to'ng'ich hisolanadi. U 1999 yilda ochilgan bo'lib, hozir 3 tilda (o'zbek, ingliz, rus) faoliyat olib boradi va respublika hayotining turli sohalariga – jamiyat hayoti, siyosat, biznes, moliya, sug'urta, birja, qimmatbaho qog'ozlar bozori, madaniyat va sportga oid xabarlarni o'zida jamlaydi. Bu saytda har kuni 100 ga yaqin axboriy material joylashtiriladi, shuningdek turli press-relizlar va birinchi manbadan olingan boshqa matnlar ham kiritiladi. Bugunga kelib sayt 100dan ortiq mamlakatdan minglab kiruvchilarga xizmat ko'rsatadi.

Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish jamoatchilik jamg'armasi granti bo'yicha asosan mintaqada nashr etiladigan gazeta va jurnallarning tahririylatlari uchun 65 veb-sayt barpo etildi. Hozir an'anaviy OAVning 87 veb-sayti mavjud, ular Internet tarmog'ida o'z vakolatxonasiga ega .

O'zbekistonda O'zA, "Jahon", "Turkiston-press" axborot agentliklari faoliyat ko'rsatayapti. Respublikamizda va undan tashqarida ommaviy axborotni yig'ish va OAV tahririylatlari, davlat idoralari, jamoatchilik birlashmalari va yakka shaxslarga

tarqatish O'zAning bosh vazifasi hisoblanadi. Agentlik o'z faoliyatini siyosiy va ijtimoiy tashkilotlardan mustaqil ravishda olib boradi, ishidagi tashkiliy masalalarini tasarrufidagi vositalar yordamida o'zi hal etadi. O'zA axborot ayrboshlash haqida bir qator xorijiy axborot agentliklari bilan ikki tomonlama shartnoma tuzgan.

“Jahon” axborot agentligi 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida tashkil etilgan. Xorijiy mamlakatlarni O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi axborot bilan tezkor ta'minlash, chet ellarda axborot byulletenlari, ma'lumotnomalar, kataloglar, gazetalar, jurnallar va boshqa bosma, kompyuter, foto, audiovideo mahsulotlarni nashr qilish, tarqatish uchun milliy axborot agentliklari va halqaro axborot tarmoqlari bilan doimiy aloqani ta'minlab turish uning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur materiallar O'zbekistonning halqaro hamkorlik imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari agentlik halqaro tashkilotlar uchun respublika ichida iqtisodiy faoliyat shart-sharoitlariga oid ma'lumotlarni to'playdi va tarqatadi.

Tijoriy asosda faoliyat ko'rsatuvchi “Turkiston-press” nodavlat axborot agentligi ommaviy axborot vositalari tahririylari uchun jurnalistika materiallari tayyorlashga ixtisoslashgan.

OAVning bu keng tarmoqli tizimi mustaqillik yillarda deyarli yangidan tashkil etildi. Ushbu tizim jamiyatdagi turli guruhlar va tabaqalarni nazarda tutgan holda faoliyat olib boradi. U hukmron mafkuradan, davlatning yalpi hukmronligidan xoli.

Yaqin o'tmishda - sobiq sho'rolar tuzumi davrida barcha ommaviy axborot vositalari davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanar va shunga yarasha partiya-hukumat qarorlariga so'zsiz itoat qilar edi. Tabiiyki, bunday sharoitda hech bir nashr kommunistik mafkura tizimiga to'g'ri kelmaydigan yo'lni tutishni tasavvur ham qila olmasdi. Bugunga kelib mustaqillik sharofati ila mafkuraviy tazyiq barham topdi, endilikda matbuotni avvalgidek boshqarish mumkin bo'lmay qoldi. Jamiyatning milliy manfaatlari, davlat manfaatlari, fikrlar va nuqtai nazarlar xilma-xilligi mavjud vaziyatda ijtimoiy rivojlanishning hayotiy muhim masalalari yuzasidan o'zaro murosaga erishish zarurdir. Ayonki, jamotchilikning totuvligisiz bunga erishib bo'lmaydi. Totuvlikni qaror toptirishga esa ham “yuqoridagilar”, ham “quyidagilar” birdek intilishlari kerak.

Mazkur ishda ommaviy axborot vositalari asosiy vosita, quroq hisoblanadi. Bu o'rinda gap ommaviy axborot vositalariaro yoki ular ichidagi yakdillik haqida emas, balki ularning jamiyat manfaatlari, millatning ahilligi, istiqboli, jamiyat va davlatning gullab-yashnashi uchun xizmat qilishi to'g'risida bormoqda. Mamlakatda barqarorlik saqlanishi ham bunga sabab bo'ladi. Shuning uchun matbuot, bir tomondan, davlat va jamiyat, ikkinchi tomondan, shaxs manfaatlarini mutanosiblashtirishda muhim rol o'ynamog'i kerak. O'z g'oya va manfaatlarini yoqlagan holda, faoliyat bobida konstitutsiyaviy tuzum va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqib ish ko'rishi lozim. Bu esa jamiyat manfaatlarini ta'minlashning muhim shartidir.

Jurnalistlar, media-biznes va hokimiyat tuzilmalarining milliy manfaatlarni ifodalashdagi hamfikrliji jamiyatda totuvlikni saqlashda o'ta muhim hisoblanadi. Biroq o'zaro murosaga erishish yo'lidagi intilishni aslo murosasozlik deb tushunmaslik kerak. Ya'ni ommaviy axborot vositalari tinchlik va barqarorlikka erishish bahonasida demokratik qadriyatlardan yuz o'girmasliklari lozim. Ular insonlarni va jamiyatni bezovta qilayotgan keskin, dolzarb masalalarni jamoatchilik e'tiboriga etkazishlari, muhim mavzularga qo'l urishlari kerak.

Lekin bu holda jurnalistdan butunlay boshqacha, yuqori darajasi kasbiy madaniyat talab etiladi. Ommaviy axborot vositalari hammani qiziqtiradigan, fikrlashga majbur etadigan masalalarini ko'tarish va ularni hal qilish yo'llarini taklif etish bilan birga o'zlarini tayanadigan tamoyilni – jamiyatda tinchlik-totuvlikka erishish tamoyilini unutib qo'ymasliklari kerak. O'z navbatida, bu borada jamiyatdan ham, amaldorlardan ham o'zgacha, yuksak darajadagi madaniyat talab etiladi. Ular o'rinni tanqidni jazavaga tushmasdan, ortiqcha his-hayajonga berilmasdan, og'ir-vazminlik bilan qabul qilishga o'rganishlari darkor. Asosli tanqidning yoki kamchiliklar fosh etilishining, ular qaerda bo'lmasin, olg'a intilish va shunga qo'shilgan hissa deb qabul qilinishi barcha uchun manfaatlidir. Ommaviy axborot vositalarining tanqidiy chiqishlari aslo u yoki bu jurnalistni yoki OAV kanalini dushman sifatida qarashga sabab bo'lmasligi kerak.

Tomonlar asrlar davomida shakllanib kelgan an'analar, ezgu niyatlar, intilishlar va maqsadlarga, bugun jamiyat oldida turgan ulug'vor vazifalarga asoslanib ish ko'rishlari lozim. Ommaviy axborot vositalari axborot-psixologik xavfsizlik haqida qayg'urishlari bilan birga butun xalqni buyuk maqsadlarni amalga oshirishga da'vat etishlari darkor.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, o'z xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashga, unga insonparvarlik, inson qadrini ulug'lash g'oyalarini singdirishga alohida e'tibor berish lozim. Shularga ko'ra jurnalistikamiz uchun xalqning an'anaviy turmush tarzi va mentalitetini hisobga olishdek yana bir o'ziga xos muhim vazifa kelib chiqadi.

O'zbekiston ommaviy axborot vositalari o'z faoliyatida yangi ijtimoiy-siyosiy tizim kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda, xalqning tarixiy xotirasini ham esdan chiqarmasliklari kerak.

3. Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining milliy manfaatlarni himoya qilish sohasidagi vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, bugungi kunda insoniyat "turli davlatlar va siyosiy kuchlar manfaatlaridan kelib chiquvchi ham yaqin, ham olis manbalardan uzatilayotgan, mazmuni va ta'siri turlicha bo'lgan mafkuraviy aqidalar muntazam ta'siri ostida yashab kelmoqda. Axborotlashgan jamiyatda bunday ta'sirdan xoli bo'lish mutlaqo mumkin emas. Hanuz g'oyalar qudrati quroq kuchidan ustunroq. Agar iqtisodiy, harbiy-siyosiy tazyiqning oqibatlarini oldindan payqash mumkin bo'lsa, g'oyaviy ta'sirning oqibatini ko'ra bilish gumondir"¹.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ko'plab jamoatchilik tashkilotlari, turli nohukumat jamg'armalar va harakatlarning barchasi bo'lmasa-da, ko'pchiligi o'z ommaviy axborot kanaliga, shuningdek ommaviy aloqalar xizmatiga ega, umummilliy OAVga chiqa oladi. Tabiiyki, ular ijtimoiy-siyosiy, ommaviy va ixtisoslashgan nashrlar orqali o'z dunyoqarashlari, dasturiy maqsad hamda vazifalarini tarqatishga harakat qiladilar.

Lekin har qanday siyosiy yoki boshqacha tuzilma, agar u Konstitutsiyaga, qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmasa, bir umumiy maqsad – mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qaror toptirish, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, fuqarolar farovonligiga erishish, ularning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rinni

¹ Каримов И.А. Идеология - бу миллатни, жамиятни, давлатни бирлаштирувчи байрок. – Т.: “Ўзбекистон”, 1998. – Б. 6.

egallashiga hissa qo'shish nuqtai nazaridan amal qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Biroq bu tashkilotlarning hammasining ham faoliyati respublika ommaviy axborot vositalarida munosib ravishda aks ettirilavermaydi. Faqat davlat tomonidan moliyalashtiriluvchi axborot vositalarigagina emas, balki partiyaviy nashrlarga ham shu fikr taalluqlidir. Kamdan-kam istisno hollarni hisobga olmaganda, ularning ishga yondashuvlari bir xil yo'naliшda bo'lib qolmoqda. Jurnalistlar har doim ham partiya hayotidagi o'tkir masalalarni ko'tarib chiqavermaydilar, ko'targan hollarida ham hech bir munozarasiz, muhokamasiz, chuqur tahlillarsiz, biror masalaga aniq urg'u bermay, ziddiyatlarni xaspo'shslash yo'lidan boradilar.

Buning oqibati o'laroq partiyalarning, ular matbuotining chetdan uyushtiriladigan mafkuraviy, g'oyaviy tazyiqlarga (ba'zida O'zbekistonga nisbatan shunday holatlar kuzatiladi) qarshi samarali ishi ko'rinxaydi. Vaholanki, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan bunday ish ular tomonidan o'ta zarur deb qaralmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ta'kidlaganidek, "Garchi hozirda jahonda ikki qarama-qarshi siyosiy qutb yo'q bo'lsa-da, unda g'oyaviy kurash to'xtamayapti, u turli maqsad va manfaatlarni aks ettirmoqda. Shuni ochiq e'tirof etish kerakki, bu kurashning bosh maqsadi – insonlar, avvalo, yoshlarni qalbini zabt etishdir, millatlar yoki xalqlar, muayyan mamlakat yoki mintaqaga ta'sir o'tkazish, o'z g'oyalariga bo'yundirish, uning ma'naviyatini tanazzulga uchratishdir. O'z fikriga ega bo'lmaslik, o'zganing irodasiga yoki g'oyasiga bo'ysunish har qanday iqtisodiy yoki siyosiy mutelikdan ko'ra dahshatliroqdir"¹.

Shunday ekan, OAVning tahririyatlari o'z ishida auditoriya manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqmog'i, uning e'tiboriga mavjud har xil nuqtai nazar va fikrlarni havola qilmog'i, islohotlarning borishi, ularning turli ijtimoiy guruh, tabaqa va boshqa qatlamlarning hayotiga ta'siri haqida ma'lumotlar etkazib turmog'i lozim. Afsuski, respublikamiz matbuoti ko'pincha, ayniqsa, kimningdir fikri umumiyl qabul qilingan me'yirlarga to'g'ri kelmagan hollarda ortiqcha ehtiyyotkorlik ko'rsatib, uni rad etadilar, u haqda lom-lim demaydilar.

Holbuki, agar bunday fikr ba'zi kishilar ongida paydo bo'lib, boshqalarga ham ta'sir o'tkaza boshlasa, shunday vaziyat yuzaga keladiki, muayyan masalada axborot tanqisligi sababli turli-tuman mish-mishlar, noto'g'ri talqinlar, uydirmalar urchib ketadi. Bularning barchasi jamiyat axboriy xavfsizligiga tahdid tug'dirish uchun qulay muhitni yuzaga keltiradi. Natijada milliy manfaatlar ham xavf ostida qolishi mumkin.

Axborot, aloqa tarmoqlarini, jamiyat hayotini ta'minlovchi o'ta muhim infratuzilma tizimini murakkablashtirish ham yana bir xavf manbaidir. Bu xavflar ataylab qilingan yoki tushunmaslik oqibati, texnik va dasturiy ta'minotdagi uzilishlar yoki nuqsonlar, jinoiy uyushma yoxud jinoyatchi unsurlar tomonidan amalga oshirilgan zararli ta'sirlar bo'lishi mumkin.

Mulk egalarining kichik bir guruhi qo'lida ommaviy axborot vositalari to'planib qolishi ham xavf manbai bo'la oladi. Bu sohadagi monopoliya, odatda, biror ijtimoiy ahamiyatga molik voqeа haqida jamoatchilikda noto'g'ri fikr uyg'otish, shuningdek jamiyatning axloqiy negizlarini barbod qilish uchun zamin yaratadi.

¹ Каримов И.А. Идеология - бу миллатни, жамиятни, давлатни бирлаштирувчи байрок. – Т.: “Ўзбекистон”, 1998. – Б. 6.

Hozirgi dunyoda davlatlarning bir-biriga qarama-qarshi turishi hamon saqlanib qolayapti. Buni shu bilan izohlash mumkinki, mamlakatlardan har birining o'z manfaatlari bor va bu davlatlararo munosabatlarda u yoki bu siyosatni o'tkazishni taqozo etadi. Shu asosda kelib chiqadigan ziddiyat, albatta, axborot sohasida ham namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda "axborot qarama-qarshiligi" degan ta'rif qaror topgan: bu auditoriyaga atrofda bo'layotgan biror voqeа-hodisaga nisbatan o'z mulohazasi, qarashlari, fikrlarini ikkinchi tomon g'oyasi va izohini rad etish yo'li bilan tiqishtirishga urinishni anglatadi.

Jurnalistning mahorati dolzarb muammolar va fikrlarning jamoatchilik hukmiga etkazilishda, zarur bo'lsa, ular atrofida munozara uyushtirish va batafsil sharhlab berishda ko'rindi. Garchi bahs-munozara haqiqatni to'liq yuzaga chiqarmasa-da, shu haqiqat izlanganining o'ziyoq muhimdir. Zero, bu auditoriyani o'ylashga, mulohaza qilishga, o'zini tashvishlantirayotgan masalalarga javob topishga undaydi. Aks holda jamoatchilik fikrida turg'unlashuv yuz beradi. Tafakkur qilmaydigan, mulohaza yuritmaydigan jamiyat chet ta'siriga tushib qolishi mumkin. Ayniqsa, O'zbekiston axborot kengligida ommaviy axborot vositalarining ko'pgina chet el kanallari faollik ko'rsatayotgan hozirgi paytda bunday ehtimollik juda kuchlidir. Oldingi boblarda sanab o'tilgan etakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bu borada o'zaro raqobatlashibgina qolmay, bizning axborot bozorimiz uchun O'zbekiston OAV bilan ham kurash olib bormoqdalar. O'z-o'zidan ravshanki, ular auditoriya ongiga ko'pincha o'z mamlakatlarining manfaatlari buyurgan g'oyaviy qarashlarni singdirish payidan bo'ladilar,

Agar mamlakatimiz OAV biror xususda jimlik saqlashni yoki biror narsani e'tiborsiz qoldirishni afzal biladigan bo'lsalar, ularning xorijlik hamkasblari ayni shu narsa haqida o'zlaricha sharhlab va talqin qilib jar soladilar. O'zbekiston matbuoti bayon etishi mumkin va joiz bo'lgan nuqtai nazarning yo'qligi yoki ancha kechikib munosabat bildirilishi shunga olib keladiki, dastlabki axborot tufayli paydo bo'lgan fikrni o'zgartirish mushkullashadi, chunki bu erda gap biror narsaga ishonch hosil qilgan kishini qayta ishontirishdek qiyin vazifa ustida boradi.

Ommaviy axborot vositalariga nisbatan yana shuni aytish zarurki, sport sohasida bo'lganidek, bu erda ham eng yaxshi himoya – hujumdir, va noilojlikdan, ular xurujiga qarshi majburan qilinadigan hujum emas, balki sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarni o'z vaqtida, zdlik bilan xolis yoritish orqali muxolif tomonni "qurolsizlantirish", ularning fisq-fujur gaplariga o'ren qoldirmaslik, ya'ni ulardan ham ildamroq axborot etkazish ma'nosidagi sa'y-harakatdir. Lekin, afsuski, jahon axborot maydonida o'quvchi, tinglovchi va tomoshabinning ongi-shuurini, qalbini ovlash uchun olib borilayotgan bu ko'zga ko'rinas raqobat kurashida O'zbekiston jurnalistlari tashqi axborot kanallariga bo'sh kelib qolayotgan hollar kam emas. Bunday vaziyatni ma'muriy buyruqbozlik bilangina o'nglab bo'lmaydi. Chunki bu erkin "bozor"da har kim o'zi xush ko'rganini xarid qiladi, o'qiydi, ko'ngliga yoqsa, eshitadi va ko'radi, chunki bu uning manfaatlariga, qiziqishlariga mos keladi.

O'tgan asrning 70-yillaridayoq G'arb OAVda quyidagicha tartib qaror topgan edi: axborot vositasining navbatdagi sonida joylashtiriladigan materialni taqdim etuvchi bo'limga beriladigan birinchi savol shunday bo'lardi:

- Material kimga mo'ljallangan? Uni kimlar o'qiydi deb o'ylaysiz? Yoshi? Jinsi? Ma'lumoti? Auditoriya nimani kutadi, manfaati qanday? Uning ruhiy dasturi qanday? Moddiy ahvoli-chi? Va hokazo.

Materialni taklif qiluvchi o'sha savollarga aniq javob berishi lozim edi. Shuning uchun jurnalist o'z chiqishini auditoriyaning yoshi, jinsi, bilim darajasi, madaniyati, siyosiy qarashlari, ya'ni o'quvchilar, eshituvchilar va tomosha qiluvchilarning qiziqishlariga moslashtirishi kerak bo'lgan¹.

OAV ko'zlagan "nishoni" aniq, o'z dalil-isbotlari ishonarli bo'lishi haqida qayg'urishi lozim. "Men yozayotgan maqola kim uchun?" – jurnalist amal qiladigan asosiy qoidalardan biri shunday bo'lmog'i kerak. Mo'ljallagan auditoriyasini oldindan bilish jurnalistga o'z materiali etkazayotgan xabar qanday qabul qilinishini to'g'ri taxminlash imkonini beradi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi yuz bermoqda. Har bir qatlamning o'z ijtimoiy mo'ljallari bor. Lekin bizda ommaviy axborot vositalari ma'lum darajada tarmoqlangan, zamonaviy jamiyatning o'ziga xosliklarini go'yo hisobga olgandek bo'lsa-da, barchasi bir qiyofada ko'rindi. O'zbekiston auditoriyasi mamlakatimiz OAV kanallariga murojaat etib, ko'pincha ularda bizni qurshab olgan olam bilan, kishilik jamiyatining hozirgi rivojlanish darajasi bilan mutanosiblikni ko'rmaydi.

Muayyan ruhiy holatni shakllantirish uchun hozir XX asr boshlaridagi singari ko'plab kunlar va haftalar talab etilmaydi. Telealoqa tizimi bunga bir necha soatda, hatto to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuvda erishishi mumkin. Buning uchun, masalan, Si-en-en telekanali mehmonxonalardan birining tomidan turib AQSh aviatsiyasi Iroq poytaxti Bag'dodni qanday bombardimon qilganini on-layn rejimida ko'rsatganligini eslash kifoya.

Kishilarning yashash joylaridan qat'i nazar, yuqori texnologiyalar ular turmushining barcha sohalarini turli tarzda va turli shaklda qamrab olib, ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadi. Shu boisdan shaxs va jamiyatning axborot-texnologik xavfsizligi maqsadlarida tashqi kanallar noxush ta'sirining oldini olishni ko'zlab, axborotga erkin ega bo'lish uchun sharoit va kafolat yaratish, g'ayriqonuniy axborot-psixologik ta'sirdan himoyalanish, ommaviy axborot erkinligini ta'minlash zarur.

Agar mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari o'z auditoriyasining axborotga bo'lган xohish-istaklari, his-tuyg'ulari, ruhiyatlariga ayni kutilgan paytda to'liq javob bera olsa, yangiliklarning boshqa manbalarini qidirishga ehtiyoj ham, hoxish ham qolmaydi. Hatto tashqi axborot kanaliga to'qnash kelganlarida ham, u taqdim etayotgan ma'lumotni ko'r-ko'rona qabul qilavermasdan, har bir narsani tanqidiy mulohaza qilib ko'rishga tayyor bo'lishadi.

Ayniqsa, favqulodda holatlarda fuqarolarning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash haqida gapirganda, shuni afsus bilan ta'kidlash kerakki, bunday paytda bizning matbuotimiz sarosimaga tushib, nima qilarini bilmay qoladi. Jurnalistlarimiz jadallik ko'rsatish o'rniga sustkashlik qilib, o'zlarini yo'qotib qo'yishadi. Vaholanki, xalqaro jurnalistikada favqulodda mazmunli axborot birinchi o'rinda turishi kuzatiladi.

2000 yil avgustida Rossiya atom suvosti kemasi halokatga uchraganida, 2001 yil sentyabrda Nyu-Yorkdagi egizak binolar – Jahon savdo markaziga hujum uyushtirilganida shunday bo'ldi. Amerikalik va rossiyalik jurnalistlar tufayli bu fojialar milliy doiradan chiqib, umumjahon, global fojiaga aylandi.

O'zbekistonda ham favqulodda hodisalar yuz bergen. 1999 yil fevralda, 2000 yil avgust, 2005 yil may oylarida shunday voqealar sodir bo'ldi. Afsuski, mamlakat OAV

¹ Ученова В.В. Горизонты публицистики: опыт и проблемы. – М.: "Мысль", 1981. – Б. 195.

ular haqida xabar berishda o'zlarini ko'rsata bilmadilar. Faqt vaqt o'tgach, ularda ushbu hodisalar sabab-oqibatini ochib beruvchi materiallar paydo bo'lindi. Keyinchalik rasmiy tergovlar va sud jarayonida bu qo'poruvchilik harakatlarini uyuştirgan ekstremistlar maqsadi faqat Markaziy Osiyoda beqarorlik paydo qilish bilangina cheklanib qolmasdan, O'zbekistonda davlat to'ntarishini ham amalga oshirish bo'lganligi tasdiqlandi. Agar jurnalistlar o'sha paytning o'zidayoq aniq ma'lumotlar bilan chiqishlar qilganlarida, faqat mamlakatimizdagina emas, balki jahon miqyosida jamoatchilik fikri samarali shakllantirilgan bo'lar edi. Ommaviy axborot vositalarimiz bu bilan O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning xalqaro terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat kuchlarini birlashtirishga qaratilgan chaqirig'i amalda tatbiq etilishiga o'z hissalarini qo'shgan bo'lardilar.

Yana bir juda muhim yo'naliш borki, u ham xavotir uyg'otmasligi mumkin emas. Aytib o'tilganidek, bizda mo'may daromad ketidan quvib, ommaviy auditoriya nog'orasiga o'ynovchi ko'plab nashrlar paydo bo'ldi va bo'layotir, ular ayni o'sha mijozlarining past saviyalari, to'pori didlariga mos ravishda ish tutishadi. Adadi yuqori va tinimsiz oshib borayotgan gazeta-jurnal tarzidagi mazkur nashrlarning o'ziga xos jihatni shundaki, ular asosan chet el materiallarini ko'chirib bosish bilan shug'ullanishadi. Ustiga-ustak bu ishga bir tomonlama yondashadilar: har qaerdan yulqib olingen materiallari ko'pincha pornografiya, zo'ravonlik, maishiy janjallar yoki chet el kino, estrada, sport va boshqa soha "yulduzlari" turmushining ikir-chikirlari haqida bo'ladi. Natija shundayki, bugungi kunda yigit-qizlarimiz mamlakatimiz hayotidagi mavjud muhim muammolardan ko'ra yoshlarning g'arbdagi suyukli peshvolari qanday yashashlariyu, nimalar eb-ichishlari, qaerlarga yo'llari tushib, qanday mashg'ulotlar bilan band bo'lishlarini yaxshiroq biladilar.

Yaratuvchilik g'oyalariga kelsak, ushbu nashrlardan ularni topib bo'lmaydi. Bunday g'oyalar har bir qalbda paydo bo'lishi uchun jamiyat ma'naviyati va aql-zakovatini yuksaltirish kerakka o'xshaydi. Lekin yuqori ma'lumotli va ma'naviyatli jamiyatda ham bo'lar-bo'lmasga hadeb yuzaki pand-nasihat qilinavermasligi, xulq-atvor tarbiyasiga, quruq o'gitvozlikka ruju qo'yilavermasligi lozim. Chunki bu aks samara berishi mumkin. Bunday "aql o'rgataverish"lardan sho'rolar davrida omma bezor bo'lgan. Endilikda ekranda Rossiya telekanallarida, Bi-bi-si, "Diskaveri", "Neshnl geografik" kanallarida tayyorlaniladigan ma'rifiy ko'rsatuvlarga o'xshagan dasturlar sonini ko'paytirish maqbuldir.

Axborotlashgan jamiyat – bilimlar jamiyat, umr bo'yi davom etadigan uzlusiz ta'lim jamiyatni bo'lib qolishi lozim. Bu axborot-psixologik xavfsizlikka bevosita daxlordordir. Shuning uchun O'zbekiston televideniesi kadrlar tayyorlash, ularning madaniy va ta'lim darajasini oshirishga qaratilgan milliy dasturni amalga oshirish doirasida aholini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlashdek muhim vazifani bajarishi kerak.

Axborot-psixologik xavfsizlikka erishish fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi yaqin aloqani amalga oshiruvchi jamoatchilik institutlarini tashkil etish bilan jips bog'liq. OAV ana shunday institutlardan biri bo'lmosg'i lozim. Hozirgi kunda bu soha asosan davlat ta'sischiligidagi matbuot nashrlaridan iborat. Albatta, davlat o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniga ega bo'lishi kerak, lekin bu holda OAV ishiga ma'muriy buyruqbozlik uslubi asosida ta'sir etish, aralashish ishtiyoqi sezilarli darajada saqlanib qoladi. Bundan qutulishning yo'li ijtimoiy institutlar, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, Ommaviy axborot elektron vositalari milliy Assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy

axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, axborot agentliklari faoliyatini faollashtirishdan iborat.

Fuqarolik jamiyatiga xizmat qilishga da'vat etilgan jurnalistika haqida gapirganda, shuni nazarda tutish kerakki, uning fuqarovi y mavqe iqtisodiy jihatdan baquvvat, lekin amalda jurnalistlik odobini bir chetga surib qo'yishga tayyor turgan noplolar kimsalar ta'siridan himoyalangan bo'lishi lozim.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston ommaviy axborot vositalari shaxs, jamiyat va davlatning axboriy-psixologik xavfsizligini ta'minlashda o'z sohalaridagi faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarga, shuningdek kasb odobi me'yorlariga rioya qilishlari kerak.

Takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining mustaqillik davridagi tadrijiy rivojlanishi.
2. Respublika ommaviy axborot vositalarining bugungi kundagi tizimi.
3. O'zbekiston matbuot tizimiga tavsif.
4. Mamlakat radio va televideenie tizimiga tavsif.
5. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari xalq ruhiyatining himoyachisi sifatida.
6. Fuqarolarning axborot olish kafolatlarini ta'minlash – axborot xavfsizlikning asosiy printsipi.
7. Axborot-psixologik xavfsizlikning metodologiyasini shakllantirish zaruriyati.
8. Milliy ommaviy axborot vositalari – vatandoshlarimizning eng ishongan axborot manbai.

Seminar uchun savollar

1. Bugungi O'zbekistonda matbuot, radio va televideenie tizimlari.
2. O'zbekistonda Internetning rivojlanishi. Mamlakat fuqarolari va tashkilotlarining Internetdan foydalanish amaliyoti.
3. Respublikamizda ommaviy axborot vositalari va axborot ochiqligi muammosi.
4. Mamlakatimizda axborot xavfsizligi masalasining huquqiy va ahloqiy asoslari.

9-bob. FUQAROLIK JAMIYATIGA O'TISH - AXBOROT TAJOVUZKORLIGIDAN HIMOYALANISHNING SAMARALI SHAKLI

1. Muammoning mohiyati va uni hal etish strategiyasi

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish zarurligi to'g'risidagi g'oyasi bugungi davrning ancha mushkul muammolarini, jumladan jahon axborot makonining globallashuvi muammosini hal etish kaliti bo'lib xizmat qiladi. Bu mazkur bob uchun markaziy fikr hisoblanadi.

Muammoning O'zbekiston doirasidagi roli mamlakatimizda chop etilgan ko'pgina kitob va maqolalarda aks ettirilgan, bob davomida biz bularning ayrimlariga murojaat etamiz. Lekin mahalliy tajriba, bizningcha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining g'oyasini etarli darajada tushunib olish uchun etarli emas. Chunki bu g'oya – xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan g'oyadir. Axborot asrining ayrim g'oyaviy bo'xtlonlaridan saqlanish maqsadida kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish nafaqat biz uchun, balki boshqa O'zbekiston singari buyuk milliy madaniyat va qadimiy merosga ega bo'lgan mamlakatlar uchun ham dolzarbdir. Shu sababli ushbu bobda biz davlatimiz tajribasi bilan cheklanmasdan, undan ham ko'ra ko'proq umumjahon tajribaga murojaat etmoqdamizki, axborot yordamidagi tajovuzkorliklardan himoyalanish va milliy

o'zlikni saqlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning g'oyasi naqadar ahamiyatli ekanligini chuqurroq anglab olish uchun.

Dastlab bu g'oya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 1999 yilda Oliy Majlisning XIV-sessiyasida qo'yilgan edi. Mazkur muhim masala davlatimiz rahbari tomonidan keyingi yillarda rivojlantirib kelindi. Kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz rivojlanishining 2000 yildan keyingi bosqichida asosiy maqsadiga aylandi, bundan oldin esa kuchli davlatni o'rnatish zarur edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi e'lon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" deb nomlangan ma'rzasining beshinchi qismi "Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish" deb nomlangan bo'lib, unda shunday deyilgan: "O'zbekistonimiz bosib o'tgan keyingi o'n yillik davr aholimizning keng qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo'ldi... O'tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi"¹. Bu so'zlar – O'zbekiston Respublikasi o'z kundagi hayotida bosqichma-bosqich demokratiyani joriy qilib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tayotganini dalolatidir.

Ushbu jarayonni izchil ravishda olib borilayotganini bir qator aniq dalillar bilan isbotlanadi. 1991-2000 yillarda O'zbekistonda demokratiyaning muhim omili bo'lmish ko'ppartiyaviylik tizimi shakllantirildi. 1996 yilning 26 dekabrida jamiyat rivojlanishining muhim ko'rsatkichi deb hisoblanayotgan "Siyosiy partiyalar haqida"gi Qonun kuchga kirdi. 2004 yilda ikki palatali parlament joriylandi. 2007 yil 11 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun qabul qilindi.

Fuqarolik jamiyatining muhim omili hisoblanmish ommaviy axborot vositalari sohasida ham chuqur o'zgarishlar ro'y berdi, bu haqda yuqoridaq boblarda so'z yuritilgan edi. Hatto, O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 15 yanvardagi O'RQ-78 son bilan tasdiqlangan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida (yangi tahriri)" Qonuning 8-moddasida ommaviy axborot vositalari faoliyatida ilgari man etilgan xorijiy investitsiyalarga yo'l ochib berilgan, agar chet el investitsiyalar ulushi o'ttiz foizgacha bo'lsa.

Mamlakatimizda nodavlat ommaviy axborot vositalari sektori tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Buni 2012 yilining o'rtalarida tele- va radiokanalarning 66 foizini, bosma nashrlarning 50 foizdan ko'pini nodavlat ommaviy axborot vositalari tashkil etganidan ham bilsa bo'ladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi nodavlat notijorat tashkilotlarning faol ishtiroqida amalga oshirilmoqda. Agar 2001 yilda mamlakatda 2300ta NNT faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 5200dan oshdi. NNTlar iqtisodiyotni va sud-huquqiy tizimini liberallashtirish, OAVni demokratlashtirish,

¹ "Халқ сўзи". 2010. 13 ноябрь.

xorijiy siyosiy partiyalarning tajribasini o'rganish, ayollar va yoshlar huquqlarini himoya qilish singari vazifalarni hal etishda qatnashmoqdalar.

Shu bilan bir qatorda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar deb topilgan "Kamolot" yoshlar harakatini, fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organlarini, kasbiy va kasaba uyushmalarini qo'llab-quvvatlash yuli bilan ham amalga oshirilmoqda.

Oldingi boblarning materiallari ko'rsatganidek, bugun globallashtirish tashabbuskorlari ishlab chiqayotgan ommaviy axborot butun er yuzini qoplab olgan. Aytib o'tish lozimki, dunyoning ko'p bora tilga olingan etakchi telekanallari vositasida tarqatilayotgan dasturlarda nafaqat yaxshilik tashuvchi axborot, balki soxta ma'lumotlar ham yanada jadalroq sur'atlarda globallashib borayapti. Madaniy o'ziga xosliklar, ya'ni jahon hamjamiyatining eng ulug' muvaffaqiyati sanalmish xalqlarning ko'p asrlar davomida to'plab kelgan ma'naviy boyliklari nuqtai nazaridan qaraganda, axborot globallashuvining afzalliklaridan ko'ra kamchiliklari ko'proq bo'lsa bordirki, oz emas. Ushbu masalada xalqaro tajribaga murojaat etaylik.

Elvin va Xeydi Tofflerlar bu haqda shunday yozishadi: "Yana bir sabab AQSh Xalqaro taraqqiyot Agentligining sobiq direktori Xarriet Bebbiting "Biz yaxshiliklarimizdan ko'ra nuqsonlarimizni ko'proq globallashtiramiz" degan e'tirofida yashirinigan"¹. O'z-o'zidan ayonki, axborot ta'siri siyosiy va iqtisodiy ta'sirga qaraganda kamroq ko'zga tashlanadi, lekin mazmunan olib qaraganda, jiddiyligi ularnikidan oshib tushsa tushadiki, hech qolishmaydi.

N.G.Kozin hisoblashicha, rivojlangan davlatlar tomonidan aniq maqsadga yo'naltirilgan axborot yordamida uyushtirilayotgan "globallashtirish boshqacharoq ko'rinishda namoyon bo'lmoqda – tarixiy taraqqiyot ketidan etib olish mantiqini tanlagan aksariyat mamlakatlarga muqarrar ravishda milliy iqtisodiyotlarni, tubjoy millatlar hayotining madaniy an'analari va asosiy ma'naviy xususiyatlarini yoppasiga yo'q qilish bilan yakunlanadigan denatsionalizatsiya, deetatizatsiya, reprivatizatsiya, madaniy va ma'naviy jihatdan o'zgarishlar (mutatsiyalar) talablarini zo'r lab tiqishtirmoqdalar. Hozirgi globallashtirishning tarixiy traektoriyasi va uning tajovuzkor tarkibiy qismlari etarli darajada ravshan: ular dunyo hokimiyatining tili, tuzilmalari va dinamikasini shakllantiradi. Biroq inson ongingin tuzilmalari ustidan hukmronlik qilmasdan, uning madaniy va ma'naviy kodlarini o'zgartirmasdan turib bunga erishib bo'lmaydi. Amerikanizm qadriyatları, amerikacha turmush tarzi va ular asosida yotgan liberal siyosiy-iqtisodiy paradigma bosqini ham shundan kelib chiqadi"¹.

Modomiki ommaviy axborot katta kuch sanalar ekan (uning aynan shundayligiga ko'plab marotaba ishonch hosil qilganmiz), xalqaro munosabatlarda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

AQShda ko'pgina mutaxassislar kosmopolitizmga ijobiy munosabatda bo'lganlari, ustiga-ustak uni insoniyatning kelajagi deb bilganlari holda, milliy-madaniy qadriyatlarni, o'ziga xosliklarni himoya qiladigan tadqiqotchilar ham yo'q emas. Ular bozor kosmopolitizmining ma'naviy oqibatlarini sezganlaridan uni ko'klarga ko'tarib maqtashga moyil emaslar. Shu jihatdan Elvin Toffler iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar nisbati haqida ochiqchasiga gapirgan: "Zamonaviy davlatlarning barchasi iqtisodiy yutuqlarni baholash uchun puxta ishlab chiqilgan mexanizmni qo'llab-quvvatlaydilar.

¹ Тоффлер Э., Тoffлер Х. Революционное богатство. Ингл. тилдан М.Султонова, Н Циркун таржимаси. – М.: ACT Москва: Профиздат, 2008. – Б. 124.

¹ Козин Н.Г. Вызов или ответ ислама // "Свободная мысль". 2007. № 1. – Б. 24.

Biz amalda har kuni ishlab chiqarish unumdarligi, narx-navo, kapital sarmoyalar va h.k. omillar sohasida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarning yo'naliishlarini bilib turamiz. "Iqtisodiy indikatorlar" majmui vositasida iqtisodiyotning sog'lomligini, uning o'zgarish sur'atini va o'zgarishlarning barchaga daxldor yo'naliishlarini aniqlaymiz. Bu mezonlarsiz bizning iqtisodiyot ustidan nazoratimiz ancha samarasiz bo'lar edi.

Biroq biz jamiyatimiz sog'lommi yoki sog'lom emasligidan xabar beruvchi shunga o'xshagan mezonlarga ham, taqqoslanadigan "ijtimoiy indikatorlar"ga ham ega emasmiz. Bizda "turmush sifati" mezonlari yo'q. Bizda odamlar bir-birlariga tobora ko'proq begona bo'lib bormayotganmikanlar, ta'lim samarasi oshayotirmi, tasviriy san'at, musiqa va adabiyot gullab-yashnapyatimi, xushmuomalik, saxovatpeshalik va yaxshilik rivoj topayaptimi – ana shulardan guvohlik berib turuvchi muntazam ko'rsatkich yo'q"¹. Mashhur olimning bunday sarosimaga tushib qolganligini tushunsa bo'ladi. Gap shundaki, axborot davrida ijtimoiy nidikatorlar har xil – milliy-kosmopolitik (AQShdagi singari) va aniq-milliy (O'zbekistondagi kabi) bo'ladi. Xuddi shuningdek, turmush sifati ham moddiy va ma'naviy qismlarga bo'linadi (bu o'rinda E. Toffler ma'naviy jihatni nazarda tutgan). Ijtimoiy indikatorlar masalasida shuni qo'shimcha qilish lozimki, G'arbiy Evropa va ayniqsa, AQShda bozor munosabatlari shu darajada chuqurlashib ketdiki, ular endi dastlabki samarali milliy-ma'naviy ijtimoiy indikatorlarga qaytishga imkon bermayapti. Albatta, AQSh davlati faqat o'z mamlakatidagina emas, balki butun dunyoda aholining nochor qatlamlariga moddiy yordam ko'rsatib turadi. Lekin murosasiz bozor raqobati natijasida mamlakat ancha ahamiyatli ijtimoiy indikatorlarni boy berib qo'yayotganligi ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Bu to'g'rida siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy o'zining butun dunyoga mashhur bo'lib ketgan "Buyuk shaxmat taxtasi" asarida shunday deb yozadi: "Mamlakatda ustun bo'lган madaniyat ko'proq ommaviy ko'ngilocharliklarga moyil bo'lib, ularda gedonistik mayllar va ijtimoiy muammolardan qochish mavzulari hukmronlik qiladi. Buning yakuniy samarasi AQShning dunyodagi uzlusiz va ba'zida qimmatga tushadigan etakchilik mavqeini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan zarur siyosiy konsensusni vujudga keltirish vazifasini tobora og'irlashtirmoqda... Ustiga-ustak AQShga ham, G'arbiy Evropa mamlakatlariga ham ijtimoiy gedonizmning madaniy oqibatlarini va jamiyatda diniy his-tuyg'ularga asoslangan qadriyatlarning markaziy roli keskin tushib ketganligini uddalash qiyin bo'lib chiqdi... Natijada yuzaga kelgan madaniyat bo'hroni giyohvandlikning yoyilishi bilan, ayniqsa, AQShda uning irqi muammolarga bog'liqligi bilan murakkablashib ketdi. Va nihoyat, iqtisodiy yuksalish sur'atlari endi tobora o'sib borayotgan va iste'molni birinchi o'ringa qo'yadigan madaniyat tomonidan rag'batlantirib turiluvchi moddiy ehtiyojlarni qanoatlantirolmaydigan bo'lib koldi. G'arb jamiyatining eng ongli doiralarida tarixiy bezovtalik va, ehtimolki, hatto tushkunlik tuyg'usi sezilib qolayapti, degan fikr bildirilsa, mubolag'a bo'lmaydi"¹.

Ushbu fikrga hech qursa ikkita sharhni qo'shib qo'yish zarur. Birinchidan, AQSh XX asrning aksariyat qismi davomida jahondagi yalpi mahsulotning 30 foiziga ichki mahsulot sifatida ega bo'lib keldi. Hatto tasavvurga sig'dirish qiyin bo'lgan darajadagi ana shunday katta milliy daromad ham mamlakat aholisining o'sib borayotgan moddiy

¹ Тоффлер Э. Шок будущего. – М.: "ACT", 2003. – 495-496-б.

¹ Бжезинский Зб. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. – М.: "Международные отношения", 1998. – Б. 250-251.

ehtiyojlarini qondirishga ojizlik qilib qolar ekan. Ikkinchidan, fikrimizcha, iste'molchilik psixologiyasi va madaniyat bo'hroni bozor raqobati shafqatsizligining natijasi o'laroq yuzaga chiqdiki, bunday sharoitda hamma narsadan bezor bo'lgan inson yuksak ma'naviyatdan yiroq bo'lgan eng jo'n narsalardan orom izlab qolarkan. Jamiyatdagi tushkunlik esa har narsaga qodir bozor va uni himoya qiluvchi qonunlar oldidagi ojizlik oqibatidir.

Agar G'arb davlatlari o'zlaricha yashab, ma'naviy jihatdan qabul qilib bo'lmaydigan mayllarini boshqa mamlakatlarda yoyishga hadeb urinavermaganlarida, muammo ham kelib chiqmasdi. Lekin masala shundaki, ular o'z qadriyatlarini va o'z ma'naviyatini o'zga dunyoga radio va televidenie (masalan, Si-en-en va Bi-bi-si teleko'rsatuvlari), axborot agentliklarining xabarlari, yangiliklari va teleserillar yordamida tinimsiz yoyib kelmoqdalar. Bu boshqa mamlakatlar ichki hayotiga axborot vositasida aralashuvdan o'zga narsa emas. Bunday qo'pol muomala hali mutaxassislar tomonidan etarlicha tasniflanganicha yo'q, ya'ni xalqaro munosabatlarda va hujjatlarda zarur diplomatik va huquqiy ishlanmalarini yuzaga chiqarmadi, bundan esa rivojlangan davlatlar faol ravishda foydalanmoqdalar. U.Saidov shunda yozadi: "Bu o'rinda shuni e'tiborga olish lozimki, hozirgi sharoitda milliy madaniyatlar emas, balki G'arb (Amerika) va dunyo xalqlari tamadduni madaniy muloqotning asosiy omili sifatida maydonga chiqmoqda. Shu jihatdan qaraganda, amerikalik faylasuf Frederik Jeymisonning bugungi kunda gap globallashuv haqida emas, dunyoni amerikalahtirish va shu asosda "madaniy bir xillashtirish (unifikatsiyalash)" haqida borayotgani to'g'risidagi fikri muayyan asosga ega"².

Rossiyalik mutaxassislar ham shunga o'xshash fikr bildirishmoqda. V.Margelov va V.Krivojixa shunday yozishadi: "...Globallashuv darajasi shungacha borib etdiki, u ayrim davlatlarning siyosiy tizimlari ichida o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda. Bu an'anaviy jamiyatlar, masalan, Sharq uchun, ayniqlsa, muhimdir"¹. Boshqacha aytganda, axborotni globallashtirish etakchilari o'zları yaratayotgan maqsadli axborot oqimlari yordamida davlatlarning ichki tuzilishini ulardan ruxsat so'ramasdan g'oyaviy jihatdan barbos qilishga qodir bo'lib qoldilar. Bunday tendentsiya yaqqol ko'zga tashlanibgina qolmasdan, mustaqil davlatning milliy suverenligiga ochiq-oydin xavfni ham o'zida mujassam etgandir.

Ko'rib turganimizdek, butun er kurrami uchun mafkuraviy jihatdan mushkul kunlar boshlandi. Ko'pgina kishilar o'zları uchun qanday yo'l tanlashni, qanday ma'naviy mo'ljallarga ishonishni oydin tasavvur qilolmaydilar. Yuqoridagi boblarda ayrim mamlakatlar tomonidan boshqa mamlakatlarga axborot vositasi orqali ta'sir ko'rsatilishining shakllari va usullari haqida so'z yuritildi. Mafkuraviy masaladagi nuqtai nazarlarning barchasini soddalashtirilgan ko'rinishda kosmopolitizm bilan vatanparvarlik orasidagi kurash atrofiga jamlash mumkin. Birinchi nuqtai nazarning eng yorqin ifodachilari AQSh olimlaridir. Ularning mazkur masalaga oid fikrlarini S Xantington bir joyga jamlagan: "Ular (hozirgi aql-zakovat egalari – Sh.M.) o'z mamlakatlariga hamda o'z vatandoshlariga sodiqlikni rad qiladilar va umuman insoniyat manfaatlarini himoya qiladilar. Bu mayl 1990 yillardagi olimlar hamjamiyatiga xosdir. Chikago universitetidan professor Marta Nussbaum vatanparvarlik g'ururini "ma'naviy xavfli hissiyot" sifatida ta'riflaydi,

² Saidov U. Оломон маданияти // "Тафаккур". 2008. № 2. – Б. 9.

¹ Маргелов В., Кривожиха В. Время террора и дилемма решений // "Международная жизнь". 2006. № 1-2. – – Б. 48.

kosmopolitizmning vatanparvarlikka nisbatan odob jihatdan ustunligini isbotlaydi va odamlar bundan buyon “dunyo bashariy hamjamiyatiga qasam ichishlarini” taklif qiladi. Prinstonlik professor Emmi Gutman ta’kidlashicha, “amerikalik talabalarga ular eng avvalo Qo’shma Shtatlarning fuqarolari ekanliklarini bilib olishlari uyatli bir narsadir”. Uning fikriga ko’ra, amerikaliklar o’zlarini AQSh va boshqa bir suveren davlat bilan emas, balki “demokratik gumanizm” bilan bo’ylashtirishlari darkor. Nyu-York universitetidan professor Richard Sennett “umummilliy o’xshashlik nuqsoni” ni rad qiladi va milliy suverenlik eroziyasini “printsipial ijobiy xodisa” deb baholaydi. Kaliforniya universitetidan (San-Diego) Jorj Lipsits fikrlashicha, “yaqin yillar ichida barcha tur va toifadagi yaramaslar vatanparvarlikdan panoh izlaydigan bo’ladilar”. Amerika universitetidan Sesiliya O*Liri vatanparvarlikni namoyon etish o’zini militarist, “yirtqich” va oq tanli ingliz-sakson erkak mavqeida ajratib ko’rsatishni anglatadi. Jorjiya universitetidan professor Betti Jin Kreyg vatanparvarlik «harbiy jasorat bilan mustahkam bog’liqligi “sababli unga hujum qiladi. Xofstra universitetidan professor Spironing ma’qullab ta’kidlashicha, “xalqaro ma’noda “biz” so’zini qo’llash tobora qiyinlashib borayapti. Ilgari odamlar bu so’zni o’zining milliy davlat bilan o’zaro munosabatdoshligini ifodalash uchun ishlatishardi, biroq bugungi kunda bu tilga olingan munosabatdoshlik aniq bir shaxsning xalqaro darajadagi manfaatlarini va hatto sodiqligini ifodalashi shart emas”¹.

Ikkinchchi nuqtai nazarni ifodalovchilar sifatida ko’pincha Rossiya olimlari maydonga chiqmoqdalar. Bu nuqtai nazarning mohiyati shundan iboratki, ba’zi olimlarning fikricha, mamlakatga o’z ma’naviy qadriyatlarini qayta tiklash va rivojlantirishda yordam beradigan davlat mafkurasini joriy etish lozim. Masalan, S.B.Ahmetov shunday yozadi: “Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyasida (13-modda, 12-band) aytildiki, Rossiya Federatsiyasida mafkuraviy ko’p xillik tan olinadi va hech qanday mafkura davlat yoki majburiy mafkura sifatida belgilanmaydi. Fikrlashimizcha, bu o’rinda qonun chiqaruvchilar o’ylab ko’rishlari lozim bo’lgan bir masala bor: davlat rasmiy mafkuraga ega bo’lishi mumkinmi, to’g’rirog’i – u rasmiy mafkuraga ega bo’lmasligi mumkinmikan? “Davlat” va “mafcura” - bir-biri bilan mustahkam bog’liq tushunchalardir. Davlat o’z vazifasini ro’yobga chiqaradigan siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga da’vat etilgan. RF Konstitutsiyasida (7-modda, 1-band) Rossiya Federatsiyasi ijtimoiy davlat bo’lib, uning siyosati insонning munosib hayot kechirishini va erkin rivojlanishini ta’minlovchi shart-sharoitlarni yaratishga qaratilganligi belgilab berilgan”².

Muallif fikrining davomiga, bu gal uning mafkura bilan siyosat birligi to’g’risdagи qaratishlariga e’tibor beraylik: “Mafkura va siyosat o’zaro teran bog’liqdir. Birinchisi ikkinchisiga ideallar va qadriyatlar tizimini in’om etadi, maqsadlarni tanlashda yordamlashadi, siyosatni yo’naltirib turadi. Siyosat o’z mohiyatiga ko’ra chuqr mafkuraviyidir. Mafkura asosida siyosiy maqsad shakllanadi va uni ruyobga chiqarish vositalari tanlab olinadi, bu maqsadni qo’llab-quvvatlash va unga erishishda ishtirok etish uchun ijtimoiy qatlamlar safarbar etiladi”³.

¹ Хантингтон С. Кто мы? Вызовы американской национальной идентичности. Ингл. тилидан А. Башкиров таржимаси. – М.: ООО “Издательство АСТ”: ООО “Транзиткнига”, 2004. – Б. 423-424.

² Ахметов С.Б. Роль идеологии в формировании стратегии обеспечения национальной безопасности Российской Федерации // Национальная безопасность России: проблемы и пути обеспечения. Мақолалар тўп. З-чик. А.А.Прохожев, С.В.Смульский умумий таҳ. остида. – М.: РАГС, 2005. – 16-б.

³ Ўша жойда.

Muallifning so'zlari ustida jiddiy o'ylab ko'radigan bo'lsak, umuman olganda, uning ma'lum darajada haq ekanligini anglaymiz. Milliy daxldorlik nuqtai nazaridan mafkura, siyosat va davlat o'zaro mustahkam bog'liq tushunchalardir. To'g'ri foydalanilgan va majburan hukmron qatlamga xizmat qildirilmagan holda, mafkura millatning insoniyat jamiyatni ichidagi o'ziga xos alohida yaxlitlik sifatida o'z-o'zini saqlab qolishiga yordam beradi. Millatni umuman hamda uning alohida xususiyatlari va guruhlari bilan saqlash zarur. Ushbu jarayonni davlat va jamiyat miqyosida izga solib turish qulayroqdir.

Xullas, ko'rayapmizki, ma'naviy qadriyatlari nuqtai nazaridan zamonaviy davlat va jamiyat qanday bo'lishi lozimligi to'g'risida ikki xil qarama-qarshi fikr mavjud. Xo'sh, qanday yo'l tutmoq lozim? Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish g'oyasini ilgari surish bilan vujudga kelgan bu murakkab tanlovni muvaffaqiyatli hal qildi. Mazkur mavzu uning asarlari va nutqlarida o'z ifodasini topgan.

2. Fuqarolik jamiyatni axboriy tajovuzkorlikdan himoyalanish vositasi sifatida

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xalqlar orasidagi axborot aloqalari jadal kengayib borayotganligi ko'plab foya keltiradigan tabiiy jarayondir. Jahon miqyosida o'zaro ta'sir ko'rsatishning hozirgi bosqichiga xos xususiyat shundan iboratki, bilim egallamagan har qanday jamiyat tezda tanazzulga yuz tutadi, moddiy boylik endi ilgarigi davrlardagi kabi qadrli emas va o'z egalariga kutilgan barqarorlikni ato qilolmaydi. Bugungi kunda bilim, birinchi navbatda, manbai ochiq axborot tizimlaridan iborat bo'lgan bilim asosiy boylik bo'lib qoldi.

Fuqarolik jamiyatining xususiyatlari nimalardan iborat? Milliy fuqarolik jamiyatni o'z aholisini axborot tahdidlaridan himoya qilish muammosini hal etishga qodirligi nimalarda ko'rindi?

Azaldan jamiyat mohiyat e'tibori bilan ancha milliy mazmunda shakl topgan, davlat tizimi esa ko'pgina mamlakatlarda o'xshash va birdek shaklga ega. Jamiyat eng avvalo o'z fuqarolarining manfaatlarini muhofaza qiladi, davlat apparati esa, jumladan, korporativ manfaatlar himoyasida turadi. Albatta, mamlakat taraqqiyotining murakkab davrlarida davlatni mustahkamlash zaruriyati dolzarb bo'lib turadi, chunki davlat jamiyatni himoya qiladigan, uni barbod bo'lishdan asraydigan kuchdir.

Ko'pincha davlat mamlakatni boshqaruvchi kamsonli apparat deb tushuniladi, fuqarolar unga o'zleri ustidan hukmronlik qiluvchi tizim sifatida munosabatda bo'ladilar. Jamiyat esa ko'p sonli bo'lib, unga mamalakatning butun aholisi kiradi. Kelib chiqishi jihatidan davlatdan ko'ra jamiyat insonga qadrdonroqdir.

Jamiyat shaxs ma'naviyatiga, uning shaxsiyat sifatidagi dunyoqarashiga, his-tuyg'ulari va erkinligiga yaqinroq turadi. Bir qadar og'irlashgan merosga ega davlat avvalgi zamonlarda omma erkinligini cheklash apparati bo'lib keldi, shu boisdan kishilar shuurida ba'zan ularning huquqlariga nisbatan tajovuz qiluvchi kuchdek tasavvur tug'diradi. Axborot davrida davlat o'zgarib borayotgan bo'lsa-da, fuqarolar unga baribir ma'lum darajada ishonqiramay qaraydi, chunki u har qanday daqiqada vujudga kelgan muammolarni kuch ishlatib hal etish usuliga qaytishi mumkin.

Axborot xavfsizligining har xil turlari ikkita katta guruhg'a – texnikaviy va mafkuraviy axborot guruhlariga birlashadi. Axborot-psixologik xavfsizlik asosan mafkuraviy xavfsizlikni nazarda tutadi. Shu jihatdan O'zbekiston aholisi uchun globallashuvning ommaviy madaniyat singari nuqsoni qabul qilib bo'lmas hodisadir. Bugungi kunda u gazeta-jurnal sahfalari, radio efiri va televidenie ekranli orqali keng

ommani egallab olayapti. Bunday madaniyat mamlakatimiz yoshlariga ham sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" kitobida o'zbekistonliklarning ma'naviy namuna-mo'ljallariga doir ko'pgina holatlarni to'g'ri urg'ulab berdi. Ommaviy madaniyatga munosabat bildirib, u shunday deydi: «Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatları, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi”¹.

Mafkura – bu muayyan hayotiy amaliyotning nazariy ifodasidir. Har bir xalq o'z hayotiy amaliyotiga ega. Har qaysi shaxs, oila, qavm, jamoa o'z qadriyatları, ma'naviy bilimlari, yo'l-yo'riqlari bilan yashaydi.

Jahondagi turli mamlakatlarda ma'naviyatsizlik jadal oshib borayotganligi axborot davrining qonuniyatlaridan biriga aylanib qolmoqda. Rossiya fuqarolari milliy ma'naviyatni boy berayotganliklarining sabablarini ko'rsatib bergen E.M.Brandman shunday deydi: "Rossiya jamiyatining axborot xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy omil nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun rivojlanishning bozor mexanizmlariga yo'naltirilgan yangi madaniy paradigma tanlanishi qisqa muddatda aholining, ayniqsa yosh avlodning ijtimoiy ongini o'zgartirib yubordi, nafaqat ijtimoiy qadriyatlar va ideallarda, balki inson fe'l-atvorining me'yoriy modellarida ham o'zgarish yasadi. Bunday tanlovning oqibati jamiyatning ma'naviyati ancha pasayishidan va millat mentalitetining insonparvarlik mazmuni qabul qilinmaslidan iborat bo'ldi"².

Bozor munosabatlariga asoslangan taraqqiyot yoshlarni iste'molchi deb aytish joiz bo'lmasa ham, lekin pragmatik qilib qo'yayotgani oydin ko'rinish turibdi. Biroq, afsuski, yoshlar buni yo tushunishmaydi, yoki juda kech anglab etishadi. Avloddan–avlodga vaziyat qiyinlashib, unda ham ancha jiddiy ravishda yomonlashib borishi mumkin.

Bu g'alati tuyulishi ehtimol, lekin axborot asrida rivojlangan mamlakatlardagi ko'pgina jamiyatlarning ahvoli asta-sekin dramatik mazmun kasb etib borayotganligi bor gap. Ma'naviyat amalda unutib yuborilayapti, u o'z o'rmini tezda ko'ngilochar mavzularga bo'shatib berayotir. Ma'naviyatsizlik G'arb jamiyatlarining ustuvor xususiyatlaridan biri bo'lib qolyapti. Haddan ziyod ratsionallashuv g'olib kelmoqda va, buning dialektik natijasi o'laroq, gedonizm¹ kuch-quvvatga to'lib, keng quloch yozmoqda.

Barcha xalqlarda fuqarolik jamiyat turlicha ekanligining sababi shundaki, jamiyat millatning mentalitetiga ko'p jihatdan bog'liqidir. Mentalitet esa – urf-odatlar, an'analar, ya'ni, pirovard natijada, ma'naviyat demakdir. Fuqarolik jamiyat ma'naviyidir va

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият - ёнгилмас куч. – Т.: "Маънавият", 2008. – Б. 179.

² Брандман Э.М. Глобализация и информационная безопасность. – М.: ГБИП, 2007. – Б. 163-164.

¹ Гедонизм – хузур-халоватга интилиш инсонга хос олий хислат деб хисобловчи таълимот.

ma’naviyatga asoslangandir. A’zolarining aksariyat qismi ma’naviy etuk bo’lgan jamiyatgina etuk fuqarolik jamiyati bo’la oladi.

Fuqarolik jamiyati bilan aniq tsivilizatsiya orasidagi o’zaro munosabatlar masalasi ham qiziqlarlidir. O’z mohiyatiga doir xususiyatlariga ko’ra bunday tamaddun davlatga qaraganda jamiyatga yaqin turadi. Davlat ham, jamiyat ham dunyoviy bo’lishi mumkin, biroq davlatga nisbatan jamiyat o’z tamadduniga yaqinroq turadi. Davlat mamlakat turmush tarzining qobig’i bo’lsa, jamiyat uning mazmuni, mohiyati hisoblanadi.

Axborotlashuv davrida demokratik davlat barbod bo’lishi yoki kuchli fuqarolik jamiyatiga aylanmagan holda, buzilib, diktatorlik tarzini kasb etishi mumkin.

Mamlakatlar o’rtasidagi hamkorlikka oid ko’pchilik takliflar negizida ularning milliy manfaatlari yotadi. Ba’zi mutaxassislar va davlatlarning to’g’ri g’oyalari boshqalar tomonidan qabul qilinmaydi. Lekin milliy o’ziga xoslikni ham, umuman er yuzidagi hayotni ham saqlab qolishning o’zga yo’li yo’q.

Yangi jamiyat qurishning Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan beshta tamoyilidan birini eslash joizki, unga binoan O’zbekistonda davlat islohotlar tashkilotchisidir. Bu tamoyil kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o’tishda asos bo’lib xizmat qiladi, biroq ayni bir paytda u ob’ektiv qarama-qarshilikka ham ega. Ushbu qarama-qarshilikning mohiyati shundan ibratki, fuqarolik jamiyatiga o’tilishiga boshchilik qilayotgan davlat asta-sekin o’z vakolatlaridan fuqarolik jamiyati foydasiga voz kecha borishi kerak. Vaqt kelib uning zimmasida ko’proq mudofaa, ichki xavfsizlik, soliq tizimi va davlatchilikni tashkil qilishga doir boshqa vazifalar saqlanib qolishi lozim. Jamiyatni boshqarishning boshqa shakllarini davlat *ixtiyoriy ravishda* boshqa fuqarolik institutlariga berishi darkor. Gap shundaki, ko’p sonli davlat xizmatchilari o’z hokimiyatidan va uning bilan bog’liq imtiyozlari hamda vakolatlaridan ko’ngilli ravishda voz kechishlari lozim bo’ladi, bu esa jiddiy qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Bunday muammo faqat O’zbekistongagina xos emas. Shu ma’noda A.I.Solovev G’arbga oid diqqatga sazovor fikr bildirgan. U shunday yozadi: “G’arbda davlat ma’muriyatini isloh qilishga doir choralarning qariyb 70 foizi boshqaruv sohasidagi aksilogik tuzilmalarni (axloq-odob kodekslari, ma’naviy rag’batlantirish tizimi va amaldorlarning boshqa “axloqiy yutuqlari” me’yorlarini) takomillashtirish bilan bog’liq”¹. O’ylaymizki, hech bir davlatda hokimiyat tepasida turgan tuzilmalar o’z vakolatlarini, ayniqsa, ularga moddiy yoki siyosiy dividendlar olib keladigan vakolatlarni jamoat tashkilotlariga ixtiyoriy ravishda topshirishga moyil emasdirlar. Biroq fuqarolik jamiyatini qurish – hozirgi davrning global qouniyati hisoblandi. Shuning uchun bu ishni ayrim davlat xizmatchilarining manfaatlaridan qat’i nazar, lekin ayni paytda ularning shaxsiy huquqlarini poymol qilmagan holda amalga oshirish lozim bo’ladi.

3. O’zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo’llari

Ushbu muammoni hal etishning qanday shakllari va usullari mavjud? Fuqarolik yo’nalishidagi ijtimoiy institutlarni har tomonlama rivojlantirish bilan bir paytda ularning milliy o’ziga xosligini saqlab qolish O’zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning metodologik asosi hisoblanadi.

¹ Соловьев А.И. Трансъединственные структуры как форма строения и источник саморазвития государства // “Политические исследования”. 2006. № 6. – Б. 12.

Ijtimoiy institutlar nima degani? Katta izohli sotsiologik lug'at mualliflari bu tushunchaga quyidagicha izoh beradilar: "Institut – fe'l-atvor qoidalari va standartlashtirilgan modellarining belgilab qo'yilgan tartibi"².

Atamaga "Falsafiy entsiklopedik lug'at" mualliflari ancha keng ta'rif keltirganlar: "Ijtimoiy institut - ijtimoiy tuzilma unsuri, ijtimoiy hayotni tashkil etish va boshqarib turishning tarixiy shakllari. Ijtimoiy institutlar yordamida odamlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning jamiyatdagi faoliyati, yurish-turishi tartibga solib turiladi; ijtimoiy fe'l-atvor va xatti-harakatlarning barqaror shakllarini belgilab beruvchi ijtimoiy me'yorlar va madaniy namunalar majmui; shu me'yorlarga muvofiq keladigan fe'l-atvor tizimi"³.

Keyingi fikrdan ko'rib turganimizdek, ijtimoiy institut - g'oyat keng, lekin shu bilan birga to'liq konkret tushunchadir. Mutaxassislarning asosiy ko'pchiligi ham shunday fikrdadirlar. "D.Nortga ko'ra, - deb yozadi A.Kazantsev, - institutlar mohiyatan rasmiy (qonunlar, xalqaro shartnomalar va h.k.) hamda norasmiy (qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar) fe'l-atvor qoidalardir..."⁴. Biz fikr yuritayotgan mavzu uchun bu etakchi nizom bo'lib xizmat qiladi. Chunki ijtimoiy institutlar faqatgina tashkiliy (ya'ni moddiy) tuzilmalar va huquqiy hujjalarning emasligi aniq-tiniq bayon etilmoqda. Ma'naviy qadriyatlar – an'analar, urf-odatlar va boshqa shu kabilar ham ijtimoiy institut hisoblanadi.

Bu jamiyatlarning milliy xususiyatlarini saqlab qolish dolzarbligi keskin oshayotgan axborot asri uchun printsipial ahamiyatga ega. Zero, har bir xalqning ma'naviy qadriyatlarini tashkiliy va huquqiy institutlarga qaraganda minglab yillar, balki undan ham uzoqroq davr mobaynida shakllanib kelgan. Binobarin, bir necha o'n yillik axborot asri ularni bekor qila olmaydi va bekor qilmasligi ham kerak, chunki bu insoniyat madaniyati uchun jiddiy yo'qotish bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning o'tish davrida davlat islohotlar tashkilotchisi bo'lishi haqidagi fikriga qaytib, ta'kidlash lozimki, davlat bu rolini faqat mamlakatimizda bozor munosabatlarining shakllanish bosqichidagina emas, balki butun fuqarolik jamiyatiga o'tish davrida saqlab qoladi. Bunday jamiyatga o'tilishi nuqtai nazaridan 1991-2000 yillar davlatning o'zgartiruvchilik faoliyatida dastlabki bosqich bo'ldi, deyish mumkin. Umuman olganda, axborotlashgan jamiyatda davlatning islohotchilik roli uning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ommaviy madaniyat tajovuzkorligi sharoitida bu rol O'zbekistonda, eng avvalo, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishdan iborat. Shunday ekan, ijtimoiy institutlarni shakllantirish va mustahkamlash mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy yo'nalishi bo'lmog'i lozim. Davlatimiz rahbari bunga har doim bиринчи darajali ahamiyat berib kelganligi uning ko'pgina asarlarida, imzo chekkan hujjalarda o'z tasdig'ini topgan. Bu hujjalarda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni vujudga kelishining shu vaqtgacha bo'lgan tajribasi umumlashtirilibgina qolmasdan, uning bunday keyingi shakllanib va rivojlanib borish yo'llari ham belgilab berilgan. Ularning asosiyлари quyidagilardir.

² Большой толковый социологический словарь (Collins). 1-ж. (А-О). Ингл. тилидан таржима. М.: "Вече": ACT, 1999. – Б. 209.

³ Философский энциклопедический словарь / Л.Ф.Ильичев, П.Н.Федосеев ва бошқ. – М.: "Сов. Энциклопедия", 1983. – Б. 209.

⁴ Казанцев А.А. Центральная Азия: Институциональная структура международных взаимодействий в становящемся регионе // "Политические исследования". 2005. №2. – Б. 78.

1. O'zbekiston aholisining milliy a'analari va mentalitetini, milliy davlat qurish bobidagi ko'p asrlik tajribasini hisobga olib, fuqarolik jamiyatni asoslarini rivojlantirish, jamiyatni boshqarish tuzilmalari sifatida hokimiyat institutlarini shakllantirish.

2. Fuqarolik jamiyatini qurish sohasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rghanish.

3. Odamlar siyosiy –huquqiy ongining tadrijiy rivojlanishi.

4. Qonunchilik hujjatlari loyihalarini tayyorlash, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini, uning jamiyat va davlat boshqaruviga jalb etilishini oshirish.

5. Jamiyat hayotining barcha sohalarida nohukumat va notijorat tashkilotlarining izchil ravishda kuchaytirib borish.

6. Ayrim hokimiyat vakolatlarini asta-sekin jamoat tashkilotlariga berish yo'nalishlari va mexanizmlarini ishlab chiqish, ijroiya hokimiyati kengroq ma'noda davlat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

7. Sud-huquq tizimini demokratlashtirishni chugurlashtirish, mazkur tuzilmalarining mustaqilligi va ta'sirchanligini mustahkamlash, jamiyat hayotining barcha sohalarida va davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlash.

8. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng muhim sharti so'z erkinligi, siyosiy va fuqarolik erkinliklari kafolatlarini ta'minlash.

9. Fuqarolik jamiyati tashkil topishi va rivojlanishining eng muhim shartlari o'laroq shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamolga etkazish va fuqarolarni ma'rifatli qilishga, ularni va eng avvalo yoshlarni kishilar ongi va dunyoqarashiga buzg'unchi ta'sir ko'rsatishga bo'lган intilishlardan himoya qilishga, bu muammolarni hal etishda oilaning rolini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish.

10. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida millatlararo, dinlararo munosabatlarni tahlil qilish; shaxsni man'naviy tarbiyalash va kamolga etkaza borishning samarali tizimini yaratishga, milliy qadriyatlar va an'analarni, jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlab qolishga doir takliflarni ishlab chiqish.

O'zbekistonda ko'plab yo'nalishlar: huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, axloqiy yo'nalishlar bo'yicha fuqarolik jamiyatiga o'tish bir vaqtning o'zida yuz bermoqda.

Quyidagilar mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurishning aniq yo'nalishlari hisoblanadi:

1. Siyosiy partiylar va harakatlarni rivojlantirish.

2. Nodavlat, notijorat tashkilotlar.

3. Insonga, uning oilasiga juda yaqin turuvchi mahalla.

4. Ommaviy axborot vositalari.

5. Kasbiy uyushmalar: O'zbekiston Faylasuflar jamiyati, Kinematografchilar uyushmasi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi va boshqalar.

6. Jamoatchilik birlashmalari va jamg'armalari.

7. Diniy tashkilotlar va boshqalar.

Bu institutlarning barchasi fuqarolarni o'z vakolatlari doirasida, o'z nizomlariga va faoliyat printsiplariga muvofiq, lekin umuman uddaburonlik bilan va har tomonlama, davlat institutlariga nisbatan inson manfaatlarini yaxshiroq ifodalagan holda himoya qiladilar.

Shunday qilib, ko'rinish turganidek, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish osonlik bilan bo'lmaydi. Buning uchun albatta o'rta bo'g'inni – ijtimoiy institutlarni mustahkamlash zarur. Ularning barchasiga birdaniga kuch bag'ishlab ham bo'lmaydi. Demak, ishni ustuvor ahamiyatga ega bo'lganlaridan boshlab, boshqalarini

ular yordamida ko'tarib olish lozim. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tajribasi zarur qonunchilik bazasini yaratish, iqtisodiyotni liberallashtirish, sud-huquq tizimini isloh qilish, ko'p fikrlilikka asoslangan OAV tizimini oyoqqa turg'azish, nohukumat tashkilotlarini shakllantirish va boshqa bir qator sohalar biz uchun shunday ustuvor institutlar ekanligini ko'rsatmoqda. Shubha yo'qki, vaqt kelib mamlakatda ana shu institutlardan to'laqonli va kuchli fuqarolik jamiyati vujudga keladi. Bu ham globallashuv oqibatlaridan biridir.

Jamiyat globalistlar qo'lidan kelmaydigan ishni qilishga - milliy xarakterga ega bo'lgan muqobil axborot olamini vujudga keltirishga qodirdir. Va bu olam shaxsga okean ortidan keladigan axborotga qaraganda yaqinroq va qadrdonroqdir.

SSSR barbod bo'lgach, sobiq sovet davlatlari g'oyaviy-madaniy asoslarga qaraganda ko'proq iqtisodiy va siyosiy asoslarda o'zaro muloqot qilib turishni afzal bildilar. Ayni paytda sotsiologik so'rovlar ochiq-oydin ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston aholisi Rossiya televideniesi kanallarini ommaviy va barqaror ravishda tomosha qiladi, O'zbekiston MTRK rahbarlari esa bu fakt haqida lom-mim demaydilar. "De yure" bilan "de fakt" o'rtaсидаги bunday farqni bartaraf qilish lozim, deb hisoblaymiz.

Fuqarolik jamiyatini bunyod etish O'zbekiston Respublikasi kelajakdag'i rivojlanishining belgilovchi omili bo'lib qoldi, deb hisoblovchi J.Mavlonovning fikriga qo'shilish lozim. Muallif bu xususda shunday deydi: "Fuqarolik jamiyati ma'lum ma'noda islohotlar yo'naliшини belgilab beruvchi boshqaruvchi g'oyaga aylandi. Bunda ushbu kategoriya me'yoriy tabiatga ega bo'ldi va mavjud narsani emas, balki istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan voqeа-hodisani tavsiflashga xizmat qildi"¹.

Bobga xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkin.

Axborot globallashuvi barcha mamlakatlar uchun deyarli birdek muammolar yaratdi. Ulardan eng asosiysi - millatlarning o'ziga xosligini yo'qotish xavfi hisoblanadi. Bu sayyoramizning ijtimoiy ekologiyasini ancha kambag'allashtirib qo'yishi mumkin bo'lgan xatarli jarayondir.

Mamlakatni tanho boshqarish vakolatiga ega birdan-bir siyosiy institut bo'lgan davlatning vakolatlarini fuqarolik jamiyatining foydasiga chegaralash jarayoni ko'p asrlar ilgari boshlangan. Buning dastlabki belgilari Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridayoq bayon etilgan. Insoniyat asrlar davomida davlat hokimiyatini chegaralashning ko'plab usullarini ishlab chiqishda davom etdi, jamoat shartnomalari tizimi ular orasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Globallashuv jahon taraqqiyotining e'tiborli nuqtalarini keskin o'zgartirib yubordi. Azaldan mustahkam bo'lib kelgan davlat apparati o'zining axborot orqali ta'sir o'tkazish mavqeini boy bera boshladgi, uning ilgarigidek maqomda qolishi muammoga aylandi. Qarshilik ko'rsatishda davom etaverган va axborot-kommunikatsiya bobidagi yangiliklarni e'tiborga olmagan davlat reaktsion kuchga aylanadi. Bunday mamlakat muqarrar ravishda tsivilizatsiyaning katta yo'lidan bir chekkada qolib ketadi, bu xildagi davlat apparati esa vaqt etib samarasiz topilib, almashtiriladi.

O'zbekiston rahbariyati bu va boshqa vaziyatlarni hisobga olgan holda, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish g'oyasini ishlab chiqdi. Mazkur kontseptsiya mamlakatning hozirgi rivojlanish qonuniyatlarini eng maqbul darajada aks ettiradi. Siyosiy taraqqiyot jarayonida urg'uni davlatdan jamiyat tomon o'zgartirib borish - davrimizning ob'ektiv ehtiyojidir.

¹ Мавлонов Ж. Ҳозирги замон фуқаролик жамияти // "Жамият ва бошқарув". 2008. № 2. – Б. 70.

Shuni qayd qilish o'rinligi, bugungi kunda O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini qurish etarlicha sur'atlarda olib borilayapti. Uning ijtimoiy institutlari: siyosiy partiylar, ommaviy axborot vositalari, nohukumat tashkilotlar, mahalla, yoshlarning "Kamolot" jamoatchilik harakati, jamiyatning xotin-qizlar, bolalar, sport va boshqa tashkilotlari asta-sekin kuchga to'lmoqda.

O'zbekiston sobiq sovet kengliklarida birinchilardan bo'lib printsiplial jihatdan muhim bo'lgan ishni amalga oshirdi – milliy mustaqillik mafkurasini ishlab chiqdi va o'z mamlakati fuqarolarining hayotiga joriy etdi. Bunday mafkurani davlat tatbiq etishi mumkin emasdi, chunki bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan taqiqlangan. Ushbu holatda fuqarolik jamiyati vakillari sifatida maydonga chiqqan olimlar uning tashabbuskorlari bo'ldilar. Bugungi kunda o'zbekistonliklarning milliy o'ziga xos va milliy asliga mos mafkurasi, milliy mustaqillik mafkurasi tizimi, umuman olganda, to'laqonli ko'rinishga ega. Biroq uni axborotning globallashuvi davri xususiyatlarini hisobga olgan holda to'ldirib borish zarur.

Xulosa sifatida aytish lozimki, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan taklif qilingan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish yo'li umumi metodologik asos bo'lib, nafaqat O'zbekistonga, balki aniq-ravshan ko'rinish turgan milliy o'ziga xoslikka ega boshqa davlatlarga ham axborot asri ziddiyatlaridan chiqish yo'lini topishda yordam beradi.

Takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish haqidagi g'oyasining mazmuni, mohiyati va metodologik ahamiyati.
2. Davlat, siyosat va mafkura tushunchalarining o'zaro uzviy bog'liqligi.
3. Axborotlashgan jamiyatda mafkuraning kerakligi va ko'rinishlari haqidagi bahslarga tavsif.
4. Axborot davrida ayrim yoshlarda pragmatik kayfiyatlar va ma'naviy qashshoqlik darajasi o'sishi.
5. Axborot asrida milliy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati.
6. Axborot jamiyatida davlat institutining islohotchi sifatida roli saqlanib qolishi.
7. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning ustuvor yo'naliishlari.

Seminar uchun savollar

1. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish g'oyasining ahamiyati.
2. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish yo'llari.
3. Ma'naviy qadriyatlari – asrlar, mingyilliklar davomida shakllangan boyligimiz, ularni saqlash zaruriyati.
4. Axborot davrida davlatning o'z ta'sirini saklab qolish zaruriyati.

XULOSA

O'zbekiston oliv o'quv yurtlarining o'quv rejasiga "Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik" fani o'quv dasturiga kiritilganidan keyin respublika matbuotida ushbu masalaga bag'ishlangan bir qator maqolalar e'lon qilindi, ularning bir qismi yuqoridagi boblarda tavsiflab o'tildi. Shunday bo'lsa-da, mavjud materiallarni, jumladan mazkur darslikni hisobga olgan holda, muammo etarli darajada to'liq ochib berildi, deb ayta olmaymiz. Shubhasiz, bu ish davom ettirilishi kerak.

Buning ustiga, axborot asri kirib kelishi bilan axborot talqini ham o'zgardi, endilikda unga ancha jiddiy qaraladigan bo'ldi. Axborotning insoniyat hayotidagi o'rni va roli chuqurroq his qilinishi natijasida axborot tushunchasini izohlashga yangicha yondashuv kelib chiqdi.

Ko'rib turganimizdek, axborotni shu tarzda talqin qilish tushunchaning o'zi bilan hamda uning ko'p sonli tuzulmaviy-funktional aloqalari bilan bog'liq bo'lган ko'pgina tasavvurlarni tubdan o'zgartirib yuboradi. Olimlarimiz, bizning o'zimiz ushbu majmuani qayta tafakkur qilishga tayyormizmi? O'ylashimizcha, u darajada tayyor emasmiz. Biroq bu nafaqat mutaxassislar, balki mamlakatimiz talaba yoshlaridan ham axborot muammosining, uning jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirining zamonaviy darajada tushunilishini ta'minlash uchun mas'ullikni soqit qilmaydi. Bu axborot asrining tub-zaminli qoidalaridan biri shundan iborat bo'lib, modomiki biz O'zbekiston shu davr, shu asr bilan baravar qadam tashlashini xohlar ekanmiz, olimlar yangi mayllarni tahlil qila olishlari, keng jamoatchilikni ular bilan tanishtirib borishlari lozim.

O'z-o'zidan ayonki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mavjudligi (kompyuterlar, Internetga ulanishlar, saytlar soni) va samarali amal qilishi nuqtai nazaridan bugungi kunda O'zbekistonda muayyan kechikishlar kuzatiladi. Lekin bosh masalada, madaniy o'ziga xoslik bobida mamlakatimiz azaldan mustahkam mavqeni egallab kelayapti. Bu sohada O'zbekiston sayyoramizda unchalik ko'p bo'lмаган o'ziga xos madaniy xususiyatlarga ega noyob davlatlar sirasiga kiradi. Mamlakatimizni vatan tutgan xalqlarning minglab yillik shakllanish tarixining o'ziyoq bunga imkon yaratgan. Bundan ikki yarim ming yil muqaddam, otashparastlik davrida Xorazm hududidagi mahalliy elatlar tavhid-yakka ilohlik noyob falsafasiga birdan-bir asos bo'lib xizmat qilgan yuksak darajada rivoj topgan turmush tarzi va madaniyatiga ega edi. Otashparastlik qadimiy yunon Olimpiyasiga qaraganda ancha taraqqiyatparvar dunyoqarash o'laroq namoyon bo'ldi.

O'sha davrdan to bugungi kunga qadar O'zbekiston tarixi tabiatshunoslik, falsafa, ilohiyatshunoslik, tibbiyot va mamlakatimiz izchil va ishonchli qadamlar bilan ildam bosishi uchun mustahkam poydevor yaratib bergen boshqa sohalarda ko'plab buyuk yutuqlardan iboratdir. Davlatimiz muvaffaqiyatlarini to'laligicha baholash uchun biz shveytsariyalik olim Karl Yung asos solgan arxetipler nazariyasiga murojaat qilishimiz mumkin. Shu nazariyaga muvofiq, xalqning navbatdagi har qaysi avlodining aql-zakovat bobidagi yutuqlari shundan keyingi avlodlariga jamoaviy beixtiyoriy ong tarzida, ya'ni arxetipler ko'rinishida namoyon bo'ladigan miya tuzilmalari orqali o'tadi.

Izchil ravishda amalga oshib boradigan bu jamlama asrlar va ming yilliklar osha avloddan-avlodga o'tishda davom etadi. Natijada, millatning aql-idrok bobidagi imkoniyatlari uning genofondi sifatida asta-sekin to'planib boradi. Tabiiyki, tarixi qadimiy bo'lмаган millatlar bunday genofondga ega emasdirlar. Albatta, bu tarixga va insonga jo'n yondashuv hisoblanadi, lekin u printsip jihatdan to'g'ridir. Tarixning o'zi

shu tariqa insoniyatni tasodiflardan, jahonda etakchilikka da'vogarlik qiladigan avantyurachi to'dalar vakillaridan ixota qiladi.

“Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik” fanini o'rganishdan kelib chiqadigan asosiy xulosa - bir qator millat va elatlар xatosini takrorlamaslikdan, had-hududsiz elektron axborot kengliklarida yo'qolib qolmaslikdan iborat. Axborot singari makon va zamonda ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Makon virtual vogelikda substantsional kategoriya sifatidagi mavjudligini boy berdi –efir va kabel orqali axborot bir sekundda er kurrasini bir necha marta aylanishga ulgurib, yorug'lik tezligida etkaziladi. Ikkinci jihat xususida professor Ya.N.Zasurskiyning Internet sayyoramizni yigirma to'rt soatlik jamiyatga aylantirdi va real vaqt rejimida ishlaydi, degan so'zlarini eslash mumkin. Hozirgi davrdagi axborotning xususiyatlari haqida yuqorida bayon qilib o'tildi. Shunday qilib, bashariyat taraqqiyotidagi yangi bosqichning makon, zamon va axborotdan iborat uchala asosiy o'lchamining hammasida tub o'zgarishlar yuz berdi.

Tabiat, jamiyat va insondagi ana shu printsiplial o'zgarishlarni tushunib va anglab etish O'zbekiston olimlari va ertaga hayotning hamda ishlab chiqarishning turli sohalarida yuksak bilimli mutaxassislar safini to'ldiradiganlar oldida turgan vazifa hisoblanadi. Hech bir mamlakat insoniyat tamaddunining katta yo'lidan chetda qololmaydi, ertami-kechmi, xalqlarning barchasi axborot davri doirasiga kirib keladi. Shunday bo'lgach, buni barvaqtroq va to'g'ri amalga oshirish maqbuldir. Barvaqt deganda – mazkur jarayonni texnik jihatdan ta'minlash tushuniladi. To'g'ri deyilganda – qandaydir xayoliy, shubhali qadriyatlar qa'rida yo'qolib ketmaslik, o'zining madaniy qiyofasi-timsolini boy bermaslik nazarda tutiladi.

Shunga ko'ra, o'z an'analarimiz, marosimlarimizni avaylab asragan, himoya qilgan holda, millatlarning jahon hamjamiyatida o'ziga xos qiyofasiga ega xalq sifatida qolmog'imiz lozim. Har bir an'ana, har qaysi urf-odat yoki marosim – xalqlarimizning ko'plab asrlar davomidagi taraqqiyoti hosilasi bo'lib, tarixning, hayotning uzoq davr mobaynidagi sinovlariga dosh bergen. Axborot asrining muvaqqat qadriyatlari ta'siri ostida bu yutuqlarimizdan shundoq voz kechib qo'ya qolishimiz mumkin emas. Hali axborot davri qancha davom etadiyu, uning oqibatlari nima bo'ladi, buni hech kim ayta olmaydi. Bunday shubhalanishlarga sabablar keragidan ham ortiqcha – yadro va o'ta aniq mo'ljalga otuvchi qurollar, sayyoramiz ekologiyasining halokatli yomonlashib borishi, OITS, turli xil gripp va boshqa kasalliklar tarqalishi. Lekin, ayniqsa, odamlar, eng avvalo, yoshlар dunyoqarashiga o'nglab bo'lmas darajada zarar etkazadigan begona axborotdan saqlanish lozim.

Shu boisdan hammamiz Prezidentimiz I.A.Karimovning “Shuni unutmaslik kearakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinxaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin”⁵, - degan so'zlarini yodda tutmog'imiz darkor.

⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. – 115-6.

«OCHIQ AXBOROT TIZIMLARIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK» KURSINING DASTURI

1-mavzu. FANNING DOLZARBLIGI, MAQSAD HAMDA VAZIFALARI, ASOSIY TUSHUNCHALARI (2 soat)

Muammoning dolzarbliyi. Ommaviy ravishdagi axborot ta'siri sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning zarurligi. O'zbekiston aholisida ochiq axborot tizimlari sharoitida axborot bilan ishslash ko'nikmalarini hosil qilish. Axborot-psixologik xavfsizlik fan va ijtimoiy amaliyotning muhim yo'nalishi sifatida. Fanni kontseptual, metodologik va metodik jihatlardan o'rganish ehtiyoji. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga ilmiy yondashish: uzluksizlik, sobitqadamlik, rejalashtirilganlik, aniqlik, ishonchlilik, hammaboplilik, salohiyatlilik.

Fanning maqsadi – O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarining bir qator gumanitar mutaxassisliklari talabalarini ochiq axborot tizimlari bilan ishslash jarayonida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga o'rgatish.

Fanning vazifalari:

- axborot asri, axborotning globallashuvi, raqamli tengsizlik mazmuni va xususiyatlarini anglab etish;
- axborot bobida qarshi turish, «tamaddunlar (tsivilizatsiyalar) to'qnashuvi» va axborot-psixologik urush mohiyatini tushunish;
- O'zbekistonning milliy va axborot tizimlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- O'zbekistonda davlat, jamiyat va shaxsga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatilishi jarayonida ularning tutgan mavqelarini tadqiq etish;
- mamlakat axolisi axborot-psixologik xavfsizligining omili bo'l mish O'zbekiston milliy mustaqillik mafkurasining mohiyatiga etish;
- O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish kontseptsiyasini va uning mamlakat axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashdagi rolini tushunib etish.

Asosiy atamalar va tushunchalar: axborot; ommaviy axborot; jamiyatning axborotlashuvi; axborot tizimlari; axborot jarayonlari; axborot resurslari; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari; ochiq axborot tizimlari; axborotlashgan jamiyat; axborotlashgan asr; axborotning globallashuvi; milliy xavfsizlik; axborot xavfsizligi; axborot-psixologik xavfsizlik; raqamli bo'linish; «tamaddunlar (tsivilizatsiyalar) to'qnashuvi»; tamaddunlar muloqoti; axborot-psixologik urush; davlat, jamiyat va shaxs axborot bosimi sharoitida; fuqaroning psixologik himoyasi va o'z-o'zini muhofaza etishi; milliy mustaqillik mafkurasi; O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish kontseptsiyasi.

2-mavzu. AXBOROT ASRINING XUSUSIYATLARI. TEXNOLOGIK USTUVORLIK VA AXBOROT MUVOZANATINING BUZILISHI (2 soat)

Axborot davrining boshlanishi. XX asrning 60-80- yillarda axborot texnologiyalarining rivoji. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, ta'rifi va parametrlari. Sanoatlashuvdan keyingi (postindustrial) jamiyat nazariyasi (Deniel Bell). Axborot davri ta'rifi (Manuel Kastels). Axborot sohasida bozor mezonlari, ijtimoiy tengsizlik va korporatsiyalar hukmdorligi (Gerbert Shiller). Axborot, refleksiya va nazorat (Entoni Giddens).

Raqamli muvozanatsizlikni vujudga keltirgan omillar. Raqamli texnologiyalarga ega bo’lish ustuvorlikning alohida turi sifatida. Raqamli tengsizlikning mohiyati. Jahon hamjamiyatining bo’linib ketish asoslari: diniy, madaniy, mafkuraviy, harbiy va h.k. asoslar; ulardan har birining mohiyati. Raqamli bo’linishning o’ziga xos xususiyatlari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida etakchilik qiluvchilar tomonidan boshqa mamlakatlarga ikkinchi darajali va eskirgan texnologiyalarning berilishi.

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tengsizlik axborot muvozanatsizligi va ba’zi mamlakatlarning texnologik jihatdan boshqalardan ustunligi oqibati ekanligi. Milliy xavfsizlikning bevosita va bilvosita shakllari. AQShning milliy va axborot xavfsizlik strategiyasi. Rossiya Federatsiyasining milliy va axborot xavfsizligi. Boshqa mamlakatlarning axborot xavfsizlik sohasidagi hujjatlari, strategiyasi va taktikasi.

3-mavzu. AXBOROTNING GLOBALLASHUVI VA AXBORIY QARAMA-QARSHILIK. “TSIVILIZATSIYALAR TO’QNASHUVI” MUAMMOSI (2 soat)

Globallashuv tushunchasi. Globalashuv – jahon hamjamiyati hayotining XX asr oxiri – XXI asr boshidagi asosiy o’ziga xos xususiyati. Hozirgi ko’rinishdagi globallashuvning boshlanishi. Globalashuvning shakllari va turlari. Axborot bobidagi globalashuv boshqa turdagи globalashuvlarning umumiyl natijasi ekanligi. Hozirgi bosqichda ommaviy axborot globalashuvining mohiyati va asosiy jihatlari.

Jahon axborot makoni tushunchasi, uning ta’rif-tavsifi. Axborot maydonining hozirgi davrdagi shakl-shamoyili, miqyoslari va o’ziga xos xususiyatlari, uning geosiyosiy qarama-qarshilik maydoniga aylantirilish xavfi. Hozirgi bosqichdagi axborot davri da’vatlari hamda davlatlarning axborot bobidagi karama-qarshiligi.

Jamiyatning axborot infratuzilmasi. Axborot resurslari va texnologiyalari. Milliy va xalqaro axborot markazlari. Matbuot, radio va televideenie ochiq axborot tizimlari sifatida. Internet global, universal OAV sifatida, uning ochiqligi va cheklanmaganligi. Jahon Internet-hamjamiyatining o’ziga xos xususiyatlari. OAV bo’lgan Internetning afzalliklari va kamchiliklari. Zamonaviy OAV tizimining namunaviy modellari. OAVning tadrijiy rivojlanishi va o’xhash jihatlar hosil qilishi va ular taraqqiyotidagi interfaol bosqich.

Xalqaro axborot tartibi. Axborot oqimlari jadallahgan va milliy madaniyatlar turlicha bo’lgan sharoitlarda bu oqimni tartibga solish ehtiyojining oshishi. “Tsivilizatsiyalar (tamaddunlar, madaniyatlar) to’qnashuvi” muammosi (S.Xantington) va uning jahon matbuoti va fanida muhokama etilishi. Tamaddunlar muloqoti – yangi dunyoviy tartibni shakllantirishning asosiy yo’li.

4-mavzu. AXBOROT-PSIXOLOGIK URUSH – AXBORIY TAJOVUZKORLIKNING OLIY SHAKLI (2 soat)

“Axborot-psixologik urushi” tushunchasining murakkabligi. Axboriy ta’sir bilan axborot urushi orasidagi chegaraning yo’qolib borayotganligi. Axborot bosqinchiligi tushunchasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davlatlar tomonidan qoloq mamlakatlar aholisida o’sha ilg’or davlatlar turmush tarzi «to’g’ri», boshqalarniki esa “noto’g’ri” ekanligi haqidagi tasavvurni shakllantirishga bo’layotgan urinishlar. G’arb mamlakatlarining hamma joyda o’z madaniyati va qadriyatlarini yoyishga intilishlari. Ular tomonidan Sharq mamlakatlariga jamiyatning g’arbcha muvaffaqiyatli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilish tarzi haqidagi o’z tushunchalarining majburiy o’tkazilayotganligi.

Axborot quroli tushunchasi. Axborot qurolining ta'rif-tavsifi va parametrlari. Neyrolingvistik dasturlash. Axborot quroli yordamida ta'sir etish usullari: ishontirish, yolg'on xabarlar tarqatish, hiyla- nayranglar, ig'vogarliklar, do'q-po'pisa va h.k.. Qalbaki targ'ibot usullari: badnom qilish, ajoyib mavhumlik, so'zni bo'lib ko'chirish, obro'li kishilarni dastak qilib ko'rsatish, oddiy xalqchillik o'yinini o'ynash, qartalarni qayta chiylamoq, umumiyl platforma va h.k. Buzg'unchi ta'sir ko'rsatish yo'llari: masxara qilish, shiorlarni takrorlash, hayajonga soluvchi gij-gijlash, qalbaki tanlov, mish-mishlar (ularning tizimi, ko'rinishlari, asosiy yo'naliishlari, maqsadlari, amal qilish printsiplari, yoyilish shakllari), ig'vogarlik, "tashkiliy tartibsizlik" va h.k. Axborot quroli etkazadigan zararni aniqlash qiyinligi.

OAV axborot-psixologik urushni olib borish vositasi sifatida. Aholiga matbuot, radio, televiedenie va Internet yordamida ta'sir ko'rsatishning o'ziga xosligi. Radio-televizion va tarmoq xabarlarining kecha-kunduz davomidagi uzlusiz oqimi. Yangiliklarda tanlab olish, urg'u berish, bloklarni shakllantirish, faktlarni tuzib chiqish va talqin qilish printsiplari. Dunyodagi eng mashhur matbuot nashrlari, radio va televiedenie kompaniyalari, Internet saytlari. Jahon axborot maydoni monopoliya qilib olinishiga qarshi kurashish yo'llari.

5-mavzu. DAVLAT, JAMIYAT VA SHAXSNING AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI (2 soat)

Axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish sub'ektlari uch bo'g'inli tasnifining etarli emasligi, uni ijtimoiy institutlar va guruhlar bilan to'ldirish zarurligi. Globallashuv va davlat, globallashuvning yangi sharoitlarida davlatning yangicha mavqei. Axborot asrida ilgaridan davlatning so'zsiz hokimiyatini ta'minlab kelgan bir qator omillarning o'zgarishi. Bozor iqtisodiyoti, siyosiy ko'pfikrlilik va demokratiya sharoitida davlatning axborot oqimlari ustidan etakchi nazoratchilikni yo'qotishi. Mamlakat, mintaqa, qit'a va er kurrasi miqyosida shaxslararo, guruhlararo, institutlararo axborot almashuvining keskin oshganligi. Mamlakat axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning kafolati sifatida davlatni saqlab qolish zarurligi.

Davlat - mamlakat axborot-psixologik xavfsizligining tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi. Davlat tomonidan shaxs, jamiyat va davlatning axborot-psixologik xavfsizligini himoya qilishga oid tadbirlar majmuuning ishlab chiqilishi: tashkiliy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, kadrlar, texnika, til va h.k. sohalarda.

Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligining bir qator yo'naliishlari ta'rif-tavsifi. O'zbekiston aholisi axborot-psixologik xavfsizligining huquqiy himoyasi, uning bazaviy xarakteri, o'ziga xosligi va xususiyatlari. Bu sohadagi huquqiy hujjatlar, huquqni himoya qilish organlarining roli. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari axborot-psixologik xavfsizligining ma'muriy-tashkiliy himoyasi: tizimi, o'ziga xos xususiyatlari, shakllari va uslublari. Axborot-psixologik xavfsizlikning muhandislik-texnik himoyasi va uning o'ziga xosligi: kadrlar, dasturiy ta'minot, amalga oshirish sharoitlari. Axborot-psixologik xavfsizlikning ilmiy va o'quv-uslubiy ta'minoti: ularning zarurligi, tub-zaminli (fundamental) xarakteri, o'ziga xos xususiyatlari, mantiqan asoslanganligi, qo'llaniladigan usul va uslublar, ko'rgazmali vositalar.

Milliy o'ziga xoslik, asli-nasliga o'xshashlik (identivlik) O'zbekistonda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning shakli sifatida. Tamaddunlar divergentsiyasi va

konvergentsiyasi. Etnik-milliy va multikulturalizm birligi axborot globallashuvi asrining qonuniyati ekanligi.

6-mavzu. O'ZBEKISTON FUQAROSINING PSIXOLOGIK HIMOYASI VA O'Z-O'ZINI MUHOFAZA ETISHI (2 soat)

Shaxsning axborot-psixologik ximoyalanganlik tushunchasi. Inson – ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy tizimning asosi va bosh bo'g'ini. Inson psixologik holatining uning bilimiga, dunyoqarashi, g'oyalari, dini, e'tiqodiga, jamoaviy tuyg'usi, mas'uliyati, moddiy ahvoliga, talablari qondirilishiga va h.k. masalalarga bog'liqligi. Axborot asri shaxsining axboriy-ma'naviy mustaqilligi. Axborot bilan ishslashda shaxslar erkinligi. Shaxsiy saytlar sonining misli ko'rilmagan darajada o'sishi.

Inson ongi uchun kurash geosiyosatning yo'nalishi sifatida. Axborot manbalarining to'g'ridan-to'g'ri shaxslar bilan ishlashi axborot asrining qonuniyati ekanligi. Axborot bilan bevosita shaxsning o'ziga yuzlanish imkoniyatlarining keskin oshganligi. Shaxs psixologiyasi ochiq tizim sifatida. Shaxs psixologiyasida ongli va ongsiz unsurlar nisbati. Shaxs axborot-psixologik ta'sir o'tkaziladigan bosh ob'ekt va axborot tajovuzidan himoya qilinadigan sub'ekt ekanligi. Shaxsga axborot-psixologik ta'sir o'tkazish yo'llari va shakllarining ko'pligi.

Axborot tahdidlarining turlari va mazmunidan, ahamiyatidan shaxsning etarli darajada xabardor emasligi, axborot tajovuzi oldida uning amalda ojizligi. Shaxs o'zi yakka holda axborot tajovuzidan saqlanishi imkonsiz ekanligi. Shaxsning o'z qadriyatları mo'ljalini yo'qotib qo'yishining salbiy oqibatlari. Shaxsning hayotiy dasturlari, qadriyatları, motivlari, maqsadlari, xususiyatlarini parokanda qilib yuborish axborot vositasida ta'sir o'tkazishning maqsadi ekanligi. Davlat va jamiyat tomonidan shaxsning himoya qilinishi zarurligi.

Shaxsni himoyalashning oila, jamoa, ishlab chiqarish, jamiyat va davlatga oid shakllari. Shaxsni xalqaro va ichki OAVdan himoya qilish ehtiyoji. Milliy mafkura va asli-nasliga, ajdodlariga o'xhashi (identifikasiya) shaxsning jamiyat tomonidan himoya qilinishining asosiy shakllari sifatida. Shaxsning o'z jonajon tamadduni muhitidagi psixologik ahvoli. Shaxsning o'z-o'zini himoya qilishidagi sakkizta bazaviy mexanizm: almashtirish, proektsiya, kompensatsiya, regressiya, bostirish, inkor etish, reaktsiya va intellektuallashtirish. Shaxsning o'z-o'zini himoya qilishidagi psixologik algoritmi.

7-mavzu. AXBOROT ASRINING MAFKURASI. MILLIY MUSTAQILLIK G'OYASI – O'ZBEKISTONDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNING ASOSI (2 soat)

Globallashuv davrida mafkuraning o'rni va roli. Mafkura tushunchasi, uning turli mamlakatlarning mutaxassislari tomonidan har xil talqin etilishi. Axborot asrida mafkuruning texnik, etatik va stratifikatsion kontseptsiyalari. Axborot asri mafkurasining asosiy jihatlari. Axborot asri mafkurasiga qarashlarning asosiy to'rt xili: 1) yagona, umumsayyoraviy mafkura; 2) diniy-tsivilizatsion mafkuralar; 3) milliy mafkuralar; 4) mafkuruning nihoyasi (bartaraf etilishi).

Globallashuv va uning jamiyatga ta'siri, ijtimoiy katlamlari va mafkurasi. Fuqarolik jamiyatni institutlarining rivojlanishi: partiyalar, ommaviy axborot vositalari, notijorat nohukumat tashkilotlar, mahalla, "Kamolot" yoshlar harakati. Fuqarolarning milliy ma'naviyatini saqlashda milliy mafkuruning o'rni va roli. Mafkura millatning «yuksak madaniyati» ekanligi. Kosmopolitizm ideologiya sifatida. Ijtimoiy gedonizm

mafcura sifatida. Milliy mafcura – o'zbekistonliklar yangicha dunyoqarashining asosi. Axborot asrida jamiyatlarning yakka millatli xarakteri yo'qolishi. Er kurrasining etakchi davlatlariaro va tamaddunlararo munosabatlar.

Milliy mustaqillik mafkurasi, uning falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari. Dunyoning mafkuraviy xilma-xilligi, mafkuralarning globallashuvi. Turli mamlakatlar mafkuraviy siyosatining geosiyosiy maqsadlari, dunyoni mafkuraviy ta'sir jabhalariga bo'lishga urinish. O'zbekiston milliy mustaqilligi mafkurasining mamlakat, Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalar aholisiga ta'siri. Milliy mustaqillik mafkurasida umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi. Milliy mustaqillik mafkurasining bosh g'oyalari va asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston milliy mustaqilligi mafkurasining afzalliklari va uni yanada rivojlantirish yo'llari.

8-mavzu. O'ZBEKISTON OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI -

MAMLAKAT AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINING OMILI (2 soat)

Axborotning tanqidiy va ijobiy talqin etilishi, auditoriyaga ma'lumotlar etkazishda bunday yondashuvlar roli. Axborot bo'shlig'ini o'z axborotimiz bilan to'ldirishning ahamiyati. Mustaqillik davrida O'zbekiston OAVning tadrijiy rivojlanishi. O'zbekiston OAVning zamonaviy tizimi. Markaziy va mahalliy OAV, viloyat, shahar, tuman va ishlab chiqarish gazetalari, jurnallari, radio va televideenie. Matbuotning mantiqiy xarakteri. Umumsiyosiy gazetalar ta'rif-tavsifi. Gazetalarning o'quvchilar yoshi, jinsiga qarab (bolalar, o'smirlar, yoshlar, xotin-qizlar uchun), faoliyat sohalari va kasb-koriga (iqtisodiy, adabiy, huquqiy, sport, tibbiyot, kasaba uyushmalari, diniy va h.k.), qiziqishlariga (krossvordlar, hordiq chiqarish, reklama) va boshqa jihatlariga ko'ra ixtisoslashuvi. Mustaqil gazeta va jurnallar. Ilmiy va boshqa ixtisoslashgan (tarmoq) jurnalaring paydo bo'lishi respublika matbuotida yangi hodisa ekanligi.

Radio va televideenie dasturlarining farqlanishi (differentsiyatsiyasi). Televideenie va radioning 1, 2, 3, 4-kanallari ta'rif-tavsifi. O'zbekistonning butun aholisi teleko'rsatuvalar va radioeshittirishlar bilan qamrab olinganligi. Vatanimiz OAVning yaxshi yozish, sifatliroq ko'rsatuvalar va eshittirishlar tayyorlash, voqeа-hodisalarga zudlik bilan munosabat bildirish, ularni yaxshiroq sharhlash borasidagi vazifalari.

O'zbekiston OAV millat ma'naviy-ruhiy xolatining himoyachisi ekanligi. Mamlakat aholisini nekbinlik ruhida tarbiyalash. Aholini OAVning zararli ta'siridan asrash. Jurnalistika ishi odobining hozirgi bosqichdagi ahamiyati. Auditorianing OAVdan kutgani. OAVning auditoriyani barcha yangiliklardan, jumladan favqulodda hodisalardan xabardor qilish vazifalari. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning tanlama xarakteri, auditorianing har qaysi tabaqasiga kerakli materiallar o'ziga xos hajmi, mazmuni, muntazamligi, sifatiga ega bo'lishi lozimligi.

Axborot-psixologik xavfsizlik uslubiyatini shakllantirish zarurligi, auditorianing o'zini axborot foydali va zararli ekanligini ajratib olishga o'rgatish. Vatanimiz OAVning auditoriyaga yaqinligi va uning ishonchli vakillari ekanligi. Interfaol aloqalarni rivojlantirish zarurligi. Ikkala ochiq tizim – OAV va inson psixikasining o'zaro aloqadorligi. Media xavfsizligining huquqiy va axloqiy asoslari. Mediata'lism tizimi. Muharrirlarning o'z-o'zlarini haddan tashqari tsenzura qilishlari ehtimoliy salbiy oqibatlardan o'zlarini himoya qilish shakli ekanligi.

9-mavzu. FUQAROLIK JAMIYATIGA O'TISH – AXBOROT TAJOVUZKORLIGIDAN HIMOYALANISHNING SAMARALI SHAKLI (2soat)

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish zarurligi haqidagi g'oyasi jahon axborot makonining globallashuvi muammosini hal etish kaliti sifatida. Ushbu g'oyaning mohiyati, tarixi, rivoji. Bu mavzuni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish, uning yangi qirralarini ochish zarurligi.

Kosmopolitizm muammosi: tarafdarlar va qarshilar. Axborot davrining ijtimoiy indikatorlari. G'arb davlatlarining o'z qadriyatlari va ma'naviyatini dunyoning qolgan qismiga tiyiqsiz yoyishga urinishi boshqa mamlakatlarning ichki hayotiga aralashish ekanligi.

Mafkura, siyosat, davlat tushunchalarining milliy mansublik nuqtai nazaridan o'zaro chambarchas bog'liqligi. Zamonaviy davlat va jamiyat mafkuraga qanday munosabatda bo'lmosg'i kerakligi haqida ikki xil qarama-qarshi fikr. AQSh olimlarining kosmopolitizm hozirgi davrdagi ijtimoiy fikrning ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risidagi qarashlari.

Dunyoning turli mamlakatlarida ma'naviyatsizlikning oshib borishi axborotlashuv davrining qonuniyatlaridan biri ekanligi. Bozor munosabatlari sharoitida yoshlarda pragmatik kayfiyatlarning rivojlanib borayotganligi. Fuqarolik jamiyat bilan muayyan bir madaniyat (tsivilizatsiya)ning o'zaro munosabatlari. Axborot davrida fuqarolik jamiyat ma'naviy madaniyatining unsuri bo'lmissiz milliy ongni shakllantirish muhimligi. Etnik millatchilik har qaysi millatning o'ziga xosligi bo'lib, multikulturalizm axborotning globallashuvi sharoitida milliy jamiyat bilan jahon hamjamiyati o'rtaisdagi o'zaro munosabatlarga oid g'oyat murakkab masala echimining dasturiy varianti sifatida ularning yagona umumjahoniy asosda birlashuvi ekanligi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning metodologik asosi bo'lmissiz fuqarolik tipidagi ijtimoiy institutlarni butun choralar bilan rivojlantirgan holda, ularning milliy o'ziga xosligini ham saqlab qolish. Ma'naviy qadriyatlari ijtimoiy institut sifatida. Har bir xalqning ma'naviy qadriyatlari minglab yillar mobaynida, tashkiliy va huquqiy institatlarga qaraganda uzoqroq davr davomida shakllanib kelganligi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning o'tish davrida davlat islohotlar tashkilotchisi bo'lishi lozimligi haqidagi g'oyasi. Fuqarolik jamiyatiga o'tishning butun davri mobaynida davlatning shu roli saqlanib qolishi. 1991-2000 yillar – davlatning tub o'zgartiruvchilik faoliyatida dastlabki bosqich. 2000-2012 yillarda O'zbekistondagi islohotlar izchil ravishda davom etishi. Davlatning islohotchilik roli - uning axborotlashgan jamiyatdagi eng muhim vazifasi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatiga o'tishning asosiy yo'nalishlari va ustuvorliklari. Milliy mazmundagi muqobil axborot olamini vujudga keltirish xususiyatlari.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan taklif qilingan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish yo'li nafaqat O'zbekiston, balki aniq-ravshan ifodalangan o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega boshqa davlatlar uchun ham axborot davri ziddiyatlaridan chiqish yo'lini topishga yordam beruvchi umummetodologik asosdir.

ASOSIY ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z yangilanish va rivojlanish yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 1992.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-j. - T.: “O'zbekiston”, 1996.
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O'zbekiston”, 1997.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-j. - T.: “O'zbekiston” , 1997.
6. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: “O'zbekiston”, 1998.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – T.: “O'zbekiston”, 1998.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: “O'zbekiston”, 1999.
9. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-kudratimizga, hamjihatligimiz va qatiy irodamizga bog'liq. - T.: “O'zbekiston”, 2004.
- 10.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: “O'zbekiston”, 2009.
- 11.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
- 12.O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlarining to'plamlari. 2006, 25, 26-sonlar, 2007, №3,4, 11.
- 13.O'zbekiston Respublikasining 1989-2006 yillardagi Qonunlari to'mlami. 2006 yil 10 avgustgacha bo'lgan holat (o'zbek va rus tillarida). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti. Faqat PDF elektron formatida yaratilgan. – T.: 2006.
- 14.O'zbekiston Respublikasining Milliy Xavfsizlik Kontseptsiyasi. <http://G'G'lex.uz>.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasining Milliy Xavfsizlik Kengashi to'g'risida. <http://G'G'lex.uz>.
- 16.Mustaqillik himoyasida G' O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.: 2003.
- 17.Sbornik normativno-pravovo'x aktov v sfere svyazi i informatizatsii Respubliki Uzbekistan. – T.: Uzbeckskoe agentstvo svyazi i informatsii. 2006.
- 18.Axmetov S.B. Rol ideologii v formirovani strategii obespecheniya natsionalnoy bezopasnosti Rossiyskoy Federatsii G'G' Natsionalnaya bezopasnost Rossii: problemo' i puti obespecheniya. – M.: RAGS, 2005.
19. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. T.: “Sharq”, 2000.
- 20.Bjezinskiy Zb. Velikaya shaxmatnaya doska. Gospodstvo Ameriki i ego geostrategicheskie imperativo'. – M.: “Mejdunarodno'e otnosheniya”, 2000.
- 21.Brandman E.M. Globalizatsiya i informatsionnaya bezopasnost obhestva. Monografiya. – M.: GPIB, 2007.
- 22.Bolshaya psixologicheskaya entsiklopediya. – M.: EKSMO, 2007. Gelvetsiy K. Soch. T.1. – M.: “Nauka”, 1973.
- 23.Zapasnik M. Loj v politike G'G' “Filosofskie nauki”. - 1991.№8.
- 24.Zasurskiy Ya.N. Iskushenie svobodoy. – M.: MGU, 2004.
- 25.Ishmuxamedov A.E. Iqtisodiy xavfsizlik. – T:.....2004.
- 26.Kastels M. Novo'e individualno'e mass-media G'G' “Svobodnaya mo'sl”, 2006. № 5.

- 27.Kozin N.G. Vo'zov ili otvet islama G'G' "Svobodnaya mo'sl". - 2007, №1.
- 28.Kolobov O.A., Yasenev V.N. Kontrterrorizm i informatsionnaya bezopasnost v sovremennom mire. Monografiya. – Nijn. Novgorod: Nijegorod universiteti nashriyoti, 2004.
- 29.Krutskix A., Fedorov A. O mejdunarodnoy informatsionnoy bezopasnosti G'G' "Mejdunarodnaya jizn". 2000, №2.
- 30.Manoylo A.V., Petrenko A.I., Frolov D.B. Gosudarstvennaya informatsionnaya politika v usloviyakh informatsionno-psichologicheskoy voyno'. – 2-stereotip nashri. – M.: Goryachaya liniya-Telekom, 2006.
- 31.Morozov I. L. Informatsionnaya bezopasnost politicheskoy sistemo' G'G' "Polis". 2002. №5.
- 32.Muradova Sh.O. Problemo' obespecheniya informatsionnoy bezopasnosti Respublikи Uzbekistan v usloviyakh globalizatsii. – T.: "Sharq", 2008.
- 33.Mo'minov F. Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyot G'G' "O'zbekiston matbuoti", 2007, №5.
34. Novaya filosofskaya entsiklopediya. 4-j. – M.: "Mo'sl", 2001.
35. Osnovo' informatsionnoy bezopasnosti. Uch. pos. M.: Goryachaya liniya – Telekom, 2006.
- 36.Panarin I.N.Informatsionnaya voyna i diplomatiya. – M.: OAO "Izdatelskiy dom "Gorodets", 2004.
- 37.Parto'ka T.L., Popov I.I. Informatsionnaya bezopasnost. O'quv qo'llanma. M.: FORUM: INFRA-M, 2007.
- 38.Pocheptsov G.G. Teoriya kommunikatsii. – M.: "Refl Buk", – K.: "Vakler", 2003.
39. Problemo' bezopasnosti v Tsentralnoy Azii. Materialo' mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii 21-22 oktyabrya 2005 g. – T.: "Turon-Iqbol", 2006.
- 40.Rendall D.Universalno'y journalist. – Almato': Tsentralnoaziatskaya shkola molodo'x journalistov, 1996.
- 41.Rimashevskaya N. Chelovecheskiy potentsial i ugrozo' natsionalnoy bezopasnosti G'G' "Vlast". - 2000, №10.
- 42.Samarov R., Nazarov D. Terrorizm - ma'naviy mahdudlik oqibati G'G' "Jamiyat va boshqaruv". – 2006, №1.
- 43.Samarov R. Shaxs xavfsizligi - jamiyatning barqaror rivojlanish asosi G'G' Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. – T.: O'zMU. - 2008 (1-qism).
44. Samarov R., Qodirov U., Fazliev F. Harbiylik - sharafli kasb - T.: "Fan", 2006.
- 45.Toffler E. Shok buduhego. – M.: AST, 2003.
- 46.Toffler El. Tretya volna. – M.: OOO "Izdatelstvo AST, 2004.
- 47.Toffler E., Toffler X. Revolyutsionnoe bogatstvo. – M.: AST: M.: Profizdat, 2008.
- 48.Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar. – M.: "Sovetskaya Entsiklopediya", 1983.
- 49.Fisenko P.I. Lichnostno-psichologicheskie istochniki opasnostey v obhestve i psichologicheskie aspekto' natsionalno-gosudarstvennoy bezopasnosti G' Obhaya teoriya bezopasnosti (aktualno'e metodologicheskie i sotsialno-politicheskie problemo'). – M., 1994. – S. 133.

50. Xantington S. Kto mo'? Vo'zovo' amerikanskoy natsionalnoy identichnosti. – M.: OOO “Izd-vo AST”; OOO “Tranzitkniga”, 2004.
51. Xantington S. Stolknovenie tsivilizatsiy? G’G’ “Polis”. - 1994, №1.
52. Tso'gankov P. A. Bezopasnost: kooperativnaya ili korporativnaya. Kriticheskiy analiz mejdunarodno-politicheskoy kontseptsii G’G’ “Polis”. - 2000, №3.
53. Tso'ganov V. Media-terrorizm: terrorizm i sredstva massovoy informatsii. – K.: Nika-Tsentr, 2004.
54. Yang P. NLP. Effektivno'e metodiki vliyaniya. – M.: EKSMO, 2007.
55. Machiavelli H. Opere Sclte, 1973.

**ILOVA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

12.12.2002 y.

№ 439-P

**AXBOROT ERKINLIGI PRINTSPLARI VA KAFOLATLARI TO'G'RISIDA
(iqtiboslar)**

11-modda. Axborotni muxofaza etish

Har qanday axborot, agar u bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lish axborot mulkdori, egasi, axborotdan foydalanuvchi va boshqa shaxsga zarar etkazishi mumkin bo'lsa, muhofaza etilmog'i kerak.

Axborotni muhofaza etish:

Shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish;

axborotning maxfiyligini ta'minlash, tarqalishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishining oldini olish;

axborotning buzib talqin etilishi va soxtalashtirilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

12-modda. Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosati

Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalişlarini, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o'rni va ahamiyatini belgilaydi.

13-modda. Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi

Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta'sir ko'rsatilishidan himoya qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

Jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma'lumotlar maxfiy axborot toifasiga kiradi.

Jismoniy shaxsning rozilgisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek, shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefonagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Jismoniy shaxslar to'g'risidagi axborotdan ularga moddiy zarar va ma'naviy ziyon etkazish, shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ruyobga chiqarilishiga to'sqinlik qilish maqsadida foydalanish taqiqlanadi.

Fuqarolar to'g'risida axborot oluvchi, bunday axborotga egalik qiluvchi hamda undan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bu axborotdan foydalanish tartibini buzganlik uchun qonunda nazarda tutilgan tarzda javobgar bo'ladilar.

Ommaviy axborot vositalari axborot manbaini yoki taxallusini qo'ygan muallifni ularning rozilgisiz oshkor etishga haqli emas. Axborot manbai yoki muallif nomi faqat sud qarori bilan oshkor etilishi mumkin.

14-modda. Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligi

Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

demokratik fuqarolik jamiyatni asoslari rivojlantirilishini, ommaviy axborot erkinligini ta'minlash;

qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta'sir ko'rsatishga, uni chalg'itishga yo'l qo'ymaslik;

jamiatning ma'naviy, madaniy va tarixiy boyliklarini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish;

milliy o'zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiatni tarixiy va milliy an'analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish.

15-modda. Davlatning axborot borasidagi xavfsizligi

Davlatning axborot borasidagi xavfsizligi quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarga qarshi harakatlar yuzasidan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa tusdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

davlat sirlarini saqlash va davlat axborot resurslarini ulardan ruxsatsiz tarzda foydalанишдан muhofaza qilish;

O'zbekiston Respublikasining jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikatsiyalar tizimlariga integratsiyalashuvi;

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzishga;

hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yoxud tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga va davlat tuzumiga qarshi boshqacha tajovuz qilishga ochiqdan-ochiq da'vat etishni o'z ichiga olgan axborot tarqatilishidan himoya qilish;

urushni va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni targ'ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqi va diniy adovat uyg'otishga qaratilgan, terrorizm va diniy ekstremizm g'oyalarini yoyishni o'z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilish.

Manba: **Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami.** Loyiha rahbari S. Raupov. T.: "Ishonch Markaz Servis", 2009. 37-39 betlar.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. Fanning dolzarbligi, maqsad hamda vazifalari, asosiy tushunchalari.....	7
1. Fanning dolzarbligi va asosiy yo'nalishlari.....	7
2. Fanning maqsadi hamda vazifalari	10
3. Asosiy atamalar va tushunchalar.....	12
2-bob. Axborot asrining o'ziga xos xususiyatlari. Texnologiyada ustuvorlik va axborot muvozanatining buzilishi.....	18
1. Axborot asrining mazmun-mohiyati. Axborotlashgan jamiyat: nazariya va voqelik.....	18
2. Tarmoq jamiyati nazariyasining paydo bo'lishi.....	22
3. Axborot turli maqsadlar va manfaatlar xizmatida.....	28
4. Axborotning xavf tashish xususiyati va undan himoyalanish zarurligi.....	30
3-bob. Axborotning globallashuvi va axboriy qarama-qarshilik. Sivilizatsiyalar "to'qnashuvi" muammozi.....	34
1. Axborot globallashuvining mazmuni va xususiyatlari.....	34
2. Globallashuv davrida ommaviy kommunikatsiya vositalari rivojlanishining yangi yo'nalishlari.....	37
3. Dunyo axborot makonida davlatlarning o'zaro hamdo'stligi va kurashi.....	42
4. Axborot oqimlari sharoitida tamaddunlar holati.....	45
4-bob. Axborot-psixologik urushi – axboriy tajovuzkorlikning oliy shakli.....	49
1. Axborot urushining mohiyati va manbalari.....	49
2. Axborot quroli yordamida ta'sir ko'rsatish ta'rif-tavsifi, metodlari, usulblari va usullari.....	54
3. Axborot-psixologik xavfsizlik tizimining tasnifi.....	58
5-bob. Davlat, jamiyat va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.....	63
1. Axborot-psixologik ta'sir, uning xavfsizlik tug'diruvchi sub'ektlari va omillari.....	63
2. Axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlar.....	67
3. Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari.....	68

6-bob. O’zbekiston fuqarosining psixologik himoyasi va o’z-o’zini muhofaza etishi..... 73

1. Individning axborot-psixologik himoyalanganlik tushunchasi. Inson - ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy tizimning asosi va bosh bo’g’ini.....	73
2. Inson ongi uchun kurash – geosiyosatning bosh yo’nalishi. Individning psixologiyasi ochiq tizim sifatida.....	77
3. Individning axborot da’vatlarning turlari va mazmunidan, ahamiyatidan etarli darajada xabardor emasligi.....	80
4. Individni oila, jamoa, ishlab chiqarish, jamiyat va davlat tomonidan himoyalash shakllari.....	82

7-bob. Axborot asrining mafkurasi. Milliy mustaqillik g’oyasi – O’zbekistonda axborot-psixologik xavfsizlikning asosi..... 88

1. Mafkura tushunchasiga talqinlar. Globallashuv davrida mafkuraning o’rni va roli.....	88
2. Axborot asri mafkurasining asosiy jihatlari.....	95
3. Milliy mafkura – o’zbekistonliklar yangicha dunyoqarashining asosi.....	97

8-bob. O’zbekiston ommaviy axborot vositalari - mamlakat axborot-psixologik xavfsizligining omili..... 100

1. Milliy jurnalistika yangi bosqichda.....	100
2. O’zbekiston ommaviy axborot vositalari rivojlanish yo’lida.....	103
3. Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining milliy manfaatlarni himoya qilish sohasidagi vazifalari	106

9-bob. Fuqarolik jamiyatiga o’tish - axboriy tajovuzkorlikdan himoyalanishning samarali shakli..... 111

1. Muammoning mohiyati va uni hal etish strategiyasi.....	111
2. Fuqarolik jamiyat axboriy tajovuzkorlikdan himoyalanish vositasi sifatida....	117
3. O’zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo’llari.....	119

Xulosa..... 124

d

«Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik» kursining dasturi.....	126
--	-----

Asosiy adabiyotlar..... 132

Ilova..... 135

Mundarija..... 137

